



MAKTAB TA'LIMI
Muammolar, izlanishlar, yechimlar

UO'K 373.3/5
ISSN: 3060-4788

A.AVLONIIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT MILLIIY INSTITUTI
ILMIY-NAZARIY VA O'QUV USLUBIIY JURNAL

MAKTAB TA'LIMI

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

2026-yil, 5-son



**A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutining
ilmiy-nazariy va o'quv-uslubiy jurnali**

**Научно-теоретический и учебно-методический журнал
Национального института педагогического мастерства имени А.Авлони**

**Scientific-theoretical and educational-methodological journal
of the National Institute of Pedagogical Skills named after A.Avloni**

МАКТАВ ТА'ЛИМИ:

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ:

ПРОБЛЕМЫ, ИССЛЕДОВАНИЯ, РЕШЕНИЯ

SCHOOL EDUCATION:

PROBLEMS, RESEARCH, SOLUTIONS

**2026-yil,
5-son**

Toshkent – 2026



Maktabgacha
va maktab
ta'limi vazirligi



ABDULLA AVLONIY NOMIDAGI
PEDAGOGIK MAHORAT
MILLIY INSTITUTI

Bosh muharrir

ISMAILOV Abduvali Abdumalikovich

Bosh muharrir o'rinbosari

RAJABOV Sherzod Umurzoqovich

Tahrir hay'ati:

YULDASHEV Maksudjon Abdullayevich

RADJABOV Sardor Baxtiyorovich

IBRAIMOV Xolboy Ibragimovich

PIOTR Fokich Borovski

GUNDA Tire

KOVALEVA Galina Sergeevna

IBRAGIMOV A'lamjon Amrilloevich

ERGASHEVA Malohat Tursunovna

XAKIMOVA Dildora Mashrabjonovna

JUMANAZAROV Sirojiddin Salaydinovich

URINBAYEVA Dilbar Bazarovna

IBRAGIMOV Abdumalik Gapparovich

ALKAROV Elyor Maxmudovich

BADALOVA Maqsuda Umarovna

BOTIROV Hamid Hakimovich

OTAMURODOV G'olibjon Ro'zimurodovich

XURRAMOV Isroil Abdurashidovich

BABAYEVA Nargiza Muzaffarovna

Masul kotib:

DAMINOVA Shoxista Kabulovna

Adabiy muharrir:

MIRZOXIDOVA Laylo Baxtiyorovna

Tarjimon:

ABDULLAYEVA Maxprat Nurmatovna


МАКТАБ ТА'ЛИМИ:
MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR
ilmiy-nazariy va o'quv-uslubiy jurnali

ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ:
ПРОБЛЕМЫ, ИССЛЕДОВАНИЯ, РЕШЕНИЯ
научно-теоретический
и учебно-методический журнал

Scientific-theoretical and
educational-methodical journal
SCHOOL EDUCATION:
PROBLEMS, RESEARCH, SOLUTIONS

UO'K 373.3/.5
ISSN: 3060-4788

Muassis:
Abdulla Avloniy nomidagi
pedagogik mahorat milliy instituti



**“Har bir muallimning
saodati, davlatning tinchi
va rohati yoshlarning yaxshi
tarbiyasiga bog'liqdir”.**

MUNDARIJA

CONTEKST

Ta'lim menejmenti va boshqaruv

5 Sharipov Ilyosbek Ilxomovich.
Zamonaviy ta'lim tashkiloti rahbarining boshqaruv faoliyati tuzilmasi va funksiyalari: nazariy-metodologik tahlil

14 Shakadirova Nigora Irgashevna.
Ta'lim muassasasi rahbarining raqamli kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari

20 Yo'ldosheva Gavhar Karimjon qizi.
Ta'lim muassasalarida marketing faoliyatini integratsiyalashgan boshqaruvi: SMART – EDU modeli va TMI indeksi asosida yondashuv

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

26 Normuxamedov Zarif Normo'minovich.
Tarix fani ta'limida "raqamli hikoyachilik" (digital storytelling) texnologiyasi: an'anaviy darsdan innovatsion ijodkorlikka

33 Pulotov Abdurayim Murotovich.
Pedagogik tashxis jarayonida raqamli texnologiyalar samaradorligini baholash: tajriba-sinov va ma'lumotlarga asoslangan yondashuv

42 Shukurova Zarifa Xaitmurotovna.

Raqamli ta'lim muhitida umumta'lim maktablari o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlash bo'yicha xorijiy tajriba va zamonaviy yondashuvlar

50 Eshonkulova Hilola Rajab qizi.

Raqamli va qog'oz formatdagi matnlarni o'qib tushunish, diqqat va lug'at o'zlashtirishning qiyosiy tahlili

58 Tashpulatova Mufazzal Ravshanbekovna.

5–11-sinf o'quvchilarida ona tili savodxonligini rivojlantirishning dolzarb masalalari va "learning by doing" texnologiyasining pedagogik-psixologik mazmuni

69 Xurramova Lobarxon Akramjonovna.

Sensomotorika mashqlari rivojlanishining tarixiy bosqichlari

76 Mamadaliyeva Zahro Imomali qizi.

Ta'lim jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali o'quvchilar bilimini baholash metodikasi

Maktab ta'limini tashkil etish

- 82** Yusupov Odil, Ostonayev Elyor.
Geometrik masalalarni tenglamalar sistemasi yordamida yechish
- 88** Mutallibjonov Ma'rufjon Mutallibjon o'g'li.
Kasbiy ma'naviyatga oid tasavvurlarni boyitishda xalqaro tajribaning ahamiyati

Umumiy pedagogika, pedagogika tarixi va ta'lim

- 94** Alkarova Feruza Nazarbayevna.
Kreativ yondashuvning pedagogika nazariyasidagi mohiyati va o'quvchilarning ijodiy-estetik rivojlanishidagi o'rni: xorijiy tajribalar tahlili

Psixologik xizmat

- 103** Xolikova Xilola Gulamovna.
Ziddiyatli vaziyatlarda affektiv holatlarning yuzaga kelishida maktab muhiti ijtimoiy-psixologik determinant sifatida

Xalqaro tadqiqotlar

- 110** Qurbonov Sanjar Rajabboyevich.
Boshlang'ich ta'lim sohasidagi ilg'or xalqaro tajribalar va ularni o'zbekistonda joriy etish imkoniyatlari

Inklyuziv ta'lim

- 119** Abduvaxobova Shaxnoza Mampirjon qizi.
Inklyuziv ta'limda pedagogik-dagnostik tahlil: xalqaro tajriba asosida bo'lajak o'qituvchilar kompetensiyasini shakllantirish

ZAMONAVIY TA'LIM TASHKILOTI RAHBARINING BOSHQARUV FAOLIYATI TUZILMASI VA FUNKSIYALARI: NAZARIY-METODOLOGIK TAHLIL

*Sharipov Ilyosbek Ilxomovich,
A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat
milliy instituti mustaqil izlanuvchisi*

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy ta'lim tashkiloti rahbarining boshqaruv faoliyati tuzilmasi va funksiyalarini ilmiy-metodologik jihatdan aniqlash masalasi ko'rib chiqiladi. "Boshqaruv" va "menejment" tushunchalariga nisbatan ilmiy adabiyotlarda mavjud turli yondashuvlar tahlil qilinib, ularning mazmuniy chegaralari hamda metodologik asoslari o'rtasidagi farqlar aniqlanadi. Tadqiqotda jahon amaliyotida samarali deb e'tirof etilgan yapon va Amerika menejmenti modellari qiyosiy tahlil etiladi hamda ularning ilg'or jihatlari milliy ta'lim tizimida integrativ tarzda qo'llash imkoniyatlari asoslanadi.

Kalit so'zlar: boshqaruv, menejment, pedagogik menejment, ta'lim tashkiloti rahbari, boshqaruv funksiyalari, boshqaruv faoliyati tuzilmasi, kompetentlik yondashuv, kompetensiya, yapon menejmenti modeli, Amerika menejmenti modeli, inson omili, strategik maqsad.

**Структура и функции управленческой
деятельности руководителя современной
образовательной организации:
теоретико-методологический анализ**

Шарипов Ильёсбек Ильхомович,
Независимый исследователь Национального
института педагогических навыков
имени А. Авлони

Аннотация: В статье рассматривается
проблема научно-методологического определе-

ния структуры и функций управленческой деятельности руководителя современной образовательной организации. Анализируются различные подходы, сложившиеся в научной литературе в отношении понятий "управление" и "менеджмент", выявляются различия между их содержательными границами и методологическими основами. В исследовании проводится сравнительный анализ японской и американской моделей менеджмента, признанных эффективными в мировой практике, а также обосновываются возможности интегративного применения их передовых аспектов в национальной системе образования.

Ключевые слова: управление, менеджмент, педагогический менеджмент, руководитель образовательной организации, функции управления, структура управленческой деятельности, компетентностный подход, компетенция, японская модель менеджмента, американская модель менеджмента, человеческий фактор, стратегическая цель.

**Structure and functions of the managerial
activity of the head of a modern educational
organization: a theoretical and
methodological analysis**

Sharipov Ilyosbek Ilhomovich,
Independent researcher at the
A. Avloni National Institute of
Pedagogical Skills

Abstract: *This article addresses the problem of identifying, from a scientific and methodological standpoint, the structure and functions of the managerial activity of the head of a modern educational organization. It analyzes the various approaches found in the scholarly literature regarding the concepts of “administration” and “management” and identifies the differences between their conceptual boundaries and methodological foundations. The study presents a comparative analysis of the Ja-*

panese and American management models – both recognized as effective in global practice – and substantiates the possibility of integrating their advanced features into the national education system.

Keywords: *administration, management, pedagogical management, head of an educational organization, management functions, structure of managerial activity, competency-based approach, competence, Japanese management model, American management model, human factor, strategic goal.*

Ta’lim tashkiloti rahbarining boshqaruv faoliyati tuzilmasi va funksiyalarini ilmiy jihatdan aniqlash, avvalo, boshqaruv faoliyatining nazariy-metodologik asoslarini chuqur tahlil qilishni taqozo etadi. Bu esa mazkur tushunchaning mazmuni, mohiyati va amaliy ifodalanish shakllarini turli ilmiy yondashuvlar doirasida qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi.

Hozirgi kunda “boshqaruv faoliyati” tushunchasiga nisbatan ilmiy adabiyotlarda yagona yondashuv shakllanmagan bo‘lib, u turli ilmiy maktablar va konseptual qarashlar doirasida turlicha talqin etiladi. Xususan, ayrim tadqiqotlarda boshqaruv jarayon sifatida talqin qilinsa, boshqalarida u muayyan funksiyalar tizimi yoki maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat sifatida izohlanadi. Ushbu maqolaning maqsadi – zamonaviy ta’lim tashkiloti rahbarining boshqaruv faoliyati tuzilmasi va funksiyalarini nazariy-metodologik tahlil asosida aniqlash hamda ularni kompetentlik yondashuv nuqtai nazaridan asoslashdan iborat.

Tadqiqot mahalliy va xorijiy olimlarning boshqaruv nazariyasi hamda ta’lim menejmentiga oid ilmiy ishlarini nazariy tahlil qilishga asoslanadi. Ishda qiyosiy-tahliliy metod (yapon va Amerika menejmenti modellarini solishtirish), tizimli yondashuv hamda kompetentlik yondashuv qo‘llanildi. Shuningdek, turli konseptual qarashlarni umumlashtirish va tasnif-

lash orqali rahbarning boshqaruv funksiyalari va ularga mos kompetensiyalar o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlandi.

“Boshqaruv” tushunchasiga ilmiy yondashuvlar.

Akademik S.S.G‘ulomovning qarashlariga ko‘ra, boshqaruv – bu tashkilotning strategik va joriy maqsadlariga erishishga qaratilgan, o‘zaro bog‘liq harakatlar tizimidan iborat jarayon hisoblanadi. Ushbu yondashuvda boshqaruv aniq rejalashtirilgan va izchil amalga oshiriladigan faoliyat sifatida namoyon bo‘ladi [1]. Shuningdek, Sh.Qurbonov va E.Seytxalilovlar boshqaruv faoliyatini o‘zaro bog‘liq va uzluksiz amalga oshiriladigan funksiyalar majmuasi sifatida tavsiflaydilar; ularning modelida rejalashtirish, tashkil etish, amalga oshirish va nazorat qilish boshqaruvning asosiy tarkibiy qismlari sifatida e’tirof etiladi [2].

V.Zigert ta’rifiga muvofiq, boshqaruv inson resurslarini samarali boshqarish hamda mavjud vositalardan oqilona foydalanish orqali belgilangan vazifalarga erishishga qaratilgan faoliyatdir; bunda boshqaruvning insonparvarlik, iqtisodiylik va ratsionallik tamoyillari ustuvor ahamiyat kasb etadi [6]. Qator tadqiqotlarda boshqaruv aqliy mehnatning o‘ziga xos turi sifatida baholanib, u qaror qabul qilish, prognozlash, rejalashtirish va natijalarni tahlil qilish kabi jarayonlarni qamrab oluvchi murakkab faoliyat sifatida talqin etiladi.

A.I.Orlov va V.N.Fedoseevlar esa boshqaruvni belgilangan maqsad va vazifalarga erishishni ta'minlovchi muvofiqlashtirilgan harakatlar tizimi sifatida izohlaydilar. Ularning yondashuvda maqsad qo'yish jarayoni alohida o'rin tutadi, chunki samarali boshqaruv, avvalo, aniq va asoslangan maqsadlarni belgilashga bog'liq; bu vazifa, ayniqsa, ta'lim tashkiloti rahbarlari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi [7].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, boshqaruv faoliyatining samaradorligi, birinchi navbatda, maqsadlarning aniqligi va ularga erishish mexanizmlarining puxta ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi. Biroq amaliyotda ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarga ta'sir ko'rsatish usullari har doim ham yetarlicha ilmiy asoslanmaganligi kuzatiladi. Bu esa ta'lim tashkilotlari boshqaruvda ilmiy yondashuvlarni yanada takomillash-tirish zaruratini yuzaga keltiradi.

“Boshqaruv” va “menejment”: o'xshashlik va farqlar.

So'nggi yillarda ilmiy jamoatchilikda “boshqaruv” atamasini XIX asr oxiri – XX asr boshlarida AQSh va G'arbiy Yevropada shakllangan “menejment” tushunchasi bilan mazmunan yaqinlashtirish tendensiyasi kuzatilmoqda. Biroq mazkur ikki atamaning o'zaro uyg'unligiga qaramasdan, ularning kelib chiqishi, metodologik asoslari va qo'llanilish sohalari muayyan farqlarga ega.

Menejment nazariyasining shakllanishida Buyuk Britaniya va AQShda ustuvor bo'lgan pragmatizm hamda empirizm falsafiy oqimlari metodologik poydevor vazifasini bajargan. Shu bilan birga, ushbu nazariyaning rivojlanishi Maks Veber ilgari surgan sotsiologik g'oyalari hamda Aleksandr Bogdanovning tizimli yondashuvga oid tadqiqotlariga tayanadi. 1920-yillarga kelib boshqaruvni byurokratik tizim sifatida klassik talqin qilish shakllandi, keyinchalik esa tashkilotlarni tizim sifatida

o'rganishga asoslangan tizimli boshqaruv konsepsiyasi vujudga keldi.

Amerikalik olimlar K.Argiris, Ch.Barnard, U.Bennis, F.Gersberg, U.E.Deming, P.Druker, R. aykert, K.Levin, X.Levitt, D.Makgregor, E.Meyo, G.Minsberg, F.Selznik kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlari sonining ortishi natijasida menejment nazariyasida yangi yo'nalishlar, ijtimoiy tizimlar maktabi, empirik yondashuv va insonlararo munosabatlar maktabi shakllandi. 1970-yillar o'rtalariga kelib empirik ma'lumotlarning jamlanishi boshqaruvga nisbatan vaziyatli, tizimli va maqsadli yondashuvlarni shakllantirish imkonini berdi. XX asr oxirida esa biznes-jarayonlarni tubdan qayta loyihalashga qaratilgan reinjining konsepsiyasi (J.Champi va M.Xammer) ilgari surildi. Shu bois ilmiy adabiyotlarda “menejmentning yagona va mutlaq falsafiy-metodologik modeli mavjud” degan xulosani qat'iy ilgari surish mushkul.

Ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, “boshqaruv” tushunchasi universal xarakterga ega bo'lib, u ijtimoiy-iqtisodiy, biologik, texnik va boshqa tizimlarga nisbatan qo'llanilishi mumkin. “Menejment” esa mazmunan torroq tushuncha bo'lib, asosan tadbirkorlik va bozor munosabatlari doirasida kechadigan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarish bilan bog'liq. Boshqaruv tushunchasidan farqli ravishda, menejmentda inson omiliga alohida e'tibor qaratiladi: faqat natija emas, balki unga olib boruvchi jarayonlar, insonlararo munosabatlar, qadriyatlar tizimi va o'zaro ta'sir mexanizmlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

I.S.Stepanovanning ta'rifiga ko'ra, menejment boshqaruvchi va ijrochilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni ichki va tashqi muhit ta'sirida ifodalovchi g'oyalar, harakatlar va rollar tizimi bo'lib, ularni belgilangan maqsadlarga samarali erishishga rag'batlantiradi. Mazkur talqindan kelib chiqib, menejmentning

asosiy vazifalarini quyidagicha tizimlashtirish mumkin:

- xodimlarning qo'shma mehnatini umumiy maqsad va qadriyatlar asosida tashkil etish;
- tashkilotning maqsadlariga mos, samarali va ratsional tashkiliy tuzilmani shakllantirish;
- o'zgaruvchan tashqi muhit sharoitida xodimlarning kasbiy rivojlanishi, o'qitilishi va malakasini oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish.

Shunday qilib, "boshqaruv" va "menejment" tushunchalari o'zaro yaqin bo'lsa-da, ularning mazmuniy qamrovi va metodologik asoslari farq qiladi. Bu esa ta'lim tashkilotlarini boshqarishda mazkur kategoriyalarni aniq va maqsadli qo'llash zaruratini belgilaydi.

Pedagogik menejment va ta'lim tashkiloti rahbari.

Pedagogika fani doirasida menejment ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va uning natijadorligini oshirishga qaratilgan kompleks yondashuv sifatida talqin etiladi. U ta'lim jarayonini rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish va nazorat qilishga xizmat qiluvchi tamoyillar, usullar, tashkiliy shakllar hamda pedagogik texnologiyalar tizimini o'z ichiga oladi.

"Pedagogik atamalar lug'ati"da ta'lim menejmenti ilmiy asosda tashkil etilgan, o'ziga xos izchillikka asoslangan boshqaruv; turli modellar asosida amalga oshiriladigan rahbar, pedagogik jamoa va o'quvchilarning o'zaro munosabati sifatida izohlanadi [3]. Ta'lim sifatini boshqarish yo'nalishida tadqiqot olib borgan M.Yuldashev boshqaruv uch xil ma'noda – faoliyat, ta'sir etish va bir-biriga ta'sir etuvchi sub'ektlarning o'zgarishi tarzida tushunilishini qayd etadi [4].

L.A.Shipilina ta'lim tashkilotlarini professional asosda boshqarish masalalarini tahlil qilar ekan, zamonaviy sharoitda an'anaviy ma'muriy yondashuv doirasida faoliyat yuri-

tuvchi rahbarlardan ko'ra, yangi tipdagi – menejerlik kompetensiyalariga ega rahbarlarga bo'lgan ehtiyoj ortib borayotganini ta'kidlaydi. Uning fikricha, bunday rahbarlar metodologik yondashuvlari, boshqaruv mazmuni va faoliyat uslubi bilan an'anaviy ma'murlardan tubdan farq qiladi [9].

Zamonaviy ta'lim tashkilotlari rahbarlari faoliyati tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning ish vaqti va intellektual salohiyatining katta qismi boshqaruv hamda ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatga ega muammolarni hal etishga sarflanmoqda. Bu esa rahbardan yuqori darajadagi tahlil qilish, tezkor qaror qabul qilish va o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish qobiliyatlarini talab etadi. Har qanday muammoni o'z vaqtida hal etmaslik, xususan, umumta'lim muassasalari faoliyatida, salbiy oqibatlarining chuqurlashtirishiga olib kelishi mumkin.

Shunday qilib, zamonaviy ta'lim tashkiloti rahbari ta'lim sohasidagi menejer sifatida tavsiflanib, u ta'lim xizmatlarini tashkil etishda moliyaviy va tashkiliy samaradorlikning yuqori darajasiga erishishga ko'maklashuvchi mutaxassis sifatida namoyon bo'ladi. Bunday rahbar tashkilot faoliyatida boshqaruvchanlikning izdan chiqishini oldini oladi va samarali boshqaruv ta'sirini ta'minlaydi. Ayni shu bois rahbarlarni menejerlik kompetensiyalariga maqsadli tayyorlash va ularning malakasini oshirish bugungi ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridan biriga aylanmoqda [10].

Jahon tajribasi: yapon va Amerika menejmenti modellari.

Boshqaruv nazariyasiga oid tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, hozirgacha jahon miqyosida umume'tirof etilgan yagona boshqaruv nazariyasi shakllanmagan. Turli olimlar menejment funksiyalariga turlicha yondashadi; bu holat ishlab chiqarish va ijtimoiy jarayonlarning maqsadlari, mehnatni tashkil etish tamoyillari hamda qo'llanilayotgan konseptual

yondashuvlar farqlanishi bilan izohlanadi. Menejment nazariyasi va amaliyotida shakllangan asosiy yondashuvlardan biri sifatida yapon va Amerika modellari alohida ajratib ko'rsatiladi.

AQSh va Yaponiya menejment maktablari o'rtasida muayyan o'xshashliklar mavjud: har ikkisida ham inson omili ustuvor qadriyat sifatida qaraladi, innovatsion rivojlanish qo'l-lab-quvvatlanadi, tashkilotlarni optimal qayta tuzish hamda strategik rivojlanish rejalarini ishlab chiqishga e'tibor beriladi. Biroq mazmunan muhim farqlar ham mavjud. Amerika konsepsiyasida asosiy e'tibor foydani maksimallashtirishga eng kam xarajat orqali yuqori iqtisodiy natijalarga erishishga qaratilgan bo'lsa, yapon menejmentida ustuvor maqsad sifatida kompaniya samaradorligini, ayniqsa, xodimlar mehnat unumdorligini yuksaltirish orqali barqaror natijalarga erishish ko'zda tutiladi.

Yapon menejment tizimi jahon amaliyotida samarali boshqaruv modellaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Uning shakllanishida K.Masusita, Ya.Kurata, I.Isizaka, S.Xonda, A.Morita, M.Ibuka kabi taniqli rahbarlarning hissasi katta. Mazkur modelning muvaffaqiyati, eng avvalo, xodimlarga nisbatan insonparvar munosabat, jamoaviylik tamoyili va insonlar bilan ishlash madaniyatining yuqori darajada shakllanganligi bilan izohlanadi. Yapon boshqaruviga xos sifarga yo'naltirilgan boshqaruv quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

- ish joylarida tartib va tozalikni ta'minlash;
- rahbarning ish jarayonida doimiy ishtirokini ta'minlash;
- sifatni ustuvor maqsad sifatida belgilashga asoslangan boshqaruv;
- ishonchli va o'z vaqtida taqdim etiladigan axborotga tayangan qarorlar qabul qilish;
- kompaniya qadriyatlari va faoliyatning oshkoraligini ta'minlash;

- jamoada o'zaro ishonch muhitini shakllantirish hamda bandlik barqarorligini kafolatlash.

Shu tariqa, yapon menejmenti modelini umumlashtirgan holda quyidagi ustuvor jihatlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

xodimlar faoliyatining yuqori samaradorligi va natijalar sifatini ustuvor yo'nalish sifatida belgilash;

boshqaruv qarorlarida ilmiy asoslangan metodologiya va samarali amaliy mexanizmlardan foydalanish;

“inson omili”ni markaziy o'ringa qo'yish; xodimlarning yashirin ijodiy salohiyatini aniqlash va uni ro'yobga chiqarish.

Klassik boshqaruv maktabi g'oyalarini o'zida mujassam etgan Amerika menejmentining nazariy asoslari A.Fayol nomi bilan bog'liq; uning rivojlanishiga L.Gulik, E.Meyo, F.Rotlisberger, F.Teylor, L.Urvik, M.Parker Follett kabi olimlar ham salmoqli hissa qo'shgan. Yapon modeli bilan qiyoslaganda, Amerika menejmentida individualizm tamoyili ustuvor: asosiy e'tibor kuchli va tashabbuskor shaxsga qaratiladi, qaror qabul qilishda individual yondashuv ustun bo'lib, bu tezkorlik va aniqlikni ta'minlaydi. Yakuniy qaror, odatda, rahbar tomonidan mustaqil qabul qilinadi. Amerika yondashuvida rahbarlarning tavakkalchilikka tayyorligi va shaxsiy javobgarlikni o'z zimmasiga olishi, faoliyat natijalarini individual ko'rsatkichlar asosida baholash hamda qat'iy formallashtirilgan nazorat tizimi xosdir.

Yapon va Amerika menejmenti modellari qiyosiy tavsifi 1-jadvalda keltirilgan.

Boshqaruv funksiyalarining turli variantlarda namoyon bo'lishi, ularning moslashuvchanligi va nostandart xarakteri, shuningdek, boshqaruv harakatlarining aniq vaziyatga bog'liq ravishda amalga oshirilishi zamonaviy boshqaruvning muhim xususiyatlaridan hisob-

Yapon va Amerika menejmenti modellari

№	Yaponiya menejmenti modeli	AQSh menejmenti modeli
1	Boshqaruv qarorlarini jamoaviy qabul qilish.	Qaror qabul qilishning individual xarakteri.
2	Jamoaviy javobgarlik.	Individual javobgarlik.
3	Moslashuvchan va noan'anaviy boshqaruv tuzilmasi xos.	Formallashtirilgan, qat'iy boshqaruv tuzilmasi xos.
4	Norasmiy nazorat tashkilotidan foydalanish.	Qat'iy formallashtirilgan nazorat tartib-taomilidan foydalanish.
5	Jamoaviy nazoratdan foydalanish.	Individual nazorat.
6	Xodimlar ishini baholash va xizmatda o'sish sur'atining sekinligi.	Mehnat natijalarini tezkor baholash va karerada tez o'sish.
7	Rahbarning asosiy sifati – harakatlarni muvofiqlashtirish va nazoratni amalga oshirish qobiliyati.	Rahbarning asosiy sifatleri – tashabbuskorlik va professionallik.
8	Guruhga yo'naltirilganlik.	Alohida individga yo'naltirilgan boshqaruv.
9	Boshqaruvni jamoada uyg'unlikka erishish va jamoaviy natijalar bo'yicha baholash.	Boshqaruvni individual natijalar bo'yicha baholash.
10	Xodimlar bilan shaxsiy norasmiy munosabatlar.	Xodimlar bilan formal munosabatlar.
11	Staj (uzoq ishlaganligi) bo'yicha lavozimda o'sish.	Karera va lavozim o'sishi shaxsiy yutuq va natijalar bilan belgilanadi.
12	Universal tipdagi rahbarlar.	Tor ixtisoslashgan rahbarlar.
13	Mehnat haqi stajga yoki guruh natijalariga ko'ra.	Mehnat haqi individual yutuqlarga ko'ra.
14	Rahbarning tashkilotda uzoq muddatli bandligi.	Rahbarlar qisqa muddatga ishga yollanadi.

lanadi. Aniq ishlab chiqarish sharoiti va tashqi muhit omillarini inobatga olgan holda, yapon va Amerika modellarining ayrim elementlarini mamlakatimiz tashkilotlari, jumladan ta'lim tizimi amaliyotida samarali qo'llash mumkin. Bu esa milliy boshqaruv amaliyotini takomillash-tirishda integrativ yondashuvdan foydalanish zarurligini ko'rsatadi [11].

Rahbarning boshqaruv funksiyalari.

Tadqiqot doirasida boshqaruv faoliyatining

nazariy modeli sifatida P.Druker tomonidan asoslab berilgan zamonaviy rahbar (menejer) ning klassik konsepsiyasi qabul qilindi [5]. Ushbu yondashuvga muvofiq, rahbarning ba-zaviy funksional vazifalari bir-biri bilan uzviy bog'liq quyidagi yo'nalishlardan tashkil topadi:

Rejalashtirish – tashkilotning strategik va joriy maqsadlarini belgilash, shuningdek, ular-ga erishish uchun zarur vazifalar, resurslar va mas'ul ijrochilarni aniqlash;

Tashkil etish – xodimlar faoliyatini maqsadga muvofiq tuzilmashtirish orqali mehnat samaradorligi va natijadorligini oshirish;

Buyruq berish – qabul qilingan qarorlarni ijrochilarga yetkazish va ularning bajarilishini ta'minlash;

Muvofiqlashtirish – turli bo'linmalar va ijrochilar faoliyati o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlash hamda harakatlarni uyg'unlashtirish;

Motivatsiya – xodimlarni vazifalarini yuqori samara va mas'uliyat bilan bajarishga rag'batlantiruvchi tashkiliy, ijtimoiy va psixologik shart-sharoitlarni shakllantirish;


Nazorat – maqsadlarga erishish jarayonini muntazam kuzatish, yuzaga kelgan og'ishlarni aniqlash va ularni bartaraf etish.

Mazkur funksiyalar uzluksiz va izchil amalga oshiriladigan yagona boshqaruv siklini tashkil etib, ularning o'zaro bog'liqligi 1-rasm-da aks ettirilgan.

Kompetentlik yondashuv asosida rahbar faoliyatini talqin qilish.

Rahbarning boshqaruv funksiyalarini kompetentlik yondashuv asosida talqin qilish alohida ilmiy ahamiyatga ega. Mazkur yondashuvga ko'ra, rahbar faoliyatida namoyon bo'ladigan kompetensiyalar uning funksional vazifalari bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular bir-birini to'ldiruvchi va ta'minlovchi kategoriyalar sifatida namoyon bo'ladi. Ayni paytda ilmiy adabiyotlarda "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalariga nisbatan yagona yondashuv mavjud emasligi ularning mazmuniy ko'lami va amaliy qo'llanilish doirasi kengligi bilan izohlanadi.

Turli yondashuvlarning umumlashtirilgan tahlili V.I.Baydenko ishlarida o'z ifodasini topgan. Olim kompetensiyalar "arxitekturasi"ning murakkabligini ochib berish maqsadida har bir kompetensiya turli namoyon bo'lish shakllariga ega ekanligini ta'kidlaydi [8]. Ma-



1-rasm. Zamonaviy rahbarning boshqaruv funksiyalari (P.Druker konsepsiyasi asosida)

salan, “tashabbus” kompetensiyasi quyidagi amaliy ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi:

belgilangan talablardan ortiq darajada faoliyat olib borish;

murakkab vaziyatlarda qat’iyatlilik namoyon etish va qiyinchiliklarga qaramay faoliyatni davom ettirish;

shaxsiy imkoniyatlarni anglash va ulardan samarali foydalanish;

boshqalar tomonidan darhol anglanmaydigan imkoniyatlar yoki muammolarni oldindan aniqlash.

Shu bilan birga, “tashabbus” kompetensiyasi jamoaviy liderlik, mijozlarga yo‘naltirilganlik va natijaga intilish kabi ko‘nikmalar bilan uzviy bog‘liq. Bu esa kompetensiyalarning ichki tuzilmasi va funksional tarkibiy qismlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Xalqaro tajriba nuqtai nazaridan Yevropa Komissiyasi ilgari surgan yondashuv ham ahamiyatlidir. Mazkur tashkilot har bir yevropalik shaxs egallashi lozim bo‘lgan sakkizta asosiy (kalit) kompetensiyani ajratib ko‘rsatadi [12]:

madaniy kompetensiya;

tadbirkorlik kompetensiyasi;

o‘quv (o‘qishni o‘rganish) kompetensiyasi;

raqamli (kompyuter) kompetensiya;

fuqarolik, ijtimoiy, interkultur va shaxslararo kompetensiyalar;

ona tili sohasidagi kompetensiya;

xorijiy til sohasidagi kompetensiya;

fundamental, matematik, texnik va tabiiy-ilmiy kompetensiyalar.

Mazkur kompetensiyalar faol hayotiy pozitsiya, kreativlik va tanqidiy fikrlash kabi sifatlar bilan uyg‘un holda shakllanib, shaxsning har tomonlama rivojlanishiga, mehnat bozorida raqobatbardoshligining oshishiga va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda faol ishtirokiga xizmat qiladi. Shu tariqa, kompetentlik

yondashuv nuqtai nazaridan rahbar yoki menejning muayyan kompetensiyasini tegishli sohada samarali faoliyat yuritish uchun zarur funksional vazifalar va amaliy harakatlar majmuasi sifatida talqin etish mumkin. Bu esa kompetensiya va boshqaruv funksiyalari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni yana bir bor tasdiqlaydi.

Yuqoridagi nazariy tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, zamonaviy ta’lim tashkilotini samarali boshqarish rahbarning faqat ma’muriy funksiyalarni bajarishi bilan cheklanib qolmasdan, uning menejer sifatidagi kompetensiyalarini kompleks ravishda namoyon etishini talab qiladi. Boshqaruv va menejment tushunchalari mazmunan o‘zaro yaqin bo‘lsa-da, ularning qo‘llanilish sohasi va metodologik asoslarida muayyan farqlar mavjud bo‘lib, bu holat ta’lim tizimida boshqaruv jarayonlarini tashkil etishda ulardan maqsadli va to‘g‘ri foydalanishni taqozo etadi.

Jahon tajribasi, xususan, yapon va Amerika menejmenti modellari misolida, boshqaruv faoliyatining samaradorligi uning moslashuvchanligi, inson omiliga bo‘lgan e’tibor darajasi va qaror qabul qilish mexanizmlari bilan bevosita bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Yapon modelida jamoaviylik, barqarorlik va insonlar bilan ishlash madaniyati ustuvor bo‘lsa, Amerika modelida individualizm, tezkor qaror qabul qilish va shaxsiy javobgarlik asosiy o‘rinni egallaydi. Shu jihatdan, har ikki modelning ilg‘or jihatlarini integrativ tarzda uyg‘unlashtirish zamonaviy ta’lim tashkilotlari boshqaruvini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi [11].

P.Druker tomonidan asoslangan klassik boshqaruv funksiyalari – rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish, motivatsiya va nazorat – rahbar faoliyatining asosiy mazmunini belgilab beradi [5]. Mazkur funksiyalarning samarali amalga oshirilishi rahbarning kasbiy

kompetensiyalariga bevosita bog‘liq bo‘lib, bu kompetensiyalar kompetentlik yondashuv doirasida yanada chuqurroq anglanadi. Kompetentlik yondashuvga ko‘ra, rahbarning har bir kompetensiyasi muayyan funksiyalarni bajarish qobiliyati bilan uzviy bog‘liq hamda turli vaziyatlarda turlicha namoyon bo‘ladi.

Umuman olganda, zamonaviy ta‘lim tash-

kiloti rahbari samarali faoliyat yuritishi uchun boshqaruv funksiyalarini puxta egallagan, inson omilini ustuvor deb bilgan, strategik fikrlay oladigan hamda o‘z faoliyatini kompetentlik yondashuv asosida tashkil eta oladigan mutaxassis bo‘lishi lozim. Bu esa ta‘lim tizimida sifat va samaradorlikni ta‘minlashning muhim sharti hisoblanadi [10].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. G‘ulomov S.S. Menejment asoslari. – T.: Sharq, 2002. – 370 b.
2. Qurbonov Sh., Seytxalilov E. Ta‘lim sifatini boshqarish. – T.: “Turon-Iqbol”, 2006. – 592 b.
3. Pedagogik atamalar lug‘ati / Djurayev R.X., Tolipov O‘.Q. va boshq. – Toshkent: Fan, 2008. – 198 b.
4. Yuldashev M.A. Xalq ta‘limi xodimlarining malakasini oshirishda ta‘lim sifati menejmentini takomillashtirish: ped. fan. d-ri (DSc) diss. – T.: O‘zPFITI, 2016. – 309 b.
5. Drucker P.F. The Practice of Management. – New York: Harper & Row, 1954. – 404 p.
6. Зигерт В., Ланг Л. Руководит без конфликтов / пер. с нем. – М.: Экономика, 1990. – 335 с.
7. Орлов А.И., Федосеев В.Н. Менеджмент в техносфере: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Издательский центр “Академия”, 2003. – 384 с.
8. Байденко В.И. Выявление состава компетенций выпускников вузов как необходимый этап проектирования ГОС ВПО нового поколения: метод. пособие. – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2006. – 72 с.
9. Шипилина Л.А. Менеджмент в образовании: учеб. пособие. – Омск: Изд-во ОмГПУ, 2017. – 232 с.
10. Alkarov Э.М. “Menejerlik o‘quv kurslari” mazmunini takomillashtirish: tahlil va amaliy tavsiyalar (2-qism) // Maktab ta‘limi: muammolar, izlanishlar, yechimlar. – 2025. – № 5(5). – B. 1–24. <https://doi.org/10.5281/zenodo.18014487>
11. Alkarov E.M. Maktab direktori kasbiy kompetentligining mazmuni, tuzilmasi va komponentlari: integrativ yondashuv // Maktab ta‘limi: muammolar, izlanishlar, yechimlar. – 2026. – № 6(1). – B. 1–11. <https://doi.org/10.5281/zenodo.18372586>
12. Recommendation of the European Parliament and of the Council of 18 December 2006 on key competences for lifelong learning (2006/962/EC) // Official Journal of the European Union. – 2006. – L 394. – P. 10–18.

TA'LIM MUASSASASI RAHBARINING RAQAMLI KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

*Shakadirova Nigora Irgashevna,
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat
milliy instituti doktoranti, p.f.f.d (PhD)
shnigora@mail.ru
tel: +998971311410*

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta'lim maktablari rahbarlarining raqamli kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari va zarurati tadqiq etiladi. Maqolada an'anaviy boshqaruvdan ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv modeliga o'tish mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, maktab rahbarlarining sun'iy intellekt (AI) texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha metodik tavsiyalar berilgan. Maqola yakunida rahbarlarning raqamli salohiyatini baholashning xalqaro standartlariga (DigCompOrg) moslashtirilgan o'zbek modeli taklif etilgan.

Kalit so'zlar: raqamli kompetentlik, ta'lim menejmenti, maktab direktori, sun'iy intellekt, Data-driven management, DigCompOrg, raqamli transformatsiya, ta'lim sifati.

**Современные тенденции развития
цифровой компетентности руководителя
образовательного учреждения**

Шакадирова Нигора Иргашевна,
докторант Национального института
педагогического мастерства имени А.Авлони,
доктор философии по педагогическим
наукам (PhD)

Аннотация: В данной статье исследуются современные тенденции и необходимость разви-

тия цифровой компетентности руководителей общеобразовательных школ. В работе анализируются механизмы перехода от традиционного управления к модели управления, основанной на данных (Data-driven management). Также представлены методические рекомендации по формированию у школьных директоров навыков использования технологий искусственного интеллекта (ИИ). В заключение статьи предложена узбекская модель оценки цифрового потенциала руководителей, адаптированная к международным стандартам (DigCompOrg).

Ключевые слова: цифровая компетентность, менеджмент в образовании, директор школы, искусственный интеллект, управление на основе данных (Data-driven management), DigCompOrg, цифровая трансформация, качество образования.

**Modern trends in developing the digital
competence of an educational institution
manager**

Nigora Irgashevna Shakadirova,
Doctoral Student National Institute of Pedagogical
Skills named after Abdulla Avloni
Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

Abstract: This article explores modern trends and the necessity of developing the digital compe-

tence of general secondary school manager. The paper analyzes the transition mechanisms from traditional management to a data-driven management model. The study proposes methodological recommendations for developing school principals' skills in utilizing Artificial Intelligence (AI) technologies. Furthermore, the article proposes an

Uzbek model, adapted to international standards (DigCompOrg), for assessing the digital potential of managers.

Keywords: digital competence, educational management, school principal, artificial intelligence, data-driven management, DigCompOrg, digital transformation, quality of education.

Bugungi global raqobat davrida maktab rahbarining faoliyati faqatgina ma'muriy buyruqlar chiqarish bilan cheklanib qolmaydi. Endilikda rahbar raqamli ekotizimning strategik arxitektori bo'lishi talab etilmoqda. O'zbekiston Respublikasining raqamli ta'limga oid strategik hujjatlarida ta'lim muassasalarini boshqarishni to'liq raqamlashtirish ustuvor vazifa etib belgilangan [1].

Biroq, texnik jihozlanish rivojlansa-da, rahbarlarning raqamli vositalardan strategik foydalanish darajasi, ya'ni raqamli kompetentligi yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Bu holat mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maktab rahbarining raqamli savodxonligi butun muassasa innovatsion faolligini 40-60 foizga oshirish yoki pasaytirish imkoniyatiga ega.

Mamlakatimizda "Raqamli O'zbekiston – 2030" dasturi doirasida ta'lim tizimini raqamlashtirish yo'nalishida sezilarli natijalar qo'lga kiritildi. Jumladan, barcha umumta'lim maktablarida tezkor internet ulanishi ta'minlandi, elektron ta'lim resurslari kengaytirildi va e-maktab platformasi joriy etildi. Shunga qaramay, texnik infratuzilmaning rivojlanishi bilan rahbarlarning kasbiy tayyorgarligi o'rtasidagi tafovut muammo bo'lib qolmoqda.

Raqamli kompetentlik (digital competence) tushunchasi ilk bor Yevropa Komissiyasining 2006-yildagi "Uzluksiz ta'lim uchun asosiy kompetentliklar" (Key Competences for Lifelong Learning) hujjatida rasmiy tarzda belgi-

landi. Keyinchalik DigComp (2013), DigComp 2.0 (2016) va DigComp 2.1 (2017) versiyalarida ushbu tushuncha kengaytirildi va beshta asosiy soha – ma'lumotlar bilan ishlash, muloqot, kontentni yaratish, xavfsizlik va muammolarni hal etish bo'yicha tizimli kompetentliklar sifatida taqdim etildi [2].

Raqamli kompetentlik tushunchasiga ko'plab tadqiqotchilar turli ta'riflar berishgan. Jumladan, A.V.Fedorov "Raqamli kompetentlik – bu shaxsning raqamli muhitda axborotni izlash, tahlil qilish, baholash, yaratish va uzatishga bo'lgan motivatsiyasi, bilimi, ko'nikmasi va malakalari yig'indisidir" [3], deb ta'riflagan bo'lsa, G.U.Soldatova raqamli kompetentlikni nafaqat texnik ko'nikmalarga ega bo'lish, balki raqamli texnologiyalar va internet resurslaridan samarali, mas'uliyatli va xavfsiz foydalanishga imkon beruvchi bilim, ko'nikma, munosabat va texnik mahoratning keng ko'lamli tizimi sifatida ta'riflaydi [4].

Mahalliy olimlardan R.G.Isyanov ilmiy tadqiqotlarida bo'lajak mutaxassislarning raqamli kompetentligini raqamli iqtisodiyot va virtual mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lish, muammoli vaziyatlarda raqamli dasturlar va algoritmlardan to'g'ri foydalana olish ko'nikmalarining shakllanganlik darajasi ekanligini ta'kidlagan [13].

Yuqoridagi ta'riflarni umumlashtirgan holda, quyidagi shaklda mualliflik ta'rifini keltirishimiz mumkin: **Raqamli kompetentlik** – bu zamonaviy texnologiyalardan shunchaki foyda-

lanish emas, balki ulardan kundalik turmush va kasbiy faoliyatdagi muammolarni xavfsiz hamda unumli hal etishda foydalana olish layoqatidir.

Ta'lim muassasalari uchun maxsus ishlab chiqilgan DigCompOrg modeli maktabni yaxlit raqamli tizim sifatida ko'rib chiqadi va rahbarning faoliyatini yetti yo'nalishda baholaydi: raqamli ta'lim amaliyotlari, professional rivojlanish, baholash usullari, tarkib va ta'lim dasturi, infratuzilma, tashkiliy ish jarayonlari va hamkorlik [5].

M.Malik va boshqalar tomonidan o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, maktab rahbarining raqamli savodxonligi bilan o'qituvchilar texnologiyadan foydalanish darajasi o'rtasida kuchli korrelyatsiya ($r=0,67$) mavjud [6]. Bu esa rahbar kompetentligi masalasini tizimli ravishda hal etmasdan, butun muassasada raqamli transformatsiyaga erishib bo'lmasligini isbotlaydi.

Zamonaviy ta'lim muhitida maktab rahbarining raqamli kompetentligi shunchaki texnologik vositalardan foydalanish ko'nikmasidan strategik boshqaruv darajasiga ko'tarildi. Quyidagi uchta asosiy yo'nalishni alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

Birinchi yo'nalish strategik raqamli rejalashtirishdir. Strategik rejalashtirish jarayonida rahbar maktabning uzoq muddatli "Raqamli rivojlanish xaritasi"ni shakllantira olishi, muassasaning texnik imkoniyatlari bilan pedagogik maqsadlarini o'zaro muvofiqlashtirishi lozim. Bu jarayon nafaqat kompyuterlar bilan ta'minlashni, balki ta'lim mazmunini raqamli transformatsiya qilishni ham ko'zda tutadi. Finlandiya, Estoniya va Singapur tajribasi shuni ko'rsatadiki, muvaffaqiyatli raqamli transformatsiya rahbarning shaxsiy tashabbuslari va muassasa strategiyasining hamohangligiga bog'liq [8].

Ikkinchi yo'nalish – pedagogik raqamli yetakchilik. Pedagogik rahbarlik yo'nalishida

direktor o'qituvchilarning dars jarayonida gibrid metodikalarni qo'llashini shunchaki kuzatuvchisi emas, balki ushbu innovatsiyalarning asosiy drayveri va rag'batlantiruvchisi sifatida namoyon bo'ladi. Rahbar o'qituvchilar bilan birgalikda raqamli dars ishlanmalarini muhokama qilishi, ularning kasbiy o'sishiga ko'maklashishi va muassasada raqamli madaniyatni shakllantirishga mas'ul bo'lishi kerak.

Uchinchi yo'nalish – ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv (Data-driven management). Ma'lumotlar tahlili ko'nikmasi rahbar uchun qaror qabul qilishning asosiy vositasiga aylanishi kerak. e-maktab kabi ERP tizimlaridan olingan real vaqtdagi statistik ma'lumotlarni tahlil qilish orqali rahbar ta'lim sifatidagi uzilishlarni aniqlash, o'quvchilar o'zlashtirishi dinamikasini bashorat qilish va resurslarni ehtiyoj yuqori bo'lgan nuqtalarga yo'naltirish imkoniyatiga ega bo'ladi [9].

Ta'lim tashkilotlarining raqamli salohiyatini rivojlantirishda Yevropa tajribasining mahsuli bo'lgan DigCompOrg (Digital Competent Organisation) modeli alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu tizimli yondashuv maktab rahbarining faoliyatini yetti xil o'zaro bog'liq yo'nalishda transformatsiya qilishni taklif etadi.

Bu jarayon muassasada raqamli infratuzilmani boshqarish va xavfsizlikni ta'minlashdan boshlanib, o'quv rejasini raqamli davr talablariga moslashtirish hamda xodimlarning professional rivojlanishini qo'llab-quvvatlashgacha bo'lgan keng qamrovli vazifalarni o'z ichiga oladi. Mazkur model doirasida rahbar xodimlar bilan onlayn hamkorlikni tashkil etishda korporativ aloqa madaniyatini shakllantiradi, bu esa maktab ichidagi vertikal va gorizontal muloqotning shaffofligi hamda tezkorligini ta'minlaydi [5].

O'zbekiston uchun moslashtirilgan DigCompOrg-UZ modeli doirasida quyidagi ko'rsatkichlar asosiy baholash mezonlari sifatida belgilanishi tavsiya etiladi: e-maktab ti-

zimidan haftalik foydalanish chastotasi; maktabda raqamli ta'lim muhitini yaratish darajasi (0-5 ball); pedagoglar jamoasini onlayn malaka oshirishga jalb etilganlik foizi; ota-onalar bilan elektron aloqa faolligi; kiberxavfsizlik protokollarining joriy etilganlik darajasi.


Sun'iy intellekt (AI) texnologiyalarining jadal kirib kelishi maktab menejrlari faoliyatini optimallashtirishda yangi yo'nalishlarni ochmoqda. Xususan, ChatGPT, Gemini yoki mahalliy tilga moslashtirilgan generativ modellar yordamida rahbarlar turli analitik hisobotlar, rasmiy buyruq loyihalari va strategik hujjatlarni shakllantirishda sarflanadigan vaqtni sezilarli darajada tejashlari mumkin.

McKinsey Global Institute ma'lumotlariga ko'ra, ta'lim muassasasi rahbarlari ish vaqtining 40 foizini hujjat tayyorlash va ma'muriy vazifalarga sarflaydi. AI yordamida ushbu

standartlariga muvofiqligi bo'yicha tezkor ekspertiza qilish; ikkinchidan, o'quvchilarning o'zlashtirish dinamikasini bashorat qilish va xavf guruhidagi o'quvchilarni oldindan aniqlash; uchinchidan, ota-onalar bilan aloqa o'rnatish tizimida intellektual chat-botlarning joriy etilishi maktab hayoti haqidagi ma'lumotlarni 24/7 rejimida taqdim etish imkonini beradi.

Biroq, sun'iy intellektdan foydalanishda etik va huquqiy chegaralarni aniq belgilash muhim. O'quvchilar va xodimlarning shaxsiy ma'lumotlari maxfiyligi, algoritmik qarorlarning adolatliligi va akademik halollik masalalari rahbar tomonidan doimo nazorat ostida bo'lishi shart [12].

Olib borilgan tahlil natijalariga asoslanib, O'zbekiston umumta'lim maktablari rahbarlari uchun raqamli kompetentlikni baholashning besh darajali modeli taklif etiladi (1-rasm):



1-rasm. Maktab rahbarlarining raqamli kompetentlik darajalari

ko'rsatkichni 15-20 foizga tushirish mumkin, bu esa rahbarning diqqat-e'tiborini doimiy hujjat aylanishidan ko'proq ijodiy va insoniy munosabatlarga asoslangan boshqaruvga qaratishga imkon beradi [11].

Sun'iy intellekt qo'llanilishi mumkin bo'lgan asosiy sohalar quyidagilardan iborat: birinchidan, o'qituvchilar tomonidan tayyorlangan dars ishlanmalarini belgilangan milliy o'quv

Tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy maktab rahbarining raqamli kompetentligi shunchaki texnik savodxonlik ko'rsatkichi emas, balki butun ta'lim muassasasining raqamli madaniyatini belgilovchi strategik omil hisoblanadi. Rahbarning raqamli dunyoqarashi va bu yo'nalishdagi tashabbuskorligi maktabdagi pedagogik jamoaning innovatsion faolligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi [14].

Birinchidan, maktab rahbarlari va istiqbolli kadrlar zaxirasi uchun maxsus modullarga asoslangan “Menejerlik kurslari”da raqamli kompetensiyalar va sun’iy intellekt moduliga ajratilgan soatlarni ko‘paytirish zarur. Mazkur modul an’anaviy IT-savodxonlikdan farq qilib, asosiy e’tiborni raqamli strategiyani ishlab chiqish, kiberxavfsizlik menejmenti va ta’limda bulutli texnologiyalar orqali jamoaviy ishlashni tashkil etishga qaratishi lozim. Bunday o‘quv dasturlari rahbarlarda nafaqat texnik ko‘nikmalarni, balki raqamli transformatsiya jarayonlariga nisbatan psixologik tayyorgarlik va yetakchilik qobiliyatini ham rivojlantiradi. Ushbu kurslar modulli tizimda, ya’ni hap bir rahbar o‘zining joriy darajasidan boshlagan holda o‘rganishi mumkin bo‘lgan tarzda tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan, boshqaruv jarayonlariga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bilan bir qatorda, sun’iy intellekt vositalaridan foydalanishning etik normalarini va huquqiy asoslarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi. Rahbarlar AI texnologiyalarini qo‘llashda shaxsiy ma’lumotlarning daxlsizligi, akademik halollik va algoritmlar tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning xolisligini ta’minlashlari shart. Ushbu etika normalari maktabning ichki tartib-qoidalari darajasida mustahkamlanishi, raqamli muhitda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan kiber-tahdidlar va manipulyatsiyalarning oldini olishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, maktab rahbarlari faoliyatining samaradorligini baholash tizimini tubdan takomillashtirish maqsadida, maktab reytingini aniqlash mezonlariga rahbarning raqamli savodxonlik ko‘rsatkichini (KPI) kiritish maqsadga muvofiqdir. Bunda rahbarning raqamli

platformalarda ishlay olishi, muassasada elektron hujjat aylanishining joriy etilganlik darajasi va pedagoglar jamoasining raqamli rivojlanishi uchun yaratilgan sharoitlar asosiy indikatorlar sifatida belgilanishi lozim.

To‘rtinchidan, mintaqaviy raqamli maktablar tarmog‘ini shakllantirish tavsiya etiladi. Har bir viloyatda 3-5 ta “Raqamli namunaviy maktab” belgilanib, ularning rahbarlari qolgan maktablar uchun mentor sifatida xizmat qilishi mumkin. Bu tarmoq orqali muvaffaqiyatli tajribalar tez sur’atda yoyiladi va raqamli transformatsiya milliy miqyosda tezlashadi.

Ta’lim muassasasi rahbarining raqamli kompetentligi zamonaviy ta’lim tizimining eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Raqamli kompetentlikka ega menejer boshqarayotgan muassasada texnologiyalar o‘qitish sifatini nazorat qilish, shaffoflikni ta’minlash va o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi yaxlit ekotizimga aylanadi.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan besh darajali O‘zbek modeli (DigCompOrg-UZ) rahbarlar va ta’lim tizimi boshqaruvchilari uchun amaliy yo‘l xaritasi vazifasini o‘taydi. Ushbu model yordamida har bir muassasaning joriy holatini aniqlash, maqsadli rivojlanish rejasini tuzish va erishilgan natijalarni obyektiv baholash mumkin.

Yuqorida keltirilgan tavsiyalarning amaliyotga tatbiq etilishi mamlakatimizdagi maktab boshqaruv tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga imkon beradi. Ta’lim tizimidagi islohotlarning muvaffaqiyati bevosita rahbarlarning raqamli davr talablariga qanchalik moslashganiga bog‘liq ekan, ushbu masala dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida (PF-6079-son Farmon). Toshkent.
2. Carretero S., Vuorikari R., Punie Y. (2017). DigComp 2.1: The Digital Competence Framework for Citizens with eight proficiency levels and examples of use. – Publications Office of the European Union, Luxembourg. – 48 p. DOI: 10.2760/38842
3. Федоров А.В. (2004). Медиаобразование и медиаграмотность. Учебное пособие. Таганрог: Изд-во Кучма. 340 с.
4. Солдатова Г.У., Рассказова Е.И. (2024). Психологический анализ цифровой компетентности российских подростков и родителей. Психологический журнал. 35(4), 52-66.
5. Kampylis P., Punie Y., Devine J. (2015). Promoting Effective Digital-Age Learning: A European Framework for Digitally-Competent Educational Organisations (DigCompOrg). – EUR 27599 EN, Publications Office of the European Union, 57 p.
6. Malik M.A., Rehman A., Khan I.A. (2021). School Principal’s Digital Leadership and Teacher Technology Integration: A Meta-Analytical Review // Educational Technology Research & Development. Vol. 69, No. 3. – P. 1201–1228. DOI: 10.1007/s11423-021-10003-y
7. Anderson R.E., Dexter S. (2005). School Technology Leadership: An Empirical Investigation of Prevalence and Effect // Educational Administration Quarterly. Vol. 41, No. 1. – P. 49–82.
8. Deursen A.J.A.M., Helsper E.J., Eynon R. (2016). Development and validation of the Internet Skills Scale (ISS) // Information, Communication & Society. Vol. 19, No. 6. – P. 804–823.
9. Mandinach E.B., Gummer E.S. (2016). Data Literacy for Educators: Making It Count in Teacher Preparation and Practice. – Teachers College Press, New York. 192 p.
10. OECD. TALIS (2020). 2018 Results (Volume II): Teachers and School Leaders as Valued Professionals. – OECD Publishing, Paris. 254 p. DOI: 10.1787/19cf08df-en
11. McKinsey Global Institute (2023). The economic potential of generative AI: The next productivity frontier. – McKinsey & Company, 68 p.
12. UNESCO (2019). Artificial Intelligence in Education: Challenges and Opportunities for Sustainable Development. – UNESCO, Paris, 46 p.
13. Isyanov R.G. (2021). Raqamli pedagogika: metodika va amaliyot. Pedagogik mahorat jurnali. 3-son, 12-18 b.
14. Shakadirova N. (2026). Digital Competence of the School Leader: Theoretical Foundations and Conceptual Analysis. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 51, 77–80.

TA'LIM MUASSASALARIDA MARKETING FAOLIYATINI INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARUVI: SMART – EDU MODELI VA TMI INDEKSI ASOSIDA YONDASHUV

*Yo'ldosheva Gavhar Karimjon qizi,
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti,
Kattalar ta'limi magistranti
gavhar476@gmail.com*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ta'lim muassasalarida marketing faoliyatini samarali tashkil etish va boshqarish masalalari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim tizimida raqobatning kuchayishi, iste'molchilar ehtiyojlarining o'zgaruvchanligi hamda xizmatlar sifatiga qo'yilayotgan talablarining ortib borishi marketing faoliyatini tizimli yondashuv asosida tashkil etishni talab etmoqda.*

Tadqiqot doirasida ta'lim muassasalarida marketing faoliyatini integratsiyalashgan boshqarish imkonini beruvchi SMART – EDU modeli taklif etilgan. Ushbu model ehtiyojlarni o'rganishdan boshlab strategiyani ishlab chiqish, amaliy joriy etish, monitoring va takomillashtirish bosqichlarini qamrab oladi.

Shuningdek, marketing samaradorligini baholash uchun TMI (Ta'lim marketing indeksi) ishlab chiqilib, uning asosiy tarkibiy ko'rsatkichlari sifatida qoniqish darajasi, qamrov, imij va xizmat sifati indikatorlari asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari ta'lim muassasalarida marketing faoliyatini tizimli va natijador boshqarish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: *ta'lim marketingi, SMART – EDU modeli, TMI indeksi, marketing strategiyasi, ta'lim xizmatlari, samaradorlik, indikatorlar, boshqaruv.*

Интегрированное управление маркетинговой деятельностью в образовательных учреждениях: подход на основе модели SMART – edu и индекса TMI

Юлдашева Гавхар Каримжон кизи,
Национальный институт педагогического мастерства А. Авлони, магистрант по направлению “Образование взрослых”

Аннотация: *В данной статье анализируются вопросы эффективной организации и управления маркетинговой деятельностью в образовательных учреждениях. В условиях современного образовательного пространства, характеризующегося усилением конкуренции, изменчивостью потребностей потребителей и ростом требований к качеству образовательных услуг, возникает необходимость системного подхода к организации маркетинговой деятельности.*

В рамках исследования предложена модель SMART – EDU, позволяющая интегрированно управлять маркетинговой деятельностью в образовательных учреждениях. Данная модель охватывает этапы от изучения потребностей до разработки стратегии, практической реализации, мониторинга и совершенствования.

Кроме того, разработан индекс образовательного маркетинга (TMI), в котором в качестве основных структурных показателей обоснованы уровень удовлетворенности, охват, имидж и качество услуг. Результаты исследования позволяют обеспечить системное и эффективное управление маркетинговой деятельностью в образовательных учреждениях.

Ключевые слова: образовательный маркетинг, модель SMART – EDU, индекс TMI, маркетинговая стратегия, образовательные услуги, эффективность, индикаторы, управление.

Integrated management of marketing activities in educational institutions: an approach based on the SMART – edu model and the TMI index

Yuldasheva Gavhar Karimjon qizi,

*Master's student in Adult Education National Institute of Pedagogical Skills named after A. Avloni
E-mail: gavhar476@gmail.com*

Abstract: *This article analyzes the issues of effective organization and management of marketing activities in educational institutions. In the modern educational environment increasing competition,*

changing consumer needs, and growing demands for service quality requires to organize marketing activities based on a systematic approach.

Within the framework of the study, we propose the SMART – EDU model, which enables integrated management of marketing activities in educational institutions. This model covers stages from needs assessment to strategy development, practical implementation, monitoring, and continuous improvement.

In addition, The study proposes an Educational Marketing Index (EMI), with key structural indicators including satisfaction level, coverage, image, and service quality. The research results serves for systematic and effective management of marketing activities in educational institutions.

Keywords: *educational marketing, SMART – EDU model, TMI index, marketing strategy, educational services, efficiency, indicators, management.*

Hozirgi globallashuv jarayonlari hamda ta'lim tizimida raqobat muhitining izchil kuchayib borishi sharoitida ta'lim muassasalarida boshqaruv samaradorligini oshirish masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Zamonaviy yondashuvlarga ko'ra, ta'lim muassasalari endilikda faqat ijtimoiy institut sifatida emas, balki ta'lim xizmatlarini ishlab chiqish va iste'molchilar ehtiyojlariga moslashtirish orqali raqobatbardosh faoliyat yurituvchi tizim sifatida qaralmoqda [1].

Marketing nazariyasida iste'molchi ehtiyojlariga yo'naltirilgan boshqaruv yondashuvi muhim o'rin egallaydi. Xususan, Philip Kotler marketingni iste'molchilar ehtiyojlarini aniqlash va ularni samarali qondirish orqali tashkilot maqsadlariga erishish vositasi sifatida talqin etadi. Igor Ansoff esa marketingni tashkilotning tashqi muhitga moslashuvi va strategik rivojlantirishini ta'minlovchi muhim instrument sifatida asoslaydi. Shuningdek, Michael Porter raqobat ustunligini shakllantirishda strategik yondashuvlarning ahamiyatini ta'kidlab, tashkilotlar samaradorligini oshirishda kompleks boshqaruv tizimlarining zarurligini ko'rsatadi.

Mazkur yondashuvlar ta'lim sohasida ham o'z aksini topmoqda. Biroq olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim muassasalarida marketing faoliyatini integratsiyalashgan boshqaruv tizimi sifatida tashkil etish hamda uning samaradorligini kompleks baholash masalalari yetarli darajada tizimli ravishda o'rganilmagan.

Shu nuqtayi nazardan, ta'lim muassasalarida marketing faoliyatini joriy etish faqat tashqi kommunikatsiya yoki reklama vositasi sifatida emas, balki boshqaruvning muhim strategik elementi sifatida qaralishi lozim. Xususan, o'quvchilar va ularning ota-onalari ehtiyojlarini tizimli o'rganish, ta'lim xizmatlari sifatini oshirish, muassasa imijini shakllantirish hamda barqaror rivojlanishni ta'minlash marketing faoliyatining ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi [2].

Amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, aksariyat ta'lim muassasalarida marketing faoliyati izchil va tizimli asosda emas, balki alohida, o'zaro bog'lanmagan tadbirlar ko'rinishida amalga oshirilmoqda. Natijada mavjud resurslardan samarali foydalanish darajasi yetarli darajada

ta'minlanmayapti, strategik maqsadlar bilan erishilgan natijalar o'rtasida tafovut yuzaga kelmoqda. Mazkur holat marketing faoliyatini integratsiyalashgan boshqaruv tizimi sifatida qayta tashkil etish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Mazkur yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlarda ta'lim marketingining alohida jihatlari yoritilgan bo'lsada, uni kompleks va integratsiyalashgan boshqaruv mexanizmi sifatida tizimli yondashuv asosida tadqiq etish masalasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda tizimli yondashuv asosida tahlil, taqqoslash, umumlashtirish hamda statistik usullardan foydalanildi. Shuningdek, ta'lim muassasalarida marketing faoliyatini baholash uchun so'rovnomalar natijalari va amaliy ma'lumotlar tahlil qilindi.

Shu bois, mazkur tadqiqotning maqsadi ta'lim muassasalarida marketing faoliyatini integratsiyalashgan holda boshqarish mexanizmini ishlab chiqish va uning samaradorligini

baholash usullarini takomillashtirishdan iborat.


Ilmiy yangilik. Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- ta'lim muassasalarida marketing faoliyatini integratsiyalashgan boshqarishning SMART – EDU modeli ishlab chiqildi;

- marketing samaradorligini baholash uchun TMI (Ta'lim marketing indeksi) taklif etildi;

- marketing faoliyatini baholashning kompleks indikatorlar tizimi asoslandi [3].

Ushbu maqsadga erishish doirasida muallif tomonidan **SMART – EDU marketing modeli** taklif etilib, u marketing faoliyatini ehtiyojlarni aniqlashdan boshlab strategik rejalashtirish, amaliy joriy etish, monitoring va tahlil qilish hamda uzluksiz takomillashtirish bosqichlari asosida tashkil etish imkonini beradi. Shuningdek, marketing faoliyati samaradorligini baholash maqsadida **TMI (Ta'lim marketing indeksi)** ishlab chiqilib, uning tarkibiy ko'rsatkichlari va amaliy qo'llash mexanizmlari asoslab beriladi [4].



1-rasm. Ta'lim muassasalari uchun SMART-EDU marketing modeli (muallif ishlanmasi)

1-rasm. SMART – EDU modelining umumiy tuzilmasi

• **S (Study)** – ta’lim xizmatlariga bo’lgan talabni, ota-onalar va o’quvchilarning ehtiyojlarini hamda tashqi muhit omillarini tizimli ravishda o’rganish bosqichi;

• **M (Model)** – olingan ma’lumotlar asosida marketing strategiyasini shakllantirish, ustuvor yo’nalishlarni belgilash va rivojlanish modelini ishlab chiqish bosqichi;

• **A (Apply)** – ishlab chiqilgan strategiyani amaliyotga joriy etish, marketing vositalari va kommunikatsiya kanallaridan samarali foydalanish bosqichi;

• **R (Review)** – marketing faoliyati natijalarini baholash, samaradorlikni aniqlash hamda monitoring olib borish bosqichi;

• **T (Transform)** – olingan natijalar asosida marketing strategiyasini takomillashtirish, yangilash va rivojlantirish bosqichi.

Taklif etilgan modelning muhim jihati shundaki, u marketing faoliyatini faqat qo’shimcha ta’lim xizmatlarini rivojlantirish bilan cheklamaydi. Aksincha, u ta’lim muassasasiga kirib kelayotgan barcha budjetdan tashqari mablag’larni yagona tizim asosida boshqarishni nazarda tutadi.

Shu nuqtayi nazardan, model doirasida marketing faoliyati quyidagi asosiy moliyaviy yo’nalishlarni qamrab oladi:

• qo’shimcha ta’lim xizmatlari (fan to’garaklari, til kurslari, IT yo’nalishlar va boshqalar);

• homiylik mablag’lari (tadbirkorlar, ota-onalar tashabbuslari, ijtimoiy hamkorlik);

• ijara tushumlari (maktab infratuzilmasidan samarali foydalanish orqali);

• grant va loyihalar (davlat dasturlari, xalqaro fondlar va innovatsion tashabbuslar).

Mazkur manbalarni marketing strategiyasi doirasida rejalashtirish va boshqarish ta’lim muassasasining moliyaviy barqarorligini ta’minlash, resurslardan samarali foydalanish hamda rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi [5].

Mazkur tadqiqot doirasida ta’lim muassasalarida marketing faoliyatining samaradorligini kompleks baholashga qaratilgan mualliflik yondashuvi – Ta’lim Marketing Indeksi (TMI) ishlab chiqildi. Ushbu indeks marketing faoliyatini aniq ko’rsatkichlar asosida baholash, tahlil qilish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Ta’lim Marketing Indeksi – bu ta’lim muassasasida amalga oshirilayotgan marketing faoliyatining natijadorligini turli yo’nalishlar kesimida baholash imkonini beruvchi integratsiyalashgan ko’rsatkich hisoblanadi. Mazkur indeks marketing faoliyatini subyektiv baholashdan chiqarib, uni aniq va o’lchab bo’ladigan mezonlar asosida tahlil qilish imkonini yaratadi.

$$TMI = \frac{Q_d + Q_c + I_m + Q_s}{4}$$

Ko’rsatkichlar mazmuni

• Q_d (qoniqish darajasi) – ota-onalar va o’quvchilarning ta’lim xizmatlaridan qoniqish darajasini ifodalaydi;

• Q_c (qamrov darajasi) – marketing faoliyati orqali jalb qilingan auditoriya ulushini aks ettiradi;

• I_m (imij ko’rsatkichi) – ta’lim muassasasining jamoatchilikdagi obro’-e’tibor darajasini ifodalaydi;

• Q_s (xizmat sifati) – ta’lim xizmatlarining sifat darajasini baholaydi.

Ta’lim Marketing Indeksini amaliyotda qo’llash mexanizmini yanada aniqroq ko’rsatish maqsadida quyidagi hisob-kitob misolini keltirish mumkin:

$$TMI = \frac{Q_d + Q_c + I_m + Q_s}{4}$$

Agar ta’lim muassasasida o’tkazilgan tahlil natijalariga ko’ra quyidagi ko’rsatkichlar aniqlangan bo’lsa:

- Qd (qoniqish darajasi) = 70%
- Qc (qamrov darajasi) = 60%
- Im (imij ko'rsatkichi) = 80%
- Qs (xizmat sifati) = 75%

unda Ta'lim Marketing Indeksi quyidagicha hisoblanadi:

$$TMI = \frac{70 + 60 + 80 + 75}{4} = 71.25\%$$

Olingan natijaga ko'ra, mazkur ta'lim muassasasida marketing faoliyati samaradorligi **o'rtacha darajada** ekanligi aniqlanadi.

Mazkur natija marketing faoliyatining ayrim yo'nalishlari (xususan, qamrov darajasi yoki xizmat sifati)ni takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi hamda keyingi boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Amaliy qo'llash mexanizmi.

TMI indeksini amaliyotga joriy etish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- har chorakda zarur ma'lumotlar yig'iladi;
- har bir ko'rsatkich foizlarda baholanadi;
- ko'rsatkichlarning o'rtacha qiymati hisoblab chiqiladi;
- olingan natijalar asosida boshqaruv qarorlari qabul qilinadi.

Baholash mezonlari

1-jadval.

TMI darajasi	Baholash
80–100%	yuqori samaradorlik
60–79%	o'rtacha daraja
40–59%	past samaradorlik
0–39%	samarasiz

Marketing strategiyasi bir martalik hujjat emas, balki doimiy ravishda yangilanib boriladigan dinamik boshqaruv jarayonidir. Shu nuqtayi nazardan, Transform bosqichi marketing faoliyatini yangi sharoitlarga moslashtirish va uning samaradorligini oshirishga qaratilgan uzluksiz jarayon sifatida namoyon bo'ladi [6].

Mazkur bosqichda marketing faoliyati natijalari, xususan, **TMI ko'rsatkichlari** asosida kompleks tahlil qilinadi hamda samarali va takomillashtirish zarur bo'lgan yo'nalishlar aniqlanadi. Shunga muvofiq strategik ustuvorliklar qayta ko'rib chiqilib, resurslar optimal taqsimlanadi.

Bunda raqamli marketing vositalaridan foydalanish, interaktiv kommunikatsiyalarni rivojlantirish hamda xodimlarning malakasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ota-onalar va o'quvchilar bilan samarali aloqalarni yo'lga qo'yish marketing qarorlarining asoslanganligini ta'minlaydi.

Natijada Transform bosqichi marketing faoliyatini uzluksiz takomillashtirish orqali uni moslashuvchan, tizimli va natijaga yo'naltirilgan boshqaruv mexanizmiga aylantiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ta'lim muassasalarida marketing faoliyati ko'p hollarda tizimli asosda tashkil etilmagan bo'lib, u alohida tashabbuslar darajasida amalga oshirilmoqda. Bu esa marketingning strategik imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmasligiga hamda boshqaruv samaradorligining pasayishiga olib kelmoqda.

Mazkur muammoni bartaraf etish maqsadida taklif etilgan **SMART – EDU marketing modeli** marketing faoliyatini integratsiyalashgan boshqaruv tizimi sifatida tashkil etish imkonini beradi [7]. Model marketing jarayonlarini izchil rejalashtirish, amaliy joriy etish, monitoring qilish va takomillashtirishni yagona tizim asosida amalga oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, ishlab chiqilgan **Ta'lim Marketing Indeksi (TMI)** marketing faoliyatining samaradorligini aniq va o'lchab bo'ladigan ko'rsatkichlar asosida baholash imkonini yaratadi. Ushbu indeks marketing faoliyatini subyektiv baholashdan chiqarib, uni kompleks tahlil qilish hamda asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi.

Taklif etilgan yondashuvni amaliyotga joriy etish natijasida [8]:

- ta'lim xizmatlari iste'molchilar ehtiyojlariga moslashadi;
- muassasaning jamoatchilikdagi imiji va raqobatbardoshligi oshadi;
- qo'shimcha moliyaviy manbalar shakllanadi;
- marketing faoliyati tizimli va nazorat qilinadigan boshqaruv mexanizmiga aylanadi.

Eng muhimi, mazkur model marketing faoliyatini alohida funksional yo'nalish sifatidan chiqarib, uni ta'lim muassasasining strategik rivojlanishini ta'minlovchi asosiy boshqaruv instrumentiga aylantiradi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, ta'lim muassasalarida marketing faoliyatini samarali tashkil etish va boshqarish maqsadida quyidagi tavsiyalarni ilgari surish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

ta'lim muassasalarida marketing faoliyatini tizimli tashkil etish uchun **marketing**

koordinatori lavozimini joriy etish. Mazkur mutaxassis marketing strategiyasini ishlab chiqish, kommunikatsiya jarayonlarini muvofiqlashtirish hamda marketing faoliyati natijalarini monitoring qilish uchun mas'ul bo'lishi lozim;

marketing faoliyatining samaradorligini baholash maqsadida **Ta'lim Marketing Indeksini (TMI) muntazam ravishda, xususan har chorakda hisoblab borish.** Bu marketing natijalarini dinamik tahlil qilish va boshqaruv qarorlarini o'z vaqtida qabul qilish imkonini beradi;

ta'lim muassasalarida **raqamli marketing vositalaridan keng foydalanishni yo'lga qo'yish**, jumladan ijtimoiy tarmoqlar, rasmiy veb-saytlar va boshqa onlayn platformalar orqali kommunikatsiya tizimini rivojlantirish. Bu axborot almashinuvi samaradorligini oshirish hamda ota-onalar va o'quvchilar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" – 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. -T. 2022.
3. A.Pankrukhin. Marketing v obrazovani. – Moskva: Logos, 2007., p 33.
4. A.Parasuraman, Valarie A.Zeithaml, L.Leonard Berry. SERVQUAL: A Multiple-Item Scale for Measuring Consumer Perceptions of Service Quality. – Journal of Retailing, 1988. P 33.
5. Igor Ansoff. Strategic Management. – London: Macmillan, 1984., p 27.
6. Michael E. Porter. Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors. – New York: Free Press, 2008. 45-p
7. Philip Kotler, Kevin Lane Keller. Marketing Management. – 15th ed. – Pearson Education, 2016.27-p
8. Sh.Shodmonov. Ta'lim tizimida marketing faoliyatini rivojlantirish masalalari. – Toshkent: Fan, 2020. 52-b.

TARIX FANI TA'LIMIDA "RAQAMLI HIKOYACHILIK" (DIGITAL STORYTELLING) TEXNOLOGIYASI: AN'ANAVIY DARS DAN INNOVATSION IJODKORLIKKA

*Normuxamedov Zarif Normo'minovich,
Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi,
ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi kafedrasi o'qituvchisi
zarifomad@gmail.com
+998915858313*

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarix darslarida "raqamli hikoyachilik" (digital storytelling) texnologiyasini qo'llashning nazariy-metodik asoslari tahlil qilinadi. Maqolada o'quvchilarning tarixiy faktlarni shunchaki yodlashi emas, balki ularni multimedia vositalari yordamida qayta ishlashi va shaxsiy interpretatsiyasini yaratishi orqali kognitiv qobiliyatlarini oshirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda raqamli hikoyachilikning tarixiy rivoji (B.Robin, J.Ohler), pedagogik asoslari va tarix ta'limidagi o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, raqamli hikoyalarni yaratishning bosqichli metodikasi (rejalashtirish, tadqiqot, texnik ijro, taqdimot) taklif etilgan. Maqolada an'anaviy tarix darslari va raqamli hikoyachilik texnologiyasiga asoslangan darslarning qiyosiy tahlili keltirilib, raqamli hikoyachilik o'quvchilarning mustaqil izlanish, tanqidiy fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi samaradorligi asoslangan.

Kalit so'zlar: raqamli hikoyachilik, raqamli pedagogika, tarixiy tafakkur, multimedia, vizualashtirish, mustaqil ta'lim, innovatsiya, mediasavodxonlik.

**Технология цифрового сторителлинга
в обучении истории: от традиционного
урока к инновационному
творчеству**

**Нормухамедов Зариф Нормуминович,
Преподаватель кафедры методики социально-
экономических наук Сурхандарьинского
областного центра педагогического мастерства**

Аннотация: В данной статье анализируются теоретико-методические основы применения технологии "цифрового повествования" (digital storytelling) на уроках истории. В статье освещаются вопросы повышения когнитивных способностей учащихся не через простое запоминание исторических фактов, а через их переработку с помощью мультимедийных средств и создание собственной интерпретации. В исследовании проанализированы историческое развитие цифрового повествования (Б.Робин, Дж.Олер), его педагогические основы и специфические особенности в преподавании истории. Также предложена поэтапная методика создания цифровых историй (планирование, исследование, техническая реализация, презентация). В статье представлен сравнительный анализ традиционных уроков истории и уроков, основанных на технологии цифрового повествования, обоснована эффективность цифрового повествования в развитии у учащихся навыков самостоятельного поиска, критического мышления и творческих способностей.

Ключевые слова: цифровое повествование, цифровая педагогика, историческое мышление, мультимедиа, визуализация, самостоятельное обучение, инновация, медиаграмотность.

Digital storytelling technology in teaching history: from traditional lesson to innovative creativity

Normukhamedov Zarif Normominovich,

Teacher at the Department of Social and Economic Sciences Methodology, Regional Pedagogical Excellence Center in Surkhandarya region.

Abstract: *This article analyzes the theoretical and methodological foundations of using digital storytelling technology in history lessons. The article highlights the issues of enhancing students' cognitive abilities not through mere memorization*

of historical facts, but through their processing by using multimedia tools and creating their own interpretation. The study examines the historical development of digital storytelling (B. Robin, J. Ohler), its pedagogical basis, and specific features of teaching History. It proposes a step-by-step methodology for creating digital stories (planning, research, technical execution, presentation). The article discusses a comparative analysis of traditional history lessons and lessons based on digital storytelling technology, substantiating the effectiveness of digital storytelling in developing students' independent research skills, critical thinking, and creative abilities.

Keywords: *digital storytelling, digital pedagogy, historical thinking, multimedia, visualization, independent learning, innovation, media literacy.*

Zamonaviy ta'lim paradigmasida o'quvchi axborotni iste'mol qiluvchi emas, balki uni yaratuvchi sub'yekt sifatida ko'rilmoqda. XXI asr ko'nikmalari (tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, media-savodxonlik, hamkorlik)ni shakllantirish bugungi ta'lim tizimining eng dolzarb vazifalaridan biriga aylangan. Tarix ta'limida ko'p yillik muammolardan biri – bu o'quvchilarning voqea-hodisalarni shunchaki xronologik tartibda yodlashi, tarixiy jarayonlarni chuqur tahlil qilmasdan, tayyor bilimlarni passiv qabul qilishi bilan chegaralanib qolishidir [10, 56-b.]. Bu esa fanga bo'lgan qiziqishning pasayishiga va tarixiy tafakkurning sust rivojlanishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "2022–2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dastur"da ta'lim jarayonini o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish va ijodiy yondashish qobiliyatlarini shakllantirishga

yo'naltirish vazifasi belgilangan [1; 2, 12-b.]. Innovatsion pedagogik texnologiyalar, xususan, "Digital Storytelling" (raqamli hikoyachilik) o'quvchiga tarixiy materialni hissiy idrok etish va uni zamonaviy texnologiyalar tilida so'zlab berish imkonini beradi [7, 222-b.].

Raqamli hikoyachilik – bu qisqa (odatda 2-3 daqiqalik) birinchi shaxsda hikoya qilinadigan, yozma matnni raqamli tasvirlar, ovoz va musiqa bilan birlashtirib, qisqa film ko'rinishida taqdim etiladigan multimedia mahsulotidir [9, 15-b.]. Tarix ta'limida ushbu texnologiya o'quvchilarning tarixiy materialni shunchaki yodlashdan tashqari, uni qayta ishlash, sharhlash va o'z nuqtayi nazarini shakllantirish imkoniyatini beradi.

Ushbu maqolaning maqsadi – tarix darslarida raqamli hikoyachilik texnologiyasini qo'llashning nazariy-metodik asoslarini tahlil qilish, uning o'quvchilarning kognitiv qobiliyatlari va mustaqil izlanish ko'nikmalariga ta'sirini o'rga-

nish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Raqamli hikoyachilikning paydo bo'lishi va rivojlanishi. Raqamli hikoyachilik tushunchasi XX asrning 90-yillarida Kaliforniya-ning Berkli shahrida Dana Atchli va Jo Lambert tomonidan asoslangan. Ular asos solgan "Raqamli hikoyachilik markazi" (Center for Digital Storytelling, hozirgi StoryCenter) dastlab ijtimoiy sohalarda, keyinchalik esa ta'limda qo'llanila boshlandi [10, 35-b.]. Markazning asosiy g'oyasi – har bir inson o'z hayotiy hikoyasini raqamli vositalar yordamida so'zlab berishi va bu jarayonda ijtimoiy hamjamiyat yaratilishidir. Lambertning "7 qadam" metodologiyasi (g'oyani ko'rish, hikoyani yig'ish va uni baham ko'rish) raqamli hikoyalar yaratishning klassik modeliga aylangan [10, 78-b.].

Pedagogik nuqtayi nazardan yondashuvlar. Pedagogik nuqtayi nazardan ushbu texnologiyani tadqiq etgan B.Robin va J.Ohler uning o'quvchilarning XXI asr ko'nikmalarini (media-savodxonlik, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik) rivojlantirishdagi rolini isbotlaganlar. B.Robin ta'kidlaganidek, raqamli hikoyachilik "so'nggi yillarda o'qituvchilar va o'quvchilarni faollashtiruvchi kuchli o'qitish va o'rganish vositasi sifatida e'tirof etilgan" [7, 224-b.]. Ushbu texnologiya o'quvchilarning XXI asr savodxonlik ko'nikmalarini egallashiga yordam beradi, bu esa bugungi texnologiyalarga boy dunyoda o'qish, ishlash va rivojlanish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

J.Ohler raqamli hikoyani "yozma matni raqamli tasvirlar va ovoz bilan birlashtirib, qisqa film ko'rinishida taqdim etiladigan qisqa hikoya" deb ta'riflaydi [8, 45-b.]. Uning "Sinfda raqamli hikoyachilik" asarida ta'kidlanishicha, raqamli hikoyachilik o'quvchilarning hikoya qilish orqali o'rganish qobiliyatini kuchaytiradi, ularga o'z bilimlarini shaxsiylashtirish va chuqurlashtirish imkonini beradi [9, 112-b.].

Xalqaro tajriba va tadqiqotlar. Xalqaro miqyosda raqamli hikoyachilik texnologiyasi tarix ta'limida ham faol qo'llanilmoqda. Fisanick va Stakeley (2021) o'zlarining "Raqamli hikoyachilik: omma tarixi" asarida raqamli hikoyachilikni mahalliy va mintaqaviy tarixga qiziqishni rag'batlantirish vositasi sifatida tavsiya qiladilar [11, 67-b.]. Özdemir va Er Tuna (2024) tadqiqotida tarix o'qitishda raqamli hikoyachilik usuli o'quvchilarning tarixiy empatiya, faollik va umumiy o'rganish tajribasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan [12, 5-b.].

O'zbekiston pedagogika fanida tadqiqot darajasi. O'zbekiston pedagogika fanida ushbu texnologiya hali tarix fani misolida keng qamrovli ilmiy tadqiq etilmagan. Mavjud tadqiqotlar asosan umumiy pedagogik texnologiyalar (R.Ishmuhammedov, U.K.Tolipov) va tarix o'qitish metodikasi (Ya.X.G'afforov, A.J.Jo'rayev) doirasida olib borilgan bo'lib [3; 4; 5; 6], raqamli hikoyachilik texnologiyasining tarix ta'limidagi o'ziga xos jihatlari yetarlicha o'rganilmagan. Bu esa mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida quyidagi usullardan foydalanildi: nazariy (qiyosiy-tahliliy, adabiyotlarni umumlashtirish), empirik (kuzatuv, so'rovnomma, testlashtirish), loyiha asosida o'qitish (PBL) va vizual tahlil metodlari. Tadqiqot metodologik asosini B.Robin va J.Ohlerning raqamli hikoyachilik nazariyasi [7; 8; 9] hamda mahalliy olimlarning (R.Ishmuhammedov, A.J.Jo'rayev) pedagogik texnologiyalar va tarix o'qitish metodikasiga oid qarashlari tashkil etdi [3; 6].

Tadqiqotimiz davomida tarix darslarida raqamli hikoyani yaratishning quyidagi 4 bosqichli modeli taklif etiladi:

1-bosqich: Rejalashtirish va ssenariy tuzish. O'quvchi (yoki kichik guruh) o'ziga qiziq bo'lgan tarixiy mavzuni tanlaydi (masalan, "Ipak yo'lining yuksalishi va ahamiyati",

“Amir Temur davlati tarixi”, “Jaloliddin Manguberdining jasorati”). Soʻngra tanlangan tarixiy voqea asosida hikoya matnini (ssenariy) yozadi. Bu bosqichda oʻquvchi tarixiy manbalar bilan ishlaydi, voqealarning sabab va oqibatlarini tahlil qiladi, asosiy va ikkinchi darajali jihatlarni ajratadi.

2-bosqich: Resurslar yigʻish va tanlash. Oʻquvchi oʻz hikoyasini vizual va audio materiallar bilan boyitish uchun tarixiy manbalar (arxiv materiallari, tarixiy xaritalar, rasmlar, fotosuratlar, hujjatli videolavhalar), shuningdek, zamonaviy media-resurslardan foydalanaadi. Ushbu bosqichda oʻquvchining axborot qidirish, saralash, tanlash va baholash koʻnikmalari rivojlanadi.

3-bosqich: Texnik ijro. Oʻquvchi toʻplangan materiallarni video tahrirlash dasturlari (masalan, CapCut, Canva, Movavi, Windows Video Editor yoki iMovie) yordamida birlashtiradi: matn, tasvirlar, ovoz (oʻz ovozi yoki AI-ovoz) va musiqa. Tadqiqotimiz shuni koʻrsatadiki, CapCut va Canva kabi bepul va qulay dasturlar oʻquvchilarning texnik jihatdan haddan tashqari charchamasdan ijodiy ishlashiga imkon beradi. Ushbu bosqichda oʻquvchining media-savodxonligi va raqamli kompetensiyasi shakllanadi.

4-bosqich: Namoyish va refleksiya. Yaratilgan raqamli hikoya sinf jamoasiga taqdim etiladi. Soʻngra guruh muhokamasida tarixiy aniqlik, muallif nuqtai nazari, hikoyaning taʼsirchanligi, multimedia vositalaridan foydalanish samaradorligi kabi mezonlar asosida baholanadi va muhokama qilinadi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, raqamli hikoyachilik metodikasidan foydalanish oʻquvchilarda quyidagi oʻzgarishlarni keltirib chiqaradi:

1. Emotsional bogʻliqlik va tarixiy empatiyaning oshishi. Oʻquvchi oʻzini tarixiy qahramon oʻrniga qoʻyib koʻrishi, uning his-

tuygʻularini, kechinmalarini, tanlovlarini tushunishga intilishi natijasida materialni eslab qolish darajasi sezilarli darajada yaxshilanaadi. Tadqiqotimiz davomida raqamli hikoya yaratgan oʻquvchilarning tarixiy voqealarni eslab qolish darajasi anʼanaviy usulda oʻqigan oʻquvchilarga nisbatan oʻrtacha 60% ga yuqori ekanligi aniqlandi. Tarixiy empatiya – bu tarixiy shaxslarning harakatlari va qarorlarini ularning davri kontekstida tushunish qobiliyati boʻlib, raqamli hikoyachilik aynan shu qobiliyatni rivojlantirishning kuchli vositasidir [12, 6-b.].

2. Media-kompetensiyaning rivojlanishi. Oʻquvchilar raqamli hikoya yaratish jarayonida axborotni qidirish, saralash, tanqidiy baholash va uni multimediali kontent koʻrinishiga keltirish malakasini egallaydilar. Ushbu malakalar XXI asr koʻnikmalarining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi [7, 226-b.].

3. Tahliliy yondashuv va tanqidiy fikrlashning shakllanishi. Oʻquvchi hikoya yaratish jarayonida “Nima uchun bu voqea sodir boʻldi?”, “Ushbu tarixiy qarorning sabablari va oqibatlari qanday?”, “Turli tarixiy manbalarda bu voqea qanday yoritilgan?” kabi savollarga mustaqil javob izlashga majbur boʻladi. Bu esa oʻquvchining tarixiy voqealarni yuzaki emas, chuqur tahlil qilish koʻnikmasini shakllantiradi [5, 78-b.].

4. Mustaqil izlanish faolligining oshishi. Raqamli hikoya yaratish jarayoni oʻquvchidan mustaqil ravishda tadqiqot olib borishni, tarixiy manbalarni oʻrganishni, oʻz nuqtai nazarini shakllantirishni va uni boshqalarga yetkazishni talab qiladi. Bu esa oʻquvchining oʻqishga boʻlgan ichki motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi [6, 45-b.].

Quyidagi 1-jadvalda anʼanaviy tarix darslari va raqamli hikoyachilik texnologiyasiga asoslangan darslarning qiyosiy tahlili keltirilgan:

Mezon	An'anaviy dars	Raqamli hikoyachilik asosidagi dars
O'quvchi pozitsiyasi	Passiv tinglovchi	Faol tadqiqotchi, ssenarist, rejissyor
Bilim manbai	Asosan darslik va o'qituvchi	Turli manbalar (arxiv, internet, kutubxona, ekspertlar)
O'zlashtirish usuli	Eshitish, yodlash, takrorlash	Tadqiqot, tahlil, sintez, ijodkorlik
Hissiy ta'sir	Past	Yuqori (empatiya, katarzis)
Mustaqil izlanish	Cheklangan	Yuqori darajada
Natija (mahsulot)	Og'zaki javob, yozma ish	Multimedia mahsuloti (video, taqdimot)
Baholash	O'qituvchi tomonidan	O'qituvchi + tengdoshlar + o'z-o'zini baholash

5. Ijtimoiy tarmoqlarga bo'lgan qiziqishni foydali maqsadga yo'naltirish. Tadqiqotimiz shuni ko'rsatdiki, o'smir yoshidagi o'quvchilarning ijtimoiy tarmoqlarga (YouTube, Telegram, Instagram) bo'lgan qiziqishini raqamli hikoyachilik orqali foydali ta'limiy maqsadga yo'naltirish mumkin. O'quvchilar o'zlarining video yaratish, montaj qilish, vizual effektlar qo'llash kabi ko'nikmalarini tarixiy mavzulardagi loyihalarda qo'llashga katta qiziqish bildirdilar.

Tadqiqot natijalarining tahlili raqamli hikoyachilik texnologiyasining tarix ta'limidagi o'rniga oid quyidagi muhim jihatlarni aniqlash imkonini berdi.

Birinchidan, an'anaviy darslarda o'quvchi ma'lumotni faqat darslik va o'qituvchidan oladi. "Raqamli hikoyachilik"da esa u bir vaqtning o'zida tadqiqotchi, ssenarist va rejissyor vazifasini bajaradi. Bu jarayon o'quvchining faol subyekt pozitsiyasini shakllantiradi va uning mustaqil izlanish faoliyatini rag'batlantiradi. B.Robin ta'kidlaganidek, "raqamli hikoyachilik loyihalari o'quvchilarning materialni chuqurroq anglash, ma'no yaratish va o'rganish tajribalarini shaxsiylashtirishiga yordam beradi" [7, 224-b.].

Ikkinchidan, raqamli hikoyachilik texnologiyasi tarix fanining o'ziga xos xususiyat-

lari – tarixiy voqealarning ko'p omilliligi, turli manbalarning mavjudligi va ularning ba'zan bir-biriga zid bo'lishi, tarixiy jarayonlarning ziddiyatliliigi – bilan uzviy bog'liqdir. O'quvchi raqamli hikoya yaratish jarayonida turli tarixiy manbalarni qiyoslash, bir-biriga zid ma'lumotlarni tahlil qilish, o'z nuqtai nazarini shakllantirish va uni asoslashga majbur bo'ladi. Bu jarayon o'quvchining tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning samarali vositasidir [6, 67-b.].

Uchinchidan, raqamli hikoyachilik texnologiyasini qo'llash o'qituvchidan nafaqat tarixiy bilim, balki bazaviy raqamli savodxonlikni ham talab etadi. O'qituvchi video tahrirlash dasturlari bilan ishlash, multimedia resurslaridan foydalanish, o'quvchilarning loyihalarini texnik jihatdan qo'llab-quvvatlash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Shu sababli, o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasini oshirish bo'yicha tizimli ishlarni yo'lga qo'yish zarur [3, 78-b.].

To'rtinchidan, tarix darslarida raqamli hikoyachilik texnologiyasini qo'llashning quyidagi qiyinchiliklari mavjud: dars vaqtining cheklanganligi (loyiha ko'p vaqt talab qiladi), o'quvchilarning turli raqamli tayyorgarlik darajasi (ba'zi o'quvchilar texnik vositalardan foydalanishda qiyinchilikka duch keladi), tarixiy manbalarning yetarlicha emasligi (ayniqsa, qishloq maktablarida), mualliflik huquqi

va adolatli foydalanish masalalari (copyright va fair use) [11, 89-b.]. Biroq, tadqiqotimiz shuni ko'rsatadiki, ushbu qiyinchiliklarni to'g'ri tashkiliy-metodik yondashuv bilan bartaraf etish mumkin.

Beshinchidan, raqamli hikoyachilik texnologiyasini baholash tizimi an'anaviy baholashdan farq qiladi. Tadqiqotimizda quyidagi baholash mezonlari qo'llanildi: tarixiy aniqlik va to'liqlik (30%), hikoyaning tuzilishi va mantiqiyliigi (25%), multimedia vositalaridan foydalanish samaradorligi (25%), ijodkorlik va o'ziga xoslik (10%), taqdimot va himoya (10%). Bundan tashqari, tengdoshlarni baholash va o'z-o'zini baholash ham qo'llanildi [9, 156-b.].

Raqamli hikoyachilik texnologiyasi tarix ta'limini modernizatsiya qilishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. U o'quvchilarning mustaqil izlanish faoliyatini yangi bosqichga olib chiqadi, fanga bo'lgan ichki motivatsiyani mustahkamlaydi va tarixiy tafakkurni rivojlantiradi. Tadqiqotimizning asosiy xulosalari quyidagilardan iborat:

1. Raqamli hikoyachilik o'quvchining passiv tinglovchidan faol tadqiqotchi, ssenarist va rejissyorga aylanishiga imkon beradi. Bu jarayon o'quvchining mustaqil izlanish, tanqidiy fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning samarali vositasidir [7; 8; 9].

2. Raqamli hikoyachilik o'quvchilarning tarixiy materialni hissiy idrok etish qobiliyatini oshiradi, tarixiy empatiyani rivojlantiradi

va materialni eslab qolish darajasini sezilarli darajada yaxshilaydi (tadqiqotimizda o'rtacha 60% ga) [12, 6-b.].

3. Raqamli hikoyachilik texnologiyasini qo'llash o'quvchilarning media-savodxonlik va raqamli kompetensiyalarini rivojlantiradi, ularni XXI asr ko'nikmalarini egallashga tayyorlaydi [7, 226-b.].

4. Raqamli hikoyachilik texnologiyasining samaradorligi o'qituvchining metodik tayyorligi, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish, texnik vositalarning mavjudligi va loyiha vaqtini to'g'ri rejalashtirishga bog'liq [3; 6].

5. O'zbekiston pedagogika fanida raqamli hikoyachilik texnologiyasining tarix ta'limidagi imkoniyatlarini keng qamrovli o'rganish zarur. Bu borada eksperimental tadqiqotlar o'tkazish, metodik qo'llanmalar ishlab chiqish va ilg'or tajribalarni ommalashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Raqamli hikoyachilik texnologiyasini sun'iy intellekt vositalari (masalan, AI yordamida matn yozish, tasvir yaratish, ovoz berish) bilan integratsiyalash orqali tarixiy rekonstruksiyalarni yaratish metodikasini takomillashtirish mumkin. Shuningdek, ushbu texnologiyani boshqa ta'lim fanlarida (adabiyot, san'at, geografiya) qo'llash imkoniyatlarini o'rganish va raqamli hikoyachilikni baholashning yangi mezonlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent: O'zbekiston, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022–2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-son Farmoni.
3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste'dod, 2008. – 180 b.
4. Tolipov U.K., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.
5. G'afforov Ya.X. Tarix o'qitish metodikasi. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2010.
6. Jo'rayev A.J. Tarix darslarida muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. – Toshkent: TDPU, 2015.
7. Robin, B.R. (2008). Digital storytelling: A powerful technology tool for the 21st century classroom. *Theory into Practice*, 47(3), 220-228.
8. Ohler, J. (2006). The world of digital storytelling. *Educational Leadership*, 63(4), 44-47.
9. Ohler, J. (2008). *Digital storytelling in the classroom: New media pathways to literacy, learning, and creativity*. Thousand Oaks, CA: Corwin Press.
10. Lambert, J. (2013). *Digital storytelling: Capturing lives, creating community* (4th ed.). New York: Routledge.
11. Fisanick, C., & Stakeley, R. O. (2021). *Digital storytelling as public history: A guidebook for educators*. New York: Routledge.
12. Özdemir, K., & Er Tuna, Y. (2024). A history lesson designed with the digital storytelling method: "Kara Fatma" example. *Frontiers in Education*, 9.
13. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. // O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. – Toshkent, 2003.
14. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi rasmiy sayti: www.uzedu.uz.
15. Ziyonet axborot-ta'lim tarmog'i: www.ziyonet.uz.

PEDAGOGIK TASHXIS JARAYONIDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH: TAJRIBA-SINOV VA MA'LUMOTLARGA ASOSLANGAN YONDASHUV

Pulotov Abdurayim Murotovich,
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi,
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent,
tel.: +998 90 717 05 18,
E-mail: abdurayimp@mail.ru

Annotatsiya: *Mazkur maqolada pedagogik tashxis jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi tajriba-sinov va ma'lumotlarga asoslangan yondashuv asosida tahlil qilindi. Tadqiqotda nazariy va empirik metodlar, jumladan, kuzatish, tajriba-sinov hamda statistik tahlil qo'llanildi. 132 nafar respondent ishtirok etgan tadqiqotda tajriba va nazorat guruhlari o'rtasida taqqoslash amalga oshirildi. Natijalar raqamli texnologiyalar baholash aniqligi, tezkorligi va obyektivligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatdi, shuningdek, o'quvchilarning o'zlashtirish dinamikasini real vaqt rejimida monitoring qilish imkoniyati yaratildi. Statistik tahlil guruhlar o'rtasidagi farqning ishonchli ekanligini tasdiqladi. Tadqiqot natijalari pedagogik tashxisni modernizatsiya qilish va raqamli baholash tizimlarini rivojlantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so'zlar: *pedagogik tashxis, raqamli texnologiyalar, raqamli baholash, ta'limiy analitika, monitoring, individuallashtirilgan ta'lim, pedagogik qarorlar.*

Оценка эффективности цифровых технологий в процессе педагогической диагностики: экспериментальный и основанный на данных подход

Пулотов Абдурайим Муротович,
кандидат педагогических наук, доцент, Центр педагогического мастерства Навоийской области

Аннотация: *В статье рассматривается эффективность использования цифровых технологий в педагогической диагностике на основе экспериментального и ориентированного на данные подхода. В исследовании применялись теоретические и эмпирические методы, включая наблюдение, эксперимент и статистический анализ. В эксперименте приняли участие 132 респондента, разделённые на экспериментальную и контрольную группы. Результаты показали, что использование цифровых технологий существенно повышает точность, оперативность и объективность оценивания, а также позволяет осуществлять мониторинг учебных достижений в реальном времени. Статистический анализ подтвердил значимость различий между группами. Полученные результаты имеют важное научно-практическое значение для модернизации педагогической диагностики и развития цифровых систем оценивания.*

Ключевые слова: *педагогическая диагностика, цифровые технологии, цифровое оценивание, образовательная аналитика, мониторинг, индивидуализация обучения, педагогические решения.*

Evaluation the efficiency of digital technologies in the process of pedagogical diagnostics: an experimental and data-driven approach

Pulotov Abdurayim Murotovich,

*Candidate of Pedagogical Sciences Associate
Professor Navoiy Regional Center for
Pedagogical Excellence*

Abstract: *This study examines the effectiveness of using digital technologies in pedagogical diagnostics through an experimental and data-driven approach. The researcher uses theoretical and empirical methods, including observation, experimental procedures, and statistical analysis in the*

investigation. The study comparatively analyzes the activities implemented between experimental and control groups, involving 132 respondents. The findings indicate that digital technologies significantly improve the accuracy, efficiency, and objectivity of assessment, as well as it creates an opportunity to monitor the dynamics of students performance in real-time. Statistical analysis confirms a significant difference between the groups. The results highlight the scientific and practical importance of modernizing pedagogical diagnostics and improving digital assessment systems.

Keywords: *pedagogical diagnostics, digital technologies, digital assessment, learning analytics, monitoring, individualized learning, pedagogical decision-making.*

Jahon ta'lim tizimi globallashtirish, raqamlashtirish va axborotlashuv jarayonlari ta'sirida sifat jihatidan yangi rivojlanish bosqichiga o'tmoqda. Zamonaviy ta'lim paradigmasida an'anaviy, standartlashtirilgan ta'lim modelidan bosqichma-bosqich voz kechilib, ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlari, qobiliyatlari, ehtiyojlari va rivojlanish dinamikasini hisobga oluvchi individuallashtirilgan ta'lim yondashuvlari keng joriy etilmoqda. Bunday yondashuv ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, ta'lim sifatini ta'minlash hamda ta'lim oluvchilarning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Shu bilan birga, an'anaviy diagnostika usullari – yozma nazorat ishlari, og'zaki so'rovlar, pedagogik kuzatishlar va baholash vositalari ko'p vaqt talab etishi, subyektiv omillarga bog'liqligi hamda ta'lim oluvchi to'g'risida cheklangan hajmdagi ma'lumotlarni taqdim etishi sababli zamonaviy ta'lim talablari darajasida yetarli samaradorlikni ta'minlay olmaydi [7]. Mazkur holat pedagogik tashxis tizimini zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Natijada ta'lim jarayonini individuallashtirish hamda pedagogik boshqaruv samaradorligini oshirish imkoniyatlari kengaymoqda. Raqamli vositalarni pedagogik tashxis jarayoniga integratsiya qilish baholashning aniqligi, tezkorligi va obyektivligini oshiradi. Shuningdek, u o'quvchilarning rivojlanish dinamikasini tizimli monitoring qilish imkonini yaratadi [17].

So'nggi yillarda pedagogik tashxis va raqamli texnologiyalar integratsiyasi masalalari xorijiy hamda milliy olimlar tomonidan faol o'rganilmoqda. Biroq mavjud ilmiy tadqiqotlarda pedagogik tashxisda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligini kompleks baholash hamda ularni ta'lim jarayoniga tizimli joriy etish mexanizmlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Shu nuqtayi nazardan, pedagogik tashxis jarayonida raqamli texnologiyalarning analitik va vizualizatsiya imkoniyatlarini chuqur tahlil qilish hamda ularning ta'lim jarayonidagi samaradorligini aniqlash muhim ilmiy vazifa hisoblanadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari, xususan, elektron test tizimlari, interaktiv ta'lim platformalari, sun'iy intellektga asoslangan adaptiv o'quv dasturlari hamda onlayn moni-

toring tizimlari pedagogik tashxis jarayonining aniqligi, tezkorligi va obyektivligini oshirish imkonini bermoqda. Shu sababli pedagogik tashxisda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligini ilmiy asoslangan mezonlar asosida baholash, ta'lim jarayonini optimallashtirish hamda pedagogik qarorlar qabul qilish sifatini oshirish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi pedagogik tashxis jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligini ilmiy asoslangan mezonlar orqali aniqlash, shuningdek, shu jarayonda yuzaga keladigan metodik masalalarni aniqlab, ularni takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot natijalari pedagogik tashxisning raqamli transformatsiyasini ilmiy asosda yoritish, ta'lim jarayonini samarali boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish hamda raqamli ta'lim muhitini rivojlantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

So'nggi yillarda pedagogik tashxisni raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish masalasi jahon va milliy ta'lim tizimlarida dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biriga aylandi. Raqamli transformatsiya jarayoni ta'lim amaliyotini tubdan yangilash, ta'lim natijalarini aniqlash, monitoring qilish va baholash mexanizmlarini zamonaviy talablar asosida qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda [16].

An'anaviy baholash yondashuvlarida pedagogik tashxis ko'pincha vaqt talab etishi, subyektiv omillarga bog'liqligi hamda o'quv jarayonining dinamik rivojlanishini to'liq aks ettira olmasligi bilan tavsiflanadi. Mazkur holat zamonaviy raqamli ta'lim muhitida samarali va tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatlarini cheklaydi.

Shu bois ta'lim jarayonida raqamli vositalarni joriy etish orqali tashxisni avtomatlashtirish, natijalarning aniqligi va tezkorligini oshirish, shuningdek obyektiv baholashni

ta'minlashga qaratilgan innovatsion diagnostika mexanizmlarini ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda. Shu nuqtayi nazardan, pedagogik tashxisning nazariy asoslari, uning raqamli texnologiyalar bilan integratsiyasi hamda ushbu jarayon samaradorligini baholash mezonlari xorijiy va milliy ilmiy tadqiqotlarda keng o'rganilmoqda.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda pedagogik tashxisni raqamlashtirishning nazariy va metodologik asoslari tizimli yoritilgan. Xususan, Jurāne-Brēmane A. [5] tadqiqotlarida raqamli ta'lim muhitida pedagogik baholashning formativ va summativ shakllari tahlil qilinib, elektron test tizimlari hamda raqamli monitoring platformalari yordamida pedagogik tashxis jarayonini avtomatlashtirish, uning aniqligi va obyektivligini oshirish imkoniyatlari asoslab berilgan.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining pedagogik tashxis jarayonidagi imkoniyatlari Memarian B. va Doleck T. [11] tadqiqotlarida tahlil qilinib, adaptiv o'quv tizimlari yordamida ta'lim oluvchilarning individual rivojlanish dinamikasini aniqlash, bilim darajasini differensial baholash hamda individual ta'lim trayektoriyalarini shakllantirish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan. Bu yondashuv pedagogik tashxisni individuallashtirish va baholash jarayonining aniqligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Pektas H.M., Karamustafaoglu O. va Celik H. [12] tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ta'limiy analitika hamda ta'lim ma'lumotlarini intellektual tahlil qilish texnologiyalariga asoslangan diagnostika imkoniyatlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari raqamli ta'lim muhitida shakllanadigan katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish orqali ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi va o'quv qiyinchiliklarini aniqlash hamda pedagogik qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirish mumkinligini ko'rsatadi.

Shuningdek, generativ sun'iy intellekt texnologiyalarining pedagogik tashxis jarayoniga

ta'siri Ogunleye B., Zakariyyah K.I., Ajao O. va Sharma H. [13] tadqiqotlarida o'rganilib, sun'iy intellektga asoslangan baholash tizimlari ta'lim natijalarini avtomatik tahlil qilish va baholash jarayonini optimallashtirish imkonini berishi ilmiy jihatdan asoslangan.

Orlovskiy I.V. va Tymoshenko O.A. [14] tadqiqotlarida raqamlashtirish sharoitida test metodologiyasini takomillashtirish masalalari tahlil qilinib, raqamli test tizimlari pedagogik tashxisning ishonchliligi va validligini ta'minlashda muhim vosita ekanligi ko'rsatib berilgan. Latif E. va hammualliflar [15] esa sun'iy umumiy intellekt texnologiyalarining ta'lim jarayoniga integratsiyasi pedagogik tashxisni rivojlantirishning yangi bosqichi ekanligini asoslab, bilim darajasini prognozlash va individual rivojlanish tendensiyalarini aniqlash imkoniyatlarini yoritgan.

Milliy ilmiy adabiyotlar va normativ-huquqiy hujjatlar tahlili O'zbekiston ta'lim tizimida pedagogik tashxisni raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish masalalari davlat ta'lim siyosati darajasida belgilanganini ko'rsatadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni [1] hamda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi [2]da ta'lim tizimini raqamli transformatsiya qilish, elektron ta'lim resurslari va raqamli baholash mexanizmlarini joriy etish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Milliy ilmiy tadqiqotlarda ham raqamli texnologiyalar pedagogik tashxis jarayonining samaradorligini oshiruvchi muhim omil sifatida talqin etiladi. Jumladan, Jamoldinova O. va Ziyoyeva M. [6] tadqiqotlarida raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish baholash natijalarini tahlil qilish va pedagogik diagnostika imkoniyatlarini kengaytirishi asoslangan. Abdullayeva N.A. [3] esa baholash va monitoring jarayonlarining uzluksizligi pedagogik tashxisning aniqligi va ishonchliligini oshirishini ta'kidlaydi hamda baholash natijalari-

ni pedagogik qarorlar bilan integratsiya qilish zarurligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, milliy ilmiy adabiyotlarda pedagogik tashxisni raqamli texnologiyalar asosida amalga oshirishning kompleks modeli, uning samaradorligini baholash uchun aniq ilmiy mezonlar va indikatorlar tizimini ishlab chiqish masalalari yetarli darajada chuqur va tizimli yoritilmagan.

Demak, xorijiy va milliy ilmiy adabiyotlar tahlili pedagogik tashxisda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari keng o'rganilganini ko'rsatsa-da, mazkur jarayonning samaradorligini ilmiy asoslangan mezonlar orqali baholash hamda uni ta'lim jarayoniga tizimli joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi. Ushbu holat tadqiqot metodologiyasini aniqlash va tegishli metodik yondashuvlarni tanlashni taqozo etadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Kirish qismida belgilangan ilmiy muammo va tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, mazkur tadqiqotda pedagogik tashxis jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligini baholashga yo'naltirilgan metodologik yondashuvlar va ilmiy-tadqiqot metodlari tanlandi. Tajriba-sinov ishlariga Navoiy viloyatidagi oliy va umumiy o'rta ta'lim muassasalarining pedagoglari hamda ta'lim oluvchilaridan iborat jami 132 nafar respondent jalb etildi. Ular ikki guruhga ajratildi: tajriba guruhi (n=67) va nazorat guruhi (n=65). Tajriba guruhida pedagogik tashxis jarayonida raqamli texnologiyalar (elektron test tizimlari, onlayn baholash platformalari va monitoring vositalari) qo'llanildi, nazorat guruhida esa an'anaviy baholash usullari saqlab qolindi. Tadqiqot davomida olingan natijalarning ishonchliligini tekshirish, tajriba va nazorat guruhlari ko'rsatkichlarini qiyosiy tahlil qilish hamda statistik ahamiyatini aniqlash uchun matematik-statistik metodlar, xususan, Pirsonning moslik mezoni (χ^2) qo'llanildi.

Tadqiqotning metodologik asosini tizimli, kompetensiyaviy, faoliyatga yo'naltirilgan, shaxsga yo'naltirilgan hamda raqamli pedagogika yondashuvlari tashkil etadi. Tizimli yondashuv pedagogik tashxis jarayonini yaxlit pedagogik tizim sifatida ko'rib chiqish, uning tarkibiy komponentlari – maqsad, mazmun, vositalar, texnologiyalar va natijalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash imkonini berdi. Ushbu yondashuv asosida pedagogik tashxis jarayonida raqamli texnologiyalarning funksional o'rni va didaktik imkoniyatlari tahlil qilindi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv pedagogik tashxis jarayonida ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlari, bilim darajasi, o'zlashtirish dinamikasi va rivojlanish ehtiyojlarini aniqlash imkoniyatlarini o'rganishga xizmat qildi [8]. Mazkur yondashuv raqamli texnologiyalar asosida individual pedagogik tashxisni amalga oshirish mexanizmlarini asoslashga metodologik zamin yaratdi [10].

Kompetensiyaviy yondashuv doirasida ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini baholashning ilmiy asoslari tahlil qilinib, raqamli texnologiyalar yordamida kompetensiyalarni diagnostika qilish mezonlari belgilandi [4]. Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv esa ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyatini tahlil qilish, ularning o'quv jarayonidagi faolligini baholash hamda pedagogik tashxis natijalari asosida pedagogik qarorlar qabul qilish imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanildi:

- nazariy metodlar – pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni o'rganish, tahlil qilish va umumlashtirish orqali muammoning nazariy asoslari aniqlashtirildi;

- empirik metodlar – pedagogik kuzatish, so'rovnoma, test sinovlari va diagnostik baholash metodlari yordamida pedagogik tashxis jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish holati o'rganildi;

- tajriba-sinov ishlari – pedagogik tashxis jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda ularning samaradorligini aniqlash maqsadida tashkil etildi;

- statistik metodlar – tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlash va tajriba-sinov natijalarini miqdoriy hamda sifat jihatdan tahlil qilish uchun matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tajriba-sinov ishlari ta'lim muassasasi sharoitida tashkil etilib, unda pedagogik tashxis jarayonida elektron test tizimlari, raqamli baholash platformalari hamda onlayn monitoring vositalaridan foydalanildi. Tajriba davomida raqamli texnologiyalar asosida amalga oshirilgan pedagogik tashxisning samaradorligi, aniqligi va obyektivligi an'anaviy diagnostika usullari bilan qiyosiy tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan metodlarning ilmiy asoslanganligi, tajriba-sinov ishlarining tizimli tashkil etilganligi hamda olingan natijalarning matematik-statistik metodlar yordamida qayta ishlanganligi bilan ta'minlandi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Tadqiqot doirasida pedagogik tashxis jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligini aniqlash va kompleks baholashga yo'naltirilgan mexanizm ishlab chiqildi. Mexanizm diagnostik, analitik hamda boshqaruv mezonlariga asoslandi (1-rasm). U pedagogik tashxisning an'anaviy va raqamli texnologiyalar asosidagi shakllarini tizimli ravishda qiyosiy tahlil qilish hamda ularning samaradorlik darajasini baholash imkonini beradi.

Mazkur mexanizm asosida amalga oshirilgan tahlillar pedagogik jarayonning bir qator muhim jihatlarini aniqlash imkonini berdi [9]. Tadqiqot natijalari pedagogik tashxisning an'anaviy hamda raqamli texnologiyalar asosidagi shakllarini qiyosiy tahlil qilish asosida umumlashtirildi.

Tahlil natijalariga ko'ra, an'anaviy pedagogik tashxis usullarida (yozma nazorat ishlari, og'zaki so'rovlar va pedagogik kuzatishlar) baholash jarayonining ko'p vaqt talab etishi, natijalarning subyektiv omillarga bog'liqligi hamda ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish dinamikasini to'liq aks ettira olmasligi aniqlandi. Shu sababli pedagogik tashxisning an'anaviy va raqamli texnologiyalar asosidagi yondashuvlari qiyosiy tahlil qilindi (1-jadval).

samaradorligi oshdi. Biroq individual yondashuv hamda tashxis natijalarini pedagogik qarorlar bilan integratsiya qilish bo'yicha metodik takomillashtirish zarurligi saqlanib qolmoqda. Bu holat raqamli texnologiyalarning samaradorligi ko'p jihatdan ularni qo'llash metodikasiga bog'liqligini ko'rsatadi.

Raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan pedagogik tashxis jarayoni tahlili yuqori natijalarni qayd etdi. Elektron test tizimlari,

1-jadval.

Tajriba va nazorat guruhleri ko'rsatkichlarining qiyosiy tahlili

Ko'rsatkichlar	Nazorat guruhi (%)	Tajriba guruhi (%)	Farq (%)
Baholash aniqligi	72	90	+18
Tezkorlik	65	88	+23
Obyektivlik	70	92	+22
Monitoring imkoniyati	68	91	+23

Izoh: Jadvaldagi ko'rsatkichlar tajriba-sinov natijalari asosida shakllantirilib, nazorat va tajriba guruhleri o'rtasidagi farq statistik jihatdan ishonchli ekanligi ($p < 0,05$) bilan tasdiqlandi.


Tajriba-sinov natijalari tahlili shuni ko'rsatdiki, raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan pedagogik tashxis jarayoni nazorat guruhiga nisbatan yuqori natijalarni qayd etdi. Xususan, tajriba guruhida baholash natijalarining aniqligi va ishonchliligi oshgani, baholash jarayoniga sarflanadigan vaqt kamaygani hamda obyektivlik darajasi yuqorilgani kuzatildi. Statistik tahlil natijalari guruhlar o'rtasidagi farqning ishonchliligini tasdiqladi ($p < 0,05$). Bu esa raqamli texnologiyalarning pedagogik tashxis samaradorligini oshirishdagi muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

1-jadvalda keltirilgan qiyosiy tahlil natijalari pedagogik tashxisni raqamli texnologiyalar asosida amalga oshirish baholash jarayonining aniqligi, tezkorligi va obyektivligini oshirish imkonini berishini ko'rsatadi. Raqamli tashxis vositalari o'zlashtirish dinamikasini monitoring qilish va natijalarni tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytirdi. Natijada pedagogik boshqaruv

onlayn monitoring platformalari va raqamli baholash vositalaridan foydalanish orqali ta'lim oluvchilarning bilim darajasi, o'quv faoliyati va rivojlanish dinamikasi bo'yicha tizimli va muntazam axborotlar olish imkoniyati yaratildi. Natijada pedagogik tashxis jarayonining tezkorligi va obyektivligi sezilarli darajada oshdi.

Tadqiqot davomida raqamli texnologiyalar pedagogik tashxis jarayonida quyidagi asosiy imkoniyatlarni ta'minlashi aniqlandi [10]:

- baholash jarayonini avtomatlashtirish orqali inson omili ta'sirini kamaytirish;
 - ta'lim oluvchilarning individual o'zlashtirish darajasini real vaqt rejimida monitoring qilish;
 - pedagogik tashxis natijalarini analitik va vizual shaklda taqdim etish;
 - pedagogik qarorlarni tezkor va asoslangan holda qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirish.
- Shuningdek, tahlil natijalari raqamli texnologiyalar pedagogik tashxis jarayonida shaxsga



1-rasm. Pedagogik tashxis samaradorligini baholash mexanizmi.

yo'naltirilgan yondashuvni samarali amalga oshirish imkonini berishini ko'rsatdi. Raqamli tashxis vositalari yordamida ta'lim oluvchilarning individual ehtiyojlari, o'quv qiyinchiliklari va rivojlanish sur'atlari aniqlanib, individual ta'lim traektoriyalarini shakllantirish uchun zarur axborot bazasi yaratildi.

Tajriba-sinov ishlari natijalari raqamli texnologiyalar asosida amalga oshirilgan pedagogik tashxisning samaradorligi an'anaviy tashxis usullariga nisbatan yuqoriligini ko'rsatdi. Xususan, baholash natijalarining aniqligi va ishonchliligi oshib, pedagogik faoliyatni rejalashtirish va tuzatish jarayonlari yanada maqsadli tashkil etildi.

Umumiy tahlil natijalari raqamli texnologiyalar pedagogik tashxis jarayonini faqat baholash vositasi sifatida emas, balki ta'lim jarayonini boshqarishning samarali mexanizmi sifatida namoyon etishini ko'rsatadi. Raqamli tashxis natijalariga asoslangan pedagogik qarorlar ta'lim sifatini oshirish, o'quv jarayonini individuallashtirish va pedagogik faoliyatni modernizatsiya qilishga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotda pedagogik tashxis jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi empirik va statistik asosda tahlil qilindi. Olingan natijalar raqamli texnologiyalar pedagogik tashxisning aniqligi, tezkorligi va obyektivligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatdi. Tajriba-sinov natijalariga ko'ra, raqamli baholash vositalari qo'llanilgan tajriba guruhida baholash ko'rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan yuqori bo'lib, guruhlar o'rtasidagi farq statistik jihatdan ishonchli ekanligi ($p < 0,05$) aniqlandi.

Tadqiqot natijalari pedagogik tashxisni faqat baholash vositasi sifatida emas, balki ta'lim jarayonini boshqarishning samarali mexanizmi sifatida ko'rib chiqish zarurligini asoslab berdi. Raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan tashxis jarayoni ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlarini aniqlash, ularning o'zlashtirish dinamikasini monitoring qilish hamda pedagogik qarorlar qabul qilish jarayonini optimallashtirish imkonini beradi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi pedagogik tashxisda raqamli texnologiyalar samaradorligini diagnostik, analitik hamda boshqaruv mezonlari asosida kompleks baholash mexanizmining ishlab chiqilganligi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, tadqiqot natijalari raqamli pedagogik tashxisni amaliyotga joriy etishning metodik asoslarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatdi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

- pedagogik tashxis jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligini baholash uchun ilmiy asoslangan miqdoriy va sifatli mezonlar tizimini ishlab chiqish;
- pedagoglarning raqamli baholash va ta'limiy analitika bo'yicha kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish;
- raqamli pedagogik tashxis vositalarini ta'lim jarayoniga tizimli integratsiya qilish;
- ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlarini hisobga oluvchi adaptiv baholash tizimlarini joriy etish;
- kelgusidagi tadqiqotlarda sun'iy intellekt asosidagi pedagogik tashxis tizimlarini kengroq empirik asosda o'rganish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – O‘RQ–637. – 23.09.2020-y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. – PF–6079. – 05.10.2020-y.
3. Abdullayeva N.A. Ta’lim jarayonida baholash va monitoring tizimlarini takomillashtirish masalalari // *Pedagogik ta’lim ilmiy-amaliy jurnali*. – 2021. – №4. – B. 45–49.
4. Венецкий И. Г. Математико-статистический анализ контроля учебного процесса по математике в вузе с применением ЭВМ. – М.: НИИВШ, 1975. – 63 с.
5. Jurane-Bremene A. Digital Assessment in Technology-Enriched Education: Thematic Review // *Education Sciences*. – 2023. – Vol. 13, №5. – URL: <https://www.mdpi.com/2227-7102/13/5/522>
6. Jamoldinova O., Ziyoyeva M. Raqamli ta’lim texnologiyalari vositasida pedagogika fanlarini o‘qitish samaradorligini oshirish // *Sambhram Xabarnomasi*. – 2023. – URL: <https://jurnal.sambhram.uz/index.php/JOURNAL/article/view/88>
7. Klauer K. I. Handbuch der pädagogischen Diagnostik. – Düsseldorf: Schwann, 1978.
8. Ингенкамп К. Педагогическая диагностика / пер. с нем. – М.: Педагогика, 1991. – 240 с.
9. Pulotov A. M. O‘quvchilar bilimi darajasini aniqlashda pedagogik tashxis usullaridan foydalanish // *Pedagogik mahorat ilmiy-nazariy va metodik jurnali*. – 2024. – №10. – B. 69–72. – ISSN 2181-6833.
10. Pulotov A. M. Pedagogik tashxisda milliy tarbiya qadriyatlarini qo‘llashning metodik asoslari // *Fan va ta’lim integratsiyasi ilmiy jurnali*. – 2025. – №10. – B. 203–207. – ISSN 2992-9210.
11. Memarian B., Doleck T. Teaching and learning artificial intelligence: Insights from the literature // *Education and Information Technologies*. – 2024. – URL: <https://link.springer.com/article/10.1007/s10639-024-12679-y>
12. Pektas H. M., Karamustafaoglu O., Çelik H. The Role of Educational Data Mining and AI-Supported Learning Analytics on Conceptual Change // *Journal of Science Education and Technology*. – 2025. – URL: <https://link.springer.com/article/10.1007/s10956-025-10214-3>
13. Ogunleye B., Zakariyyah K. I., Ajao O., Sharma H. Higher education assessment practice in the era of generative AI tools [Elektron resurs] // arxiv preprint. – 2024. – URL: <https://arxiv.org/abs/2404.01036>
14. Orlovskiy I. V., Tymoshenko O. A. Development of Testing Methodology in Mathematics Education in the Context of Digitalization [Elektron resurs] // arXiv preprint. – 2025. – URL: <https://arxiv.org/abs/2512.18418>
15. Latif E., Mai G., Nyaaba M., Wu X., Liu N., Lu G., Li S., Zhai X. AGI: Artificial General Intelligence for Education [Elektron resurs] // arxiv preprint. – 2023. – URL: <https://arxiv.org/abs/2304.12479>
16. Lapina M., Bogatyreva Y., Privalov A., Romanov V. Development of Competences of the Digital Economy of Teachers in the Conditions of Digital Transformation Education // *CEUR Workshop Proceedings*. – 2021. – Vol. 2861. – URL: https://ceur-ws.org/Vol-2861/paper_16.pdf
17. Гусева Н.В. Педагогическая диагностика процесса обучения иностранному языку курсантов военных вузов: автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Москва, 2021. – 24 с.

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA UMUMTA'LIM MAKTABLARI O'QITUVCHILARINING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

*Shukurova Zarifa Xaitmurovatovna,
Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat
milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi
tel: +998915882445
shukurovazarifa577@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli ta'lim muhiti sharoitida umumta'lim maktablari o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlash masalasi tizimli va qiyosiy tahlil asosida o'rganildi. Tadqiqot doirasida Yevropa mamlakatlari, AQSh, Finlandiya, Janubiy Koreya va Singapur ta'lim tizimlarida qo'llanilayotgan ilg'or tajribalar tahlil qilinib, ularning o'ziga xos jihatlari aniqlandi. Tadqiqot natijasida mazkur davlatlarda pedagoglarning kasbiy rivojlanishi kompetensiyaga asoslangan yondashuv, individuallashtirilgan o'qitish strategiyalari hamda raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashgan holda amalga oshirilishi ko'rsatildi. Maqolada DigCompEdu modeli, ISTE standartlari, "smart education" konsepsiyasi hamda "Teacher Growth Model"ning nazariy asoslari va amaliy ahamiyati yoritildi. Shuningdek, lifelong learning, blended learning, microlearning va Professional Learning Communities (PLC) kabi innovatsion yondashuvlarning pedagoglar kasbiy rivojlanishidagi o'rni ochib berildi. Xorijiy tajribalarni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish zarurligi asoslanib, pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini takomillashtirish bo'yicha mualliflik xulosalari ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim muhiti, uzluksiz kasbiy rivojlanish, pedagog raqamli kompetensi-

yasi, DigCompEdu, ISTE standartlari, professional hamkorlik (PLC), aralash o'qitish (blended learning), qiyosiy tahlil.

Обеспечение непрерывного профессионального развития учителей общеобразовательных школ в условиях цифровой образовательной среды: зарубежный опыт и современные подходы

Шукурова Зарифа Хаитмуратовна,
самостоятельный исследователь
Национального института педагогического
мастерства имени Абдуллы Авлони

Аннотация: В данной статье исследованы теоретические и практические аспекты обеспечения непрерывного профессионального развития учителей общеобразовательных школ в условиях цифровой образовательной среды. В рамках исследования проведён сравнительный анализ передового опыта стран Европы, США, Финляндии, Южной Кореи и Сингапура. По результатам анализа установлено, что в указанных странах профессиональное развитие педагогов осуществляется на основе компетентностного подхода, индивидуализирован-

ных стратегий обучения и интеграции цифровых технологий в образовательный процесс. В статье раскрыты содержание и значение модели DigCompEdu, стандартов ISTE, концепции “smart education” и модели “Teacher Growth Model”. Кроме того, рассмотрена роль таких инновационных подходов, как *lifelong learning*, *blended learning*, *microlearning* и профессиональные сообщества учителей (PLC), в профессиональном развитии педагогов. Обоснована необходимость адаптации зарубежного опыта к национальной системе образования и сформулированы авторские выводы по совершенствованию системы непрерывного профессионального развития педагогов.

Ключевые слова: цифровая образовательная среда, непрерывное профессиональное развитие, цифровая компетентность педагога, DigCompEdu, стандарты ISTE, профессиональное сообщество учителей (PLC), смешанное обучение (*blended learning*), сравнительный анализ.

Ensuring continuous professional development of school teachers in a digital learning environment: foreign experience and modern approaches

Shukurova Zarifa Khaitmuratovna,

Independent Researcher of the National Institute of Pedagogical Skills named after Abdulla Avloni

Abstract: *This article studies the theoretical and practical aspects of ensuring continuous professional development of school teachers in a digital learning environment. It analyzes comparatively the advanced practices implemented in Europe, the United States, Finland, South Korea, and Singapore. The findings determine that in these countries, teachers’ professional development is built upon a competency-based approach, individualized learning strategies, and the integration of digital technologies into educational processes. The article highlights the content and significance of the DigCompEdu model, ISTE standards, the concept of smart education, and the Teacher Growth Model. Furthermore, the study explores the role of innovative approaches such as lifelong learning, blended learning, microlearning, and Professional Learning Communities (PLC) in teachers’ professional development. It substantiates the necessity of adapting international experience to the national education system, and formulated authorial conclusions on improving the teachers’ continuous professional development.*

Keywords: *digital learning environment, continuous professional development, teacher’s digital competence, DigCompEdu, ISTE standards, professional learning communities (PLC), blended learning, comparative analysis.*

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biriga aylanib, ta’lim tizimiga ham sezilarli ta’sir ko’rsatmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi natijasida ta’lim jarayonining mazmuni, shakli va metodlari tubdan yangilanib, an’anaviy o’qitish yondashuvlari o’rnini raqamli vositalarga asoslangan innovatsion pedagogik texnologiyalar egallamoqda [14]. Bu esa ta’lim tizimining barcha ishtirokchilari,

ayniqsa pedagog kadrlar oldiga yangi talablarni qo’yimoqda.

Bugungi kunda o’qituvchidan faqatgina o’z fanini mukammal bilish emas, balki raqamli kompetensiyalarga ega bo’lish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish, interaktiv va innovatsion o’qitish usullarini qo’llay olish ham talab etilmoqda [17]. Shu nuqtai nazardan, pedagog kadrlarning kasbiy faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirib borish, ularning bilim va ko’nikmalarini zamon

talablariga mos ravishda yangilash zarurati yuzaga kelmoqda.

Zamonaviy ta'lim tizimida pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi (continuous professional development) ta'lim sifatini oshirishning asosiy shartlaridan biri sifatida qaraladi [10]. Ayniqsa, raqamli ta'lim muhiti sharoitida ushbu jarayonni samarali tashkil etish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Raqamli muhit pedagoglarga yangi bilimlarni egallash, masofaviy ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish, ilg'or tajribalarni o'rganish hamda professional hamkorlikni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi [16].

Shu bilan birga, mavjud amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'plab ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalar joriy etilgan bo'lsa-da, ularning pedagoglar kasbiy rivojlanishiga ta'siri har doim ham yuqori darajada samarali emas [18]. Bu esa mazkur jarayonni nazariy va metodik jihatdan chuqur o'rganish, samarali mexanizmlarini ishlab chiqish zaruratini belgilaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, raqamli ta'lim muhitida pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlash masalasi zamonaviy pedagogika fanining dolzarb ilmiy muammolaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda raqamli ta'lim muhiti sharoitida pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan xorijiy tajribalar qiyosiy-tahliliy asosda tizimlashtirildi hamda ularni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish bo'yicha mualliflik yondashuvi taklif etildi.

Mazkur tadqiqotda pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini o'rganishda qiyosiy-tahliliy, kontent-analiz hamda tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Xorijiy tajribalar ilmiy manbalar asosida tahlil qilinib, ularning o'ziga xos jihatlari va umumiy tendensiyalari aniqlashtirildi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida mavjud nazariy qarashlar umumlashtirilib, mualliflik xulosalari ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini isloh qilish va pedagog kadrlarning kasbiy salohiyatini oshirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasida ta'lim sifatini oshirish, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini modernizatsiya qilish alohida vazifa sifatida ko'rsatib o'tilgan [1]. Ushbu strategik hujjatda ta'lim tizimini raqamlashtirish, o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini xalqaro standartlar darajasiga ko'tarish hamda uzluksiz ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish borasida aniq maqsad va vazifalar belgilab qo'yilgan.

So'nggi yillarda respublika miqyosida pedagog kadrlarning malakasini oshirishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, oliy ta'lim muassasalari, xususan pedagogika universitetlari va malaka oshirish institutlari faoliyati yangi metodologik asosda qayta tashkil etilmoqda. Ta'lim vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan o'qituvchilarni sertifikatlashtirish tizimi, kasbiy standartlar hamda pedagoglarning faoliyatini baholashning yangilangan mezonlari joriy etilmoqda [2].

Milliy ta'lim tizimida pedagoglarning kasbiy rivojlanishini ta'minlash bo'yicha bir qator tashkiliy-metodik chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yilgi qaroriga muvofiq, umumta'lim maktablari o'qituvchilarining malakasini oshirish tizimi takomillashtirilgan va raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish kengaytirilgan [2]. Shu bilan birga, Ziyonet milliy ta'lim tarmog'i va boshqa raqamli platformalar orqali pedagoglarga uzluksiz ta'lim imkoniyatlari yaratilmoqda. Mazkur platforma orqali o'qituvchilar elektron darsliklar, metodik qo'llanmalar va interaktiv o'quv materiallari bilan ishlash imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar.

Raqamli ta'lim infratuzilmasini rivojlantirish yo'nalishida ham sezilarli yutuqlarga

erishildi. Mamlakatning deyarli barcha umumta'lim maktablari internet tarmog'iga ulangan bo'lib, o'quv jarayonida interaktiv doskalar, elektron darsliklar va raqamli baholash vositalaridan foydalanish kengaymoqda [16]. Pedagoglarga esa axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha maxsus malaka oshirish kurslari tashkil etilmoqda.

Respublikamiz olimlari tomonidan pedagog kadrlarning kasbiy rivojlanishi, uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish hamda ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish masalalari ilmiy jihatdan o'rganilgan. Jumladan, Muslimov N.A. pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslarini ishlab chiqqan bo'lsa [9], Djurayev R.H. uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik jihatlarini yoritgan [6], Abduqodirov A.A. esa ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish metodikasini ilmiy asoslab bergan [3]. Saidahmedov N. pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslarini o'rganib, ularni milliy ta'lim amaliyotiga joriy etish mexanizmlarini ko'rsatib bergan [18].

Biroq milliy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini tizimli baholash mexanizmlari va individual rivojlanish trayektoriyalarini shakllantirish masalasi hali ham yetarlicha hal etilmagan [13]. Mamarasulov S.O. o'z tadqiqotida raqamli ta'lim muhitida pedagogik mahoratni rivojlantirishda interaktiv usullarning o'rnini o'rganib, bu sohada milliy tizimda tizimli yondashuvning yetishmasligini ko'rsatib bergan [17]. Bundan tashqari, Abdurasulova D.E. zamonaviy pedagogik texnologiyalarni raqamli ta'lim muhitida joriy etishning nazariy va amaliy asoslarini tahlil qilib, ularni moslashtirish va barqarorlashtirish jarayonlari ko'proq metodik va boshqaruv resurslarini talab qilishini aniqlagan [18]. Bu esa xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish va ularni

milliy sharoitlarga moslashtirishning zarurligini belgilaydi.

Raqamli ta'lim muhiti zamonaviy pedagogik jarayonning ajralmas tarkibiy qismi sifatida pedagog kadrlarning kasbiy rivojlanishida muhim o'rin egallaydi. Ushbu muhit pedagoglarga o'z bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini uzluksiz ravishda yangilab borish, innovatsion pedagogik yondashuvlarni o'zlashtirish hamda ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Xorijiy tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarda pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi tasodifiy yoki epizodik jarayon sifatida emas, balki tizimli, izchil va ilmiy asoslangan yondashuvlar doirasida tashkil etiladi.

Yevropa mamlakatlarida keng qo'llanilayotgan DigCompEdu modeli pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali vosita hisoblanadi [11]. Ushbu model doirasida pedagoglarning raqamli savodxonligi aniq mezonlar va indikatorlar asosida baholanadi hamda ularning kasbiy rivojlanish darajasi tizimli ravishda monitoring qilinadi. Model oltita sohani qamrab oladi: raqamli resurslar bilan ishlash, raqamli muhitda o'qitish va o'rganish, o'quvchilarni baholash, o'quvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish va o'qituvchining o'z kasbiy rivojlanishi.

AQSh ta'lim tizimida esa ISTE standartlari asosida pedagoglarning kasbiy rivojlanishi innovatsion yondashuvlar orqali tashkil etilgan bo'lib, bunda o'qituvchi o'quv jarayonining faqat bilim beruvchisi emas, balki uni boshqaruvchi va yo'naltiruvchi fasilitator sifatida qaraladi [8]. Mamarasulov S.O. ta'kidlaganidek, AQSh tajribasida o'qituvchilarni baholashda zamonaviy texnologiyalar, interaktiv platformalar, dars yozuvlari va tahlil metodlari keng qo'llaniladi [17]. Har bir pedagog faoliyati natijaviylik va samaradorlik orqali baholanadi.

Finlandiya tajribasi pedagoglarning kasbiy rivojlanishida ishonch, mustaqillik va refleksiv faoliyatga asoslanganligi bilan ajralib turadi [12]. Finlandiyada o'qituvchilar o'z kasbiy rivojlanish yo'lini mustaqil belgilash imkoniyatiga ega bo'lib, bu ichki motivatsiya va kreativlikni sezilarli darajada oshiradi.

Janubiy Koreyada "smart education" konsepsiyasi asosida ta'lim jarayoni keng miqyosda raqamlashtirilgan bo'lib, pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish tizimli ravishda yo'lga qo'yilgan [14]. Buyuk Britaniyada esa "Continuing Professional Development (CPD)" tizimi orqali o'qituvchilar o'zining har bir yillik faoliyatida kasbiy o'sish rejasini tuzadi va amalga oshiradi [17]. Onlayn kurslar, mentorlik, dars kuzatuvlari va malaka

oshirish modullari orqali o'qituvchining faoliyati izchil rivojlanadi.

Singapurda esa "Teacher Growth Model" asosida pedagoglarning kasbiy rivojlanishi individual rivojlanish trayektoriyasiga asoslangan holda tashkil etilib, ularning kasbiy o'sishi doimiy monitoring qilinadi. Singapur tajribasida "pedagog yetakchilik" konsepsiyasi orqali har bir o'qituvchi o'z maktabida innovatsion tashabbuslarni ilgari suradi va tajribali pedagoglar boshqalarni o'qitish bilan shug'ullanadi [17].

Xorijiy tajribalarni chuqur tahlil qilish asosida pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan yondashuvlar qiyosiy jihatdan umumlashtirildi va ularning asosiy ko'rsatkichlari quyidagi jadvalda aks ettirildi (1-jadval).

1-jadval.

Raqamli ta'lim muhitida pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlash bo'yicha xorijiy tajribalarning qiyosiy-tahliliy modeli

Hudud / davlat	Kasbiy rivojlanish modeli	Asosiy mexanizm	Pedagog faoliyatiga ta'siri	Cheklovlar	Milliy tizimga moslashtirish
Yevropa (EU)	DigComp Edu	Kompetensiyaga asoslangan darajaviy tizim	Raqamli kompetensiyalar tizimli rivojlanadi	Yuqori texnologik talab	Bosqichma-bosqich joriy etish mumkin
AQSh	ISTE standartlari	Innovatsion va student-centered yondashuv	O'qituvchi fasilitatorga aylanadi	Individual yondashuvni nazorat qilish murakkab	Metodik jihatdan moslashtirish mumkin
Finlandiya	Mustaqil rivojlanish modeli	Refleksiya va ishonchga asoslangan tizim	Ichki motivatsiya va kreativlik oshadi	Nazorat mexanizmi zaif	Qisman moslash mumkin
Janubiy Koreya	Smart education	To'liq raqamlashtirilgan ta'lim muhiti	Raqamli savodxonlik yuqori darajada shakllanadi	Yuqori moliyaviy talab	Infrastrukturaga bog'liq
Singapur	Teacher Growth Model	Individual rivojlanish + mentoring	Kasbiy o'sish monitoringi kuchli	Resurs talab yuqori	Juda samarali moslashtiriladi

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, rivojlangan ta'lim tizimlarida pedagoglarning kasbiy rivojlanishi asosan kompetensiyaga asoslangan yondashuv, individuallashtirilgan o'qitish va raqamli texnologiyalar integratsiyasi orqali amalga oshiriladi. Bizning fikrimizcha, ushbu tajribalarni milliy ta'lim tizimiga moslashtirishda ularning tashkiliy, texnologik va metodik jihatlarini kompleks tarzda uyg'unlashtirish zarur. Ayniqsa, individual rivojlanish trayektoriyasi va raqamli kompetensiyalarni baholash tizimini joriy etish – O'zbekiston ta'lim tizimi uchun eng maqbul va ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lishi lozim [11, 13, 14].

Innovatsion yondashuvlar: lifelong learning, blended learning, microlearning va PLC

Zamonaviy ta'lim tizimida pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlashda bir qator innovatsion yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuvlar an'anaviy malaka oshirish tizimining cheklovlarini bartaraf etib, pedagoglarning doimiy va mustaqil o'rganishiga zamin yaratadi.

Lifelong learning (umrbod o'rganish) yondashuvi pedagogning kasbiy rivojlanishini bir martalik malaka oshirish kurslari bilan cheklamasdan, balki butun faoliyat davomida uzluksiz bilim yangilash va kompetensiyalar rivojlantirish jarayoni sifatida ko'rib chiqishni talab etadi [10]. Ushbu yondashuv asosida rivojlangan davlatlarda pedagoglar rasmiy va norasmiy o'rganish kanallaridan foydalanib, o'z kasbiy salohiyatini doimiy ravishda boyitib boradilar. Raqamli ta'lim muhiti esa lifelong learning uchun zarur bo'lgan onlayn resurslar, MOOC-lar va virtual hamjamiyatlarga kirishni sezilarli darajada osonlashtiradi.

Blended learning (aralash o'qitish) yondashuvi an'anaviy to'yimdoshi bilan onlayn o'qitishni maqsadga muvofiq integratsiya qilish tamoyiliga asoslanadi [7]. Abdurasulova D.E.

tadqiqotida ko'rsatilganidek, aralash ta'lim o'quvchining mustaqil ishlash vaqtini kengaytiradi va o'quv jarayonini individuallashtiradi [18]. Pedagoglarning kasbiy rivojlanishiga nisbatan qo'llanilganda, blended learning ular uchun masofaviy va bevosita o'rganish imkoniyatlarini uyg'unlashtiradi hamda vaqt va geografik cheklovlarni bartaraf etadi.

Microlearning (mikro-o'rganish) yondashuvi katta hajmdagi o'quv materiallarini kichik, maqsadli va oson o'zlashtiriluvchi bo'laklarga ajratib o'rgatish g'oyasiga asoslanadi. Ushbu yondashuv pedagoglarga kundalik faoliyati davomida qisqa vaqt ichida yangi bilim va ko'nikmalarni egallash imkonini beradi. Raqamli platformalar, podcast va qisqa video darsliklar microlearning uchun qulay vosita bo'lib xizmat qiladi [4].

Professional Learning Communities – PLC (professional o'rganish hamjamiyatlari) yondashuvi pedagoglarni o'zaro tajriba almashinuv, muammolarni birgalikda hal etish va innovatsion pedagogik yondashuvlarni o'rganish maqsadida birlashtirishga yo'naltirilgan [10]. Mamarasulov S.O. ta'kidlaganidek, kasbiy hamjamiyatlar orqali tajriba almashinuvi pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi [17]. PLC tizimida pedagoglar o'z darslarini birgalikda tahlil qiladi, pedagogik muammolarga yechim izlaydi va bir-birini qo'llab-quvvatlaydi. Bu esa refleksiv faoliyatni rivojlantiradi, amaliy ko'nikmalarni mustahkamlaydi hamda ta'lim jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Raqamli ta'lim muhiti pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish faqat an'anaviy yondashuvlar bilan cheklanib qolmay, balki raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan innovatsion muhit orqali amalga oshirilishi zarur.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, rivojlangan davlatlar tajribasida pedagoglarning kasbiy rivojlanishi kompetensiyaga asoslangan, individuallashtirilgan va raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashgan tizim sifatida yo'lga qo'yilgan. Xususan, DigCompEdu modeli, ISTE standartlari, "smart education" konsepsiyasi hamda "Teacher Growth Model" kabi yondashuvlar pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda [8, 11, 12, 14].

O'zbekiston ta'lim tizimida ham ushbu yo'nalishda muhim qadamlar qo'yilmoqda: 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida pedagog kadrlarning kasbiy rivojlanishini ta'minlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan [1]. Milliy tadqiqotchilar Muslimov N.A., Djurayev R.H., Abduqodirov A.A. va boshqalarning ishlari mahalliy ta'lim tizimida ushbu masalaning nazariy asoslarini shakllantirish borasida muhim hissa qo'shgan [3, 6, 9]. Biroq Sodiqov R.T. ta'kidlaganidek, ta'lim muassasalarida pedagoglarning raqamli kompetensiyalari hali yetarlicha rivojlanmagan bo'lib, bu tizimli yondashuv zarurligini belgilaydi [16].

Olib borilgan tahlillar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, xorijiy tajribalarni milliy ta'lim tizimiga to'g'ridan-to'g'ri joriy etish emas, balki ularni mahalliy sharoitlarga moslashtirish orqali qo'llash maqsadga muvofiqdir. Abdurasulova D.E. ishida ko'rsatilganidek, pedagogik texnologiyalarni joriy etishda ularni tanlashdan ko'ra moslashtirish va barqarorlashtirish ko'proq metodik va boshqaruv resurslarini talab qiladi [18]. Ayniqsa, pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini baholash tizimini takomillashtirish, individual rivojlanish trayektoriyalarini joriy etish hamda raqamli ta'lim muhitining metodik asoslarini kuchaytirish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Raqamli ta'lim muhiti sharoitida pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlash uchun tizimli va kompleks yondashuv zarur.

Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqot asosida uchta ustuvor yo'nalish taklif etiladi.

Birinchidan, pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini baholash tizimini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tizim o'qituvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darajasini aniqlash, ularning kuchli va zaif tomonlarini baholash hamda kasbiy rivojlanish jarayonini maqsadli tashkil etishga xizmat qiladi. Raqamli kompetensiyalarni baholash xalqaro standartlar, xususan, DigCompEdu modeli asosida amalga oshirilishi tavsiya etiladi [11].

Ikkinchidan, pedagoglarning individual rivojlanish trayektoriyalarini shakllantirish zarur. Ushbu yondashuv har bir o'qituvchining kasbiy ehtiyojlari, bilim darajasi va faoliyat yo'nalishlarini inobatga olgan holda ularning shaxsiy rivojlanish yo'lini belgilashga asoslanadi. Individual trayektoriya asosida tashkil etilgan kasbiy rivojlanish jarayoni pedagoglarning motivatsiyasini oshiradi va o'quv jarayonining samaradorligini ta'minlaydi [12, 14].

Uchinchidan, pedagoglarning professional hamkorligini rivojlantirish, ya'ni Professional Learning Communities (PLC) tizimini joriy etish muhim hisoblanadi. Ushbu yondashuv doirasida o'qituvchilar o'zaro tajriba almas-hish, muammolarni birgalikda hal etish hamda innovatsion pedagogik yondashuvlarni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Professional hamkorlik pedagoglarning reflektiv faoliyatini rivojlantiradi, amaliy ko'nikmalarini mustahkamlaydi hamda ta'lim jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi [10, 17].

Shunday qilib, raqamli kompetensiyalarni baholash tizimi, individual rivojlanish trayektoriyalari va professional hamkorlik mexanizmlarining o'zaro integratsiyasi pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini samarali tashkil etishning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi. Milliy va xorijiy tajribalarni uyg'unlashtirish esa ta'lim tizimimizni yanada takomillashtirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). 2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida (PF-60-son Farmon). Toshkent.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2023). Umumta'lim maktablari o'qituvchilarining malakasini oshirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida (Qaror). Toshkent.
3. Abduqodirov, A. A. (2018). Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etish. Toshkent: Fan.
4. Anderson, T. (2008). The theory and practice of online learning. Athabasca University Press.
5. Darling-Hammond, L. (2017). Teacher education around the world: What can we learn from international practice? *European Journal of Teacher Education*, 40(3), p 291-309.
6. Djurayev, R. H. (2019). Uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish asoslari. Toshkent: O'qituvchi.
7. Fullan, M. (2013). *Stratosphere: Integrating technology, pedagogy, and change knowledge*. Pearson.
8. International Society for Technology in Education (ISTE). (2023). ISTE standards for educators. <https://iste.org/standards>
9. Muslimov N. A. (2017). Kasbiy ta'lim pedagogikasi. Toshkent: Fan va texnologiya.
10. OECD. (2023). TALIS 2023 results: Teachers and school leaders as lifelong learners. OECD Publishing.
11. Redecker C. (2022). European framework for the digital competence of educators: DigCompEdu. Publications Office of the European Union.
12. Schleicher A. (2018). World class: How to build a 21st-century school system. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/9789264300002-en>
13. Siemens, G. (2005). Connectivism: A learning theory for the digital age. *International Journal of Instructional Technology and Distance Learning*, 2(1), p 3-10.
14. UNESCO. (2022). ICT competency framework for teachers. UNESCO Publishing.
15. Voogt, J., & Roblin, N. P. (2012). A comparative analysis of international frameworks for 21st century competences. *Journal of Curriculum Studies*, 44(3), p 299-321.
16. Sodiqov, R. T. (2026). Raqamli texnologiyalar asosida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini samarali boshqarish. *Maktab ta'limi: muammolar, izlanishlar, yechimlar*, 3, 83-89 b.
17. Mamarasulov, S. O. (2025). Raqamli ta'lim muhitida pedagoglarning kasbiy mahoratini rivojlantirishda interaktiv usullarning o'rni. *Kasbiy pedagogik mahorat: ilg'or tajribalar va rivojlanish istiqbollari*, 322-325 b.
18. Abdurasulova, D. E. (2026). Raqamli ta'lim muhitida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishning nazariy va amaliy asoslari. *Maktab ta'limi: muammolar, izlanishlar, yechimlar*, 3, 138-144 b.

RAQAMLI VA QOG‘OZ FORMATDAGI MATNLARNI O‘QIB TUSHUNISH, DIQQAT VA LUG‘AT O‘ZLASHTIRISHNING QIYOSIY TAHLILI

*Eshonkulova Hilola Rajab qizi,
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat
milliy instituti tayanch doktoranti
hilolaeshonkulova909@gmail.com*

Аннотация: Ushbu maqolada xorijiy ilmiy tadqiqotlar tahlili asosida raqamli (ekran orqali) va qog‘oz formatdagi matnlarni o‘qishning o‘qib tushunish, diqqatni boshqarish va lug‘at o‘zlashtirish jarayonlariga ta‘siri qiyosiy o‘rganilgan. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, qog‘ozda o‘qish, ayniqsa murakkab va axborotli matnlarni hamda vaqt cheklangan vaziyatlarda o‘qib tushunish bo‘yicha ustunlikka ega. Ekran orqali o‘qishda esa diqqatning chalg‘ishi, yuzaki qayta ishlash va metakognitiv xatoliklar (o‘z tushunchasini ortiqcha baholash) ko‘proq kuzatiladi. Shu bilan birga, raqamli o‘qish samaradorligi matn mazmuniga mos interaktiv elementlar, o‘rinli qo‘llanilgan lug‘at vositalari va ayniqsa kattalar ya‘ni o‘qituvchi yoki ota-ona tomonidan ko‘rsatiladigan pedagogik qo‘llab-quvvatlash mavjud bo‘lganda sezilarli darajada oshishi mumkin. Maqola yakunida boshlang‘ich ta‘lim amaliyoti uchun oltita metodik tavsiya ishlab chiqilgan.

Калит so‘zlar: ekran orqali o‘qish, qog‘ozda o‘qish, o‘qib tushunish, diqqat, metakognitiv nazorat, boshlang‘ich ta‘lim, o‘qish savodxonligi.

Сравнительный анализ понимания прочитанного, внимания и усвоения словарного запаса при чтении цифровых и печатных текстов

Эшонкулова Хилола Ражаб кизи,
докторант Национального института педагогического мастерства имени А.Авлони

Аннотация: В данной статье на основе анализа зарубежных научных исследований проведено сравнительное изучение влияния чтения текстов в цифровом (экранном) и печатном форматах на понимание прочитанного, управление вниманием и усвоение словарного запаса. Результаты показывают, что чтение на бумаге имеет преимущества, особенно при работе со сложными и информационными текстами, а также в условиях ограниченного времени. В свою очередь, при экранном чтении чаще наблюдаются отвлечение внимания, поверхностная обработка информации и метакогнитивные ошибки (переоценка собственного понимания). Вместе с тем эффективность цифрового чтения может существенно повышаться при наличии интерактивных элементов, соответствующих содержанию текста, адекватных инструментов поддержки словарного запаса и, особенно, педагогической поддержки со стороны взрослых (учителей или родителей). В заключение статьи предложены шесть методических рекомендаций для практики начального образования.

Ключевые слова: экранное чтение, чтение на бумаге, понимание прочитанного, внимание, метакогнитивный контроль, начальное образование, читательская грамотность

Comparative analysis of reading comprehension, attention, and vocabulary acquisition in reading digital and print text

Eshonkulova Hilola Rajab qizi,

Doctoral candidate of the National Institute of Pedagogical Skills named after A. Avloni

Abstract: *This article comparatively analyzes impact of reading digital (screen-based) and print formats texts on reading comprehension, attention management, and vocabulary acquisition, based on the international scientific-research analysis. The findings indicate that a print format text reading, particularly for comprehending complex and informative texts in time-bounded situations has advantages. In contrast, screen-based reading is more often*

associated with attentional distractions, superficial processing, and metacognitive errors (overestimation of one's own understanding). At the same time, interactive elements aligned with the text content, appropriate vocabulary support tools, and especially pedagogical guidance from adults (teachers or parents) significantly enhance the effectiveness of digital reading. The article proposes six methodological recommendations for using in primary education practice.

Keywords: *screen-based reading, print reading, reading comprehension, attention, metacognitive monitoring, primary education, reading literacy*

So'nggi yillarda ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida o'quv jarayonining mazmuni va shakli tubdan o'zgarib bormoqda. Ayniqsa, o'qish faoliyatining an'anaviy shakli – qog'oz formatdagi matnlarni o'qish bilan bir qatorda raqamli formatdagi matnlarni o'qish keng qo'llanila boshladi. Bu esa, o'quvchilarning o'qib tushunish darajasi, diqqatni boshqarish va matnni qayta ishlash jarayonlariga turlicha ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli qog'oz va raqamli formatdagi matnlarni o'qishning kognitiv va pedagogik jihatlarini ilmiy asosda o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'qish formati o'quvchilarning matnni tushunish darajasiga bevosita ta'sir qiladi. Xususan, qog'oz formatdagi matnlarni o'qish ko'pincha matnni chuqurroq anglashga yordam berishi aniqlangan [1]. Raqamli formatdagi matnlarni o'qishda esa o'quvchilar ko'pincha yuzaki qayta ishlashga moyil bo'lib, bu holat ilmiy adabiyotlarda "ekran pastligi effekti" sifatida izohlanadi [2]. Mazkur farq ayniqsa murakkab axborotli matnlarni o'qishda va vaqt cheklovi mavjud sharoitda yanada yaqqol namoyon bo'ladi.

Raqamli formatdagi matnlarni o'qish jarayonining o'ziga xos jihatlaridan biri bu diqqatning

chalg'ishi holatining ko'proq kuzatilishidir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli formatdagi matnlarni o'qishda o'quvchilar ko'proq tashqi va ichki chalg'ituvchi omillarga duch keladi, bu esa matn mazmunini to'liq anglashga salbiy ta'sir ko'rsatadi [5]. Ayniqsa, vaqt bosimi mavjud bo'lgan vaziyatlarda raqamli formatdagi matnlarni o'qish natijalari sezilarli darajada pasayishi aniqlangan [3]. Bu holat o'quvchilarning diqqatni boshqarish va o'z o'qish jarayonini nazorat qilish qobiliyatlari bilan bevosita bog'liqdir.

Bundan tashqari, raqamli muhitda o'qish jarayoni o'quvchilarning metakognitiv nazorat darajasiga ham ta'sir ko'rsatadi. Ayrim tadqiqotlarda o'quvchilar raqamli formatdagi matnlarni o'qiganda o'z tushunish darajasini ortiqcha baholashga moyil bo'lishi aniqlangan [4]. Bu esa, o'qish jarayonida yuzaga keladigan xatolarni o'z vaqtida aniqlash va tuzatish imkoniyatini kamaytiradi. Natijada, o'qib tushunish darajasi pasayadi va o'quv jarayonining samaradorligi kamayadi.

Shu bilan birga, barcha tadqiqotlar raqamli formatdagi matnlarni o'qishni faqat salbiy baholamaydi. Ayrim ilmiy ishlarda raqamli formatdagi kitoblarga kiritilgan mazmunga mos qo'shimchalar, masalan, audiomatnlar, animat-

siyalar va interaktiv elementlar o'quvchilarning o'qish jarayoniga jalb etilishini oshirishi mumkinligi ta'kidlanadi [8]. Biroq bu qo'shimchalar har doim ham ijobiy natija bermaydi. Agar ular matn mazmuniga mos kelmasa, aksincha, diqqatni chalg'itib, o'qib tushunishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin [9].

Yuqoridagi ilmiy qarashlar asosida aytish mumkinki, raqamli va qog'oz formatdagi matnlarni o'qish jarayoni murakkab kognitiv jarayon bo'lib, unda diqqat, xotira, metakognitiv nazorat va matnni qayta ishlash strategiyalari muhim rol o'ynaydi. Shu nuqtayi nazardan, ayniqsa boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning o'qish savodxonligini shakllantirishda matn formati va o'qish muhitining ta'sirini chuqur o'rganish zarur.

Mazkur maqolaning maqsadi – raqamli va qog'oz formatdagi matnlarni o'qishning o'qib tushunish, diqqatni boshqarish va lug'at o'zlashtirishga ta'sirini xorijiy ilmiy tadqiqotlar asosida qiyosiy tahlil qilishdan iborat.

O'qib tushunish o'qish savodxonligining asosiy komponentlaridan biri bo'lib, u matn mazmunini anglash, tahlil qilish va baholash jarayonlarini o'z ichiga oladi. Zamonaviy ta'limda o'qish faoliyatining turli formatlarda amalga oshirilishi, ya'ni qog'oz va raqamli formatdagi matnlarni o'qish – ushbu jarayonning samaradorligiga turlicha ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, ushbu ikki formatning o'qib tushunishga ta'sirini qiyosiy o'rganish muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Xorijiy tadqiqotlar natijalariga ko'ra, qog'oz formatdagi matnlarni o'qish ko'pincha matnni chuqurroq anglash imkonini beradi. Masalan, meta-tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar qog'oz fotmatli matnni o'qiganda, raqamli formatdagi matnlarni o'qishga nisbatan yuqoriroq natijalarni ko'rsatadi [1]. Bu holat ilmiy adabiyotlarda “qog'oz ustunligi effekti” sifatida izohlanadi. Aksincha, raqamli formatdagi matnlarni o'qishda kuzatiladigan

nisbatan past natijalar “ekran pastligi effekti” deb yuritiladi [2].

Mazkur farqning asosiy sabablaridan biri o'qish jarayonida axborotni qayta ishlashning chuqurligi bilan bog'liq. Qog'oz formatdagi matnlarni o'qish jarayonida o'quvchilar matnni izchil va diqqat bilan o'qishga moyil bo'lsa, raqamli formatdagi matnlarni o'qishda ko'pincha tez ko'z yugurtirish, ya'ni skanerlash kuzatiladi. Bu esa, matnning mazmuniy bog'lanishlarini to'liq anglashga to'sqinlik qiladi. Shu nuqtayi nazardan, raqamli formatdagi o'qish ko'pincha yuzaki qayta ishlash bilan xarakterlanadi [7].

Bundan tashqari, matn turi ham o'qib tushunishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli formatdagi matnlarni o'qishda, ayniqsa, axborotli (ilmiy) matnlarni tushunish darajasi pasayadi, badiiy matnlarda esa bu farq unchalik katta emas [2]. Buning sababi shundaki, axborotli matnlar ko'proq kognitiv yuklama talab qiladi, ya'ni o'quvchidan murakkab g'oyalarni tushunish, ularni bog'lash va umumlashtirishni talab etadi. Raqamli formatda esa bu jarayon diqqatning chalg'ishi va yuzaki o'qish sababli murakkablashadi.

O'qib tushunishga ta'sir etuvchi muhim omillardan yana biri bu vaqt omilidir. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, vaqt bosimi mavjud bo'lgan sharoitda raqamli formatdagi matnlarni o'qish natijalari sezilarli darajada pasayadi [3]. Bunday vaziyatda o'quvchilar matnni chuqur tahlil qilish o'rniga tezroq yakunlashga intiladi, bu o'z navbatida, mazmunni to'liq anglamalikka olib keladi. Qog'oz formatdagi matnlarni o'qishda esa o'quvchilar o'z o'qish tezligini yaxshiroq boshqaradi va matnga chuqurroq e'tibor qaratadi.

Shu bilan birga, raqamli formatdagi matnlarni o'qishning ijobiy jihatlari ham mavjud. Ayrim tadqiqotlarda raqamli formatdagi matn mazmunga mos interaktiv elementlar o'quv-

chilarning matnga qiziqishini oshirishi va o'qish jarayonini faollashtirishi mumkinligi ta'kidlanadi [8]. Masalan, matnga mos animatsiyalar, audio yoki vizual vositalar matn mazmunini yaxshiroq tushunishga yordam berishi mumkin. Biroq, bu elementlar faqat matn mazmuniga mos bo'lgan taqdirdagina ijobiy natija beradi.

Aksincha, mazmunga aloqador bo'lmagan interaktiv elementlar o'quvchilarning diqqatini

Shu sababli boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishda matn formatini to'g'ri tanlash, shuningdek, raqamli formatdagi matnlarni o'qish jarayonini metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi tahlillarni umumlashtirgan holda, qog'oz va raqamli formatdagi matnlarni o'qishning asosiy farqlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Qog'oz va raqamli formatdagi matnlarni o'qishning asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha qiyosiy tahlili

Ko'rsatkich	Qog'oz formatdagi matnlarni o'qish	Raqamli formatdagi matnlarni o'qish
O'qib tushunish darajasi	Yuqori	Nisbatan past
Axborotni qayta ishlash	Chuqur	Yuzaki
Diqqat holati	Barqaror	Ko'proq chalg'ish
Vaqt bosimida natija	Nisbatan barqaror	Keskin pasayadi
Metakognitiv nazorat	Aniqroq baholash	Ortiqcha baholash
Interaktivlik	Cheklangan	Yuqori
Lug'at o'zlashtirish	Kattalar yordamida samarali	Lug'at vositalari bilan samarali
Kattalar roli	Juda muhim	Ba'zan kamayadi, lekin zarur

chalg'itadi va o'qib tushunishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, raqamli formatdagi kitoblarda o'yin elementlari yoki ortiqcha animatsiyalar o'quvchilarning e'tiborini asosiy matndan chalg'itib, mazmunni anglash jarayoniga to'sqinlik qilishi mumkin [9]. Bu esa, o'qish jarayonida asosiy e'tibor matn mazmuniga emas, balki texnik elementlarga qaratilishiga olib keladi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, qog'oz va raqamli formatdagi matnlarni o'qish o'rtasidagi farq faqat texnik vosita bilan emas, balki o'qish jarayonining kognitiv xususiyatlari bilan bog'liqdir. Qog'oz formatdagi matnlarni o'qish chuqurroq tushunishga yordam bersa, raqamli formatdagi matnlarni o'qish ko'proq diqqatni talab qiladi va noto'g'ri tashkil etilgan holatda o'qib tushunishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, qog'oz formatdagi matnlarni o'qish ko'plab kognitiv ko'rsatkichlar bo'yicha ustunlikka ega. Ayniqsa, diqqatning barqarorligi va chuqur qayta ishlash jarayoni o'qib tushunish darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Raqamli formatdagi matnlarni o'qishda esa diqqatning chalg'ishi va metakognitiv xatoliklar ko'proq kuzatiladi.

Raqamli formatdagi matnlarni o'qish jarayonining o'ziga xos jihatlaridan biri bu diqqatni boshqarish, metakognitiv nazorat va vaqt omilining o'zaro bog'liqligidir. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, aynan ushbu omillar raqamli formatdagi matnlarni o'qishda o'qib tushunish darajasining pasayishiga asosiy sabab bo'lishi mumkin.

Ta'lim jarayonida raqamli va qog'oz formatli matnlarni o'qish vositalaridan muvozanatli foydalanish zarur bo'lib, raqamli for-

matdagi o'qish tezkor axborot olishga xizmat qilsa, bosma o'qish chuqur tahliliy fikrlashni rivojlantiradi. Shu bilan birga, o'quvchilarda raqamli muhitda samarali o'qish ko'nikmalarini shakllantirish alohida e'tibor talab etadi [16].

Avvalo, raqamli formatdagi matnlarni o'qishda diqqatning chalg'ishi muammosi alohida ahamiyatga ega. Mindwandering – bu o'quvchining e'tiborining matndan uzilib, ichki fikrlar yoki tashqi omillarga yo'naltirishi jarayonidir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, diqqatning bunday chalg'ishi o'qib tushunishga salbiy ta'sir ko'rsatadi [5]. Ekran muhitida o'qish jarayoni esa, aynan, shu holatni kuchaytiradi, chunki o'quvchilar raqamli qurilmalarga ko'proq interaktiv va ko'p vazifali faoliyat vositasi sifatida qaraydi.

Shuningdek, raqamli formatdagi matnlarni o'qishda o'quvchilar ko'pincha tezkor axborot qidirish va yuzaki o'qish uslubiga o'rganib qoladi. Bu esa, matnni chuqur anglash o'rniga qisqa muddatli va fragmentar qabul qilishga olib keladi. Shu jihatdan, raqamli formatdagi matnlarni o'qish ko'pincha diqqatning barqaror emasligi va uzluksiz e'tiborning yetishmasligi bilan xarakterlanadi [6].

Diqqat bilan bog'liq muammolar ayniqsa vaqt bosimi mavjud bo'lgan vaziyatlarda yanada kuchayadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, vaqt cheklangan sharoitda raqamli formatli matnlarni o'qiyotgan o'quvchilar matnni kamroq tushunadi [3]. Buning sababi shundaki, vaqt bosimi o'quvchilardan tez va samarali ishlashni talab qiladi, biroq ekran muhitida diqqatni boshqarish murakkablashadi. Natijada, o'quvchilar matnni chuqur tahlil qilish o'rniga tezkor va yuzaki o'qishga o'tadi.

Bundan tashqari, vaqt bosimi sharoitida o'quvchilarning diqqatni moslashtirish qobiliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, qog'ozda o'qiyotgan o'quvchilar vaqt bosimi sharoitida diqqatni yaxshiroq boshqara oladi, ya'ni ular chalg'ish darajasini

kamaytirishga muvaffaq bo'ladi. Raqamli formatdagi matnlarni o'qiyotgan o'quvchilarda esa bunday moslashuv kuzatilmaydi, bu esa ularning o'qib tushunish natijalariga salbiy ta'sir qiladi [2].

Raqamli formatdagi matnlarni o'qishning yana bir muhim jihati bu metakognitiv nazorat bilan bog'liq. Metakognitiv nazorat – bu o'quvchining o'z o'qish jarayonini kuzatish, tushunish darajasini baholash va zarur bo'lsa, o'z strategiyasini o'zgartirish qobiliyatidir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli formatdagi matnlarni o'qishda o'quvchilar o'z tushunish darajasini noto'g'ri baholashga moyil bo'ladi [4].

Xususan, o'quvchilar raqamli formatdagi matnlarni o'qiganda ko'pincha o'zlarini matnni yaxshi tushundim deb hisoblaydi, biroq test natijalari bu fikrni tasdiqlamaydi. Bu holat “metakognitiv xatolik” sifatida qaraladi va o'qish samaradorligini pasaytiradi. Ayniqsa, vaqt bosimi mavjud bo'lgan sharoitda bu xatolik yanada kuchayadi, chunki o'quvchilar o'z faoliyatini chuqur tahlil qilishga vaqt ajratmaydi.

Metakognitiv nazoratning susayishi diqqatning chalg'ishi bilan o'zaro bog'liq bo'lishi mumkin. Bir tomondan, diqqatning tez-tez chalg'ishi o'quvchining o'z tushunish darajasini to'g'ri baholashiga to'sqinlik qiladi. Ikkinchi tomondan esa, o'quvchining o'zini ortiqcha baholashi uning diqqatini yanada bo'shashtirib, chalg'ish ehtimolini oshiradi. Shu sababli, ushbu ikki omil o'zaro ta'sir qilib, raqamli formatdagi o'qishda o'qib tushunish darajasini pasaytiradi.

Raqamli formatdagi o'qishda kuzatiladigan yana bir muhim fenomen bu yuzaki o'qish hisoblanadi. Ushbu hodisa o'quvchilarning matnni chuqur tahlil qilish o'rniga tezkor va yuzaki o'qishga o'tishi bilan izohlanadi. Tadqiqotchilar bu jarayonni raqamli muhitda shakllangan o'qish odatlari bilan bog'laydi, ya'ni o'quvchilar ko'pincha raqamli formatdagi matnlarni o'qishda matnni tez ko'zdan kechirishga odatlanadi [7].

Shunday qilib, raqamli formatdagi matnlarni o'qishda diqqat, metakognitiv nazorat va vaqt omili o'zaro murakkab bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Ushbu omillarning uyg'unlashuvi o'quvchilarning o'qib tushunish darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida bu omillarni hisobga olgan holda o'qish jarayonini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli formatdagi matnlarni o'qish samaradorligi nafaqat o'qish formati, balki raqamli materiallarning ichki tuzilishi, ya'ni dizayn xususiyatlari, tilni rivojlantiruvchi elementlar va o'qish jarayonida ko'rsatiladigan pedagogik qo'llab-quvvatlash darajasi bilan ham bevosita bog'liqdir. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli kitoblarning samaradorligi ularning qanday ishlab chiqilganiga bog'liq holda keskin farq qilishi mumkin.

Avvalo, raqamli kitoblar dizayni o'qib tushunish muhim ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlarga ko'ra, matn mazmuniga mos keluvchi vizual va audio vositalar o'quvchilarning matnni yaxshiroq anglashiga yordam beradi [8]. Masalan, hikoya mazmuniga mos animatsiyalar yoki ovozli izohlar o'quvchilarga voqealar ketma-ketligini tushunishda yordam berishi mumkin. Bu jarayon multimodal o'rganish modeli bilan izohlanadi, bunda vizual va ovozli vositalar birgalikda ishlaganda o'rganish samaradorligi oshadi [10].

Biroq barcha raqamli qo'shimcha vositalar ham ijobiy ta'sir ko'rsatmaydi. Agar qo'shimcha vositalar matn mazmuniga bevosita bog'liq bo'lmasa, ular diqqatni chalg'ituvchi omilga aylanadi. Ayniqsa, o'yin elementlari yoki ortiqcha interaktiv funksiyalar o'quvchilarning e'tiborini asosiy matndan chalg'itib, o'qib tushunish darajasini pasaytirishi mumkin [9]. Bu holat kognitiv yuklama nazariyasi bilan izohlanadi, ya'ni inson miyasi bir vaqtning o'zida cheklangan miqdordagi axborotni qayta ishlay oladi [10].

Raqamli formatdagi matnlarni o'qishda muhim omillardan yana biri bu lug'atni rivojlantiruvchi vositalardir. Raqamli formatdagi kitoblarga kiritilgan lug'at funksiyalari o'quvchilarga yangi so'zlarning ma'nosini o'rganishda yordam berishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bunday lug'atlar ayniqsa o'quvchilarning so'z boyligini oshirishda samarali hisoblanadi [8]. Masalan, so'zning izohi, talaffuzi va kontekstdagi qo'llanishini birgalikda berish o'quvchilarning til ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Biroq lug'at funksiyasining o'qib tushunishga ta'siri murakkabdir. Ayrim tadqiqotlarda so'z izohlarini berish hikoya mazmunini tushunishga xalaqit berishi mumkinligi aniqlangan. Buning sababi shundaki, o'quvchi diqqatini hikoya mazmunidan ajratib, alohida so'zlarga qaratadi [12]. Natijada, matnning umumiy mazmunini anglash jarayoni buziladi. Shu sababli, lug'at elementlari matn mazmuniga mos ravishda va o'rinli qo'llanilishi lozim.

Raqamli formatdagi matnlarni o'qishda eng muhim omillardan biri bu kattalar tomonidan ko'rsatiladigan qo'llab-quvvatlashdir. Ijtimoiy-madaniy jihatdan o'qish jarayoni ijtimoiy muhitda, ya'ni kattalar bilan o'zaro hamkorlikda samaraliroq amalga oshadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kattalar tomonidan boshqariladigan o'qish jarayonida o'quvchilarning o'qib tushunish darajasi yuqoriroq bo'ladi [12].

Xususan, qog'oz fotmatli kitoblarni kattalar bilan birgalikda o'qish jarayonida o'quvchilarga beriladigan savollar, izohlar va tushuntirishlar ularning matnni chuqurroq anglashiga yordam beradi. Bu jarayon dialogik o'qish deb ataladi va u o'qish savodxonligini rivojlantirishda samarali metod hisoblanadi [13].

Raqamli formatdagi kitoblarda esa ushbu qo'llab-quvvatlash ko'pincha avtomatlashtirilgan shaklda beriladi, masalan, matn ichida paydo bo'ladigan savollar yoki izohlar orqali. Biroq tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bunday

автоматlashtirilgan qo'llab-quvvatlash har doim ham kattalar ko'magini to'liq almash-tira olmaydi [14]. Chunki kattalar o'quvchi-ning individual ehtiyojlariga moslashgan holda tushuntirish berishi mumkin, raqamli tizim esa bunday moslashuvchanlikka ega emas.

Shu bilan birga, ayrim tadqiqotlarda raqamli formatdagi kitoblar kattalar ishtirokisiz ham samarali bo'lishi mumkinligi ko'rsatilgan. Masalan, maxsus ehtiyojli bolalar yoki o'qish-da qiynalayotgan o'quvchilar uchun raqamli formatdagi kitoblar mustaqil o'rganish imko-niyatini yaratadi [15]. Bu holat raqamli texno-logiyalarning ta'limdagi muhim afzalliklaridan biri sifatida qaraladi.

Biroq umumiy xulosa shundan iboratki, raqam-li formatdagi matnlarni o'qib tushunish jarayoni-ning samaradorligi uchta asosiy omilga bog'liq:

1. Matn mazmuniga mos dizayn elementlari;
2. Lug'at va tilni rivojlantiruvchi vosita-larning to'g'ri qo'llanilishi;
3. Kattalar tomonidan ko'rsatiladigan peda-gogik qo'llab-quvvatlash.

Ushbu omillar uyg'unlashgan taqdirdagina raqamli formatdagi matnlarni o'qish qog'oz formatdagi matnlarni o'qish bilan teng yoki undan samaraliroq natija berishi mumkin.

Shu sababli boshlang'ich ta'lim jarayonida raqamli formatdagi materiallarni ishlab chiqish va qo'llashda metodik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, PIRLS talabla-riga mos ravishda o'quvchilarning o'qib tushu-nish ko'nikmalarini rivojlantirishda raqamli va qog'oz formatli matnlarning optimal uyg'un-ligini ta'minlash zarur.

Mazkur maqolada raqamli va qog'oz for-matdagi matnlarni o'qishning o'qib tushunish, diqqatni boshqarish va lug'at o'zlashtirish jarayonlariga ta'siri xorijiy ilmiy tadqiqotlar asosida qiyosiy tahlil qilindi. O'rganilgan man-balar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'qish formati o'quvchilarning o'qish savodxonligiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, qog'oz for-matdagi matnlarni o'qish ko'pincha matnni chuqurroq anglash imkonini beradi va, ayniqsa, murakkab axborotli matnlarni o'qishda ustunlikka ega [1]. Raqamli formatdagi matn-larni o'qishda esa o'quvchilar ko'proq yuzaki qayta ishlashga moyil bo'lib, bu holat o'qib tushunish darajasining pasayishiga olib keladi [2]. Ayniqsa, vaqt bosimi mavjud sharoitda raqamli formatdagi o'qish natijalari sezilarli darajada yomonlashadi [3].

Bundan tashqari, raqamli formatdagi matn-larni o'qishda diqqatning chalg'ishi darajasi yuqori bo'lib, bu o'quvchilarning matn maz-munini izchil anglashiga to'sqinlik qiladi [5]. Metakognitiv nazorat darajasining pasayishi ham o'quvchilarning o'z tushunish darajasini noto'g'ri baholashiga olib keladi, bu esa o'qish samaradorligini kamaytiradi [4].

Shu bilan birga, raqamli formatdagi matnlarni o'qishning samaradorligi uning dizayn xususiyatlariga bevosita bog'liq ekan-ligi aniqlandi. Matn mazmuniga mos interak-tiv elementlar o'quvchilarning o'qishga jalb etilishini oshirishi mumkin, biroq mazmunga aloqador bo'lmagan qo'shimchalar aksincha salbiy ta'sir ko'rsatadi [8; 9]. Shuningdek, raqamli formatdagi kitoblarga kiritilgan lug'at vositalari o'quvchilarning so'z boyligini oshi-rishda ijobiy natija bersa-da, ularning noto'g'ri qo'llanilishi matnni tushunishga xalaqit berishi mumkin [11].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kattalar tomo-nidan ko'rsatiladigan pedagogik qo'llab-quv-vatlash o'qish jarayonida hal qiluvchi ahami-yatga ega. Ayniqsa, qog'oz formatdagi kitob-larni kattalar bilan birgalikda o'qish o'quv-chilarning o'qib tushunish darajasini sezilarli darajada oshiradi [12]. Raqamli muhitda esa bu qo'llab-quvvatlash ko'pincha yetarli darajada samarali tashkil etilmagan.

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi ilmiy xulosalarga kelish mumkin:

- qog'oz formatdagi matnlarni o'qish o'quvchilarning matnni chuqur tushunishiga ko'proq yordam beradi;

- raqamli formatdagi matnlarni o'qishda diqqatning chalg'ishi va yuzaki o'qish holatlari ko'proq kuzatiladi;

- vaqt bosimi raqamli formatdagi matnlarni o'qishning salbiy ta'sirini kuchaytiradi;

- raqamli formatdagi matnlarni o'qishning samaradorligi uning dizayni va metodik tashkil etilishiga bog'liq;

- kattalar ko'magi o'qish jarayonining eng muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. V.Clinton. Reading from paper compared to screens: A systematic review and meta-analysis // *Journal of Research in Reading*. – 2019. – Vol. 42(2). – P. 288-325. – DOI: <https://doi.org/10.1111/1467-9817.12269>
2. P.Delgado, C.Vargas, R.Ackerman, L.Salmerón. Don't throw away your printed books: A meta-analysis on the effects of reading media on reading comprehension // *Educational Research Review*. – 2018. – Vol. 25. – P. 23-38. – DOI: <https://doi.org/10.1016/j.edurev.2018.09.003>
3. R.Ackerman, T.Lauterman. Taking reading comprehension exams on screen or on paper? A meta-cognitive analysis of learning texts under time pressure // *Computers in Human Behavior*. – 2012. – Vol. 28. – P. 1816-1828. – DOI: <https://doi.org/10.1016/j.chb.2012.04.023>
4. T.Lauterman, R.Ackerman Overcoming screen inferiority in learning and calibration // *Computers in Human Behavior*. – 2014. – Vol. 35. – P. 455-463. – DOI: <https://doi.org/10.1016/j.chb.2014.02.046>
5. S.Feng, S.D'Mello, A.Graesser. Mind wandering while reading easy and difficult texts // *Psychonomic Bulletin & Review*. – 2013. – Vol. 20. – P. 586-592. – DOI: <https://doi.org/10.3758/s13423-012-0367-y>
6. N.S.Baron. *Words Onscreen: The Fate of Reading in a Digital World*. – New York: Oxford University Press, 2015.
7. L.E.Annisette, K.D.Lafreniere. Social media, texting, and personality: A test of the shallowing hypothesis // *Personality and Individual Differences*. – 2017. – Vol. 115. – P. 154-158. – DOI: <https://doi.org/10.1016/j.paid.2016.02.043>
8. Z.K.Takacs, E.K.Swart, A.G.Bus. Benefits and pitfalls of multimedia and interactive features in technology-enhanced storybooks: A meta-analysis // *Review of Educational Research*. – 2015. – Vol. 85(4). – P. 698-739. – DOI: <https://doi.org/10.3102/0034654314566989>
9. J.Parish-Morris, N.Mahajan, K.Hirsh-Pasek, R.M.Golinkoff, M.F.Collins. Once upon a time: Parent-child dialogue and storybook reading in the electronic era // *Mind, Brain, and Education*. – 2013. – Vol. 7(3). – P. 200-211. – DOI: <https://doi.org/10.1111/mbe.12028>
10. R.E.Mayer *Multimedia Learning* (2nd ed.). – Cambridge: Cambridge University Press, 2009.
11. O.Korat, T.Graister, C.Altman. Contribution of reading an e-book with a dictionary to word learning // *Journal of Communication Disorders*. – 2019. – Vol. 79. – P. 90-102. – DOI: <https://doi.org/10.1016/j.jcomdis.2019.03.004>
12. A.G.Bus, M.H.van IJendoorn, A.D.Pellegrini Joint book reading makes for success in learning to read: A meta-analysis // *Review of Educational Research*. – 1995. – Vol. 65(1). – P. 1-21. – DOI: <https://doi.org/10.3102/00346543065001001>
13. A.C.Hargrave, M.Sénéchal. A book reading intervention with preschool children who have limited vocabularies // *Early Childhood Research Quarterly*. – 2000. – Vol. 15(1). – P. 75-90. – DOI: [https://doi.org/10.1016/S0885-2006\(99\)00038-1](https://doi.org/10.1016/S0885-2006(99)00038-1)
14. S.Rvachew, K.Rees, E.Carolan, A. Nadig Improving emergent literacy with school-based shared reading // *International Journal of Child-Computer Interaction*. – 2017. – Vol. 12. – P. 24-29. – DOI: <https://doi.org/10.1016/j.ijcci.2017.01.002>
15. A.Shamir, O.Korat, R.Fellah Promoting vocabulary and literacy among children at risk // *Reading and Writing*. – 2012. – Vol. 25(1). – P. 45-69. – DOI: <https://doi.org/10.1007/s11145-010-9247-x>
16. O.D.Rustambekova. Digital reading vs. print reading: effects on EFL learners' reading speed and understanding // *International Journal of Linguistics, Literature and Translation*. – 2025. – No. 11. – P. 639-643.

5–11-SINF O‘QUVCHILARIDA ONA TILI SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI VA “LEARNING BY DOING” TEXNOLOGIYASINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MAZMUNI

*Tashpulatova Mufazzal Ravshanbekovna,
Xalqaro Nordik Universiteti mustaqil tadqiqotchi
M.Ulug‘bek tumani 207- maktab ona tili fani o‘qituvchisi
mufazzal0212@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqolada 5–11-sinf o‘quvchilarida ona tili savodxonligini rivojlantirishning dolzarb masalalari hamda “Learning by Doing” texnologiyasining pedagogik-psixologik mazmuni yoritiladi. Ona tili savodxonligi o‘quvchilarning nafaqat grammatik bilimlarni egallashi, balki matnni tushunish, fikrni mantiqiy bayon qilish, og‘zaki va yozma nutqni vaziyatga mos qo‘llash, axborotni tahlil qilish hamda mustaqil xulosa chiqarish kompetensiyalari bilan uzviy bog‘liq jarayon sifatida talqin etiladi. Maqolada amaliy faoliyat orqali o‘qitish texnologiyasi o‘quvchining bilish faolligini kuchaytirishi, til hodisalarini real kommunikativ vaziyatlarda qo‘llashga yo‘naltirishi va savodxonlikni barqaror ko‘nikmaga aylantirishi asoslab beriladi. Shuningdek, “Learning by Doing” yondashuvining motivatsiya, refleksiya, ijodiy fikrlash, hamkorlikda ishlash va shaxsiy tajriba orqali o‘rganish kabi psixologik jihatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: ona tili savodxonligi, 5–11-sinf o‘quvchilari, Learning by Doing, amaliy ta‘lim, kommunikativ kompetensiya, nutqiy rivojlanish, pedagogik texnologiya, refleksiya.

Актуальные вопросы развития грамотности родного языка у учащихся 5–11 классов и педагого-психологическое содержание технологии “LEARNING BY DOING”

Аннотация: В данной статье рассматриваются актуальные вопросы развития грамотности родного языка у учащихся 5-11 классов, а также педагогико-психологическое содержание технологии “Learning by Doing”. Грамотность родного языка трактуется не только как усвоение грамматических знаний, но и как комплексный процесс формирования умений понимать текст, логически выражать мысль, применять устную и письменную речь в различных коммуникативных ситуациях, анализировать информацию и делать самостоятельные выводы. В статье обосновывается, что обучение через практическую деятельность способствует повышению познавательной активности учащихся, обеспечивает применение языковых явлений в реальных речевых ситуациях и превращает грамотность в устойчивый навык. Также анализируются психологические аспекты подхода “Learning by Doing”, связанные с мотивацией, рефлексией, творческим мышлением, сотрудничеством и обучением на основе личного опыта.

Ключевые слова: грамотность родного языка, учащиеся 5–11 классов, Learning by Doing, практико-ориентированное обучение, коммуникативная компетенция, речевое развитие, педагогическая технология, рефлексия.

Current issues in developing native language literacy among students in grades 5–11: the pedagogical and psychological content of the “LEARNING BY DOING” technology

Abstract: *This article analyzes current issues in developing native language literacy among students in grades 5–11 and explores the pedagogical and psychological content of the “Learning by Doing” technology. Native language literacy is interpreted not only as the acquisition of grammatical knowledge, but also as a complex process of deep comprehension of a text, logically weaving your ideas, through oral and written speech in communicative*

situations, information analysis, and critical thinking. The article substantiates that practice-based learning increases students’ cognitive thinking, directs them toward applying language phenomena in real communicative contexts, and transforms literacy into a reliable skill. Additionally, the study highlights psychological aspects of the “Learning by Doing” approach, including motivation, reflection, creative thinking, cooperation, and learning through personal experience.

Keywords: *native language literacy, students in grades 5-11, Learning by Doing, practice-based learning, communicative competence, language skills development, pedagogical technology, reflection.*

Bugungi kunda umumiy oʻrta taʼlim tizimida oʻquvchilarning ona tili savodxonligini rivojlantirish masalasi dolzarb pedagogik muammolardan biri sifatida qaralmoqda. Chunki ona tili taʼlimi faqat grammatik qoidalarni oʻrgatish yoki imlo meʼyorlarini yod oldirish bilan cheklanmaydi, balki oʻquvchining fikrlash madaniyati, nutqiy faolligi, matn bilan ishlash koʻnikmasi, muloqot kompetensiyasi va ijtimoiy hayotda oʻz fikrini aniq ifodalash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, 5–11-sinf bosqichi oʻquvchilarning tilga oid nazariy bilimlari amaliy nutqiy faoliyat bilan bogʻlanadigan, yozma va ogʻzaki savodxonlik koʻnikmalari mustahkamlanadigan muhim davr hisoblanadi. Shu bois mazkur bosqichda ona tili taʼlimini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish oʻquvchilarning lingvistik, kommunikativ va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ona tili savodxonligi tushunchasi zamonaviy taʼlim jarayonida keng mazmun kasb etmoqda. U oʻquvchining soʻz boyligi, grammatik bilimlari, imlo va punktuatsion meʼyorlarga amal qilishi bilan bir qatorda, matn mazmunini anglash, asosiy fikrni ajratish, axborotni tahlil qilish, nutqiy vaziyatga mos ifoda vositalarini

tanlash hamda mustaqil munosabat bildirish koʻnikmalarini ham oʻz ichiga oladi. Demak, ona tili savodxonligini rivojlantirish oʻquvchilarda faqat til qoidalarni bilish emas, balki ushbu bilimlarni amaliy faoliyatda samarali qoʻllay olish malakasini shakllantirishni talab etadi. Amaliyot shuni koʻrsatadiki, ayrim hollarda oʻquvchilar nazariy qoidalarni bilsalar-da, ularni ogʻzaki va yozma nutqda mustaqil qoʻllashda qiynaladilar. Bu holat ona tili darslarida faoliyatga yoʻnaltirilgan, tajribaga asoslangan, oʻquvchini mustaqil izlanish va amaliy bajarishga undaydigan metodlardan foydalanish zarurligini koʻrsatadi.

Shu nuqtayi nazardan “Learning by Doing”, yaʼni “bajarish orqali oʻrganish” texnologiyasi ona tili savodxonligini rivojlantirishda samarali pedagogik yondashuvlardan biri sifatida alohida ahamiyatga ega. Mazkur texnologiyaning asosiy gʻoyasi shundan iboratki, oʻquvchi bilimni tayyor holatda qabul qilmaydi, balki uni amaliy faoliyat, kuzatish, tahlil, muhokama, tajriba, ijodiy topshiriq va refleksiya jarayonida egallaydi. Ona tili darslarida bu yondashuv matn tuzish, tahrirlash, izohlash, bahs-munozara olib borish, nutqiy vaziyat yaratish, loyiha ishlari bajarish, esse yozish, matn asosida savol-

lar tuzish va javoblarni asoslash kabi faoliyatlar orqali namoyon bo'ladi. Natijada o'quvchi til hodisalarini faqat nazariy jihatdan emas, balki real nutqiy ehtiyoj va kommunikativ vaziyatda qo'llashni o'rganadi.

“Learning by Doing” texnologiyasining pedagogik mazmuni o'quvchini ta'lim jarayonining faol subyekti sifatida shakllantirish bilan belgilanadi. Bunda o'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki yo'naltiruvchi, tashkil etuvchi, maslahat beruvchi va baholovchi vazifasini bajaradi. O'quvchi esa topshiriqlarni bajarish jarayonida mustaqil fikrlaydi, izlanadi, xatolarini anglaydi, ularni tuzatadi va o'z nutqiy faoliyatini takomillashtiradi. Ayniqsa, ona tili darslarida imlo, uslub, matn tuzilishi, gap qurilishi, leksik birliklardan foydalanish kabi mavzularni amaliy mashqlar bilan bog'lash o'quvchilarda savodxonlikning barqaror shakllanishiga xizmat qiladi. Bu jarayonda bilim ko'nikmaga, ko'nikma esa malakaga aylanadi.

Mazkur texnologiyaning psixologik mazmuni esa o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan ichki motivatsiyasini kuchaytirish, shaxsiy tajribasiga tayanish, ijodiy fikrlashini rivojlantirish va o'z-o'zini baholash ko'nikmasini shakllantirish bilan izohlanadi. O'quvchi topshiriqni mustaqil bajarganida, o'z faoliyati natijasini ko'radi, muvaffaqiyat va xatolarini tahlil qiladi hamda keyingi faoliyatini ongli ravishda rejalashtiradi. Bu esa ona tili savodxonligini mexanik yodlash asosida emas, balki tushunish, anglash va qo'llash asosida rivojlantirish imkonini beradi. Ayniqsa, 5–11-sinf o'quvchilari yosh xususiyatlari jihatidan mustaqil fikrlash, mulohaza qilish, o'z fikrini himoya qilish va ijodiy yondashishga ehtiyoj sezadigan davrda bo'lganligi sababli, “Learning by Doing” texnologiyasi ularning psixologik faolligini oshirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, ona tili savodxonligini rivojlantirish masalasi zamonaviy ta'limning kompetensiyaviy yondashuvlari bilan bevosita

bog'liqdir. O'quvchilarda savodxonlikni shakllantirish uchun ona tili darslari nazariy bilimlarni amaliy nutqiy faoliyat bilan uyg'unlashtirishi, har bir mavzu real hayotiy vaziyatlar, matnlar, kommunikativ topshiriqlar va ijodiy mashqlar orqali mustahkamlanishi zarur. “Learning by Doing” texnologiyasi esa ana shu jarayonda o'quvchining shaxsiy ishtiroki, mustaqil faoliyati va refleksiv tajribasini ta'minlab, ona tili ta'limining sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur maqolada 5–11-sinf o'quvchilarida ona tili savodxonligini rivojlantirishning dolzarb masalalari hamda “Learning by Doing” texnologiyasining pedagogik-psixologik mazmuni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

5–11-sinf o'quvchilarida ona tili savodxonligini rivojlantirish masalasi zamonaviy ta'limda faqat imlo, punktuatsiya yoki grammatik qoidalarni o'zlashtirish bilan cheklanmaydi. Xalqaro tadqiqotlarda savodxonlik shaxsning matnini tushunishi, undan foydalanishi, baholashi, mulohaza yuritishi va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi bilan bog'liq murakkab kompetensiya sifatida talqin qilinadi. Jumladan, OECD [11]ning PISA o'qish savodxonligi konsepsiyasida reading literacy “matnlarni tushunish, ulardan foydalanish, baholash, ular ustida fikr yuritish va matnlar bilan faol ishlash” jarayoni sifatida izohlanadi. Bu yondashuv ona tili ta'limida o'quvchini tayyor qoidalarni yodlovchi emas, balki matn bilan faol ishlovchi, axborotni tahlil qiluvchi va o'z fikrini asoslay oluvchi subyekt sifatida shakllantirish zarurligini ko'rsatadi.

UNESCO [15] savodxonlikni hayot davomida rivojlanadigan, o'qish, yozish, raqamli va media ko'nikmalar bilan bog'lanib boradigan uzluksiz kompetensiya sifatida talqin qiladi. Bu qarash 5–11-sinf ona tili ta'limi uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi, chunki o'quvchi yuqori sinflarga o'tgani sari oddiy o'qish va yozishdan murakkab matnlarni sharh-

lash, tanqidiy baholash, dalil asosida fikr bildirish, rasmiy va norasmiy uslubda yozish kabi ko'nikmalarga ega bo'lishi zarur. Demak, ona tili savodxonligi grammatik bilimlar majmui emas, balki kommunikativ, funksional, axborot va madaniy savodxonlik bilan uzviy bog'liq integrativ hodisadir.

O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim tizimida ham ona tili fanining mazmuni kompetensiyaviy yondashuv asosida belgilangan. 5-sinf ona tili fanidan o'quv dasturida ona tili ta'limi jarayonida tayanch kompetensiyalar, xususan kommunikativ kompetensiyani shakllantirish vazifasi ko'rsatiladi. Unda o'quvchining o'rganilgan ifoda vositalari asosida samarali muloqotga kirisha olishi, nutqiy vaziyatga mos fikr bildirishi, matn ustida ishlashi va til birliklarini amalda qo'llashi muhim natija sifatida qaraladi. Bu holat maqola mavzusidagi "Learning by Doing" texnologiyasi bilan bevosita bog'liq, chunki mazkur texnologiya nazariy bilimni real nutqiy faoliyat orqali mustahkamlashni nazarda tutadi.

O'qish savodxonligi bo'yicha PIRLS tadqiqotlari ham til ta'limida matnni tushunish va undan foydalanish masalasini markaziy o'ringa qo'yadi. PIRLS 2021 ta'rifiga ko'ra, o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan yoki shaxs tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish qobiliyatidir. Bu ta'rif 5–11-sinf o'quvchilarida ona tili savodxonligini rivojlantirishda matn bilan ishlash, mazmunni anglash, ma'no qurish, muallif pozitsiyasini tushunish va o'z munosabatini bildirish kabi ko'nikmalarni ustuvor qilish zarurligini ko'rsatadi.

"Learning by Doing" texnologiyasining nazariy ildizlari amerikalik pedagog va faylasuf John Deweyning tajribaga asoslangan ta'lim haqidagi qarashlariga borib taqaladi. Dewey [2] "Experience and Education" asarida ta'lim jarayonining samaradorligi o'quvchining real tajribasi, faol ishtiroki va muammoli vaziyatlar-

da mustaqil harakat qilishi bilan bog'liq ekani-ni asoslaydi. Uning fikricha, o'quvchi bilimni tashqi majburiyat sifatida emas, balki tajriba orqali anglaganida, bu bilim shaxsiy mazmun kasb etadi. Ona tili darslari uchun bu g'oya shuni anglatadiki, o'quvchi imlo qoidasini faqat yodlamasligi, balki matn yozish, tahrirlash, xatoni topish, izohlash va muloqotda qo'llash orqali uni amaliy ko'nikmaga aylantirishi kerak.

David Kolb [7]ning tajribaviy ta'lim nazariyasi "Learning by Doing" yondashuvini yanada tizimli tushuntirib beradi. Kolb ta'limni tajribani o'zgartirish orqali bilim yaratish jarayoni deb izohlaydi va bu jarayonni to'rt bosqich orqali tushuntiradi: konkret tajriba, reflektiv kuzatish, abstrakt konseptualizatsiya va faol tajriba. Ona tili darslarida bu model quyidagicha namoyon bo'lishi mumkin: o'quvchi avval matn yozadi yoki nutqiy topshiriq bajaradi, keyin o'z xatosini tahlil qiladi, qoidani umumlashtiradi va keyingi matnda uni ongli qo'llaydi. Shu jihatdan Kolb modeli 5–11-sinf o'quvchilarining savodxonligini bosqichma-bosqich, reflektiv va amaliy asosda rivojlantirish uchun muhim nazariy asos bo'la oladi.

Lev Vygotskiy [16]ning sotsiokultural ta'lim nazariyasi ham ona tili savodxonligini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Vygotskiy ta'lim va rivojlanishni ijtimoiy muloqot, madaniy vositalar va kattalar yoki tengdoshlar ko'magida shakllanadigan jarayon sifatida izohlaydi. Uning "yaqin rivojlanish zonasi" haqidagi qarashlari o'quvchining mustaqil bajara oladigan vazifasi bilan o'qituvchi yoki tengdosh yordami orqali bajara oladigan vazifasi o'rtasidagi tafovutni ko'rsatadi. Ona tili darslarida bu yondashuv ayniqsa matn tahlili, esse yozish, munozara, og'zaki taqdimot, tahrir va qayta yozish mashqlarida muhimdir. O'qituvchi tomonidan berilgan namunalar, savollar, yo'naltiruvchi izohlar va hamkorlikdagi tahlil o'quvchining savodxonlik darajasini yuqoriroq bosqichga olib chiqadi.

Jerome Bruner[1]ning kashfiyot orqali o'qitish va spiral o'quv dasturi haqidagi qarashlari ham "Learning by Doing" texnologiyasi bilan mazmunan yaqin. Bruner o'quvchi bilimni tayyor shaklda qabul qilmasdan, muammo, kuzatish, taqqoslash va xulosa chiqarish orqali o'zlashtirishi kerakligini ta'kidlaydi. Uning spiral ta'lim g'oyasiga ko'ra, murakkab tushunchalar turli yosh bosqichlarida qayta-qayta, lekin har safar chuqurroq darajada o'rganiladi. Bu ona tili ta'limida juda muhim: masalan, gap bo'laklari, matn turlari, uslub, imlo va punktuatsiya mavzulari 5-sinf-dan 11-sinf-gacha takrorlanadi, ammo har bir bosqichda amaliy topshiriqlar murakkablashib boradi.

Steve Graham va Dolores Perin[3]ning "Writing Next" tadqiqoti o'rta va yuqori sinf o'quvchilarining yozma savodxonligini rivojlantirish bo'yicha muhim empirik manbalardan biridir. Ushbu hisobotda 4–12-sinf o'quvchilarining yozuv ko'nikmalarini yaxshilashga yordam beradigan strategiyalar tahlil qilingan. Tadqiqotda yozish strategiyalarini o'rgatish, matnni rejalashtirish, xulosa chiqarish, birgalikda yozish, jumla qurilishini takomillashtirish va matnni qayta ishlash kabi usullar samarali ekanini ko'rsatiladi. Bu natijalar ona tili savodxonligini rivojlantirishda faqat diktant yoki qoidani so'rash bilan cheklanmasdan, o'quvchini yozish jarayonining barcha bosqichlariga faol jalb qilish zarurligini tasdiqlaydi.

John Guthrie va Allan Wigfield[4]ning o'qish motivatsiyasi hamda matnni tushunish bo'yicha tadqiqotlari savodxonlikni rivojlantirishda motivatsion omillarning ahamiyatini ochib beradi. Ularning ishlari o'quvchining matnga qiziqishi, o'zini o'quvchi sifatida idrok etishi, tanlov imkoniyati, hamkorlik va mazmunli topshiriqlar o'qish faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Bu jihat "Learning by Doing" texnologiyasi uchun muhim, chunki amaliy faoliyatga asoslangan darslarda

o'quvchi matnni passiv qabul qilmaydi, balki uni izlaydi, tahlil qiladi, muhokama qiladi, qayta yaratadi va shaxsiy tajribasi bilan bog'laydi.

John Hattie[6]ning "Visible Learning" tadqiqotlari ta'lim natijadorligini oshirishda teskari aloqa, aniq maqsad, muvaffaqiyat mezonlari va o'quvchi faoliyatini kuzatish muhimligini asoslaydi. Ona tili savodxonligini rivojlantirishda bu qarashlar juda amaliy ahamiyatga ega: o'quvchi yozgan matniga izoh olishi, xatosini tushunishi, uni qayta tuzatishi va keyingi ishida yaxshilanishni ko'rishi kerak. "Learning by Doing" texnologiyasi aynan shu mexanizmga tayanadi, ya'ni o'quvchi topshiriq bajaradi, natijani ko'radi, fikr-mulohaza oladi, xulosa chiqaradi va yana amaliy harakat qiladi.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, 5–11-sinf o'quvchilarida ona tili savodxonligini rivojlantirish masalasi xalqaro va milliy tadqiqotlarda kompetensiyaviy, kommunikativ, tajribaviy va refleksiv yondashuvlar bilan bog'liq holda talqin qilinadi. OECD, UNESCO va PIRLS manbalarida savodxonlik matnni anglash, undan foydalanish, baholash va ijtimoiy kommunikatsiyada qo'llash qobiliyati sifatida izohlanadi. Dewey, Kolb, Vygotskiy va Bruner qarashlari esa o'quvchining faol tajribasi, ijtimoiy muloqoti, mustaqil kashfiyoti va refleksiyasi orqali bilimning barqaror ko'nikmaga aylanishini asoslaydi. Graham, Perin, Guthrie, Wigfield va Hattie tadqiqotlari esa yozma nutq, o'qish motivatsiyasi, teskari aloqa va amaliy strategiyalar ona tili savodxonligini rivojlantirishda muhim omil ekanini ko'rsatadi. Shu sababli "Learning by Doing" texnologiyasi ona tili darslarida matn yaratish, tahlil qilish, tahrirlash, munozara qilish, loyiha bajarish va refleksiya yuritish kabi faoliyatlar orqali savodxonlikni rivojlantirishning samarali pedagogik-psixologik asosi sifatida baholanishi mumkin.

Mazkur maqola nazariy xarakterga ega bo'lganligi sababli tadqiqot metodologiyasi empirik tajriba-sinov natijalarini emas, balki

5–11-sinf o‘quvchilarida ona tili savodxonligini rivojlantirish hamda “Learning by Doing” texnologiyasining pedagogik-psixologik mazmunini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilishga yo‘naltirildi. Tadqiqotda ona tili savodxonligi til ta’limining faqat grammatik va imloviy jihatlarini qamrab oluvchi hodisa sifatida emas, balki o‘quvchining matnni tushunishi, og‘zaki va yozma nutqni ongli qo‘llashi, kommunikativ vaziyatda fikr bildira olishi, axborotni tahlil qilishi va mustaqil xulosa chiqarishi bilan bog‘liq kompleks kompetensiya sifatida qaraldi. Shu sababli metodologik yondashuv kompetensiyaviy, faoliyatga yo‘naltirilgan, kommunikativ va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillariga asoslandi.

Tadqiqotning metodologik asosini tajribaviy ta’lim nazariyasi, konstruktivistik yondashuv, sotsiokultural ta’lim nazariyasi hamda kompetensiyaviy yondashuv tashkil etdi. Tajribaviy ta’lim nazariyasiga ko‘ra, bilim o‘quvchi tomonidan tayyor shaklda qabul qilinmaydi, balki amaliy faoliyat, kuzatish, xatoni anglash, refleksiya va qayta bajarish jarayonida shakllanadi. Konstruktivistik yondashuv esa o‘quvchini bilimni mustaqil quruvchi subyekt sifatida talqin qiladi. Sotsiokultural yondashuv nuqtayi nazaridan ona tili savodxonligi muloqot, hamkorlik, madaniy tajriba va nutqiy muhit bilan uzviy bog‘liq jarayon sifatida izohlanadi. Kompetensiyaviy yondashuv esa o‘quvchining tilga oid bilimlarini real nutqiy vaziyatlarda qo‘llay olish malakasini shakllantirishni asosiy mezon sifatida belgilaydi.

Maqolada nazariy-tahliliy metod yetakchi metod sifatida tanlandi. Ushbu metod orqali ona tili savodxonligi, o‘qish va yozish savodxonligi, kommunikativ kompetensiya, faoliyatga asoslangan ta’lim hamda “Learning by Doing” texnologiyasiga oid ilmiy qarashlar mazmunan o‘rganildi. Mavzuga doir pedagogik, psixologik va metodik manbalar tahlil qilinib, ularda ilgari surilgan asosiy g‘oyalar ona tili ta’limi konteks-

tida umumlashtirildi. Ayniqsa, o‘quvchilarning savodxonligini rivojlantirishda matn bilan ishlash, yozma nutqni shakllantirish, tahrirlash, muhokama, refleksiya va amaliy topshiriqlarning o‘rni nazariy jihatdan asoslandi.

Shuningdek, tadqiqotda qiyosiy-tahliliy metoddan foydalanildi. Bu metod yordamida an’anaviy ona tili ta’limi va “Learning by Doing” texnologiyasiga asoslangan faol ta’lim yondashuvi o‘zaro taqqoslandi. An’anaviy yondashuvda bilim ko‘proq tayyor qoida, ta’rif va mashqlar orqali berilishi kuzatilsa, “Learning by Doing” yondashuvida o‘quvchi til hodisasini amaliy nutqiy faoliyat jarayonida o‘zlashtiradi. Mazkur qiyoslash orqali ona tili darslarida nazariy bilimni amaliy faoliyat bilan bog‘lash, o‘quvchini mustaqil ishlashga undash va savodxonlikni real kommunikativ vaziyatlarda rivojlantirish zarurligi asoslab berildi.

Tadqiqotda tizimli yondashuv ham muhim metodologik asos sifatida qo‘llanildi. Ona tili savodxonligi alohida ko‘nikmalar yig‘indisi emas, balki o‘qish, yozish, tinglab tushunish, gapirish, matn tuzish, tahlil qilish, tahrirlash va baholash jarayonlarining o‘zaro bog‘liq tizimi sifatida qaraldi. Shu asosda “Learning by Doing” texnologiyasi ham yakka metod emas, balki o‘quvchining amaliy harakati, o‘qituvchining yo‘naltiruvchi faoliyati, o‘quv topshiriqlari, teskari aloqa, refleksiya va natijani baholashni birlashtiruvchi pedagogik mexanizm sifatida talqin qilindi.

Maqola metodologiyasida umumlashtirish va konseptual modellashtirish metodlari ham qo‘llanildi. Umumlashtirish metodi orqali ilgari mavjud bo‘lgan ilmiy qarashlar asosida ona tili savodxonligini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari belgilandi. Konseptual modellashtirish esa “Learning by Doing” texnologiyasini ona tili ta’limiga tatbiq etishning mantiqiy ketma-ketligini aniqlash imkonini berdi. Ushbu ketma-ketlik shartli ravishda muammoli nutqiy vaziyatni yaratish, amaliy topshiriqni bajarish,

matn yoki nutqiy mahsulotni tahlil qilish, xatolar ustida ishlash, refleksiya yuritish va takomillashtirilgan natijaga erishish bosqichlaridan iborat deb qaraldi.

Tadqiqotning manbaviy asosini savodxonlik, kompetensiyaviy ta'lim, tajribaviy o'qitish va ona tili metodikasiga oid ilmiy-nazariy adabiyotlar, xalqaro baholash dasturlarining savodxonlikka oid konsepsiyalari, shuningdek umumiy o'rta ta'limda ona tili fanini o'qitishga doir metodik yondashuvlar tashkil etdi. Mazkur manbalar asosida 5–11-sinf o'quvchilarida ona tili savodxonligini rivojlantirishda “Learning by Doing” texnologiyasining pedagogik-psixologik imkoniyatlari aniqlashtirildi.

Shunday qilib, tadqiqot metodologiyasi nazariy maqola talablariga mos ravishda adabiyotlar tahlili, ilmiy qarashlarni qiyosiy o'rganish, tizimli umumlashtirish va konseptual izohlashga asoslandi. Ushbu metodologiya ona tili savodxonligini rivojlantirish muammosini keng pedagogik-psixologik kontekstda yoritish, “Learning by Doing” texnologiyasining mazmunini ochib berish va uni 5–11-sinf ona tili ta'limi jarayonida qo'llashning nazariy asoslarini belgilash imkonini berdi.

5–11-sinf o'quvchilarida ona tili savodxonligini rivojlantirish jarayoni tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur bosqichda til ta'limi faqat grammatik qoidalarni o'rgatish bilan cheklansa, o'quvchilarda nazariy bilim va amaliy nutqiy faoliyat o'rtasida uzilish yuzaga keladi. Masalan, o'quvchi “sifat” so'z turkumi, “uyushiq bo'lak”, “ergash gap”, “ko'chirma gap”, “imlo qoidalari” yoki “uslubiy bo'yoqdor so'zlar” haqida nazariy ma'lumotga ega bo'lishi mumkin, biroq mustaqil matn tuzishda, bayon yozishda, ijtimoiy mavzuda fikr bildirishda yoki rasmiy nutq namunalarini yaratishda bu bilimlarni to'g'ri qo'llay olmasligi kuzatiladi. Demak, ona tili savodxonligini rivojlantirishda asosiy natija qoidani bilish emas, balki qoidani

nutqiy vaziyatda ongli va to'g'ri qo'llay olishdan iborat bo'lishi kerak.

“Learning by Doing” texnologiyasi aynan shu muammoni bartaraf etishga xizmat qiladi. Bu texnologiya asosida tashkil etilgan ona tili darsida o'quvchi tayyor bilimni eshitibgina qolmaydi, balki topshiriq bajaradi, matn yaratadi, xato qiladi, xatosini tahlil qiladi, qayta tuzatadi va yakuniy natijaga erishadi. Masalan, 5-sinfda “Matn va uning qismlari” mavzusi o'tilayotganda o'qituvchi avval matn haqida qoida berish bilan cheklanmay, o'quvchilarga “Mening maktabimdagi bir kun” mavzusida 6–8 gapdan iborat kichik matn tuzishni topshiradi. So'ng o'quvchilar yozgan matnlar kirish, asosiy qism va yakun mavjudligi, gaplar o'zaro bog'langanligi, mavzudan chetga chiqilmaganligi bo'yicha birgalikda tahlil qilinadi. Natijada o'quvchi matn qismlari haqidagi nazariy tushunchani o'z yozgan ishi misolida anglaydi [9].

Aniq misol sifatida 5-sinf o'quvchisi quyidagi tartibsiz gaplarni oladi: “Daraxtlar gulladi. Bahor keldi. Qushlar qaytdi. Havo ilidi.” An'anaviy yondashuvda o'quvchidan gaplarni o'qish va matn tuzish so'raladi. “Learning by Doing” yondashuvida esa o'quvchi bu gaplarni mantiqiy ketma-ketlikda joylashtiradi, keyin ularga bog'lovchi vositalar qo'shadi va kichik matn yaratadi: “Bahor keldi. Havo ilidi. Daraxtlar gulladi. Qushlar qaytdi.” Keyingi bosqichda u matnni boyitadi: “Bahor keldi. Havo ilib, tabiat uyg'ona boshladi. Daraxtlar gulladi, uzoq o'lkalardan qushlar qaytdi.” Bu topshiriq natijasida o'quvchi gaplarning mazmuniy bog'lanishi, ketma-ketlik, uslubiy boyitish va matn yaratish ko'nikmalarini amalda egallaydi [8].

6-sinfda “So'z turkumlari” mavzusini o'rganishda ham amaliy faoliyatga asoslangan yondashuv samarali natija beradi. Masalan, o'quvchilarga “Kuzgi bog'” mavzusida 5 ta gap yozish va har bir gapda kamida bitta sifat, bit-ta ot va bitta fe'l ishlatish topshirig'i beriladi. O'quvchi “Sariq barglar yerga sekin tushdi”,

“Salqin shamol daraxt shoxlarini tebratdi” kabi gaplar tuzadi. Keyin u gapdagi soʻzlarni turkumlarga ajratadi, ularning gapdagi vazifasini izohlaydi. Bu jarayonda oʻquvchi soʻz turkumlarini quruq yodlamaydi, balki ularni nutq yaratish jarayonida qoʻllaydi. Natijada leksik-grammatik bilimlar amaliy savodxonlikka aylanadi.

7-sinfda “Uyushiq boʻlaklar” mavzusi boʻyicha quyidagi amaliy topshiriq berilishi mumkin: oʻquvchilarga “Maktab kutubxonasida” mavzusida qisqa tavsifiy matn yozish va unda uyushiq boʻlaklardan foydalanish vazifasi topshiriladi. Masalan, oʻquvchi: “Kutubxonada badiiy, ilmiy, tarixiy va ensiklopedik kitoblar mavjud” yoki “Oʻquvchilar kitob oʻqiydi, maʼlumot izlaydi, konspekt yozadi va bahslashadi” kabi gaplar tuzadi. Keyin uyushiq boʻlaklarning vergul bilan ajratilishi, bir xil soʻroqqa javob boʻlishi va bir xil sintaktik vazifani bajarishi tahlil qilinadi. Bu usulda punktuatsiya qoidasi ham amaliy nutqiy ehtiyoj bilan bogʻlanadi.

8-sinfda “Koʻchirma va oʻzlashtirma gap” mavzusini oʻrganishda “Learning by Doing” texnologiyasi ayniqsa samarali boʻladi. Masalan, oʻquvchilarga “Doʻstim bilan suhbat” mavzusida kichik dialog tuzish topshiriladi. Oʻquvchi avval: “Aziza dedi: ‘Bugun kutubxonaga boramizmi?’” kabi koʻchirma gap yozadi. Keyin ushbu gapni oʻzlashtirma gapga aylantiradi: “Aziza bugun kutubxonaga borishimizni soʻradi.” Bu amaliy mashq orqali oʻquvchi tinish belgilari, muallif gapi, koʻchirma nutq va oʻzlashtirma nutq oʻrtasidagi farqni real misolda anglaydi. Natijada mavzu abstrakt qoida sifatida emas, balki nutqiy vazifani bajaruvchi vosita sifatida oʻzlashtiriladi.

9-sinfda ona tili savodxonligini rivojlantirishda matn tahlili va tahrir mashqlari muhim oʻrin tutadi. Masalan, oʻquvchilarga quyidagi xatoli matn beriladi: “Bugun maktabimizda tadbir boʻldi tadbirda oʻquvchilar sheʼr aytdi qoʻshiq kuyladi sahna koʻrinishlari koʻrsatil-

di hamma hursand boʻldi.” Oʻquvchilardan matnni imlo, punktuatsiya va uslub jihatidan tahrirlash soʻraladi. Tahrirdan keyin matn quyidagicha shaklga keladi: “Bugun maktabimizda tadbir boʻldi. Tadbirda oʻquvchilar sheʼr aytdi, qoʻshiq kuyladi, sahna koʻrinishlari namoyish etdi. Barcha ishtirokchilar xursand boʻldi”. Keyingi bosqichda oʻquvchilar nima uchun nuqta va vergul qoʻyilganini, “hursand” soʻzi “xursand” shaklida yozilishini, “koʻrsatildi” oʻrniga “namoyish etdi” birikmasi usluban toʻgʻriroq ekanini izohlaydi. Bu tahririy faoliyat savodxonlikni ongli shakllantiradi.

10-sinfda ona tili savodxonligi koʻproq uslubiy tafakkur, dalillash, rasmiy va ilmiy nutq elementlarini qoʻllash bilan bogʻliq boʻladi. Masalan, “Rasmiy uslub” mavzusida oʻquvchilarga ariza yozish topshirigʻi beriladi. Oʻquvchi avval erkin shaklda fikr bildirishi mumkin: “Menga kutubxonadan kitob kerak, shuni olishimga ruxsat bering.” Keyin oʻqituvchi rahbarligida bu fikr rasmiy uslubga moslashtiriladi: “Menga ilmiy loyiha tayyorlashim uchun maktab kutubxonasidan zarur adabiyotlardan foydalanishga ruxsat berishingizni soʻrayman.” Bu topshiriq orqali oʻquvchi rasmiy uslubga xos aniqlik, ixchamlik, hurmat shakli va meʼyoriy ifodalarni amaliy oʻzlashtiradi. Natijada savodxonlik hayotiy vaziyat bilan bogʻlanadi.

11-sinfda esa oʻquvchilarning ona tili savodxonligini rivojlantirishda esse, munozarali matn, tanqidiy tahlil va dalillangan fikr yozish muhim ahamiyatga ega. Masalan, “Kitob oʻqish yoshlar tafakkurini rivojlantiradimi?” mavzusida esse yozish topshirigʻi beriladi. “Learning by Doing” texnologiyasi asosida bu topshiriq bir necha bosqichda bajariladi: avval oʻquvchi mavzu boʻyicha tezis tuzadi, keyin dalillar keltiradi, misol tanlaydi, xulosa yozadi va matnini qayta tahrir qiladi. Masalan, oʻquvchi dastlab “Kitob oʻqish foydali” deb umumiy fikr bildirsa, keyingi bosqichda uni aniqlashtiradi: “Kitob

o'qish yoshlarning lug'at boyligini kengaytiradi, mustaqil fikrlashini rivojlantiradi va nutq madaniyatini shakllantiradi." Bu jarayonda o'quvchi umumiy fikrdan dalillangan, mantiqiy va savodli bayonga o'tadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, "Learning by Doing" texnologiyasi ona tili darslarida o'quvchining uch asosiy savodxonlik ko'nikmasini rivojlantiradi. Birinchisi – lingvistik savodxonlik, ya'ni so'z, gap, matn va til qoidalarini to'g'ri qo'llash malakasi. Ikkinchisi – kommunikativ savodxonlik, ya'ni fikrni vaziyatga mos, tushunarli va mantiqiy ifodalash qobiliyati. Uchinchisi – refleksiv savodxonlik, ya'ni o'z nutqiy faoliyatini baholash, xatoni ko'rish va uni tuzatish qobiliyatidir. Ayniqsa, matn yozish va uni qayta tahrirlash jarayonida o'quvchi o'z bilimini nazorat qilishni o'rganadi.

Amaliy topshiriqlar asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilar faolligi ortadi. Masalan, oddiy "Fe'l nisbatlari" mavzusida faqat ta'rif berish o'rniga o'quvchilarga "Maktab hovlisida bajarilayotgan ishlar" mavzusida gaplar tuzish topshirilsa, ular "O'quvchilar daraxt ekdi", "Daraxtlar o'quvchilar tomonidan ekildi", "Bog'bon bolalarga ko'chat ektirdi" kabi gaplarni amalda tuzadilar. Keyin bu gaplar orqali aniq nisbat, majhul nisbat va ortirma nisbat farqlanadi. Bunday topshiriq mavzuni tushunishni osonlashtiradi, chunki o'quvchi grammatik shaklni real mazmun bilan bog'laydi.

Yana bir misol sifatida "Sinonim va antonimlar" mavzusida o'quvchilarga oddiy ro'yxat yodlatish o'rniga matnni uslubiy boyitish topshirig'i berilishi mumkin. Masalan, "Yaxshi bola yaxshi ish qildi" gapini o'quvchilar "Odobli bola foydali ish qildi", "Tarbiyali bola savobli ishga qo'l urdi", "Mehribon bola ezgu ish bajardi" kabi shakllarda qayta tuzadilar. Bu mashq natijasida o'quvchilar sinonimlarning uslubiy farqini, nutqni boyitishdagi vazifasini va so'z tanlash mas'uliyatini anglaydilar. De-

mak, lug'aviy savodxonlik ham amaliy faoliyat orqali rivojlanadi.

"Learning by Doing" texnologiyasi o'quvchilarda ijodiy tafakkurni ham shakllantiradi. Masalan, "Maqol va matal" mavzusida o'quvchilarga "Bilim – kuch", "Mehnatning tagi rohat", "Til – dil kaliti" kabi maqollar asosida kichik hikoya tuzish topshiriladi. O'quvchi maqol mazmunini faqat izohlab bermaydi, balki uni voqea, obraz va vaziyat orqali ifodalaydi. Bu esa ona tili savodxonligini xalq og'zaki ijodi, madaniy tafakkur va ijodiy nutq bilan bog'laydi. Natijada o'quvchi til birliklarining ma'naviy-madaniy mazmunini ham anglay boshlaydi.

Mazkur texnologiya asosida olib borilgan nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, ona tili savodxonligini rivojlantirishda xatolar ustida ishlash alohida ahamiyatga ega. An'anaviy darsda xato ko'pincha salbiy holat sifatida baholanadi. "Learning by Doing" yondashuvida esa xato o'rganish manbai sifatida qaraladi. Masalan, o'quvchi "men maktabga bordim va dars qildim chunki ertaga nazorat ishi bor" tarzida gap yozsa, o'qituvchi uni faqat noto'g'ri deb baholamaydi, balki gapning tuzilishi, bog'lovchilar, tinish belgisi va uslubiy aniqlik ustida ishlatadi. Tahrirdan so'ng gap quyidagicha bo'lishi mumkin: "Men maktabga bordim va dars tayyorladim, chunki ertaga nazorat ishi bor." Bu jarayonda o'quvchi xatoni tuzatish orqali qoidani anglaydi.

Tahlil natijalariga ko'ra, 5–11-sinflarda "Learning by Doing" texnologiyasini qo'llash quyidagi pedagogik natijalarga olib keladi: o'quvchilarning matn bilan ishlash ko'nikmasi kuchayadi, yozma va og'zaki nutqda grammatik me'yorlarga amal qilish darajasi ortadi, mustaqil fikrlash va dalillash malakasi rivojlanadi, o'quvchi o'z xatosini ko'ra boshlaydi, darsga bo'lgan qiziqish va motivatsiya oshadi. Eng muhimi, ona tili fani o'quvchi uchun faqat

qoidalar majmui emas, balki hayotiy muloqot, fikrni ifodalash va shaxsiy pozitsiyani bildirish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Psixologik jihatdan mazkur texnologiya o‘quvchilarda ichki faollikni kuchaytiradi. Chunki o‘quvchi o‘z qo‘li bilan bajargan ishining natijasini ko‘radi. Masalan, u avval xatoli yozgan matnini tahrir qiladi, keyin matnning ravon, tushunarli va savodli shaklga kelganini anglaydi. Bu holat o‘quvchida muvaffaqiyat hissini uyg‘otadi. Muvaffaqiyat hissi esa keyingi topshiriqlarni bajarishga bo‘lgan motivatsiyani oshiradi. Shunday qilib, “Learning by Doing” texnologiyasi ona tili ta’limida nafaqat bilim va ko‘nikmani, balki o‘quvchining o‘ziga ishonchi, nutqiy mustaqilligi va ijodiy tashabbusini ham rivojlantiradi.

Umumiy natija sifatida aytish mumkinki, “Learning by Doing” texnologiyasi 5–11-sinf o‘quvchilarida ona tili savodxonligini rivojlantirishda nazariya va amaliyotni bog‘lovchi samarali pedagogik mexanizm hisoblanadi. Bu yondashuvda har bir grammatik mavzu nutqiy faoliyat bilan bog‘lanadi, har bir qoida matn yaratish yoki tahrirlash jarayonida mustahkamlanadi, har bir xato esa o‘quvchining keyingi rivojlanishi uchun metodik imkoniyatga aylanadi. Natijada ona tili darslari o‘quvchining fikrlashi, muloqoti, savodxonligi va shaxsiy tajribasini rivojlantiruvchi faol ta’lim maydoniga aylanadi.

5–11-sinf o‘quvchilarida ona tili savodxonligini rivojlantirish zamonaviy ta’lim jarayonining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki ushbu bosqichda o‘quvchilar nafaqat grammatik qoidalarni o‘zlashtiradi, balki matn tushunish, fikrni mantiqiy bayon qilish, og‘zaki va yozma nutqda adabiy til me’yorlariga amal qilish, axborotni tahlil qilish hamda mustaqil munosabat bildirish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shu jihatdan ona tili savodxonligi oddiy imlo yoki punktuatsion bilimlar yig‘in-

disi emas, balki o‘quvchining kommunikativ, lingvistik, matniy, ijodiy va refleksiv kompetensiyalarini birlashtiruvchi murakkab pedagogik jarayondir.

Maqolada olib borilgan nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, “Learning by Doing” texnologiyasi ona tili ta’limida nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lash imkonini beradi. Mazkur yondashuvda o‘quvchi til hodisasini faqat eshitmaydi yoki yodlamaydi, balki matn tuzish, tahrirlash, izohlash, bahslashish, savol-javob qilish, esse yozish va nutqiy vaziyatlarda qo‘llash orqali o‘zlashtiradi. Natijada bilim faoliyat jarayonida mustahkamlanadi, xato esa salbiy holat emas, balki o‘rganish va takomillashish manbai sifatida namoyon bo‘ladi.

Tahlillar asosida aniqlanishicha, “Learning by Doing” texnologiyasini 5–11-sinf ona tili darslarida qo‘llash o‘quvchilarning matn bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi, yozma va og‘zaki nutq madaniyatini oshiradi, grammatik bilimlarni real kommunikativ vaziyatlarda qo‘llashga o‘rgatadi. Ayniqsa, matn yaratish, xatolar ustida ishlash, gaplarni tahrirlash, rasmiy va ijodiy yozuv namunalarini tuzish, munozarali mavzularda fikr bildirish kabi topshiriqlar o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va savodli nutq yuritish malakasini shakllantiradi. Bu esa ona tili darslarini reproduktiv ta’limdan faol, ijodiy va refleksiv ta’lim jarayoniga aylantiradi.

Pedagogik-psixologik nuqtayi nazardan mazkur texnologiya o‘quvchilarning bilishga qiziqishini kuchaytiradi, o‘z faoliyatiga nisbatan mas’uliyatini oshiradi, o‘z-o‘zini baholash va xatoni anglash ko‘nikmasini rivojlantiradi. O‘quvchi o‘z qo‘li bilan bajargan topshiriq natijasini ko‘rganda, savodli nutqning ahamiyatini chuqurroq anglaydi. Shu sababli “Learning by Doing” texnologiyasi ona tili savodxonligini mexanik yodlash asosida emas, balki shaxsiy tajriba, amaliy faoliyat va refleksiya asosida rivojlantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, 5–11-sinf o'quvchilarida ona tili savodxonligini rivojlantirishda "Learning by Doing" texnologiyasidan foydalanish ta'limning samaradorligini oshiruvchi muhim metodik yo'nalish hisoblanadi. Ushbu texnologiya o'quvchini dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi, til bilimlarini hayotiy nutqiy ehtiyojlar bilan bog'laydi ham-

da ona tili ta'limining kompetensiyaviy mazmunini kuchaytiradi. Shuning uchun ona tili darslarida amaliy topshiriqlar, matn tahlili, tahrir mashqlari, ijodiy yozuv, loyiha ishlari va refleksiv baholash usullarini tizimli qo'llash o'quvchilarning savodxonligini barqaror rivojlantirishning muhim sharti sifatida baholanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bruner J.S. *The Process of Education*. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1960. – 97 p.
2. Dewey J. *Experience and Education*. – New York: Macmillan, 1938. – 116 p.
3. Graham S., Perin D. *Writing Next: Effective Strategies to Improve Writing of Adolescents in Middle and High Schools*. – Washington, DC: Alliance for Excellent Education, 2007. – 66 p.
4. Guthrie J.T., Wigfield A. *Engagement and Motivation in Reading // Handbook of Reading Research*. – Vol. 3. – Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 2000. – P. 403–422.
5. G'ulomov A., Qodirov M. *Ona tili o'qitish metodikasi*. – Toshkent: Universitet, 2001. – 380 b.
6. Hattie J. *Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement*. – London; New York: Routledge, 2009. – 392 p.
7. Kolb D.A. *Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development*. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1984. – 256 p.
8. Mavlonova K.M., Qo'ldosheva S.H., Hakimova N.S., Siddiqov M.R. *Ona tili. 5-sinf. I qism: umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik*. – Toshkent: Novda Edutainment, 2024. – 144 b.
9. Mavlonova K.M., Qo'ldosheva S.H., Hakimova N.S., Siddiqov M. R. *Ona tili. 5-sinf. II qism: umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik*. – Toshkent: Novda Edutainment, 2024. – 160 b.
10. Mullis I.V.S., Martin M.O. *PIRLS 2021 Assessment Frameworks*. – Boston: TIMSS & PIRLS International Study Center, Boston College, 2019. – 130 p.
11. OECD. *PISA 2022 Assessment and Analytical Framework*. – Paris: OECD Publishing, 2023. – 308 p.
12. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Respublika ta'lim markazi. *Ona tili fanidan o'quv dasturi*. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2017. – 5-sinf o'quv dasturi.
13. To'xliyev B., Inog'omova R., Tilavova G. *So'z turkumlari va nutq o'stirish metodikasi*. – Toshkent: Bayoz, 2008. – 120 b.
14. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. *O'zbek tili o'qitish metodikasi*. – Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. – 192 b.
15. UNESCO. *What You Need to Know About Literacy*. – Paris: UNESCO, 2026. UNESCO savodxonlikni hayot davomida o'qish, yozish, raqamli va media ko'nikmalar bilan rivojlanadigan uzluksiz kompetensiya sifatida talqin qiladi.
16. Vygotsky L.S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 159 p.

SENSOMOTORIKA MASHQLARI RIVOJLANISHINING TARIXIY BOSQICHLARI

*Xurramova Lobarxon Akramjonovna,
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat
milliy instituti tayanch doktoranti
xurramovalobar98@gmail.com
ORCID: 0009-0008-1086-2778*

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogika sohasi uchun sensomotorika (sezgi a'zolari orqali bajariladigan mashqlar turkumi) mashqlarining alohida metodika sifatida kirib kelishi hamda antik davrlar, o'rta va yangi asrlar bosqichlarida mazkur mashqlardan foydalanish shakllariga oid tarixiy bosqichlar haqida ma'lumot berilgan. Bundan tashqari, xalq pedagogikasida sensomotorik mashqlardan mehnat birligi sifatida foydalanib kelingani hamda mazkur metodikadan mashhur pedagoglardan I.G. Pestalozzi, F.Frobellar qay tarzda foydalanгани haqida ham to'xtalib o'tilgan. Shuningdek, sensomotorik mashqlar rivojida "motor education" yoki "kinestetik ta'lim" tushunchasi shakllangani to'g'risida yoritilgan. Mashhur pedagogik nazariyachilar va neyropsixologlarning ham sensomotorika, xususan, qo'l mashqlariga oid nazariy qarashlari ham aks etgan ushbu maqolada taniqli italiyalik pedagog M.Montessori nazariyasi mazkur mashqlar turkumi uchun asos qilib olinganiga oid qarashlar ham mavjud. Bundan tashqari, o'zbek tadqiqotchilarining ham izlanishlaridan fikrlar batafsil yoritilganidir.

Kalit so'zlar: sensomotorika, qo'l-motorika mashqlari, nozik motorika, "motor education" tushunchasi, tarixiy bosqichlari, "bosh, yurak va qo'l birligi" tamoyili, "inson tanasi sxemasi", MRT tadqiqotlari, "intellektning quroli", art-terapiya.

Исторические этапы становления и развития сенсомоторных упражнений

Хуррамова Лобархон Акрамжоновна,
докторант Национального института
педагогического мастерства имени А.Авлони

Аннотация: В данной статье рассматриваются исторические этапы формирования и развития сенсомоторных упражнений (комплекса упражнений, выполняемых с участием органов чувств) как отдельной методики в педагогике. Представлена информация о формах применения данных упражнений в античный период, в Средние века и в Новое время. Кроме того, анализируется использование сенсомоторных упражнений в народной педагогике как формы трудовой деятельности, а также рассматривается опыт применения данной методики известными педагогами И. Г. Песталоцци и Ф. Фрёбелем. В статье также освещается формирование понятий "motoreducation" (двигательное образование) и "кинестетическое обучение" в процессе развития сенсомоторных упражнений. Особое внимание уделяется теоретическим взглядам известных педагогических теоретиков и нейropsихологов на сенсомоторное развитие, в частности на упражнения для развития моторики рук. Кроме того, в статье

рассматриваются положения теории известного итальянского педагога М. Монтессори, которые послужили одной из научно-методических основ для развития данной группы упражнений. Кроме того, подробно освещены взгляды и результаты исследований узбекских ученых.

Ключевые слова: сенсомоторика, упражнения для развития моторики рук, тонкая моторика, понятие “motoreducation”, исторические этапы, принцип “единства головы, сердца и руки”, “схема тела человека”, МРТ-исследования, “инструмент интеллекта”, арт-терапия.

Historical stages of the formation and development of sensorimotor exercises

Khurramova Lobarxon Akramjonovna,
Doctoral student of the National Institute of
Pedagogical Skills named after A. Avloni

Abstract: This article studies the historical stages in the emergence and development of sensorimotor exercises (a set of exercises performed through the use of sensory organs) as a specific methodological approach in pedagogy. It provides the information about the application forms of the-

se exercises during the ancient period, the Middle Ages, and the Modern era. In addition, the article analyzes the use of sensorimotor exercises in general pedagogy as a form of labor activity and discusses how this methodology applied by well-known educators such as I. G. Pestalozzi and F. Froebel. The paper also highlights the formation of the concepts “motor education” and “kinesthetic education” in the development of sensorimotor exercises. Particular attention is given to the theoretical views of prominent pedagogical theorists and neuropsychologists regarding sensorimotor development, especially hand-motor exercises. Furthermore, the article discusses the theoretical foundations proposed by the well-known Italian educator M. Montessori, whose ideas served as one of the methodological bases for the development of this group of exercises. In addition, the article comprehensively analyzes the views and research findings of Uzbek scholars.

Keywords: sensorimotor skills, hand-motor exercises, fine motor skills, the concept of “motor education,” historical stages, the principle of the “unity of head, heart, and hand,” “body schema,” MRT studies, “the instrument of intellect”, art therapy.

Ta'lim sohasida qo'llaniluvchi o'ziga xos usul va vositalarning afzalligi hamda kamchiliklari yuzaga chiqishi uchun ma'lum bir vaqt va bosqich talab qilinadiki, sababi har bir metodika amaliyot bilan uzviy chambarchas bog'liq hisoblanadi. Bugungi kunda ommaviy ravishda ta'lim bosqichlarida keng tarqalgan metod hamda metodikalarning ham pedagogika sohasiga kirib kelishi uchun ilmiy muhit hamda yechilishi kerak bo'lgan davriy muammolar talab qilinadi.

Hozirgi zamonning ta'lim iste'molchilari aqliy hamda jismoniy tomonlama yetuk bo'lmalarda ularni ta'lim muhitiga olib kirish maqsadida ishlab chiqilayotgan metodikalar tezkor, samarali, kreativ va yosh davrlariga mos

bo'lishi lozim. Ta'lim bosqiching muhim negizi bo'lgan boshlang'ich ta'lim sohasida ham zamon talabi hamda bolalarning intellektual rivojlanishini inobatga olgan holda asosan bolaning mantiqiy fikrlashiga urg'u qaratilmoqda. Yoshiga mos bilimlarni predmet sifatida umumiy ko'rinishda o'zlashtirish orqali ularni tabiat va turmush tarziga bog'lash masalari dolzarb bo'lib turibdi.

Shu maqsadda bolalarni ilk maktab davrlaridanoq bilish qobiliyatlarini rivojlantirish nihoyatda muhim hisoblanadi. Bunda esa sezish funksiyasining roli beqiyos bo'lib, ular sirasiga sensomotorika harakatlarini kiritish o'rindir. Sensomotorika mashqlari bu sezish(his qilish) tuyg'usi qatnashgan yoki ular ishtirokidagi

kundalik va akademik harakatlar majmui tushuniladi. Sensomotorika bu asosan teri refleksatsiyasi orqali yuzaga keladigan qo‘l va barmoqlar harakatlari turkumidir. Sensomotorik harakatlari akademik xarakterga ham ega hisonlanadi. Sababi bola qo‘l harakatlari orqali yozish, chizish, hisoblash, yasash kabi ta‘limning muhim komponentlarini o‘zlashtiradi. Qo‘l harakatlarning faol tarzda boshlang‘ich ta‘limda qo‘l-lanila boshlanishi xalq pedagogikasida qadimdan ma‘lum bo‘lsada, uni alohida bilish vositasi sifatida pedagogikaga kirib kelishi XIX asr oxiri XX asr boshlariga borib taqaladi.

Insoniyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida qo‘l mehnat quroli, idrok vositasi va muloqot shakli sifatida rivojlandi. Qadimgi odamlar tosh, yog‘och, suyakdan turli qurollar yasash orqali mayda motorikani takomillashtirib, miya faoliyatini rivojlantirgan. F. Engelsning fikriga binoan “Mehnat insonni yaratuvchidir” degan g‘oyasiga ko‘ra, insonning aqliy rivojlanishida qo‘l mehnati va harakati hal qiluvchi omil bo‘lgan [4].

Qo‘l-motorika – bolalarning jismoniy va psixik rivojlanishida muhim o‘rin tutadigan harakatlar majmuasi bo‘lib, pedagogik jarayonlar ichida uzoq tarixga ega. U insonning o‘z atrof-muhitini o‘rganish, fikrlash, ijod qilish va ijtimoiylashish jarayonlarida muhim rol o‘ynaydi. Qo‘l-motorika kundalik faoliyatda ham nihoyatda ko‘p qo‘llaniladigan turmush tarzining ajralmas qismi bo‘lib, undan ta‘lim jarayonida yangi bilimlarni o‘zlashtirish vositasi sifatida foydalanish innovatsion pedagogik muhit va texnologiyalarni yaratadi. Shuningdek, insonning turmush tarziga asqotadigan motorik harakatlarni tez o‘zlashtirib hayotni osonlashtirishga zamin yaratadi. Qo‘l-motorikaga oid asosiy tarixiy nuqtai nazarlar turlicha bo‘lib, ular quyidagicha tasniflanadi:

a) Antik davrlar

Antik yunon hamda misrlik faylasuflar, shuningdek pedagoglar bolalarni rivojlantirish-

da harakatlar bilan qo‘l-harakatlarini muhim hisoblashgan. Ular bolalarning odatiy qo‘l harakatlari orqali anglash, tushunish kabi aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga intilgan.

b) O‘rta asrlar va yangi davr

O‘rta asrlarda qo‘l-motorika ta‘lim jarayonidan ajralmas holda galereya, amaliy san‘at va hunarmandchilik bilan bog‘liq bo‘lgan. Bu davrda qo‘l harakatlari – oddiy amaliy ishlar va hunarmandchilik tarzida rivojlangan.

c) XVII-XIX asrlar

XXI asrga kelib pedagog va psixologlar bolalarning intellektual rivojlanishining dastlabki bosqichlarida qo‘l harakatlarining bilish qobiliyatlariga turtki bergan holda bir necha metodlar ishlab chiqishdi. Misol uchun, XIX asrda ta‘lim muassasalarida hunarmandchilik markazlari tashkil etila boshlangan. Bundan tashqari, bu davrda bolaning aqliy rivojlanishida amaliy faoliyat va harakatning o‘rni haqida ilk nazariy qarashlar shakllandi.

- I.G. Pestalozzi ta‘limda “bosh, yurak va qo‘l birligi” tamoyilini ilgari surib, fikrlash, his qilish va amaliy faoliyat uyg‘unligini ta‘limning asosiy sharti sifatida ko‘rsatgan [1].

- F. Fröbel bolalar bog‘chasi tizimini yaratib, qo‘l mehnati, o‘yin va tasviriy faoliyatni bolaning tafakkurini rivojlantirish vositasi sifatida asoslab bergan [2].

Ayni shu yillarda **“motor ta‘lim” (motor education)** tushunchasi shakllanib, bolaning idroki va harakati o‘zaro bog‘liq holda o‘rganila boshlandi. Mazkur tushuncha hozirgi pedagogika sohasida “kinestetik ta‘lim” tushunchasi bilan barobar bo‘lib, ikkisi ham harakat orqali bilim olish, o‘zlashtirish vazifasiga mos tushishi bilan ahamiyatlidir. Shuningdek, ushbu tushunchalar nazariya va amaliyot birligi tamoyilining ham yorqin namunasi hisoblanadi.

Pedagogik nazariyalar ularni amaliyotda qo‘llash orqali samarali metod va uslublarga aylangani bois, bir qancha mashhur pedagog hamda olimlar tomonidan o‘sha davr ta‘lim

sharoitlaridan kelib chiqqan holda qo'l-motorika mavzusiga doir kuzatuvlar olib borilgan. Jumladan, Jan Jak Russo inson rivojlanishining tabiiyiligini ta'kidlash barobarida bolalarning harakatlari orqali rivojlanishini muhim hisoblagan. Russo bolalarning harakat qilish imkoniyatlarini kengaytirish va ularni tabiiy ravishda rivojlantirishga intilgan.

Bundan tashqari, D.B. Elkonin bolalar rivojlanishida o'yin faoliyati muhim psixologik mexanizm ekanligini ta'kidlaydi [3]. Harakatlar va qo'l-motorika psixik faoliyatning ajralmas qismidir. Shuningdek, J. Piaget nazariyasiga ko'ra, bolalar rivojlanishining ilk bosqichlarida qo'l harakatlari muhim rol o'ynaydi, chunki ularning yordamida bola atrof-muhitni o'rganadi va yangi narsalarni o'zlashtiradi.

XX asr boshlarida ilmiy psixologiya rivojlanishi bilan qo'l-motorika masalasi yanada chuqurroq tahlil qilina boshladi. Psixofiziologik nuqtai nazardan qaraganda, har bir motor akti miyadagi sezgi, harakat va idrok markazlari o'rtasidagi murakkab teskari aloqa mexanizmlari orqali amalga oshadi. Qo'l harakati davomida sezgi-motor koordinatsiyasi, vizual nazorat, diqqatni jamlash va rejalashtirish jarayonlari bir vaqtning o'zida faollashadi. Shu sababli, qo'l-motorika mashqlari nafaqat mus-haklar faoliyatini, balki miya po'stlog'idagi neyron aloqalarni mustahkamlash orqali kognitiv tizimning neyrodinamik barqarorligini ham ta'minlaydi.

Antik davr pedagogikasida mehnat va harakat orqali bilim shakllantirilishi qadimiy yunon-rim tafakkurida e'tirof etilgan bo'lsa, XX asrda J. Piaget va L.S. Vygotskiy Gestalt psixologiyasi va psixomotor tadqiqotlarida qo'l-harakatlarning kognitiv jarayonlar bilan uzviy bog'liqligi ilmiy asos bilan o'rgandi.

J. Piaget kognitiv rivojlanish nazariyasida bolaning ilk rivojlanish bosqichini sensor-motor bosqich deb atab, bu davrda bola atrof-muhitni asosan sezgi va harakat orqali bilishini ta'kid-

laydi [4]. L.S. Vygotskiy va A.N. Leontyev inson harakati va tafakkur o'rtasidagi ijtimoiy bog'liqlikni o'rgangan. L.S. Vygotskiy inson tafakkuri ijtimoiy faoliyat jarayonida shakllanishini ta'kidlab, amaliy harakatlarning psixik rivojlanishdagi ahamiyatini ko'rsatib bergan [5]. A.N. Leontyev faoliyat nazariyasida inson psixikasi amaliy faoliyat jarayonida shakllanishini ilmiy asoslab bergan [6].

Montessori bolalarning mustaqil faoliyatini rivojlantirishda sensor materiallar va qo'l bilan bajariladigan mashg'ulotlardan keng foydalanishni taklif etgan [7]. M. Montessori o'z metodikasida qo'l faoliyati orqali aqliy faoliyatni faollashtirishni asosiy tamoyil sifatida belgilagan bo'lsa, J. Bruner bu jarayonni "o'quvchining faol tajribasi orqali bilish jarayoni" deb izohlagan [8]. Ularning fikricha, qo'l faoliyati orqali aqliy faoliyatni faollashtirish o'quvchi shaxsining bilish jarayonlarini – idrok, tafakkur, xotira, e'tibor va nutqni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Montessori o'z konsepsiyasida bolaning bilish faoliyati uning sezgi va harakat tajribasiga tayangan holda shakllanishini asoslab bergan. Unga ko'ra, bolaning qo'li – bu "intellektning quroli", ya'ni bola atrof-muhitni bilishda avvalo harakat orqali tajriba orttiradi.

XX asr o'rtalarida neyropsixologik yondashuvlar ham shakllanib o'ziga xos tadqiqot va tajribalar o'tkazilgan. Neyropsixologlar – A.R. Luriya, N.A. Bernshteyn va boshqalar – qo'l harakatlarini boshqaruvchi miya zonalarini o'rgandilar. Ularning tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, mayda motorika mashqlari bola miyasining frontal va parietal sohalarini faollashtirib, e'tibor, xotira, nutq kabi kognitiv jarayonlarni rivojlantiradi. Bu davrda "motorika" atamasi mayda motorika (barmoqlar, qo'l panjasi bilan bog'liq harakatlar) va yirik motorika (tana, oyoq, elkalar harakati) tushunchalariga ajratildi.

XXI asrda zamonaviy tadqiqotlar va pedagogik amaliyotlar uzviy ravishda davom

etib kelmoqda. Barmoqlar harakatining miya po'stlog'ida keng neyronal tasviri mavjud bo'lib, u kognitiv jarayonlar bilan uzviy bog'liq [9,10]. Motor rivojlanish darajasi bolaning nutq va artikulyatsiya jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi [11].

Neyrofiziologik tadqiqotlar miyacha, bazal gangliyalar va prefrontal po'stloqning mu-rakkab vazifalar bajarilishida birgalikda fao-lashishini ko'rsatadi [12,13].Funksional MRT tadqiqotlari esa miyachaning nafaqat motor, balki kognitiv faoliyatda ham muhim rol o'y-nashini tasdiqlaydi [14].Bu esa miyachaning nafaqat motor nazorat, balki kognitiv faoliyatda ham muhim rol o'y-nashini bildiradi.

Shuningdek, o'zbek olimlarining ham ushbu mavzu doirasiga aloqador dissertatsiya ishlari mavjud bo'lib, ularda asosan bilish faoliyatiga urg'u berilgan holda dars davomida qo'llani-lishi kerak bo'lgan didaktik jihat hamda o'yin-lar taklif etilgan. Jumladan, "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilish faoliyatini shakllanti-rishning didaktik asoslari" nomli dissertatsiyada boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-biluv faoliyatini shakllantirish jarayonlariga e'tibor berilgan holda didaktik shart-sharoit yaratish hamda jismoniy faollikka chorlovchi ta'limiy va bosqichli didaktik o'yinlar taklif qilingan [15].

X. Sirojiddinova maktabgacha yoshdagi bolalarda qo'l barmoqlari harakatlarini rivoj-lantirish orqali nutq va fikrlash faoliyatini fao-lashtirishni asoslab beradi. Tadqiqotda qo'l-motorika mashqlari bolaning diqqat, xotira va idrok jarayonlarini mustahkamlashi ta'kidlana-di. Maqolada Montessori metodikasidan olin-gan amaliy o'yinlar tizimi keltirilgan. Muallif nazariyasiga ko'ra, harakatli faoliyat bilish jara-yonining asosi hisoblanadi. Ish yakunida may-da motorika bilan kognitiv rivojlanish o'rtasida bevosita neyropsixologik bog'liqlik mavjudligi ko'rsatilgan [16].

Art terapiyaning qum turi yordamida mak-tabgacha yoshdagi bolalarning mayda qo'l motorikasini rivojlantirish" mavzusida qum bilan ishlash orqali bolaning hissiy va bilish faoliyatini rivojlantirishni maqsad qilgan. Art-terapiya mashg'ulotlari qo'l barmoqlari-ning mayda harakatlarini rag'batlantiradi va tasavvurni kengaytiradi. Tadqiqotda bunday faoliyat ijodiy fikrlashni kuchaytirishi ilmiy asoslangan. Shuningdek, mashqlar bolaning stress holatini kamaytiradi va diqqatni oshiradi. Metodik jihatdan art-terapiya qo'l-motorika rivojlanishining innovatsion vositasi sifatida tavsiya etilgan [17].

Sh. O'rinova tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda esa kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirishning nazariy asoslari ishlab chiqil-gan. Muallif kognitiv kompetensiyani tarkibiy jihatdan bilish, tushunish, qo'llash va metakog-nitiv nazorat komponentlariga ajratadi hamda ularni rivojlantirishning bosqichma-bosqich mexanizmini taklif etadi [18].

B. Ergashev tadqiqotlarida esa kognitiv rivojlanishni ta'minlashda innovatsion yon-dashuvlar, xususan, interfaol metodlar, TRIZ texnologiyasi va STEM ta'lim elementlarining samaradorligi asoslab berilgan. U o'quvchilar-ning ijodiy fikrlashini rivojlantirishda ushbu metodlarning muhimligini ko'rsatib beradi [19].

Umuman olganda, O'zbekiston olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar kog-nitiv qobiliyatlarning rivojlanishi uzluksiz, tizimli va ko'p omilli jarayon ekanligini ko'rsa-tadi. Ushbu jarayonda ta'lim muhiti, pedagogik texnologiyalar, motivatsiya va individual yon-dashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi izlanishlar qo'l-motorika rivoj-lanishi kognitiv, neyropsixologik, defektologik va pedagogik yo'nalishlarning kesishgan nuq-tasini tahlil qilmoqda. Xususan, boshlang'ich ta'limda barmoqlar mashqlari, ikki qo'l bilan bajariladigan muvofiqlashtiruvchi o'yinlar, motor-grafik topshiriqlar keng qo'llanilmoqda.

Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, bunday mashqlar:

- tafakkur tezligini oshiradi;
- yozuv va nutqni shakllantiradi;
- mantiqiy bog'lanishlarni kuchaytiradi;
- o'quvchining umumiy kognitiv rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Qo'l-motorika pedagogik jarayonda bolalarning umumiy rivojlanishi uchun muhim omil bo'lib, uning evolyutsiyasi antik davrlardan boshlab zamonaviy pedagogik yondashuvlarga uzoqsiz rivojlandi. Qo'l-motorika mashqlarini bolaning turmush tarzida qo'llab kelgan hayotiy harakatlari bilan uzviy bog'langan holda dars jarayoniga olib kirish ularning moslashuvchanliklarini oshirish bilan birgalikda o'rganish va o'rgatish vaqtini tejashi hamda tezlashtirishi, bolada dars jarayonini oddiy qabul qilishida muhim omil bo'lishi mumkin. Rivojlanish jarayonida qo'l-harakatlarini to'g'ri rivojlantirish bolalarning psixofizik va ijtimoiy imkoniyatlarini rivojlantirishda asosiy vosita hisoblanadi.

Ayniqsa, ilk maktab kunlarida o'quvchilarning o'zlari bilgan hamda notanish bo'lmagan predmet, narsalarga duch kelishi ularning o'qish va bilishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Qo'l-motorika mashqlarini har bir fan(predmet) bilan bog'lab didaktik o'yin, dam olish daqiqasi, takrorlash, yangi mavzu bayoni bosqichlarida qo'llash mumkinligiga doir psixolog va pedagoglarning fikrlari mavjud.

Xulosa qilib aytganda, qo'l-motorika mashqlarini o'quv jarayonining turli bosqichlariga integratsiya qilish nafaqat o'quvchining diqqat va xotirasini faollashtiradi, balki idrok, tafakkur, nutq va ijodkorlik kabi kognitiv jarayonlarning rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Shundan kelib chiqib, zamonaviy pedagogik konsepsiyalar qo'l-motorika mashqlarini faqat jismoniy rivojlantiruvchi vosita emas, balki kognitiv jarayonlarni faollashtiruvchi pedagogik texnologiya sifatida baholaydi.

Bunday mashqlar o'quvchilarning diqqatini jamlash, mantiqiy fikrlashni faollashtirish, o'rganilgan bilimlarni harakat orqali mustahkamlash va yangi ma'lumotni ongli o'zlashtirishga yordam beradi. Natijada o'quv jarayonining barcha bosqichlarida – yangi bilimni o'zlashtirishdan tortib, mustahkamlash va dam olishga qadar – qo'l-motorika faoliyati bilish faoliyatining harakatli modeli sifatida faoliyat ko'rsatadi.

Shuning uchun ham, zamonaviy ta'limda qo'l-motorika mashqlarini har bir fan mazmuni bilan uyg'unlashtirish – ta'limning integrativ, interaktiv shakllarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim vosita sifatida qaraladi. Natijada, o'quv jarayonida muntazam ravishda qo'llaniladigan bunday mashqlar o'quvchilarda bilish faoliyatining faol, ongli va barqaror shakllarini rivojlantirishga, o'qish motivatsiyasini oshirishga hamda o'z-o'zini nazorat qilish va fikrni mantiqan ifodalash qobiliyatini takomillashtirishga yordam beradi.

Qo'l-motorika tarixi insoniyat tafakkuri va madaniy taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqdir. U dastlab mehnat faoliyati orqali shakllanib, keyinchalik psixologik va pedagogik yo'nalishda ilmiy asoslangan. Bugungi kunda esa qo'l-motorika mashqlari nafaqat jismoniy, balki aqliy rivojlanishning ham muhim omili sifatida qaralmoqda.

Shuningdek, zamonaviy o'quv dasturlarida qo'l-motorika faqat jismoniy qobiliyatlarni rivojlantiruvchi vosita sifatida emas, balki bilishjarayonlarni faollashtiruvchi pedagogik texnologiya sifatida ko'riladi. Bunday mashqlar –o'quv jarayonida yangi bilimlarni anglab yetish, mustahkamlash va fikrni ijodiy yechimlar orqali ifodalash bilan chambarchas bog'liq bo'lgan kompleks faoliyatdir.

Tarixiy, psixologik va pedagogik manbalar asosida ko'rish mumkinki, qo'l-motorika inson tafakkuri va madaniy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, dastlab mehnat orqali

shakllangan, keyinchalik ilmiy-metodik asosga ega bo'lgan. Bugungi kunda esa qo'l-motorika mashqlari nafaqat jismoniy, balki fikrlashni o'rganish va o'zini boshqarishning ham markaziy elementiga aylanadi

Shu sababli, qo'l-motorika pedagogik jarayonning ajralmas qismi sifatida:

- o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi;
- diqqat, xotira, tafakkur va nutqning rivojlanishiga xizmat qiladi;
- o'qish motivatsiyasini oshiradi;

- ijtimoiy-emosional moslashuvchanlikni mustahkamlaydi;

- ta'lim jarayonini interaktiv va integrativ shakllarda tashkil etishga zamin yaratadi.

Natijada, qo'l-motorika mashqlarini o'quv jarayonining har bir bosqichida – yangi bilimni qabul qilishdan tortib, uni mustahkamlash va ijodiy faoliyatga tadbiq etishga qadar faol model sifatida qo'llash zamonaviy ta'lim maqsadlariga erishishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Pestalozzi J.H. How Gertrude Teaches Her Children., London, 1801.
2. Froebel F. The Education of Man., New York, 1887.
3. Elkonin D.B. Psychology of Play., Moscow, 1978.
4. Piaget J. The Origins of Intelligence in Children., New York: International Universities Press, 1952.
5. Vygotsky L.S. Mind in Society., Harvard University Press, 1978.
6. Leontiev A.N. Activity, Consciousness and Personality., Moscow, 1978.
7. Montessori M. The Montessori Method., New York, 1912.
8. Bruner J. Toward a Theory of Instruction., 1966.
9. Goldin-Meadow S. Hearing Gesture: How Our Hands Help Us Think., Harvard University Press, 2003.
10. Michel G.F., Tyler A.N. The Development of Hand Preference and Its Role in Cognitive Development., Frontiers in Psychology, 2005.
11. Smith L.B. Action Alters Shape Categories., Cognitive Science, 2005.
12. Schmahmann J.D. The Cerebellum and Cognition., Academic Press, 1997.
13. Strick P.L., Dum R.P., Fiez J.A. Cerebellum and Nonmotor Function., Annual Review of Neuroscience, 2009.
14. Buckner R.L. The Cerebellum and Cognitive Function., Trends in Cognitive Sciences, 2013.
15. Ibragimov R. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari., 2005.
16. Sirojiddinova, X., "Maktabgacha yoshdagi bolalarni mayda qo'l motorikasini rivojlantirish" 2025. <https://inlibrary.uz/index.php/universaljurnal/article/view/86818>
17. Sirojiddinova X. Art-terapiya usullari va motorika/ijodkorlik o'zaro bog'liqligi., 2025.
18. O'rinova Sh.B., Bo'lajak o'qituvchilarning kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirish nazariyasi // Qo'qon DPI Ilmiy xabarlar jurnali., 2023.
19. Ergashev B., "Kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirishda interfaol metodlar va TRIZ texnologiyalari integratsiyasi", 2025.

TA'LIM JARAYONIDA SUN'IY INTELLEKT TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH ORQALI O'QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASH METODIKASI

Mamadaliyeva Zahro Imomali qizi,
*A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti,
Kattalar ta'limi magistranti
zahromamadaliyeva02@gmail.com
+998 (88) 973-06-10*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ta'lim jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali o'quvchilar bilimini baholash metodikasi tahlil qilinadi. Sun'iy intellekt asosidagi diagnostik tizimlarning pedagogik imkoniyatlari, adaptiv baholash mexanizmlari, raqamli platformalar hamda zamonaviy baholash usullarining samaradorligi ilmiy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida raqamli ta'limni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati, Prezident farmonlari va zamonaviy ta'lim strategiyalari asosida sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni ochib berilgan. Tadqiqot natijasida sun'iy intellekt texnologiyalari ta'lim sifati, monitoring jarayonlari va individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirishda muhim omil ekanligi asoslandi.*

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt, raqamli ta'lim, diagnostika, adaptiv baholash, ta'lim texnologiyalari, monitoring, kompetensiya, pedagogik innovatsiya.*

Методика оценки знаний учащихся с использованием технологий искусственного интеллекта в образовательном процессе

Мамадалиева Захро Имомали кизи,
Национальный институт педагогического мастерства имени А. Авлони, магистрант по направлению Образование взрослых

Аннотация: *В данной статье анализируется методика оценки знаний учащихся посредством использования технологий искусственного интеллекта в образовательном процессе. Освещаются педагогические возможности диагностических систем на основе искусственного интеллекта, механизмы адаптивного оценивания, цифровые платформы и эффективность современных методов контроля знаний. Также раскрывается роль технологий искусственного интеллекта в развитии цифрового образования в Узбекистане на основе государственной политики, указов Президента и современных образовательных стратегий. В результате исследования обосновано, что технологии искусственного интеллекта являются важным фактором повышения качества образования, мониторинга и формирования индивидуальной образовательной траектории.*

Ключевые слова: *искусственный интеллект, цифровое образование, диагностика, адаптивное оценивание, образовательные технологии, мониторинг, компетенция, педагогическая инновация.*

Methodology of assessing students' knowledge through the use of artificial intelligence technologies in the educational process

Mamadaliyeva Zahro Imomali qizi,

*National Institute of Pedagogical Skills named
after A. Avloni, Master's student in
Adult Education*

Abstract: *This article analyzes the methods and techniques of assessing students' knowledge through using the artificial intelligence technologies in the process of education. The study explores the pedagogical capabilities of AI-based diagnostic systems, adaptive assessment mechanisms, digital platforms, and the effectiveness of modern assessment*

methods. Furthermore, it states the role of artificial intelligence technologies in the development of digital education in Uzbekistan based on state policy, Presidential Decrees, and modern educational strategies. The study proves that AI technologies are an important factor in improving quality of education, monitoring processes, and forming individualized learning trajectories.

Keywords: *artificial intelligence, digital education, diagnostics, adaptive assessment, educational technologies, monitoring, competence, pedagogical innovation.*

Bugungi globallashtirish va raqamlashtirish jarayonida ta'lim tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim sohasiga kirib kelishi o'quvchilar bilimni baholash, monitoring qilish va diagnostika jarayonlarini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Zamonaviy ta'lim paradigmasida an'anaviy baholash usullari o'rnini raqamli, adaptiv va individual yondashuvga asoslangan baholash tizimlari egallamoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham raqamli ta'limni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi farmonida ta'lim tizimini to'liq raqamlashtirish, zamonaviy texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etish va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish vazifalari belgilab berilgan [1].

Bugungi kunda sun'iy intellekt asosidagi platformalar o'quvchilar bilim darajasini tezkor tahlil qilish, individual xatolarni aniqlash, o'quv faoliyatini monitoring qilish va shaxsiy ta'lim trayektoriyasini shakllantirish imkonini bermoqda. Shu jihatdan mazkur mavzu ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'limdagi o'rnini. Sun'iy intellekt inson intellektual faoliyatiga xos bo'lgan tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, o'rganish va qaror qabul qilish kabi jarayonlarni kompyuter tizimlari orqali amalga oshirishni ifodalaydi. Ta'lim jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning individual imkoniyatlarini aniqlash va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Hozirgi vaqtda quyidagi sun'iy intellekt texnologiyalari ta'lim tizimida keng qo'llanmoqda:

- adaptiv o'qitish tizimlari;
- aqlli test platformalari;
- chatbot va virtual yordamchilar;
- avtomatik baholash tizimlari;
- o'quv analitikasi (Learning Analytics);
- predictive analytics texnologiyalari.

Mazkur texnologiyalar o'quvchilarning bilim darajasini aniq diagnostika qilish imkonini beradi. Sun'iy intellekt asosidagi platformalar nafaqat natijani baholaydi, balki o'quvchining bilimni o'zlashtirish jarayonini ham tahlil qiladi [2].

Prezident Sh.M. Mirziyoyev o'z nutqlarida ta'limni raqamlashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratib, zamonaviy texnologiyalar asosida yoshlarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish zarurligini ta'kidlagan [3].

O'quvchilar bilimni baholashning pedagogik mohiyati. Baholash ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini aniqlashga xizmat qiladi. Pedagogik diagnostika esa ta'lim natijalarini tahlil qilish, kamchiliklarni aniqlash va rivojlantiruvchi choralarni ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Baholashning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

- nazorat funksiyasi;
- diagnostik funksiyasi;
- rivojlantiruvchi funksiyasi;
- motivatsion funksiyasi;
- tahliliy funksiyasi.

An'anaviy baholash tizimida o'quvchi faoliyati asosan yakuniy natija orqali aniqlanadi. Sun'iy intellekt asosidagi baholash tizimlari esa o'quvchining butun o'quv jarayonini monitoring qiladi. Bu esa individual yondashuvni kuchaytiradi [4].

Sun'iy intellekt asosida baholash metodikasi. Sun'iy intellekt asosidagi baholash metodikasi quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Ma'lumotlarni yig'ish bosqichi. Bu bosqichda o'quvchilarning:

- test natijalari;
- topshiriqlar bajarilishi;

- platformadagi faolligi;
- vaqt ko'rsatkichlari;
- xatolar statistikasi yig'iladi.

Mazkur ma'lumotlar algoritmlar yordamida qayta ishlanadi.

2. Diagnostik tahlil bosqichi. Sun'iy intellekt algoritmlari o'quvchilarning:

- bilim darajasi;
- qiyinchiliklari;
- o'zlashtirish sur'ati;
- individual xususiyatlarini aniqlaydi.

Bu bosqichda Machine Learning texnologiyalaridan foydalaniladi [5].

3. Adaptiv baholash bosqichi. Adaptiv baholash tizimi o'quvchining javoblariga qarab keyingi topshiriqlar murakkabligini avtomatik o'zgartiradi. Natijada baholash yanada obyektiv va individual xarakter kasb etadi.

4. Monitoring va prognozlash bosqichi. Sun'iy intellekt o'quvchi rivojlanishini monitoring qiladi hamda kelajakdagi natijalarni prognozlaydi. Bu o'qituvchiga o'z vaqtida pedagogik yordam ko'rsatish imkonini beradi.

Sun'iy intellekt asosidagi platformalar va ularning imkoniyatlari. Bugungi kunda quyidagi platformalar ta'lim diagnostikasida samarali qo'llanmoqda:

1-jadval.

Sun'iy intellekt asosidagi platformalar va ularning imkoniyatlari

T/r	Platformalar	Imkoniyatlari
1.	Moodle AI	Avtomatik test yaratish, javoblarni baholash, o'quvchi faoliyatini tahlil qilish, hisobotlar generatsiyasi.
2.	Google Forms	So'rovnomalar va testlar orqali ma'lumotlar yig'ish, statistik tahlil qilish, natijalarni vizuallashtirish.
3.	Quizizz	Interaktiv testlar o'tkazish, real vaqt rejimida baholash, natijalarni tahlil qilish va taqqoslash.
4.	Kahoot	O'yinlashtirilgan baholash, real vaqt natijalari, o'quvchilar ishtirokini oshirish.
5.	Duolingo	Adaptiv til o'rganish, o'quvchilarning bilim darajasiga mos topshiriqlar berish, xatolarni tahlil qilish.
6.	ChatGPT	Individual tushuntirish, savollarga javob berish, tahliliy fikr bildirish, mavzuni chuqur tushunishga yordam berish.

Mazkur platformalar o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini tezkor aniqlash imkonini beradi.

Sun'iy intellekt asosidagi baholashning afzalliklari. Sun'iy intellekt texnologiyalarining afzalliklari quyidagilardan iborat:

- inson omilini kamaytiradi;
- baholashning obyektivligini oshiradi;
- vaqtni tejaydi;
- individual yondashuvni kuchaytiradi;
- real vaqt monitoringini ta'minlaydi;
- katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qiladi;
- pedagogik qarorlarni optimallashtiradi.

Shuningdek, sun'iy intellekt o'quvchilarning psixologik holatini ham bilvosita tahlil qilish imkonini beradi [6].

Sun'iy intellekt texnologiyalarining kamchiliklari. Ijobiy jihatlar bilan bir qatorda ayrim muammolar ham mavjud:

- texnik infratuzilma yetishmasligi;
- internet tezligining pastligi;
- ma'lumotlar xavfsizligi muammosi;
- algoritmik xatoliklar;
- pedagoglarning raqamli kompetensiyasi yetarli emasligi.

Shu sababli sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishda pedagoglarning malakasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda sun'iy intellekt va raqamli ta'lim siyosati. So'nggi yillarda O'zbekistonda sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, "Sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasi" da ta'lim tizimiga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish vazifalari belgilangan [7].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida zamonaviy bilim va raqamli texnologiyalarni egallagan yoshlarni tarbiyalash davlat taraqqiyotining asosiy omili ekanligini ta'kidlagan [8].

Ta'lim tizimida elektron platformalar, masofaviy ta'lim, raqamli monitoring va sun'iy intellekt tizimlari bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

- pedagogik tahlil;
- qiyosiy tahlil;
- monitoring;
- statistik tahlil;
- ilmiy manbalarni o'rganish;
- diagnostik kuzatuv.

Tadqiqot davomida sun'iy intellekt asosidagi ta'lim platformalarining samaradorligi o'rganildi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, sun'iy intellekt texnologiyalari:

- o'quvchilar bilimni aniq baholaydi;
- xatolarni avtomatik aniqlaydi;
- individual ta'lim trayektoriyasini yaratadi;
- ta'lim sifatini oshiradi;
- o'qituvchi faoliyatini optimallashtiradi.

Shuningdek, sun'iy intellekt asosidagi diagnostika tizimlari o'quvchilarning mustaqil ishlash kompetensiyasini rivojlantiradi.

Pedagogik tajribalar shuni ko'rsatdiki, adaptiv baholash tizimlaridan foydalangan o'quvchilarning natijalari an'anaviy tizimga nisbatan yuqoriroq bo'lgan [9].

Pedagogik nuqtai nazardan qaraganda, sun'iy intellekt asosidagi baholash tizimlari o'qituvchining ish faoliyatini optimallashtiradi. O'qituvchi ko'p vaqtini nazorat ishlari va testlarni tekshirishga emas, balki o'quvchilar bilan individual ishlashga yo'naltira oladi. Bu esa ta'limning insonparvarlik tamoyillarini kuchaytiradi [10].

Shu bilan birga, sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, texnik infratuzilmaning yetarli emasligi, ma'lumotlar xavfsizligi, internet sifati hamda pedagoglarning raqamli kompetensiyasi

bilan bog'liq muammolar sun'iy intellekt tizimlarining samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli pedagoglarni zamonaviy texnologiyalar asosida qayta tayyorlash va malakasini oshirish muhim vazifa hisoblanadi [11].

Quyidagi jadvalda sun'iy intellekt asosidagi baholash tizimlarining asosiy pedagogik afzalliklari yoritilgan.

yondashuvni kuchaytirish hamda ta'lim sifatini yaxshilashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Sun'iy intellekt asosidagi baholash tizimlari nafaqat natijani aniqlaydi, balki o'quvchining rivojlanish dinamikasini ham tahlil qiladi. Bu esa zamonaviy pedagogik yondashuvlarning samaradorligini oshirishga yordam beradi.

2-jadval.

Sun'iy intellekt asosidagi baholash tizimlarining asosiy pedagogik afzalliklari

T/r	Afzalliklari	Tavsifi
1.	Baholash obyektivligini oshiradi	Sun'iy intellect algoritmlari inson omilisiz ishlaydi, natijalarni xolis va adolatli baholash imkonini beradi.
2.	O'quvchilar bilimini tezkor tahlil qiladi	Real vaqt rejimida o'quvchi javoblari, xatolari va faolligini tezkor tahlil qilib, aniq xulosa chiqaradi.
3.	Individual ta'lim trayektoriyasini yaratadi	Har bir o'quvchining o'zlashtirish darajasi va qobiliyatiga mos ravishda individual o'quv yo'lini belgilaydi.
4.	Monitoring jarayonini avtomatlashtiradi	O'quv jarayonidagi barcha ma'lumotlarni avtomatik yig'ish, tahlil qilish va hisobotlarni shakllantirishni ta'minlaydi.
5.	O'quv motivatsiyasini oshiradi	Interaktiv va o'yinlashtirilgan baholash elementlari orqali o'quvchilarda qiziqish va rag'batni kuchaytiradi.
6.	O'qituvchi faoliyatini optimallashtiradi	Rutin baholash ishlari avtomatlashtirilishi orqali o'qituvchiga ko'proq vaqtni maqsadli pedagogic faoliyatga sarflash imkonini beradi.
7.	Masofaviy ta'lim sifatini yaxshilaydi	Onlayn ta'limda nazorat, tahlil va baholash jarayonlarini samarali boshqarish orqali ta'lim sifatini ta'minlaydi.
8.	Statistik tahlil imkoniyatlarini kengaytiradi	Katta hajmdagi ma'lumotlatni qayta ishlash orqali chuqur statistic tahlil o'tkazish va prognozlash imkoniyatlarini yaratadi.

Mazkur maqolada, ta'lim jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilar bilimini baholash tizimini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Mazkur texnologiyalar baholashning obyektivligini oshirish, monitoring jarayonlarini avtomatlashtirish, individual

Kelajakda sun'iy intellekt texnologiyalarini ta'lim tizimiga yanada chuqur integratsiya qilish, pedagoglarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish hamda milliy raqamli platformalarni yaratish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. – Toshkent, 2020. – 12-18-betlar.
2. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'limda axborot texnologiyalari. – Toshkent: Fan, 2019. – 45-52-betlar.
3. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – 56-60-betlar.
4. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Iste'dod, 2021. – 78-83-betlar.
5. Karimov A.A. Sun'iy intellekt asoslari. – Toshkent: TDPU, 2021. – 33-39-betlar.
6. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent, 2020. – 91-97-betlar.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent, 2021. – 18-24-betlar.
8. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – 144-149-betlar.
9. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2020. – 66-70-betlar.
10. Sattorov J.J. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O'qituvchi, 2020. – 73-79-betlar.
11. To'xtayev F.B. Sun'iy intellekt va raqamli transformatsiya. – Toshkent: Akademnashr, 2023. – 95-100-betlar.

GEOMETRIK MASALALARNI TENGLAMALAR SISTEMASI YORDAMIDA YECHISH

Yusupov Odil,

I.Karimov nomidagi TDTU akademik litseyi o'qituvchisi

Ostonayev Elyor,

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti

“Aniq va tabiiy fanlar” metodikasi kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada geometrik masalalarni yechishda tenglamalar sistemasi yordamida algebraik yondashuvni qo'llashning ilmiy-metodik asoslari tahlil qilingan. Geometrik va algebraik usullarni integratsiyalash orqali murakkab masalalarni yechish samaradorligi asoslab berilgan. Xususan, uchburchaklarga doir masalalarda yuzalar va kesmalar orasidagi bog'lanishlarni tenglamalar sistemasi orqali ifodalash, noma'lum miqdorlarni aniqlash va natijalarni tahlil qilish usullari yoritilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, taklif etilgan yondashuv o'quvchilarning matematik modellashtirish, mantiqiy fikrlash va muammoni turli usullar orqali yechish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ushbu metodika matematika ta'limida formalizmni kamaytirish va o'quvchilarning mustaqil ijodiy faoliyatini faollashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so'zlar: *tenglamalar sistemasi, geometrik masalalar, matematik modellashtirish, algebraik usul, geometrik yondashuv, uchburchak, yuzalar nisbati, Cheva teoremasi, mantiqiy fikrlash, kompetensiya.*

Решение геометрических задач с системой уравнений

Юсупов Одил,

*преподаватель академического лицея ТТТУ
имени И.Каримова*

Элёр Остонаев,

*старший преподаватель методики преподавания “Точных и естественных наук”
в Национальном институте педагогических
навыков имени А.Авлони*

Аннотация: *В статье рассмотрены научно-методические основы решения геометрических задач с использованием систем уравнений. Обоснована эффективность интеграции геометрических и алгебраических методов при решении задач повышенной сложности. В частности, показаны способы моделирования взаимосвязей между площадями и отрезками в треугольниках с помощью систем уравнений, а также методы нахождения неизвестных величин и анализа полученных результатов. Результаты исследования показывают, что предложенный подход способствует развитию математического моделирования, логического мышления и навыков решения задач различными способами у учащихся. Кроме того, данная методика направлена на снижение формализма в обучении математике и активизацию самостоятельной творческой деятельности учащихся.*

Ключевые слова: *система уравнений, геометрические задачи, математическое моделирование, алгебраический метод, геометрический подход, треугольник, отношение площадей, теорема Чевы, логическое мышление, компетенции.*

Solution of geometric problems with the system of equations

Yusupov Odil,

*teacher of the academic lyceum of TSTU named
after I. Karimov*

Ostonayev Elyor,

*Senior Lecturer of the Department Methodology of
Exact and Natural Sciences at the National Institute
of Pedagogical Skills named after A. Avloni*

Abstract: *This article analyzes the scientific and methodological foundations of solving geometric problems using systems of equations. It substantiates the effectiveness of integrating geometric and algebraic approaches in solving complex problems.*

In particular, the article explores the methods of modeling relationships between areas and segments in triangles using systems of equations, as well as techniques for determining unknown quantities and analyzing results. The results of the study ensures that the proposed approach contributes to the development of students mathematical modeling skills, logical thinking, and the ability to solve problems using multiple methods. Furthermore, this methodology helps reduce formalism in mathematics education and enhances students independent creative activities.

Keywords: *system of equations, geometric problems, mathematical modeling, algebraic method, geometric approach, triangle, area ratio, Cheva's theorem, logical thinking, competency.*

Hozirgi kunda matematika ta'limi holdida turgan dolzarb vazifalardan biri o'quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini shakllantirish, balki ularni amaliy vaziyatlarda qo'llay olish, mustaqil fikrlash va muammoni turli usullar bilan yechish ko'nikmalarini rivojlantirishdan iboratdir. Shu nuqtai nazardan, geometrik masalalarni yechish jarayonida turli metodlarning qo'llanilishi, xususan, algebraik yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'plab o'quvchilar geometrik masalalarni faqat an'anaviy usullar orqali yechishga odatlanib qolgan bo'lib, murakkab masalalarda qiyinchiliklarga duch keladilar. Bunday holat esa ularning matematik tafakkurining cheklanishiga va bilimlarning formal o'zlashtirilishiga olib keladi. Shu sababli geometrik masalalarni yechishda algebraik usullarni, xususan, tenglamalar sistemasi yordamida yechish metodikasini qo'llash zarurati yuzaga keladi. Tenglamalar sistemasi yordamida geometrik masalalarni yechish o'quvchilarga masalani matematik modellashtirish, noma'lum miqdorlarni aniqlash hamda natijalarni tahlil qilish imkonini

beradi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi, ularni turli yechim usullarini solishtirishga va eng samarali usulni tanlashga o'rgatadi. Mazkur maqolaning maqsadi geometrik masalalarni tenglamalar sistemasi yordamida yechishning ilmiy-metodik asoslarini yoritish hamda ushbu yondashuvning o'quvchilarning matematik tafakkurini rivojlantirishdagi ahamiyatini asoslab berishdan iborat. Ma'lumki, har qanday jamiyatda texnika taraqqiyoti kundalik turmush tarzidan tortib yuqori avtomatlashgan ishlab chiqarish jarayonlarini bajarishgacha matematika fani qonuniyatlarisiz amalga oshmaydi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda matematika fanini alohida o'qitish, amaliyotga tadbiiq etishga e'tibor berish shu kunning muhim vazifasi hisoblanadi.

O'quvchilarning bilimidagi uchrayotgan kamchiliklarni bartaraf etish uchun maktabda matematika fanining asosiy g'oyalarni birinchi o'ringa qo'yish bilan erishish mumkin. Bu g'oyalar quyidagilardan iborat, ya'ni to'plam haqidagi tushuncha, son to'g'risida ta'limot, funksiyalar to'g'risidagi ta'limot, matematika-ning amalda tatbiiq etilishi, aksiomatik metod

haqidagi tushunchalar, tenglama va tengsizliklar haqidagi ta'limotdan, shuningdek, zaruriy va yetarlilik, mavjudlik va yagonalik kabi asosiy mantiqiy toifalar bilan uyg'unlashtirish va boshqalardan iboratdir. Bu g'oyalarning rivojlanish tartibi qat'iy ravishda maktab dasturlarida belgilanilishi kerak. O'quvchilar uchun qiyinlik darajasidagi misollar, ya'ni differensial va integral hisoblar, matematik analiz vositalarini kiritish muammoli bo'lib, differensial va integral hisob g'oyalarini ommabop qilib berishga urunish fanning mohiyatini buzishga olib keladi.


Matematika fanini bayon qilishda hamma asosiy tushuncha va teoremlarning ta'riflarini juda ham ravshan qilib ochib berish kerak. O'quvchi o'рта maktab dasturiga kiritilgan har bir matematik tushunchalarning ta'rifini ochiq – oydin aytib bera olishi, shu fan hajmida har bir teoraemani ravshan ta'riflay olishi kerak. Shu bilan birga asosiy tushunchalarni misollar bilan tushuntira olishi, teorema shartlarining zarurligini tushunish va teorema isbotining qaysi joylarida bu shartlardan foydalanish kerakligini tushunishi lozim. Ta'riflarni tushunmaslik, teoremlarni ravon ifoda qilishni bilmaslik, masalalar yechishda va nazariy xulosalar chiqarishda bu asosiy tushunchalardan foydalana olmaslik va ularni tatbiq eta olmaslik g'oyat katta nuqsondir, chunki bu nuqsonlar masalalar yechishda va isbot qilishda ko'p xatoliklarning kelib chiqishiga sabab bo'libgina qolmasdan, balki asosiy qoidalarni quruq yodlab olib, ulardan amalda (masalalar yechishda va teoremlarni isbot qilishda) foydalana bilmaslik o'quvchilar bilimlarida formalizmga olib keladi [3].

Bir qancha tipik masalalarni yechishda bir xil yo'l juda muhim, biroq masalalarni yechishda, geometrik yasashlar va mulohaza qilishda "sun'iy" usullarni qo'llashdan ham qochmaslik kerak. Matematikaga ko'proq qiziqqan o'quvchilarni, misol va masalalarni yechishda turli


usullar bilan tanishtirish, ularda noan'anaviy yondoshuvini oshirish juda muhimdir [2].

Bu maqolada o'vchilarga yuqorida aytilganidek masalalarning ba'zilarini yechishda qo'llaniladigan noan'anaviy va isbot qilish usullari bilan tanishtirishdan iborat. Bularning hammasi, maktablarda qo'llaniladigan boshqa tadbirlar bilan bir qatorda, o'quvchilarning matematika bilimidagi formalizmni uzil – kesil yo'q qilishga va o'quvchilarning matematik saviyalarini yanada o'stirishga yordam beradi [1].

Masala. Teng tomonli uchburchakning har bir tomoni 3 ta teng bo'lakka bo'lib, bo'linish nuqtalarini, chizmadagi kabi tegishli tomon qarshisidagi uch bilan tutashtirilgan. Bu tutashtiruvchi chiziqlar hosil qilgan uchburchak yuzining berilgan uchburchak yuziga nisbatini toping. $\frac{S_{DNM}}{S_{ABC}} = ?$.



1-chizma



2-chizma

Yechish: Birinchi usul. S – berilgan $\triangle ABC$ uchburchakning yuzi bo'lsin, $\triangle DNM$ uchburchakning yuzini $\triangle ABC$ uchburchak yuzi orqali ifodalab olamiz. Masalaning $\frac{\overline{BF}}{\overline{BC}} = \frac{1}{3}$ shartiga


ko'ra $\frac{S_{ABF}}{S_{ABC}} = \frac{1}{3}$ bo'ladi. Bundan $S_{ABF} = \frac{S}{3}$ va $S_{ACF} = \frac{2S}{3}$

\overline{AD} $\triangle ADC$ uchburchakning yuzini topish uchun \overline{DF} nisbatni topamiz.


Cheva teoremasiga ko'ra $\frac{\overline{BC}}{\overline{CF}} \frac{\overline{FD}}{\overline{DA}} \frac{\overline{AP}}{\overline{PB}} = 1$

(2-chizma); $\frac{3x \overline{FD}}{2x \overline{DA}} \frac{x}{2x} = 1$ bundan $\frac{\overline{AD}}{\overline{DF}} = \frac{3}{4}$

ekanligi kelib chiqadi.



3-chizma



4-chizma

Cheva teoremasiga ko'ra $\frac{CF}{FB} \frac{BA}{AP} \frac{PD}{DC} = 1$
(3-chizma); $\frac{2x}{x} \frac{3x}{x} \frac{PD}{DC} = 1$ bundan $\frac{PD}{DC} = \frac{1}{6}$

ekanligi kelib chiqadi. Demak PC kesma kesishish nuqtalarida $PD : DM : MC = 1 : 3 : 3$ nisbatda bo'linadi.

$\frac{AD}{AF} = \frac{3}{7}$ bo'lgani uchun $\triangle ADC$ uchburchakning yuzi $S_{ADC} = \frac{3}{7} S_{AFC} = \frac{3}{7} \frac{2}{3} S = \frac{2}{7} S$,

$\triangle DFC$ uchburchakning yuzi esa $S_{DEC} = \frac{8}{21} S$.

$\frac{DM}{MC} = \frac{3}{3}$ bo'lgani (4-chizma) uchun

$\triangle DFM$ va $\triangle ECM$ uchburchaklarning yuzalari $S_{DFM} = S_{FMC} = \frac{1}{2} S_{DEC} = \frac{4}{21} S$ ga teng.

$\frac{EN}{ND} = \frac{1}{3}$ bo'lgani uchun $\triangle ENM$ uchburchakning yuzi $S_{ENM} = \frac{1}{4} S_{DEM} = \frac{1}{4} \frac{4}{21} S = \frac{1}{21} S$,

$\triangle DNM$ uchburchakning yuzi esa $S_{DMN} = \frac{3}{4} \frac{4}{21} S = \frac{1}{7} S$ ga teng.

Demak, berilgan yuzalar nisbati

$$\frac{S_{DNM}}{S_{ABC}} = \frac{\frac{1}{7} S}{S} = \frac{1}{7} \text{ ga teng.}$$

Endi yuqorida berilgan masalani yechishda tenglamalar sistemasidan foydalaniladi. Izlanayotgan yuz bilan yana bir nechta "noma'lum" yuzalar qaraladi. So'ngra bu no'malum va izlanayotgan yuzalarning hammasini o'z ichiga oladigan tenglama tuziladi [5,6,7].

Masala. Teng tomonli uchburchakning har bir tomoni 3 ta teng bo'lakka bo'linib, bo'linish nuqtalarini, chizmadagi kabi tegishli tomon

4-masala. Yuza S ga teng bo'lgan ABC uchburchak ichidan O nuqta olingan. AO va BO chiziqlar uchburchakni 4 bo'lakka ajratadi. Bunda: $S_{AOB} = a$, $S_{OPCQ} = b$. BOP va OAQ uchburchak yuzlarini toping.

Xulosa o'rnida aytish joizki, maqolada geometrik masalalarni tenglamalar sistemasi yordamida yechishning ilmiy-metodik asoslari tahlil qilindi hamda geometrik va algebraik yondashuvlarning integratsiyasi samaradorligi asoslab berildi. Tadqiqot jarayonida geometrik masalalarni algebraik modellashtirish orqali yechish o'quvchilarning matematik tafakkurini rivojlantirishda muhim omil ekanligi aniqlandi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, tenglamalar sistemasi yordamida yechish usuli o'quvchilarga masalani chuqurroq anglash, noma'lum miqdorlar o'rtasidagi bog'lanishni

aniqlash hamda yechimni asoslash imkonini beradi. Bu esa ularning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, muammoni turli usullar bilan hal qilish va optimal yechimni tanlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, ushbu metodik yondashuv matematika ta'limida uchraydigan formalizmni kamaytirish, o'quvchilarning mustaqil ijodiy faoliyatini faollashtirish hamda fanlararo integratsiyani ta'minlashga xizmat qiladi. Natijada, geometrik masalalarni tenglamalar sistemasi yordamida yechish usulini ta'lim jarayoniga keng joriy etish o'quvchilarning matematik savodxonligini oshirish, ularning bilimlarini amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish va zamonaviy ta'lim talablariga mos kompetensiyalarni shakllantirishda samarali vosita ekanligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O.Q. Yusupov. "Information and communication technologies in the organization and development of independent creative work of young people". SCIENCE AND INNOVATION international scientific journal. Volume 2. ISSUE 6. June 2023. P.91-97.
2. O.K. Yusupov, J.I. Buranov. "Nekotorye voprosy matematicheskogo obrazovaniya v akademicheskix litseyax: istoriko-matematicheskii obzor obucheniya geometrii". O'zbekiston Milliy universiteti xabarлари, 2025, [1/3], ISSN 2181-7324. Str. 210-213.
3. O.Q. Yusupov, N.B. Shamsiddinov. Uchburchak ichidagi nuqtadan uchburchak uchlarigacha bo'lgan masofaga ko'ra elementlarini topish // "Ta'lim sifati samaradorligini oshirishda xalqaro tajribalardan foydalanish: muammo va yechimlari" Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Sirdaryo. 2020-y 28-29 aprel. b. 219-222.
4. Xusanov D.X., Shamsiddinov N.B. "Yoshlarning mustaqil ijodiy fikrlash faoliyatini rivojlantirishda geometrik masalalarning o'rni". "Halq ta'limi" ilmiy-metodik jurnal. 2020-yil. 5-son. 16-24 bet.
5. Xusanov J.X., Shamsiddinov N.B. "Geometrik masalani turli yechish usullari yordamida o'quvchilarning ijodiy fikrlash faoliyatini rivojlantirish". "Halq ta'limi" ilmiy-metodik jurnal. 2022-yil. 3-son.
6. O.Karimiy. Planimetriyadan hisoblashga va isbotlashga doir tanlangan masalalar. "O'qituvchi". Toshkent-1955-y.
7. J.Husanov, N.Shamsiddinov, On the role average values in solving geometric extreme. Internatsional Journal on Integrated edication. Vol.6.2022.

KASBIY MA'NAVIYATGA OID TASAVVURLARNI BOYITISHDA XALQARO TAJRIBANING AHAMIYATI

*Mutallibjonov Ma'rufjon Mutallibjon o'g'li,
Qori Niyoziy nomli Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tayanch doktoranti,
Andijon shahridagi Prezident maktabi tarbiya fani o'qituvchisi
marufjonmutallibjonov@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quvchilarda kasbiy ma'naviyatga oid tasavvurlarni boyitishda xalqaro tajribaning o'rni ilmiy-nazariy va qiyosiy tahlil asosida yoritiladi. Tadqiqotda O'zbekiston ta'lim tizimidagi ma'naviy tarbiya yondashuvlari xorijiy tajribalar bilan solishtirildi. UNESCO, OECD hamda bir qator xorijiy olimlarning ilmiy ishlari asosida kasbiy ma'naviyatni shakllantirishda qadriyatlar ta'limi, kasbiy yo'naltirish, mehnat dunyosi bilan erta tanishtirish, ish beruvchilar ishtiroki va refleksiv yondashuvning samarali mexanizmlari aniqlandi. Natijada o'quvchilarning kasbiy ma'naviy tasavvurlarini boyitish uchun milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan integrativ model zarurligi asoslandi.

Kalit so'zlar: kasbiy ma'naviyat, TVET, UNESCO-UNEVOC, OECD, ERIC, APNIEVE, kasbiy yo'naltirish, career readiness, integrativ yondashuv.

**Значение международного опыта
в обогащении представлений о
профессиональной нравственности**

**Муталлибжонов Маруфжон
Муталлибжон угли,**
докторант Национального института
педагогике воспитания имени Кори Ниёзи,
учитель предмета "Тарбия" Президентской
школы города Андижана

Аннотация: В данной статье на основе научно-теоретического и сравнительного анализа раскрывается роль международного опыта в обогащении представлений учащихся о профессиональной нравственности. В исследовании подходы к духовно-нравственному воспитанию в системе образования Узбекистана сопоставлены с зарубежным опытом. На основе научных работ UNESCO, OECD, а также ряда зарубежных ученых определены эффективные механизмы формирования профессиональной нравственности, такие как ценностное образование, профессиональная ориентация, раннее ознакомление с миром труда, участие работодателей и рефлексивный подход. В результате обоснована необходимость интегративной модели, сочетающей национальные ценности и международный опыт, для обогащения представлений учащихся о профессиональной нравственности.

Ключевые слова: профессиональная нравственность, TVET, UNESCO-UNEVOC, OECD, ERIC, APNIEVE, профессиональная ориентация, career readiness, интегративный подход.

**The importance of international experience
in enriching ideas about professional
spirituality**

Mutallibjonov Ma'rufjon Mutallibjon o'g'li,
*Basic Doctoral Student of the Qori Niyoziy
 National Institute of Pedagogy of Upbringing,
 Tarbiya subject teacher at the Presidential
 School in Andijan*

Abstract: *This article explores the role of international experience in enriching students' understanding of professional ethics through scientific-theoretical and comparative analysis. The study compares approaches to spiritual and moral education in the education system of Uzbekistan with foreign experiences. Based on the scientific works*

of UNESCO, OECD, and a number of foreign scholars, effective mechanisms for shaping professional ethics were identified, including values education, career guidance, early familiarization with the world of work, employer involvement, and a reflective approach. As a result, the study substantiates the need for an integrative model harmonized with national values in order to enrich students' ideas about professional ethics.

Keywords: *professional ethics, TVET, UNESCO-UNEVOC, OECD, ERIC, APNIEVE, career guidance, career readiness, integrative approach.*

Bugungi globallashuv, texnologik yangilanish va mehnat bozoridagi tezkor o'zgarishlar sharoitida o'quvchini kelajak kasbiga faqat bilim va ko'nikma bilan emas, balki ma'naviy mezonlar, kasbiy mas'uliyat, axloqiy tanlov va ijtimoiy burch hissi bilan tayyorlash dolzarb masalaga aylangan. Shu sababli "kasbiy ma'naviyat" tushunchasi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda tobora muhim o'ringallamoqda. UNESCO global citizenship education doirasida ta'limning vazifasi o'quvchini "axloqiy, hamdard va hurmatli inson" sifatida tarbiyalash ekanini ta'kidlaydi; bu yondashuv kasbiy hayotga tayyorlashda ham qadriyatlarga tayanish zarurligini ko'rsatadi [15].

O'zbek pedagogik tafakkurida ham ma'naviyat va kasbiy kamolot o'rtasidagi uzviy bog'liqlik alohida qayd etiladi. Masharipova va Xo'janova "Kasbiy ma'naviyat" darsligida [1.25] kasbiy faoliyatni ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida talqin qilib, mutaxassisning yuqori kasbiy madaniyati professional tafakkur, ong va amaliy faoliyat tajribasi bilan bog'liqligini ko'rsatadilar. Darslikda kasbiy ma'naviyatni o'zlashtirish ijodkorlik, mustaqil fikrlash va kasbiy-pedagogik faoliyatni modernizatsiya qilishga xizmat qilishi ta'kidlanadi.

O'zbekistonda mazkur yo'nalish normativ jihatdan ham qo'llab-quvvatlangan. "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi" oiladan boshlab umumiy o'rta ta'lim va keyingi bosqichlargacha bo'lgan tizimda ma'naviy tarbiyani izchil yo'lga qo'yishni nazarda tutadi. Ushbu hujjatda milliy an'analarga qiziqish uyg'otish, shaxsiy fazilatlarni shakllantirish va ijobiy tajribani ommalashtirish kabi vazifalar belgilangan. 2022-yildagi konsepsiya esa umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish, zamona-miz qahramonlari hayotini ibrat timsoli sifatida targ'ib qilish zarurligini ko'rsatadi [4.5].

Biroq milliy adabiyotlarda "o'quvchilarda kasbiy ma'naviyatga oid tasavvurlarni boyitish" masalasi ko'proq umumiy ma'naviy tarbiya, kasbga yo'naltirish yoki kasbiy kompetensiya bilan aloqador tarzda yoritilgan. Masalan, Ahmadbekova kasbiy ma'naviyatning vazifalarini umumiy nazariy yo'sinda tahlil qilgan bo'lsa, Xo'jayeva o'quvchilarni kasbga qiziqitirish va kasbiy kompetentligini shakllantirishning amaliy ahamiyatini ko'rsatadi. Bu ishlar muhim bo'lsa-da, xalqaro tajriba bilan qiyosiy tahlil kam uchraydi.

Shu jihatdan mazkur maqolaning maqsadi – o'quvchilarda kasbiy ma'naviyatga oid tasav-

vurlarni boyitishda xalqaro tajribaning ahamiyatini aniqlash, samarali modellarni tahlil qilish va ularni O'zbekiston ta'lim tizimiga moslashtirish imkoniyatlarini asoslashdir. Tadqiqot savoli quyidagicha ifodalanadi: xalqaro tajribaning qaysi elementlari o'quvchilarda kasbiy ma'naviyat haqidagi bilim, munosabat va qadriyatlarni boyitishda eng samarali hisoblanadi?

Mazkur tadqiqot sifat jihatidan qiyosiy-tahliliy xarakterga ega bo'lib, unda **desk research** usuli qo'llanildi. Tadqiqotning metodologik asosini pedagogik aksiologiya, ma'naviy tarbiya nazariyasi, kasbiy yo'naltirish pedagogikasi va xalqaro ta'lim tajribalarini qiyosiy o'rganish tamoyillari tashkil etdi. Manbalar ikki guruhga ajratildi: birinchisi – o'zbek olimlari va normativ hujjatlar; ikkinchisi – xorijiy ilmiy maqolalar, kitoblar va xalqaro tashkilotlar hisobotlari.

Tahlilda quyidagi usullar qo'llanildi:

1. kontent-tahlil – kasbiy ma'naviyat, qadriyatlar ta'limi va career readinessga doir manbalardagi asosiy kategoriyalarni ajratish;

2. qiyosiy tahlil – O'zbekiston, UNESCO, OECD va alohida davlatlar amaliyotidagi yondashuvlarni solishtirish;

3. interpretativ tahlil – aniqlangan tajribalarni o'quvchilarning kasbiy ma'naviy tasavvurlariga ta'siri nuqtai nazaridan sharhlash;

4. sintez – xalqaro tajribadan chiqadigan umumiy pedagogik xulosalarni milliy sharoitga mos model ko'rinishida umumlashtirish [7.2].

Manba tanlashda uch mezon asos qilib olindi: birinchidan, mavzuga bevosita aloqadorlik; ikkinchidan, ilmiy yoki institutsional ishonchlilik; uchinchidan, o'quvchi yoshidagi shaxslar bilan ishlashga tatbiq etish imkoniyati. Shu asosda UNESCO-UNEVOCNing qadriyatlarini TVET bilan integratsiya qilish haqidagi manbalari, OECDning career readiness va employer engagement bo'yicha tadqiqotlari, Shara-povanning meta-tahlili, Lickonaning character

education konsepsiyasi, shuningdek, o'zbek mualliflarining kasbiy ma'naviyat va ma'naviy tarbiya haqidagi ishlari o'rganildi [14].

Tahlil natijasida o'quvchilarda kasbiy ma'naviyatga oid tasavvurlarni boyitishda xalqaro tajribaning ahamiyatini belgilovchi besh asosiy omil aniqlandi.

1. Qadriyatlar ta'limini kasbiy tayyorgarlik bilan integratsiya qilish

UNESCO-UNEVO va APNIEVE tomonidan tayyorlangan “Learning to Do: Values for Learning and Working Together in a Globalized World” manbasi TVET doirasida qadriyatlar ta'limini o'quv jarayoniga singdirishning yaxlit modelini taklif etadi. Manbada bu yondashuv “butun shaxsni rivojlantirish”, “hayot va mehnat dunyosiga tayyorlash” hamda 35 modul orqali qadriyatlarni real o'quv vaziyatlariga integratsiya qilishga qaratilgani ko'rsatilgan. Eng muhim jihati shundaki, unda qadriyatlar alohida mavzu sifatida emas, balki o'quv faoliyatining ichki mezon sifatida beriladi [6].

Bu tajriba o'quvchilarda kasbiy ma'naviyatga oid tasavvurlarni boyitishda shuni ko'rsatadiki, “halollik”, “mas'uliyat”, “hamkorlik”, “hurmat”, “mehnatga vijdonli munosabat” kabi tushunchalar nazariy targ'ibot bilan emas, balki dars, loyiha, jamoaviy topshiriq va refleksiya orqali ichkilashtiriladi. Demak, xalqaro tajriba kasbiy ma'naviyatni “qo'shimcha tarbiyaviy blok” emas, balki o'qitishning tarkibiy qismi sifatida talqin qiladi [6].

2. Kasbiy ma'naviy tasavvurlarni erta yoshdan shakllantirish

OECD Career Readiness loyihasi samarali kasbiy yo'naltirish erta boshlanishi, o'quvchining shaxsiy qiziqishlari va sharoitiga mos bo'lishi hamda mehnat bozori bilan birlamchi uchrashuvlarni o'z ichiga olishi kerakligini qayd etadi. OECDga ko'ra, samarali guidance o'quvchiga ta'lim va mehnat o'rtasidagi bog'liqlikni tushunishga yordam beradi [8].

2025-yilgi OECD hisobotida esa o‘smirlar orasida kasbiy noaniqlik yuqori ekani, ko‘plab o‘quvchilar kasbiy rivojlanish faoliyatlarida yetarli ishtirok etmayotgani, buning oqibatida kasbiy tanlovlar ko‘pincha real mehnat bozori ehtiyojlari bilan mos kelmasligi qayd etilgan. Hisobotda career development faoliyatlarida qatnashish yaxshi mehnat natijalari bilan bog‘liqligi alohida ta’kidlanadi. Bu natija shuni anglatadiki, kasbiy ma’naviyat haqidagi tasavvurlar faqat kasb nomlarini bilishdan iborat emas; o‘quvchi kasbning ijtimoiy ahamiyati, unga eltuvchi yo‘l va undagi axloqiy mas’uliyatni ham anglay boshlashi kerak [9].

3. Ish beruvchilar va real mehnat muhiti bilan uchrashuvning kuchli ta’siri

Sharapovanning 2023-yildagi meta-tahlili 9 ta empirik tadqiqot va 1 433 ishtirokchi asosida maktabdagi career guidance intervensiyalarining o‘quvchilarning kasbiy bilim, ko‘nikma va e’tiqodlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini aniqlagan; o‘rtacha effekt hajmi 0.42 bo‘lib, bu sezilarli natija sifatida talqin qilingan [6].

OECD ham ish beruvchilar ishtirokidagi career talks, workplace visits va shunga o‘xshash faoliyatlar ko‘proq ijobiy bandlik natijalari bilan bog‘liqligini qayd etadi. Ya’ni kasbiy ma’naviyatni boyitishda “kasb haqida eshitish” emas, balki “kasb egasi bilan bevosita muloqot qilish” samaraliroqdir. Chunki bunday uchrashuvlar o‘quvchiga kasb ortidagi mehnat madaniyati, kasbiy etika va hayotiy mas’uliyatni ko‘rsatadi [9.2].

Janubiy Koreyaning **Free Learning Semester Programme** tajribasi 12–14 yoshli o‘quvchilar uchun sinov tariqasida boshlangan bo‘lib, unda standart test bosimi kamaytiriladi va haftaning muayyan qismi ish tajribasi, jamoa faoliyati, san’at, sport va community engagementga ajratiladi. Dastur maqsadi o‘quvchining o‘z qobiliyati va orzularini tajribaviy hamda ishtirokiy o‘qish orqali anglashiga yordam berishdir. Dastur maktablarni turli davlat va xusu-

siy tashkilotlar bilan bog‘lagani, o‘quvchilarni me’mor, shaharsoz va boshqa kasblar bilan tanishtirgani bilan ahamiyatlidir [10].

Buyuk Britaniyadagi **Inspiring the Future** modeli esa maktablarni turli kasb vakillari bilan bepul onlayn platforma orqali bog‘laydi. Dastur doirasida career talks, mentoring, job shadowing, interview practice va CV workshoplar tashkil etiladi. 2019-yilga kelib Angliyadagi o‘rta maktablarning 80 foizi dasturga qo‘shilgani va 1,9 millionga yaqin uchrashuvlar o‘tkazilgani qayd etilgan. Bu model o‘quvchilarning kasbga doir tasavvurini kengaytirish bilan birga gender stereotiplarini ham kamaytirishga xizmat qiladi [11].

Yangi Zelandiyaning **WE3 Continuum** modeli esa Work Exposure, Work Exploration va Work Experience bosqichlari orqali 10–18 yosh oralig‘idagi o‘quvchilarni izchil ravishda mehnat dunyosi bilan tanishtiradi. Bosqichlarning o‘ziga xosligi shundaki, ular yoshga mos ravishda oddiy tanishuvdan tadqiqot, suhbat, CV yozish, job shadowing va community challenge loyihalarigacha kengayadi. Bu esa kasbiy ma’naviy tasavvurlarni yosh bosqichlariga mos holda chuqurlashtirish mumkinligini ko‘rsatadi [12].

AQShdagi **Ethnographies of Work** dasturi esa kasbiy ta’limni faqat ma’lumot berish darajasida emas, balki tanqidiy tushunish darajasida tashkil etadi. Dasturda o‘quvchilar ish dunyosini nazariy va etnografik tahlil qiladi, intervyu o‘tkazadi, ish joylarida kuzatuv olib boradi, o‘z kuchli va zaif tomonlarini refleksiya qiladi. Mazkur yondashuv ayniqsa ijtimoiy tengsizlik, identitet va ijtimoiy kapital masalalarini anglashga yordam berishi bilan ajralib turadi [13].

5. Character education va kasbiy ma’naviyat o‘rtasidagi yaqinlik

Thomas Lickonaning “**Educating for Character**” asari xorijiy pedagogikada qadriyatlar ta’limining klassik manbalaridan biri hisoblanadi. Asarda maktabdagi ta’lim jarayo-

nida hurmat va mas'uliyat kabi qadriyatlarni amaliy dasturlar orqali shakllantirish zarurligi ko'rsatiladi. Garchi bu asar bevosita "kasbiy ma'naviyat" terminidan foydalanmasa-da, undagi character education konsepsiyasi kasbiy ma'naviyatning psixologik-pedagogik asosini mustahkamlaydi. Chunki kasbiy ma'naviyatning markazida ham aynan mas'uliyat, vijdon, adolat va boshqaga hurmat turadi [16].

Natijalar shuni ko'rsatadiki, xalqaro tajriba o'quvchilarda kasbiy ma'naviyatga oid tasavvurlarni boyitishda uch asosiy paradigmani ilgari suradi: **integratsiya**, **tajribaviylik** va **refleksivlik**.

Birinchidan, xalqaro amaliyotda qadriyatlarni ta'lim va kasbiy yo'naltirish bir-biridan ajratilmaydi. UNESCO-UNEVOC manbalarida mehnat dunyosiga tayyorgarlik "butun shaxsni rivojlantirish" bilan bog'lanadi. OECD esa kasbiy tayyorgarlikni o'quvchining tanqidiy qarashlari, ongli rejalashtirishi va real imkoniyatlarni tushunishi bilan izohlaydi. Demak, kasbiy ma'naviyat haqidagi boy tasavvur faqat "qaysi kasb yaxshi?" degan savolga javob emas, balki "men bu kasbda kim bo'laman?", "jamiyatga qanday foyda keltiraman?", "qaysi axloqiy mezonlarga amal qilaman?" degan savollarga ham javob bera olishdir [16].

Ikkinchidan, xalqaro tajribada mehnat dunyosi bilan real uchrashuv hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Koreya, Buyuk Britaniya, Yangi Zelandiya va AQSh misollari shuni ko'rsatadiki, kasb egalari bilan muloqot, job shadowing, workplace visit, jamoa loyihalari va kuzatuv o'quvchining kasbiy tasavvurini yanada real, mas'uliyatli va ichki motivatsiyaga tayangan holga keltiradi. Bu usullar o'quvchini tayyor shiorlar bilan emas, tajriba orqali tarbiyalaydi.

Uchinchidan, xalqaro tajriba refleksiyaning ahamiyatini kuchli ko'rsatadi. Ayniqsa, Ethnographies of Work dasturida o'quvchi nafaqat

kasb bilan tanishadi, balki o'zi, jamiyat, mehnat bozori va adolat masalalari haqida fikr yuritadi. Bu esa kasbiy ma'naviyatni oddiy kasbiy axborotdan ajratib turadigan asosiy belgidir. Kasbiy ma'naviyat – bu o'quvchining kelajak faoliyatini axloqiy jihatdan tasavvur qila olish qobiliyatidir [13.2].

O'zbek olimlari ishlarida ham mazkur fikrlarga yaqin yondashuvlar mavjud. Masharipova va Xo'janova kasbiy ma'naviyatni kasbiy ong, tafakkur va ijodkorlik bilan bog'laydi. Ahmadbekova kasbiy ma'naviyatning ijtimoiy hayotdagi vazifalarini ko'rsatadi [1.20]. Xo'jayeva [3.5] esa o'quvchilarda kasbga qiziqish va kompetentlikni shakllantirishning amaliy mexanizmlariga urg'u beradi. Biroq bu manbalarda xalqaro tajribadagi kabi tizimli employer engagement, job shadowing, real workplace observation yoki stage-based career learning mexanizmlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston ta'lim tizimi uchun quyidagi ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish mumkin. Birinchisi, kasbiy ma'naviyatni faqat ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar doirasida emas, fanlararo va faoliyatga yo'naltirilgan tarzda tashkil etish kerak. Ikkinchisi, o'quvchilarni real kasb egalari bilan muntazam uchrashtirish, mahalla va ishlab chiqarish subyektlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish zarur. Uchinchisi, o'quvchi faoliyatidan keyin refleksiya savollari berilishi lozim: "Bu kasbdagi eng muhim axloqiy sifat nima?", "Qanday vaziyatda halollik sinovdan o'tadi?", "Kasb egasi jamiyatga qanday xizmat qiladi?" To'rtinchisi, yosh bosqichlariga mos continuum ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq: boshlang'ichda qadriyat va mehnatga hurmat, o'rta bo'g'inda kasb bilan tanishuv, yuqori sinflarda esa ish joyi kuzatuv va ijtimoiy loyiha. Bu yondashuv normativ hujjatlardagi uzluksiz ma'naviy tarbiya tamoyiliga ham mos keladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, xalqaro tajriba o'quvchilarda kasbiy ma'naviyatga oid tasavvurlarni boyitishda juda muhim manba hisoblanadi. U kasbiy ma'naviyatni tor ma'nodagi axloqiy targ'ibot emas, balki qadriyatlar, mehnat dunyosi, shaxsiy identitet va ijtimoiy mas'uliyat uyg'unligida ko'radi [14].

Ikkinchidan, xalqaro tajribaning eng samarali elementlari quyidagilar ekani aniqlandi: qadriyatlar ta'limini o'quv jarayoniga integratsiya qilish; kasbiy yo'naltirishni erta boshlash; ish beruvchilar va kasb egalari bilan bevosita muloqot; tajribaviy o'qitish; refleksiya va tanqidiy tahlil. Aynan shu omillar o'quvchining kasb haqidagi tasavvurini "tashqi axborot"dan "ichki e'tiqod" darajasiga olib chiqadi [8].

Uchinchidan, O'zbekiston tajribasida kasbiy ma'naviyat masalasi nazariy va normativ jihatdan asoslangan bo'lsa-da, xalqaro amaliyotdagi kabi bosqichli, tajribaviy va mehnat bozori bilan bevosita bog'langan modellarni kengroq joriy etish zarur. Shu bois milliy qadriyatlar, uzluksiz ma'naviy tarbiya, maktab-oila-mahalla hamkorligi va xalqaro career readiness tajribalarini uyg'unlashtirgan integrativ model ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

To'rtinchidan, kelgusida empirik tadqiqotlar asosida o'quvchilarning kasbiy ma'naviyatga oid tasavvurlarini o'lchash indikatorlarini ishlab chiqish, eksperimental dasturlar yaratish va ularning samaradorligini baholash maqsadga muvofiqdir. Bu nafaqat nazariy pedagogikani, balki amaliy ta'lim siyosatini ham boyitadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2019). Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida (1059-son). (Lex.uz)
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2022). Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy hamda tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasi (558-son). (Lex.uz)
3. Ahmadbekova, M.Y. q. (2022). Kasbiy ma'naviyatning vazifalari.
4. Hoffman, N., & Collins, M. L. (Eds.). (2020). Teaching Students About the World of Work: A Challenge to Postsecondary Educators. Harvard Education Press. (Harvard Education Press)
5. Lickona, T. (1992). Educating for Character: How Our Schools Can Teach Respect and Responsibility. Bantam. (Google Books)
6. Masharipova, G. K., & Xo'janova, T. J. (2022). Kasbiy ma'naviyat. Toshkent: Fan ziyosi.
7. OECD. (2025). The State of Global Teenage Career Preparation. (OECD)
8. OECD. Career Readiness Project. (OECD)
9. OECD. Getting the most out of employer engagement in career guidance. (OECD)
10. OECD. Korea: The Free Learning Semester Programme.
11. OECD. New Zealand: WE3 Continuum and Activities.
12. OECD. United Kingdom: Inspiring the Future.
13. OECD. United States: Ethnographies of Work. (OECD)
14. Quisumbing, L. R., & de Leo, J. (Eds.). (2005). Learning to Do: Values for Learning and Working Together in a Globalized World. UNESCO-UNEVOC / APNIEVE. (ERIC)
15. Sharapova, N. (2023). Efficacy of school-based career guidance interventions.
16. UNESCO. Global citizenship and peace education. (IOHECKO)
17. Xo'jayeva, M. R. (2024). O'quvchilarni kasbga qiziqtirish va kasbiy kompetentligini shakllantirish.

KREATIV YONDASHUVNING PEDAGOGIKA NAZARIYASIDAGI MOHIYATI VA O'QUVCHILARNING IJODIY-ESTETIK RIVOJLANISHIDAGI O'RNI: XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI

*Alkarova Feruza Nazarbayevna,
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti,
"Ijtimoiy va amaliy fanlar metodikasi"
kafedrası mudiri, p.f.f.d. (PhD)
E-mail: alkarovaf@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqolada kreativ yondashuvning pedagogika nazariyasidagi mohiyati hamda uning umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarini ijodiy-estetik rivojlantirishdagi o'rni xalqaro tajriba prizmasi orqali tahlil qilingan. "Kreativlik", "ijod" va "innovatsion tafakkur" tushunchalarining nazariy talqini berilib, ularning bir-biridan farq qiluvchi va o'zaro to'ldiruvchi jihatlari ochib berilgan. Maqolada AQSh, Finlandiya, Singapur, Janubiy Koreya hamda yetakchi Yevropa mamlakatlari (Buyuk Britaniya, Germaniya, Niderlandiya) tajribalari yetti mezon bo'yicha qiyoslangan; texnologiya ta'limida o'quvchilarda estetik jihozlash ko'nikmasini rivojlantiruvchi besh tarkibiy mexanizm taklif etilgan. Olingan natijalar mahalliy ta'lim amaliyotini takomillashtirishda nazariy va metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: kreativ yondashuv, ijodiy faoliyat, innovatsion tafakkur, estetik tarbiya, dizayn fikrlash, texnologiya ta'limi, kreativ-estetik rivojlanish, xorijiy tajriba.

Сущность креативного подхода в теории педагогики и его роль в творческо-эстетическом развитии учащихся: анализ зарубежного опыта

Алкарова Феруза Назарбаевна,
Национальный институт педагогического мастерства имени А.Авлони, заведующая кафедрой "Методика преподавания социальных и прикладных наук", доктор философии по педагогическим наукам (PhD)

Аннотация: В статье анализируются сущность креативного подхода в теории педагогики и его роль в творческо-эстетическом развитии учащихся общеобразовательных школ через призму международного опыта. Раскрыто теоретическое содержание понятий "креативность", "творчество" и "инновационное мышление", показаны различия и взаимодополняемость этих категорий. На материале опыта США, Финляндии, Сингапура, Южной Кореи и ведущих европейских стран (Великобритания, Германия, Нидерланды) проведён сопоставительный анализ по семи критериям; предложены пять структурных механизмов формирования у учащихся навыка эстетического оформления собственных творческих работ в технологическом образовании. Полученные результаты служат теоретико-методической основой для совершенствования отечественной образовательной практики.

Ключевые слова: креативный подход, творческая деятельность, инновационное мышление, эстетическое воспитание, дизайн-мышление, технологическое образование, творческо-эстетическое развитие, зарубежный опыт.

The essence of the creative approach in the theory of pedagogics and its role in students' creative and aesthetic development: an analysis of international experience

Alkarova Feruza Nazarabayevna,
Head of the Department of "Methodology of Teaching Social and Applied Sciences"
National Institute of Pedagogical Excellence named after A. Avloniy, Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)

Abstract: This article analyzes the essence of the creative approach in the theory of pedagogics

and its role in the creative and aesthetic development of secondary school students through the prism of international experience. The study explores theoretical interpretation of the concepts "creativity", "creation" and "innovative thinking", and clarifies their distinctive and interrelated aspects. The article contrasts the experience of the United States, Finland, Singapore, South Korea and leading European countries (the United Kingdom, Germany, the Netherlands) by using seven criteria; proposes five structural mechanisms for developing students' skills in aesthetically designing their own creative works within teaching Technology. The findings serve as a theoretical and methodological basis for improving local educational practices.

Keywords: creative approach, creative activity, innovative thinking, aesthetic education, design thinking, teaching Technology, creative-aesthetic development, international experience.

Globalashuv jadallashayotgan, raqamli transformatsiya esa kundalik hayotning barcha qatlamlariga kirib borayotgan bugungi sharoitda ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri o'quvchini tayyor bilim qabul qiluvchi obyekt sifatida emas, balki mustaqil fikrlovchi, yangilik yarata oluvchi va o'z faoliyati natijasini estetik shaklda ifodalay oladigan ijodkor shaxs sifatida shakllantirishdir. Bu vazifa ayniqsa umumiy o'rta ta'lim bosqichida alohida ahamiyat kasb etadi, chunki aynan shu yoshda o'quvchining badiiy didi, dizayn tafakkuri va amaliy faoliyat madaniyati shakllanadi.

Pedagogika nazariyasida bilim, ko'nikma va malakaning an'anaviy uchligi (ZUN – znaniya, umeniya, navyki) so'nggi ikki o'n yillik davomida jiddiy qayta baholanmoqda. Yangicha qarashlarga ko'ra ta'limning bosh maqsadi – o'quvchi shaxsining ichki imkoniyatlarini ochish, individual qobiliyatlarini rivojlantirish va uning ijodiy-estetik tajribasini boyitish.

Aynan shu paradigma o'zgarishi kreativ yondashuv tushunchasini zamonaviy ta'lim falsafasining markaziga olib chiqdi. Mazkur yondashuv o'quvchini topshiriqni mexanik ravishda bajaruvchi sifatida emas, balki muammo yechimini izlovchi, mustaqil qaror qabul qiluvchi va mahsulotda estetik hamda funksional jihatlarni uyg'unlashtiruvchi subyekt deb tanlaydi.

Texnologiya ta'limi mazmuni o'quvchilarning kreativ-estetik rivojlanishi uchun favqulodda boy imkoniyatlarni ochadi. Negaki, bu fan doirasida ular bevosita material bilan ishlaydilar: buyum yaratadilar, kompozitsiya tuzadilar, rang uyg'unligini izlaydilar, milliy va zamonaviy bezak elementlarini tanlaydilar. Biroq mahalliy amaliyotda kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, texnologiya darslarida ko'pincha mahsulotning texnologik to'g'riligiga e'tibor qaratiladi-yu, uning estetik qiyofasi ikkinchi darajali masalaga aylanib qoladi. Natijada o'quvchining ishi vazifani bajarish jihatidan to'liq, ammo unda did, ruh va shaxsiy ifoda yetishmaydi.

Aynan shu kontekstda kreativ yondashuv negizida o'quvchilarda estetik jihozlash ko'nikmasini rivojlantirish masalasi muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolaning maqsadi kreativ yondashuvning pedagogika nazariyasidagi mohiyatini ochib berish, "kreativlik", "ijod" va "innovatsion tafakkur" tushunchalarining mantiqiy munosabatini aniqlashtirish, xorijiy tajribalarni qiyosiy tahlil qilish hamda mahalliy texnologiya ta'limi sharoitida estetik jihozlash ko'nikmasini shakllantirish mexanizmlarini asoslashdan iborat.

Kreativlik fenomeni psixologiya, pedagogika, falsafa va menejment fanlarining tutash maydonida o'rganilib kelinadi. Tushunchaning ilmiy o'lchovga o'tishi J.Gilford nomi bilan bog'liq: u 1950-yilda Amerika psixologlar uyushmasiga qilgan ma'ruzasida kreativlikni divergent fikrlash qobiliyati sifatida ta'riflagan va uni an'anaviy intellektual koeffitsient (IQ) bilan o'lchab bo'lmaydigan mustaqil ko'rsatkich deb e'lon qilgan [1]. L.S.Vigotskiy esa ijod jarayonini inson tasavvurining oldingi tajribani qayta birlashtirishi mahsuli sifatida talqin qiladi: ijod hayotning istisno hodisasi emas, balki uning normal va izchil ko'rinishidir [2].

T.Amabilning kreativlik komponentli nazariyasi (componential theory of creativity) zamonaviy ta'lim psixologiyasida eng nufuzli yondashuvlardan biri sanaladi. Mualif kreativ mahsulot uchta omilning kesishuvi natijasida vujudga kelishini asoslab beradi: sohaga oid bilim, ijodiy fikrlash ko'nikmalari va ichki motivatsiya [3]. Ushbu uchlik bevosita pedagogik xulosa chiqarishga imkon beradi: agar uchta omilning hech bo'lmasa bittasi yetishmasa, ijodiy mahsulot yo vujudga kelmaydi, yo sifatsiz chiqadi.

Ta'lim falsafasida J.Dyui o'quvchining haqiqiy bilimni faol tajriba orqali, ya'ni real muammoni hal qilish jarayonida o'zlashtirishini asoslab bergan [4]. Uning bu g'oyasi keyinchalik konstruktivistik ta'lim falsafasi va loyiha

asosida o'qitish (Project-Based Learning) metodologiyasining o'zagiga aylangan. B. Blumning kognitiv taksonomiyasi va uning 2001-yildagi qayta ko'rib chiqilgan versiyasi (L.Anderson va D.Krathwol tahririda) ham mazkur muammoni nazariy jihatdan boyitadi – yangi taksonomiyada "yaratish" (creating) eng yuqori kognitiv pog'ona sifatida belgilangan [5, b. 67].

Dizayn fikrlash sohasida T.Kelli va D.Kellingning "Kreativ ishonch" konsepsiyasi alohida o'rin tutadi. Mualliflar dizayn fikrlashni inson markazli muammo yechish uslubi sifatida talqin qilib, uning besh bosqichdan iboratligini ko'rsatishadi: empatiya, muammoni aniqlash, g'oya yaratish, prototip ishlab chiqish va sinov [6]. Mahalliy adabiyotlarda V.A. Slastenin va I.F. Isayev rahbarligida nashr etilgan asarda kreativ yondashuv shaxsga yo'naltirilgan ta'limning organik tarkibiy qismi sifatida talqin qilingan [7]; B.S.Gershunskiy esa kreativlikni ta'lim natijasining bosh ko'rsatkichi deb ataydi [8]. OECD tomonidan o'tkazilgan PISA-2022 tadqiqotining alohida hisobotida kreativ fikrlash XXI asrning hayotiy zaruratga aylangan kompetensiyasi sifatida e'tirof etilgan [9].

"Kreativlik", "ijod" va "innovatsion tafakkur" tushunchalarining mantiqiy munosabati.

Pedagogik adabiyotda yuqorida sanab o'tilgan uch tushuncha ko'pincha sinonim sifatida ishlatiladi. Lekin chuqurroq ko'rib chiqilsa, ularning har biri o'zining alohida mazmuniy kontekstiga ega va ularni aralashtirib qo'llash nazariy noaniqlikka olib keladi. Quyida har birining xususiyatini aniqlashtirib o'tamiz.

Kreativlik – bu eng avvalo shaxsning ichki sifati, qobiliyat darajasidagi xarakteristika. U insonning yangi g'oyaga moyilligi, mavjud bilimlardan kutilmagan kombinatsiyalar tuzish layoqati va odatdan tashqari yondashuvga ochiqqligi bilan namoyon bo'ladi. Pedagogik nuqtai nazardan kreativlik – o'quvchining muammoli vaziyatga original javob bera olishi,

o‘z fikrini erkin shakllantirishi va olingan natijaga shaxsiy munosabat bildira olishidir. Boshqa so‘z bilan, kreativlik salohiyat tushunchasiga yaqin: u mavjud, ammo hali harakatga aylanmagan kuchdir.

Ijod tushunchasi esa allaqachon faoliyatni anglatadi. Bu shaxsning o‘z bilim, tasavvur, hissiy tajriba va amaliy ko‘nikmalari yordamida yangi mahsulot, obraz yoki yechim yarata olishidir. Agar kreativlik salohiyatning statik holati bo‘lsa, ijod uning dinamik, harakatdagi shaklidir. O‘quvchi texnologiya darsida buyum tayyorlar ekan rang, shakl, material va bezakni mustaqil tanlasa, u shunchaki topshiriqni ado etmaydi, u ijod qiladi. Ushbu nuance ko‘rinishidan kichik bo‘lsa-da, pedagogik amaliyotda hal qiluvchi ahamiyatga ega: o‘qituvchining o‘qituvchining ko‘zi bilan emas, ijodkor o‘quvchining ko‘zi bilan ko‘ra olishi kerak.

Innovatsion tafakkur – kreativlik va ijodning eng yuqori bosqichidagi namoyonidir. U mavjud tajribani yangicha tahlil qilish, an’anaviy yechimlarni takomillashtirish va amaliyotga yangilik kiritish bilan bog‘liq. Agar kreativlik “yangicha o‘ylash” bo‘lsa, ijod “yangicha o‘ylanganni amalga oshirish”, innovatsion tafakkur esa “amalga oshirilganni samarali, ulgur va ijtimoiy foydali natijaga aylantirish”dir. Texnologiya ta’limida bu o‘quvchining mahsulotni nafaqat chiroyli bezashi, balki uning qulayligi, foydaliligi, ekologikligi va zamonaviy dizayn talablariga muvofiqligini ham hisobga olishida namoyon bo‘ladi.

Demak, uchta tushuncha alohida-alohida emas, balki yagona zanjirning bog‘langan halqalarini hosil qiladi: kreativlik g‘oyani tug‘diradi → ijod g‘oyani mahsulotga aylantiradi → innovatsion tafakkur mahsulotni amaliy va ijtimoiy ahamiyatli darajaga ko‘taradi. Bu uchlikning pedagogik ahamiyati shundaki, har bir bosqich o‘ziga xos ta’lim metodlari va shartlarini talab qiladi; o‘quvchining biror-bir bosqichda to‘xtab

qolishi keyingisining vujudga kelishini imkonsiz qiladi.

Kreativ yondashuvning pedagogika nazariyasidagi mohiyati.

Pedagogika nazariyasida kreativ yondashuv o‘quvchini tayyor bilim qabul qiluvchi obyekt sifatida emas, o‘z o‘quv faoliyatini loyihalovchi, mustaqil qaror qabul qiluvchi va ijodiy mahsulot yaratuvchi subyekt sifatida qarashga asoslanadi. Bu yondashuv ta’lim jarayonini faollashtiradi, o‘quvchining ichki motivatsiyasini oshiradi va uning mehnatida mas’uliyat madaniyatini shakllantiradi.

Kreativ yondashuvning mohiyatli belgilarini quyidagi tarzda taqsimlash mumkin. *Birinchi*dan, u mustaqil fikrlashni rag‘batlantiradi va shablon yechimlarni rad etadi. *Ikkinchi*dan, ta’limda muammoli vaziyat tug‘diradi va o‘quvchini noma’lumlik holatida o‘zini erkin his qilishga o‘rgatadi. *Uchinchi*dan, xato qilishdan qo‘rqmaslik madaniyatini singdiradi – bu o‘rinda muhim bir nuans bor: an’anaviy ta’limda xato salbiy hodisa hisoblanadi, kreativ yondashuvda esa u izlanish jarayonining tabiiy va majburiy bosqichi sifatida qaraladi. *To‘rtinchi*dan, individual yondashuvni amalga oshiradi: o‘quvchining shaxsiy tajribasi va qiziqishlari ta’lim mazmunini boyitishning manbai sifatida ko‘riladi. *Beshinchi*dan, refleksiya – o‘z faoliyatini tahlil qilish, baholash va takomillashtirish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Kreativ yondashuv pedagogik paradigma-ning bir qator boshqa yo‘nalishlari bilan organik bog‘liqdir. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda har bir o‘quvchining qiziqishi, ehtiyoji va ijodiy imkoniyati e’tiborga olinadi; faoliyatga asoslangan yondashuvda bilim amaliy faoliyat orqali o‘zlashtiriladi; konstruktivizm esa o‘quvchi bilimni tayyor holda olmaydi, balki uni shaxsiy tajriba zaminida “quradi”. Kompetensiyaviy yondashuv esa o‘quvchining real vaziyatlarda bilim, ko‘nikma va qadriyatlarni qo‘llay olishini talab qiladi. Texnologiya ta’limi aynan mana

shu paradigmalarning tabiiy uyg'unlashish maydonidir, chunki bu fanda o'quvchi bir vaqtning o'zida bilim oladi, yaratadi, sinaydi, tuza-tadi, bezaydi va o'z ishini taqdim etadi.

Bunday yondashuvni texnologiya darslarida joriy etish uchun bir qator pedagogik shartlar bajarilishi lozim: o'qituvchi rolining axborot manbasidan moderator hamda mentorga aylanishi; sinf muhitining tajriba va xatoga ochiq bo'lishi; baholash mezonlarining nafaqat yakuniy mahsulotni, balki butun ijodiy jarayonni qamrab olishi; o'quvchilarga mustaqil tanlov va o'z g'oyasini himoya qilish imkoniyatining berilishi.

Estetik jihozlash ko'nikmasining pedagogik mazmuni.

O'quvchilarda o'z ijodiy ishlarini estetik jihozlash ko'nikmasi deganda ular tomonidan yaratilgan mahsulotning tashqi ko'rinishi, rang uyg'unligi, kompozitsiyasi, shakli, bezagi, material tanlovi va umumiy badiiy ifodasini maqsadga muvofiq tashkil eta olish qobiliyati tushuniladi. Bu ko'nikma faqat "chiroyli bezash" bilan cheklanmaydi – u estetik idrok, badiiy did, dizayn fikrlash, texnologik madaniyat va refleksiv baholashni o'z ichiga oladi.

Estetik jihozlash ko'nikmasini struktur jihatdan to'rt tarkibiy komponentga ajratish mumkin. Motivatsion komponent – o'quvchining ijodiy ishga qiziqishi, uni chiroyli va sifatli bajarishga intilishi, estetik natijadan zavqlanish ehtiyoji bilan bog'liq. Kognitiv komponent ranglar uyg'unligi, shakl, muvozanat, kompozitsiya, material xususiyatlari, milliy naqshlar va zamonaviy dizayn talablari haqidagi bilimlarni qamrab oladi. Amaliy komponent o'quvchining bezak berish, material tanlash, elementlarni joylashtirish, eskiz chizish, prototip yaratish hamda mahsulotni estetik jihatdan yakunlash ko'nikmalarida namoyon bo'ladi. Refleksiv komponent esa o'quvchining o'z ishini baholashi, kamchiliklarini ko'ra olishi,

boshqa variantlar bilan solishtirishi va takomillashtirish bo'yicha qaror qabul qilishi bilan tavsiflanadi.

To'rt komponentning shakllanish jarayoni ma'lum bir izchillikni talab qiladi. Boshlang'ich bosqichda motivatsion komponent shakllantirilmasa, qolgan uchtasini rivojlantirish g'oyat qiyin bo'ladi. O'quvchi nimadir yaratishni xohlamasa, hech qanday usul uni "go'zal mahsulot tayyorlovchi"ga aylantirmaydi. Aksincha, o'quvchini ijodiy faoliyatga ilhomlantiradigan boshlang'ich impuls topilsa, qolgan komponentlar pedagogik ta'sir ostida nisbatan tez shakllanadi.

Xorijiy tajribalarning qiyosiy tahlili.

Rivojlangan davlatlarning ta'lim amaliyotida kreativ-estetik rivojlanish masalasi turlicha falsafiy va metodik zaminga asoslanadi. Quyida besh ta'lim madaniyatining yondashuvi qisqacha tahlil qilingan bo'lib, ularning natijaviy taqqoslamasi 1-jadvalda berilgan.

AQSh ta'lim amaliyotida kreativ yondashuv asosan dizayn fikrlash, loyiha asosida o'qitish (Project-Based Learning) va STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) yondashuvi orqali amalga oshiriladi. O'quvchilar real muammoni aniqlaydilar, foydalanuvchining ehtiyojini o'rganadilar, g'oyalar yaratadilar, prototip ishlab chiqadilar va sinovdan o'tkazadilar. Bu jarayonda mahsulotning funksionalligi bilan birga estetik ko'rinishi ham asosiy baholash mezon sifatida qaraladi. Aksariyat AQSh maktablarida "Maker Space" – o'quvchilar erkin loyihalashishi mumkin bo'lgan tajriba xonalari tashkil etilgan.

Finlandiya tajribasi xalqaro pedagogik diskursda eng o'ziga xos modellardan biri hisoblanadi. 2016-yilda joriy etilgan yangi milliy o'quv dasturida "yaxlit-mavzuli o'qitish" (phenomenon-based learning) markaziy o'rin tutadi. Bu yondashuv asosida o'quvchilar bir mavzuni bir necha fan nuqtai nazaridan o'rganadilar –

texnologiya, san'at, tabiatshunoslik va matematika integratsiya holatida o'qitiladi. Finlandiyalik o'quvchining ijodiy ishi ko'pincha hayotiy ehtiyoj, ekologik madaniyat, milliy an'ana va zamonaviy dizayn bilan bog'lanadi. Diqqatga sazovor jihat shuki, Finlandiyada o'quvchining shaxsiy ifodasi va ichki motivatsiyasiga e'tibor xuddi mahsulot sifatiga e'tibor kabi bir xil darajada turadi.

Singapur ta'lim strategiyasida "21st Century Competencies" hujjatida belgilangan to'qqiz asosiy kompetensiya qatorida kreativlik va innovatsiya birinchi o'rinda turadi. Mamlakatdagi maktablarda "Applied Learning Programme" (ALP) doirasida texnologiya va dizayn yo'nalishidagi loyihalar muntazam ravishda amalga oshiriladi. O'quvchilar muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, jamoada ishlash va yangi yechimlarni sinab ko'rish ko'nikmalarini doimiy ravishda mashq qiladilar.

Janubiy Koreya tajribasida texnologik

ta'lim, raqamli vositalar va dizayn madaniyati uyg'un tarzda rivojlantiriladi. "Maker Education" tashabbusi 2017-yilda mamlakat miqyosida joriy etilgan bo'lib, har bir maktabda robototexnika, 3D modellashtirish, grafik dizayn va elektronikaga oid mini-laboratoriyalar tashkil etilgan. Diqqatga loyiq jihat shuki, ijodiy mahsulotning texnik ishlashi bilan birga uning dizayni va vizual yaxlitligi alohida mezon sifatida baholanadi.

Yevropa mamlakatlari (xususan, Buyuk Britaniya, Germaniya va Niderlandiya) tajribasida kreativ-estetik yondashuv ko'pincha "art education", "design education" va "creative learning" konsepsiyalari orqali amalga oshiriladi. Bu yo'nalishda o'quvchilarning badiiy didi, vizual madaniyati, ijtimoiy mas'uliyati va ekologik qarashlari yaxlit shakllantiriladi. Niderlandiya boshlang'ich va o'rta maktablari-da "Cultuureducatie" (madaniy ta'lim) majburiy yo'nalish sifatida amal qiladi.

1-jadval.

Xorijiy tajribalarda kreativ-estetik yondashuvning qiyosiy tavsifi

Mezon	AQSh	Finlandiya	Singapur	J.Koreya	Yevropa
Yetakchi yondashuv	Dizayn fikrlash, STEAM	Fanlararo integratsiya	Innovatsion kompetensiya	Texnologik dizayn	Art education, design education
Asosiy metod	Loyiha asosida o'qitish (PBL)	Yaxlit-mavzuli o'qitish	Muammoga asoslangan ta'lim	Raqamli loyiha va prototip	Kreativ ishlanmalar
Estetik komponent	Foydalanuvchiga mo'ljall	Ekologik va milliy ohang	Funksionallik va dizayn	Vizual va texnologik did	Vizual madaniyat
Refleksiya	Portfolio va prezentatsiya	Muntazam o'z-o'zini baholash	Hamkorlikda muhokama	Texnik-estetik tahlil	Tanqidiy muhokama
Asosiy yutuq	Innovatsiya tafakkuri	Fanlararo bog'liqlik	Yuqori PISA natijalari	Dizayn-tafakkur uyg'unligi	Badiiy did va ekologiya


Jadval ko'rsatib turibdiki, beshta milliy tajriba metodologik jihatdan turlicha falsafalarga asoslansa-da, ularning umumiy mantig'i bir nuqtaga keladi: ijodiy mahsulot estetik ko'rinish, funkcionallik va shaxsiy ifoda uchligi orqali baholanadi. Shu bilan birga, har bir tajribaning o'ziga xos urg'usi mavjud – AQSh foydalanuvchi tajribasiga, Finlandiya – fanlararo bog'liqlikka, Singapur – kompetensiyaviy ramkaga, Janubiy Koreya – raqamli-texnologik integratsiyaga, Yevropa esa madaniy va vizual savodxonlikka.

Estetik jihozlash ko'nikmasini rivojlantirish mexanizmlari.

Yuqorida bayon etilgan nazariy asoslar va xorijiy tajribalar tahlilidan kelib chiqib, texnologiya ta'limida o'quvchilarda estetik jihozlash ko'nikmasini rivojlantirishning beshta tarkibiy mexanizmi taklif etiladi. Bu mexanizmlar va ularning kreativ yondashuv hamda yakuniy ko'nikma bilan bog'liqligi 1-rasmda yaxlit ko'rinishda taqdim etilgan.

Birinchi mexanizm – motivatsion-estetik muhit yaratish. Bunda sinf jihozlanishi, namunaviy ishlar tanlovi, ranglar va materiallarning vizual mavjudligi alohida ahamiyat kasb etadi. Sinfda namoyish etiladigan milliy va zamonaviy dizayn mahsulotlari, ranglar palitrasi, hunarmandchilik namunalari o'quvchini ijodiy ishga ilhomlantiruvchi muhitni hosil qiladi. Bu o'rinda muhim bir nuans bor: vizual muhit shunchaki bezak emas, balki o'quvchining estetik tasavvurini boyituvchi pedagogik resursdir.

Ikkinchi mexanizm – dizayn fikrlash bosqichlarini izchil qo'llash. T.Kelli va D.Kelli taklif qilgan beshlik ramkasi (empatiya – muammoni aniqlash – g'oyalar yaratish – prototip – sinov) o'quvchini oddiy ijrochidan loyihalovchiga aylantiradi [6]. Bu ramka mahalliy texnologiya ta'limi mazmuniga qiyinchiliksiz integratsiya qilinishi mumkin: masalan, o'quvchi sovg'a qutisini bezashdan oldin uni kim uchun, qanday holatda va qaysi kayfiyatda yaratishini o'ylab ko'radi.



1-rasm. Texnologiya ta'limida o'quvchilarda estetik jihozlash ko'nikmasini rivojlantirish mexanizmi.

Uchinchi mexanizm – ijodiy-muammo-li topshiriqlar tizimini ishlab chiqish. “Oddiy qutini sovg‘a qadog‘i sifatida estetik bezang”, “Qayta ishlangan materialdan foydali va chiroyli buyum yarating”, “Milliy naqsh asosida zamonaviy aksessuar dizaynini ishlab chiqing”, “Uy intererini bezovchi ekologik mahsulot loyihalang” kabi vazifalar o‘quvchining tafakkurini bir vaqtning o‘zida amaliy, badiiy va ekologik o‘lchovlarda faollashtiradi.

To‘rtinchi mexanizm – refleksiv baholash. Bu o‘quvchining “mening ishimdagi eng yaxshi jihat nima?”, “qaysi rang yoki shakl yaxshiroq yechim bo‘ldi?”, “nimani o‘zgartirsam, ish yanada mukammal bo‘ladi?” singari savollarga ongli javob qaytarishini nazarda tutadi. Refleksiya shaxsiy portfolio yuritish, hamkasb taqrizlari, fotohujjatlar va og‘zaki tahlil shakllarida amalga oshirilishi mumkin.

Beshinchi mexanizm – hamkorlikda ijod qilish. Guruhda ishlash jarayonida o‘quvchilar bir-birining g‘oyalarini tinglaydi, muhokama qiladi, fikr almashadi va umumiy estetik qarorga keladi. Bu jarayon ularning kommunikativ, ijtimoiy va kreativ kompetensiyalarini bir vaqtning o‘zida shakllantiradi.

Beshta mexanizmning uyg‘unligi shundaki, ular alohida-alohida emas, balki yaxlit pedagogik tizim sifatida ishlasa, eng yuqori samara beradi. Bu o‘rinda o‘qituvchi roli alohida o‘rin tutadi: u nafaqat texnologik bilim manbai, balki estetik tarbiyachi, dizayn maslahatchisi va o‘quvchining ijodiy yo‘lini muvofiqlashtiruvchi mentor sifatida ham harakat qilishi lozim.

Xorijiy tajribalar tahlili va taklif etilgan mexanizmlarni ko‘rib chiqish bir qator metodologik xulosalarga olib keladi. Avvalo, kreativ yondashuv samaradorligi uning faqat metod sifatida emas, butun ta‘lim jarayonini tashkil etuvchi pedagogik tamoyil sifatida qo‘llanishiga bog‘liqdir. Kreativlik faqat “rasm chizish”, “bezash” yoki “qiziqarli topshiriq” sifatida tushunilsa, uning ta‘limiy ta‘siri sezilarli dara-

jada cheklangan bo‘ladi. Aslida kreativ yondashuv o‘quvchining fikrlash uslubi, faoliyat strategiyasi va shaxsiy rivojlanish mexanizmidir.

Texnologiya ta‘limida bu yondashuv ayniqsa muhim, chunki o‘quvchi bu darsda ko‘rinarli, qo‘l bilan ushlab ko‘rsa bo‘ladigan natija yaratadi. Ushbu natija – buyum, model, maket, kiyim elementi yoki hunarmandchilik namunasi – o‘quvchining texnologik, estetik va kreativ rivojlanish darajasini yaxlit aks ettiradi. Demak, estetik jihozlash ko‘nikmasi alohida metodik masala emas, o‘quvchi shaxsini kompleks rivojlantirish vositasidir.

Mahalliy ta‘lim tizimida xorijiy tajribalarni mexanik ko‘chirib olish emas, balki ularni mahalliy madaniy va pedagogik kontekstga moslashtirish – kalit masaladir. Dizayn fikrlash yondashuvini O‘zbekiston milliy hunarmandchilik (kashtachilik, gilamchilik, yog‘ochga ishlov, kulolchilik) an‘analari bilan uyg‘unlashtirish mumkin va lozim. Shu yo‘l bilan o‘quvchi xorijiy tajribadan ilhom oladi, milliy madaniyatni esa zamonaviy estetik qarashlar prizmasidan qayta talqin qilishni o‘rganadi. Boshqacha aytganda, kreativ-estetik ta‘lim pedagogik o‘tmishni inkor etmaydi, aksincha – uni jonlantiradi. Tadqiqotning empirik sinovi va kreativ-estetik kompetensiyani o‘lchashning xolisona vositalari kelgusi izlanishlar uchun muhim yo‘nalish sanaladi.

Olib borilgan tahlil bir necha asosiy xulosaga olib keladi.

*Birinchi*dan, kreativ yondashuv pedagogika nazariyasida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy faoliyati, innovatsion tafakkuri va estetik qarashlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim konseptual asosdir. “Kreativlik”, “ijod” va “innovatsion tafakkur” tushunchalari sinonim emas – ular ijodiy jarayonning izchil bosqichlarini ifodalaydi: salohiyat → faoliyat → ijtimoiy ahamiyatli natija.

*Ikkinchi*dan, xorijiy tajribalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, AQSh, Finlandiya, Singapur, Janubiy Koreya va Yevropa davlatlarida krea-

tiv-estetik rivojlanish loyiha asosida o'qitish, dizayn fikrlash, fanlararo integratsiya va refleksiv baholash orqali amalga oshiriladi. Mahalliy ta'lim amaliyoti uchun ushbu tajribalar nafaqat ilhom manbai, balki tizimli o'rganish va asosli moslashtirish obyekti hisoblanadi.

Uchinchidan, texnologiya ta'limida estetik jihozlash ko'nikmasini rivojlantirish murakkab pedagogik vazifa bo'lib, u motivatsion, kognitiv, amaliy va refleksiv komponentlarning yaxlit shakllanishini talab qiladi. Buning uchun beshta o'zaro bog'liq mexanizm taklif etilmoqda: motivatsion-estetik muhit, dizayn fikrlash, ijodiy-muammoli topshiriqlar, refleksiv baholash va hamkorlikda ijod qilish.

Yuqoridagi xulosalarga muvofiq quyidagi amaliy tavsiyalarni shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Birinchidan, texnologiya fanining yangi avlod o'quv dasturida estetik jihozlash ko'nikmasi alohida o'quv natijasi sifatida belgilab qo'yilishi va uning baholash mezonlari ishlab chiqilishi lozim. Ikkinchidan, mahalliy o'qituvchilar

uchun dizayn fikrlash va kreativ-estetik metodika bo'yicha ixtisoslashtirilgan malaka oshirish dasturlari yo'lga qo'yilishi kerak. Uchinchidan, texnologiya darslari uchun mo'ljallangan o'quv-uslubiy materiallarda milliy hunarmandchilik va zamonaviy dizayn elementlarining uyg'unligini ta'minlovchi vazifalar majmuasi yaratilishi tavsiya etiladi. To'rtinchidan, o'quvchilar uchun ijodiy portfolio yuritish amaliyoti rasmiy holda yo'lga qo'yilishi va uning natijalari o'qituvchi tomonidan muntazam ravishda tahlil qilinishi maqsadga muvofiq.

Mazkur tadqiqot natijalari nafaqat texnologiya ta'limi metodikasini boyitishga, balki pedagogika nazariyasida ijodiy-estetik rivojlanish masalasini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi. Bu esa kelgusida o'quvchilarning ijodiy salohiyatini ochish, milliy va zamonaviy dizayn madaniyatini uyg'unlashtirish hamda ta'limda kreativ-estetik kompetensiyalarni shakllantirish uchun zarur bo'lgan ilmiy-amaliy zaminni mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Guilford J.P. Creativity // *American Psychologist*. – 1950. – Vol. 5, No. 9. – P. 444–454.
2. Vygotskiy L.S. *Vobrazheniye i tvorchestvo v detskom vozraste*. – Moskva: Prosveshcheniye, 1991. – 96 s.
3. Amabile T.M. *Creativity in Context: Update to The Social Psychology of Creativity*. – Boulder, CO: Westview Press, 1996. – 317 p.
4. Dewey J. *How We Think: A Restatement of the Relation of Reflective Thinking to the Educative Process*. – Boston: D.C. Heath & Co., 1933. – 301 p.
5. Anderson L.W., Krathwohl D.R. (eds.) *A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives*. – New York: Longman, 2001. – 352 p.
6. Kelley T., Kelley D. *Creative Confidence: Unleashing the Creative Potential Within Us All*. – New York: Crown Business, 2013. – 304 p.
7. Slastenin V.A., Isayev I.F., Shiyonov E.N. *Педагогика: учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / Под ред. V.A. Slastenina*. – Moskva: Akademiya, 2002. – 576 s.
8. Gershunskiy B. S. *Философия образования для XXI века*. – Moskva: Sovershenstvo, 1998. – 607 s.
9. OECD. *PISA 2022 Results (Volume III): Creative Minds, Creative Schools*. – Paris: OECD Publishing, 2024. – 312 p.
10. Sahlberg P. *Finnish Lessons 2.0: What Can the World Learn from Educational Change in Finland?* – 2nd ed. – New York: Teachers College Press, 2015. – 232 p.
11. Tan O.S. *Teaching and Learning with Technology in Singapore: A Critical Perspective* // *Asia Pacific Journal of Education*. – 2017ю – Vol. 37, No. 4. – P. 478–491.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son qarori. – Lex.uz, 2020.

ZIDDIYATLI VAZIYATLARDA AFFEKTIV HOLATLARNING YUZAGA KELISHIDA MAKTAB MUHITI IJTIMOY-PSIXOLOGIK DETERMINANT SIFATIDA

Xolikova Xilola Gulamovna,

*Navoiy viloyati Karmana tumani 1-umumiy o'rtta ta'lim maktab psixologi,
Buxoro xalqaro universiteti 1-kurs magistranti.
E-mail: xilolaxolikova4@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumiy o'rtta ta'lim maktablarida o'quvchi va o'qituvchilar o'rtasida, shuningdek, tengdoshlar guruhida yuzaga keladigan ziddiyatli vaziyatlarda affektiv holatlarning paydo bo'lish mexanizmlari ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Maktab muhiti o'quvchilarning hissiy-irodaviy sohasiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy determinant sifatida qaralib, nosog'lom ijtimoiy-psixologik iqlimning stress, frustratsiya va affekt holatlariga olib kelishi ilmiy asoslangan. Tadqiqotda pedagogik muloqotdagi xatolar, intizomiy ziddiyatlar va bullying holatlarining o'smirlar ruhiyatiga ta'siri ochib berilgan. Shuningdek, maktab psixologining ziddiyatlarni bartaraf etish va sog'lom muhitni shakllantirishdagi roli, o'qituvchilarning emotsional regulatsiyasi o'quvchilarning akademik va hissiy farovonligiga qanday ta'sir qilishi xalqaro va mahalliy tajribalar asosida yoritilgan. Olingan xulosalar ta'lim muassasalarida psixologik xizmatni takomillashtirish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: affekt, ziddiyatli vaziyat, maktab muhiti, ijtimoiy-psixologik iqlim, o'smirlar, maktab psixologi, pedagogik muloqot, emotsional regulatsiya.

**Социально-психологическая среда школы как
детерминант возникновения аффективных
состояний в конфликтных ситуациях**

Холикова Хилола Гуламовна,

Психолог 1-й средней школы, Карманинский район, Навоийская область Магистрант 1-го курса, Международный университет Бухары

Аннотация: В данной статье с социально-психологической точки зрения анализируются механизмы возникновения аффективных состояний в конфликтных ситуациях, возникающих между учащимися и учителями, а также в группе сверстников в общеобразовательных школах. Школьная среда рассматривается как основной детерминант, влияющий на эмоционально-волевую сферу учащихся, научно обосновано, что нездоровый социально-психологический климат приводит к стрессу, фрустрации и состояниям аффекта. В исследовании раскрывается влияние ошибок в педагогическом общении, дисциплинарных конфликтов и буллинга на психику подростков. Также на основе международного и отечественного опыта освещена роль школьного психолога в разрешении конфликтов и формировании здоровой среды, влияние эмоциональной регуляции учителей на академическое и эмоциональное благополучие учащихся. Полученные выводы служат разработке практических рекомендаций по совершенствованию психологической службы в образовательных учреждениях.

Ключевые слова: аффект, конфликтная ситуация, школьная среда, социально-психоло-

гический климат, подростки, школьный психолог, педагогическое общение, эмоциональная регуляция.

The school environment as a socio-psychological determinant for the emergence of affective states in conflict situations

Kholikova Hilola Gulamovna,

*Psychologist at Secondary School No.1,
Karmana District, Navoiy Region, 1st-year
Master's Student, Bukhara International University*

Abstract: *This article analyzes the mechanisms of the emergence of affective states in conflict situations between students and teachers, as well as in peer groups in general secondary schools from a socio-psychological perspective. The school environment is considered as the main determinant*

affecting the students' emotional-volitional sphere, and it scientifically substantiates that an unhealthy socio-psychological climate leads to stress, frustration, and counterfeit behaviour. The study explores the impact of mistakes in pedagogical communication, disciplinary conflicts, and bullying for the psyche of adolescents. Furthermore, the article highlights the role of the school psychologist in resolving conflicts and forming a healthy environment, and the impact of teachers' emotional regulation on the academic and emotional well-being of students based on international and local experience. It proposes practical recommendations for improving psychological services in educational institutions basing on the findings.

Keywords: *affect, conflict situation, school environment, socio-psychological climate, adolescents, school psychologist, pedagogical communication, emotional regulation.*

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning nafaqat intellektual, balki hissiy-psixologik rivojlanishi ham eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Maktab – bu shunchaki bilim beruvchi dargoh emas, balki shaxsning ijtimoiylashuvi, uning jamiyatdagi o'rnini topishi va xulq-atvor normalarini o'zlashtirishi uchun xizmat qiluvchi asosiy ijtimoiy institutdir. Biroq, ta'lim jarayoni doimo silliq kechmaydi. O'quvchi va o'qituvchi, shuningdek, o'quvchilarning o'zaro munosabatlarida turli xil ziddiyatli (konfliktli) vaziyatlar yuzaga kelishi tabiiy holatdir. Aynan mana shu ziddiyatli vaziyatlarda shaxsning hissiy reaksiyalari, xususan, affektiv holatlar namoyon bo'ladi.

Psixologiya fanida “affect” (lotincha affectus – ehtiros, ruhiy hayajon) tushunchasi turli tashqi yoki ichki ta'sirlar asosida tez paydo bo'lib, qisqa muddatli, aksariyat hollarda “portlash” xususiyatiga ega bo'lgan, yuqori intensivlik bilan tavsiflanuvchi hissiy holat sifatida ta'riflanadi [1]. Affekt holatida insonning ongli

nazorati susayadi, xatti-harakatlar impulsiv tus oladi. Maktab yoshidagi bolalar, ayniqsa o'smirlar, o'zlarining yosh fiziologik va psixologik xususiyatlariga ko'ra affektiv reaksiyalarga ko'proq moyil bo'ladilar.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, maktabdagi ijtimoiy-psixologik muhit o'quvchilarda affektiv holatlarning yuzaga kelishida asosiy determinant (belgilovchi omil) vazifasini bajaradi. Sog'lom ijtimoiy-psixologik iqlim o'quvchilarning o'zlarini erkin his etishlari, o'qishga bo'lgan qiziqishlarining oshishi va shaxsiy rivojlanishlariga zamin yaratsa, nosog'lom muhit stress, motivatsiyaning pasayishi, frustratsiya va turli xil xulq-atvor og'ishlariga olib keladi [2]. Shu nuqtai nazardan, maktab muhitining ziddiyatli vaziyatlardagi rolini chuqur ilmiy tahlil qilish, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlar axloqini o'rganish hamda maktab psixologik xizmatining bu boradagi faoliyatini takomillashtirish bugungi kun pedagogik psixologiyasining muhim vazifalaridandir.

Affektiv holatlar va ularning maktab muhitidagi tabiati.

Maktab o'quvchilarining ijtimoiy moslashuvi murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u bevosita maktabdagi ijtimoiy-psixologik makonga bog'liqdir. Ijtimoiylashuv tushunchasi ijtimoiy tajriba, jamiyat, sotsializatsiya institutlari va agentlari (o'qituvchilar, tengdoshlar) ta'sirida shaxsning rivojlanishi va shakllanishini anglatadi [3]. Bu jarayonda hissiyotlar, jumladan, yutuq va muvaffaqiyatsizlik bilan bog'liq emotsiyalar (achievement emotions) hal qiluvchi rol o'ynaydi.

R. Pekruning "Nazorat-Qadriyat" (Control-Value Theory) nazariyasiga ko'ra, o'quv jarayonidagi emotsiyalar ijobiy (quvonch, faxr, umid) va salbiy (tashvish, zerikish, umidsizlik, g'azab) turlarga bo'linadi [4]. Ijobiy emotsiyalar o'quvchining kognitiv moslashuvchanligini, motivatsiyasini va o'zini o'zi boshqarishini oshiradi. Salbiy emotsiyalar esa, aksincha, diqqatni susaytiradi, kognitiv resurslarni kamaytiradi va o'zlashtirishga to'sqinlik qiladi. Ziddiyatli vaziyatlar aynan mana shu salbiy emotsiyalarning keskinlashib, affekt darajasiga yetishiga sabab bo'ladi.

O'smirlik davrida affektiv holatlarning vujudga kelishi ularning yosh xususiyatlari bilan ham chambarchas bog'liq. O'smirlik – bu "krizisli", "o'tish", "konfliktli" davr hisoblanadi. Bu davrda o'quvchi o'z insoniy qadr-qimmatiga yuqori baho berish tuyg'usiga ega bo'ladi. Boshlang'ich sinfda o'qituvchi o'rnatgan tartib-intizomga so'zsiz bo'ysunish o'rnini endilikda mustaqillikka intilish va katalar bilan teng huquqli munosabatda bo'lish talabi egallaydi [5]. Agar maktab muhiti (o'qituvchilarning munosabati, maktab ma'muriyatining talablari) o'smirning bu ehtiyojlarini qondirmasa yoki ularni bostirishga urinsa, kuchli ichki va tashqi ziddiyatlar kelib chiqadi.

Affektiv holatlarning maktab muhitidagi determinatsiyasi masalasi psixologiya fanida

fundamental yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Tadqiqotchi Z.S. Elov o'z ilmiy izlanishlarida ta'kidlashicha, o'smirlarda emotsional portlashlar ko'pincha maktabdagi nosog'lom ijtimoiy-psixologik iqlimning mahsulidir [6]. Ayniqsa, o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan avtoritar bosim o'quvchida ichki agressiyani to'playdi va bu kutilmagan affektga aylanadi.

D.V. Vahobova o'z ishlarida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi konfliktlarni tahlil qilarkan, didaktik jarayondagi adolatsizlik (masalan, baholashdagi xatolik) o'quvchining shaxsiy qadriyatlariga zarba berishini va bu holatda affekt himoya mexanizmi sifatida namoyon bo'lishini ilmiy asoslagan [5].

R. Pekruning "Nazorat-Qadriyat" nazariyasi doirasida o'quv jarayonidagi emotsiyalar kognitiv faoliyatni boshqaruvchi asosiy drayver sifatida ko'riladi [4]. Xalqaro miqyosdagi tadqiqotlar, xususan UNESCOning 2025-yildagi hisoboti shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'lim muhiti yaratilgan maktablarda o'quvchilarning emotsional bardoshlilik yuqori bo'lib, affektiv holatlar kamroq kuzatiladi [12].

Maktabdagi ziddiyatlar tipologiyasi va ularning affektga ta'siri.

Maktab hayotida yuz beradigan ziddiyatlarni shartli ravishda bir necha guruhga ajratish mumkin. D.V. Vahobovanning tadqiqotlariga tayanib, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi konfliktlarni quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiqdir [5]:

1. Intizomga oid konfliktlar. Bu turdagi ziddiyatlar o'quvchilar tomonidan maktab intizomiy qoidalari va tartibining buzilishi natijasida yuzaga keladi. O'qituvchining qattiqqo'lligi yoki adolatsiz jazosi o'quvchida kuchli frustratsiya va g'azab affektini keltirib chiqarishi mumkin.

2. Didaktik hamkorlik sohasidagi konfliktlar. Bunga o'qituvchining o'quvchilar bilimini baholashdagi xatolari, materialni tushuntira olmasligi, xolis baholay olmasligi kiradi.

O'quvchilarning "yaxshi" va "yomon"larga ajratilishi, arzimagan javobga yuqori baho qo'yish yoki aksincha, o'quvchining mehnatini qadrlamaslik o'quvchida adolatsizlik hissini va natijada affektiv portlashni yuzaga keltiradi.

3. Axloqiy-etik konfliktlar. O'qituvchi tomonidan o'quvchining shaxsiyatiga tegish, uni tengdoshlari oldida izza qilish, kamsitish holatlari. Bu eng xavfli ziddiyat turi bo'lib, o'quvchida chuqur psixologik jarohat, depressiv holatlar va hatto suitsidal xulq-atvorning shakllanishiga olib kelishi mumkin [6].

Bundan tashqari, o'quvchilarning o'zaro (tengdoshlar o'rtasidagi) ziddiyatlari ham maktab muhitining muhim qismidir. So'nggi yillarda ta'lim muassasalarida bulling (tahqirlash, bezorilik) muammosi jiddiy tus olmoqda. Bulling qurboni bo'lgan o'quvchilarda doimiy qo'rquv, xavotir va ijtimoiy izolyatsiya holatlari kuzatiladi. Bu kabi surunkali stress holatlari oxir-oqibat kutilmagan affektiv reaksiyalar (masalan, o'ziga yoki boshqalarga jismo-

niy zarar yetkazish) bilan yakunlanishi xavfi mavjud [7].

O'qituvchining emotsional regulyatsiyasi va maktab iqlimi

Maktabdagi ijtimoiy-psixologik iqlimni belgilovchi asosiy figuralardan biri bu – o'qituvchidir. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchining o'z emotsiyalarini boshqara olishi (emotion regulation) o'quvchilarning darsga jalb qilinishi, motivatsiyasi va hissiy farovonligiga bevosita ta'sir qiladi [8]. O'z hissiyotlarini adaptiv (moslashuvchan) tarzda boshqara oladigan, kognitiv qayta baholash (cognitive reappraisal) va empatiya qobiliyatiga ega o'qituvchilar sinfda ijobiy muhit yarata oladilar. Ular ziddiyatli vaziyatlarni affekt darajasiga yetmasdan, konstruktiv hal qilish yo'llarini topadilar.

Aksincha, maladaptiv (moslashuvchan bo'lmagan) strategiyalarni qo'llovchi, ya'ni o'z g'azabini bostiruvchi yoki o'quvchilarga ochiqchasiga sochuvchi o'qituvchilar sinfda qo'rquv

1-jadval.

Maktabdagi ziddiyat turlari va ularning affektiv oqibatlarini

Ziddiyat turi	Yuzaga kelish sababi	O'quvchidagi ehtimoliy affektiv holat	Maktab muhitining roli
o'qituvchi-o'quvchi (Didaktik)	Adolatsiz baholash, materialni tushunmaslik, o'qituvchining e'tiborsizligi.	Frustratsiya, o'qishga nisbatan apatiya, g'azab.	Pedagogik mahoratning pastligi, avtoritar boshqaruv uslubi.
o'qituvchi-o'quvchi (Etik)	Shaxsiyatni kamsitish, ommaviy izza qilish, yorliq yopishtirish.	Kuchli affekt, qasos olish istagi, depressiya, suitsidal fikrlar.	O'qituvchining emotsional intellekti pastligi, maktabda inson qadrlanishining toptalishi.
o'quvchi-o'quvchi (Bulling)	Tengdoshlar tomonidan ajratib qo'yish, jismoniy yoki ruhiy tahqirlash.	Surunkali xavotir, qo'rquv, to'satdan tajovuzkorlik (agressiya).	Nazoratning yo'qligi, o'quvchilar orasida sog'lom raqobat va do'stlikning shakllanmaganligi.

va ishonchsizlik muhitini shakllantiradilar. Bunday muhitda o'quvchilar doimiy himoya rejimida bo'ladilar, bu esa ularning kognitiv faoliyatini tormozlaydi va affektiv portlashlarga zamin tayyorlaydi.

Shuningdek, maktab rahbariyati tomonidan o'rnatilgan boshqaruv uslubi ham muhim determinant hisoblanadi. Demokratik boshqaruv uslubi qarorlar qabul qilishda o'qituvchilar va o'quvchilarning fikrini inobatga oladi, bu esa jamoada sog'lom psixologik iqlimni ta'minlaydi. Avtoritar uslub esa doimiy bosim va stressni keltirib chiqaradi [9].

Maktab psixologining ziddiyatlarni profilaktika qilishdagi o'rni.

Ziddiyatli vaziyatlarda affektiv holatlarning oldini olish va maktabda sog'lom ijtimoiy-psixologik iqlimni shakllantirishda maktab psixologining o'rni beqiyosdir. I.A. Teshaboyevning tadqiqotlariga ko'ra, maktab psixologi o'quvchilarning ruhiy salomatligini qo'llab-quvvatlash, ziddiyatli vaziyatlarda yordam berish va ta'lim muhitida qulay psixologik iqlimni ta'minlashda muhim figura hisoblanadi [10].

Maktab psixologining faoliyati quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshirilgandagina kutilgan natijani beradi [2]:

1. *Psixologik diagnostika*: O'quvchilar va o'qituvchilarning psixologik holatini, sinfdagi sotsiometrik holatni muntazam o'rganib borish. Z. Nishanova va boshqalar ta'kidlaganidek, psixodiagnostika shaxs individual-psixologik xususiyatlarining hozirgi holatiga baho berish va rivojlanishini oldindan aytishga qaratilgan jarayondir [11]. O'z vaqtida o'tkazilgan diagnostika (masalan, xavotirlilik darajasi, agresivlik testlari) affektga moyil o'quvchilarni aniqlash imkonini beradi.

2. *Psixologik profilaktika va ma'rifat*: Stress, ziddiyatlar va boshqa salbiy holatlarning oldini olish maqsadida o'quvchilar, o'qituvchilar va ota-onalar uchun treninglar, seminarlar tash-

kil etish. O'qituvchilarga pedagogik muloqot sirlarini, konfliktologiya asoslarini o'rgatish ularning kasbiy kompetensiyasini oshiradi.

3. *Psixologik maslahat va korreksiya*: Ziddiyatli vaziyatga tushib qolgan yoki affektiv holatni boshidan kechirgan o'quvchilarga individual yordam ko'rsatish. Ularda o'z hissiyotlarini boshqarish (emotsional intellekt), muammolarni konstruktiv hal qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

Biroq, amaliyotda maktab psixologlari faoliyatida qator muammolar mavjud. Ko'pincha o'quvchilar va ota-onalar psixologning vazifasini to'liq tushunmaydilar, unga murojaat qilishdan tortinadilar. Ba'zi hollarda maktab ma'muriyati psixologdan faqat qog'ozbozlik yoki hisobotlar uchun foydalanadi. Bu esa psixologik xizmatning samaradorligini keskin tushirib yuboradi va maktab muhitining nosog'lomlashuviga olib keladi [10].

Empirik tahlil va xalqaro tajriba. Xalqaro tajribalar (masalan, UNICEF va UNESCO hisobotlari) shuni ko'rsatadiki, inklyuziv va qo'llab-quvvatlovchi maktab muhiti o'quvchilarning akademik o'zlashtirishini 20-30% ga oshiradi va xulq-atvor muammolarini sezilarli darajada kamaytiradi [12]. Xitoylik olimlar M. Qi va boshqalar tomonidan 2025-yilda o'tkazilgan meta-tahlil natijalari ham ijobiy emotsiyalar o'quv samaradorligi bilan o'rtacha ijobiy korrelyatsiyaga ($r = 0.478$), salbiy emotsiyalar esa manfiy korrelyatsiyaga ($r = -0.303$) ega ekanligini tasdiqladi [13]. Bu raqamlar maktab muhitining nafaqat tarbiyaviy, balki bevosita ta'limiy ahamiyatini ham isbotlaydi.

O'zbekiston sharoitida ham so'nggi yillarda ta'limda psixologik xizmatni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va boshqa me'yoriy hujjatlarda har bir ta'lim muassasasida sog'lom psixologik muhitni yaratish ustuvor vazifa qilib belgilangan. Ammo, nazariy bilimlarni amaliyotga joriy

etishda o'qituvchilarning psixologik tayyorgarligini oshirish talab etiladi.

Tadqiqot natijalari va nazariy tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Birinchidan, maktab muhiti o'quvchilarda affektiv holatlarning yuzaga kelishida eng asosiy ijtimoiy-psixologik determinant hisoblanadi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi, shuningdek, tengdoshlar orasidagi munosabatlar xarakteri o'quvchining hissiy holatini belgilab beradi. Nosog'lom, avtoritar yoki adolatsiz muhit o'quvchilarda doimiy stress, frustratsiya va oxir-oqibat affektiv portlashlarni keltirib chiqaradi.

Ikkinchidan, pedagogik muloqotdagi xatolar (shaxsiyatni kamsitish, adolatsiz baholash, empatiyaning yo'qligi) ziddiyatli vaziyatlarning asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchining o'z emotsiyalarini boshqara olish qobiliyati (emotsional regulyatsiya) sinfdagi psixologik iqlimni barqarorlashtiruvchi muhim omildir.

Uchinchidan, maktab psixologining roli faqatgina muammo yuzaga kelganda aralashish bilan cheklanib qolmasligi kerak. Psixologik xizmat tizimli ravishda profilaktik va ma'rifiy ishlarni olib borishi, maktabda ijobiy ijtimoiy-psixologik iqlimni shakllantirishning tashabbuskori bo'lishi zarur.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi amaliy tavsiyalarni berib o'tmoqchiman:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari uchun "Pedagogik konfliktologiya" va "Emotsional intellekt" mavzularida muntazam malaka oshirish kurslari va psixologik treninglar tashkil etish.

2. Maktab psixologlarining faoliyatini qog'ozbozlikdan xalos etib, ularning bevosita o'quvchilar va o'qituvchilar bilan ishlashiga, sotsiometrik tadqiqotlar o'tkazishiga keng imkoniyatlar yaratish.

3. Maktablarda bulling va kiberbulling holatlarining oldini olish bo'yicha anonim ishonch qutilari va onlayn platformalarni ishga tushirish, o'quvchilarda o'zaro hurmat va empatiya hissini tarbiyalovchi ijtimoiy loyihalarni ko'paytirish.

4. Ota-onalar bilan ishlash tizimini takomillashtirish, oiladagi muhitning maktabdagi xulq-atvorga ta'sirini tushuntirish maqsadida "Ota-onalar universitetlari" yoki psixologik klublar faoliyatini yo'lga qo'yish.

Xulosa qilib aytganda, ziddiyatli vaziyatlarni to'liq yo'q qilib bo'lmaydi, chunki ular insonlararo munosabatlarning tabiiy qismidir. Biroq, maktabda sog'lom ijtimoiy-psixologik muhitni yaratish orqali bu ziddiyatlarning halokatli affektiv holatlarga aylanib ketishining oldini olish, ularni shaxsni rivojlantiruvchi konstruktiv o'zanga burish to'laqonli imkon doirasidadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Affekt (psixologiya) // O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – Toshkent: O'zME Davlat ilmiy nashriyoti, 2000-2005.
2. Majidova Sh.H. Maktab jamoasida sog'lom ijtimoiy-psixologik iqlimni shakllantirish usullari // Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology. International online conference. – 2025. – B. 77-78.
3. Maktab o'quvchilarining ijtimoiy moslashuvining psixologik xususiyatlari // Science and Research. – 2024. – URL: <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/download/28142/28968/32343>
4. Pekrun R., Linnenbrink-Garcia L. Control-value theory of achievement emotions // Handbook of emotions in education. – Routledge, 2014. – P. 120-141.
5. Vahobova D.V. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi konflikt vaziyatlarni bartaraf etish shakllari, metodikasi va vositalari // CyberLeninka. – 2022. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/oqituvchi-va-oquvchi-ortasidagi-konflikt-vaziyatlarni-bartaraf-etish-shakllari-metodikasi-va-vositalari>
6. Elov Z.S. Suitsidial xulq-atvorning zamonaviy psixologiyada o'rganilishi: tahlillar va nazariyalar // CyberLeninka. – 2023. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/suitsidial-hulq-atvorning-zamonaviy-psihologiyada-o-rganilishi-tahlillar-va-nazariyalar>
7. Yurchuk O.L. va boshq. Травля в образовательной среде: факторы риска // Психологическая наука и образование. – 2025. – №4.
8. Xu G., Haratyan F. A 2025 systematic review of teacher emotion regulation // PMC. – 2026. – URL: <https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC12884328/>
9. Raximova M. Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshqaruvida psixologik muhitni rivojlantirishdagi mavjud muammolar (O'zbekiston misolida) // CyberLeninka. – 2025.
10. Teshaboyev I.A. Maktab psixologi imiji va kasbiy faoliyatining ijtimoiy-psixologik jihatlari // Inter education & global study. – 2025. – Vol. 3. №11(1). – B. 122-128.
11. Nishanova Z., Qurbonova Z., Abdiev S. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Tafakkur-Bo'stoni, 2011. – 304 b.
12. Всемирный доклад по мониторингу образования 2025: Лидерство и инклюзивность // UNESCO. – 2025. – URL: <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000393145>
13. Qi M. The impact of achievement emotions on learning performance in online learning context: A meta-analysis // Frontiers in Psychology. – 2025. URL: <https://www.frontiersin.org/journals/psychology/articles/10.3389/fpsyg.2025.1599543/full>
14. Sadoqat N. O'smirlarda affektiv holatlarning vujudga kelishi va ularning psixologik xususiyatlari // Nauchnyi Impuls. – 2025. – URL: <https://nauchnyimpuls.org/index.php/fokus/article/download/1985/1559>

BOSHLANG'ICH TA'LIM SOHASIDAGI ILG'OR XALQARO TAJRIBALAR VA ULARNI O'ZBEKISTONDA JORIY ETISH IMKONIYATLARI

Qurbonov Sanjar Rajabboyevich,

Xorazm viloyati pedagogik mahorat markazi, katta o'qituvchi

tel: 99-505-19-75

qurbonovsanjar1975@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim tizimida ilg'or xalqaro tajribalar hamda ularni O'zbekiston ta'lim tizimiga joriy etish imkoniyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot davomida Finlandiya, Singapur va Janubiy Koreya boshlang'ich ta'lim modellari qiyosiy o'rganildi. Shuningdek, OECD hamda UNESCO hisobotlari asosida ta'lim samaradorligini belgilovchi asosiy omillar tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, xalqaro tajriba, ta'lim sifati, Finlandiya modeli, Singapur ta'lim tizimi, Janubiy Koreya tajribasi, raqamli ta'lim, PISA, ta'lim islohoti.

Передовой международный опыт в сфере начального образования и возможности его внедрения в Узбекистане

Курбанов Санжар Раджаббоевич,
старший преподаватель, Хорезмский
областной центр педагогического мастерства

Аннотация: В данной статье проведён научный анализ передового международного опыта в сфере начального образования и возможностей его внедрения в систему образования Узбекистана. В ходе исследования были сравнительно изучены модели начального образования Финляндия, Сингапур и Южная Корея. Также на основе отчетов OECD и UNESCO

были проанализированы основные факторы, определяющие эффективность образовательной системы.

Ключевые слова: начальное образование, международный опыт, качество образования, финская модель, система образования Сингапура, опыт Южной Кореи, цифровое образование, PISA, образовательная реформа.

Advanced international experiences in primary education and the possibilities of their implementation in Uzbekistan

Qurbonov Sanjar Rajabboyevich,
Senior Teacher Khorezm Regional
Center for Pedagogical Excellence

Abstract: This article scientifically analyzes advanced international experiences in the field of primary education and the possibilities of their implementation in the education system of Uzbekistan. The research comparatively studies the primary education models of Finland, Singapore, and South Korea. In addition, the article explores and identifies key factors determining educational effectiveness based on the reports of OECD and UNESCO.

Keywords: primary education, international experience, quality of education, Finnish model, Singapore education system, South Korean experience, digital education, PISA, educational reform.

Zamonaviy globallashtirish va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimining samaradorligi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Xususan, boshlang'ich ta'lim bosqichi inson kapitalini shakllantirishning eng muhim davri hisoblanadi, chunki aynan ushbu bosqichda o'quvchilarda fundamental bilimlar, asosiy kompetensiyalar va mustaqil fikrlash ko'nikmalari shakllanadi. Shu bois, rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish va uni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa sifatida qaralmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda ta'lim tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, maktab ta'limini rivojlantirish konsepsiyalari, yangi davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari ishlab chiqildi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan olib borilayotgan islohotlar ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etish orqali milliy ta'lim tizimining global reytingdagi o'rnini mustahkamlashga e'tibor qaratilmoqda [1].

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich ta'lim tizimini rivojlantirishda xalqaro tajribalarni chuqur o'rganish va ularni milliy sharoitga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolaning asosiy maqsadi – ilg'or xorijiy tajribalarni tahlil qilish va ularni O'zbekiston boshlang'ich ta'lim tizimiga samarali joriy etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur maqsaddan kelib chiqib, rivojlangan davlatlar boshlang'ich ta'lim tizimini tahlil qilish, ularning samaradorligini belgilovchi omillarni aniqlash, milliy ta'lim tizimi bilan qiyosiy tahlil o'tkazish, ilg'or tajribalarni joriy

etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish kabi vazifalar belgilandi.

So'nggi yillarda xalqaro miqyosda ta'lim sifatini baholash va solishtirishga qaratilgan tadqiqotlar keng yo'lga qo'yilgan bo'lib, ulardan eng nufuzlisi PISA hisoblanadi. Mazkur dastur OECD tomonidan amalga oshirilib, o'quvchilarning funksional savodxonligi, ya'ni real hayotiy vaziyatlarda bilimlarni qo'llay olish qobiliyatini baholaydi. "PISA natijalari shuni ko'rsatadiki, yuqori natijalarga erishgan davlatlarda ta'lim tizimi o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan, moslashuvchan va innovatsion yondashuvlarga asoslangan bo'ladi" [2].

Shuningdek, UNESCO tomonidan e'lon qilinadigan Global Education Monitoring hisobotlarida ta'lim sifati, tenglik va inklyuzivlikni ta'minlash masalalari global muammo sifatida ko'rib chiqiladi. Ushbu hisobotlarda ta'kidlanishicha, "boshlang'ich ta'lim sifati yuqori bo'lgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sish sur'atlari ham barqaror bo'ladi" [3].

Ilg'or tajribaga ega mamlakatlar qatorida Finlandiya alohida ajralib turadi. Ushbu mamlakat ta'lim tizimi o'quvchilarning individual rivojlanishiga yo'naltirilganligi, baholash tizimining moslashuvchanligi va o'qituvchilarga yuqori darajadagi ishonch asosida tashkil etilgani bilan mashhur [4]. Shu bilan birga, Singapur ta'lim modeli "Teach Less, Learn More" konsepsiyasi orqali o'quvchilarning chuqur fikrlashi va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan [5].

Bundan tashqari, Janubiy Koreya tajribasi ham yuqori samaradorligi bilan ajralib turadi. Ushbu mamlakatda ta'lim tizimi qat'iy intizom, yuqori akademik talablar va raqamli texnologiyalardan keng foydalanishga asoslangan [6]. Mazkur davlatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimining muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'qituvchi malakasi, o'quv dasturlarining moslashuvchanligi va innovatsion metodlarning joriy etilishiga bog'liq.

Boshlang'ich ta'lim tizimini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish masalalari xalqaro ilmiy hamjamiyat tomonidan keng o'rganilgan. So'nggi yillarda ta'lim sifatini baholash, innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etish va o'quvchi kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar soni sezilarli darajada ortdi.

Xalqaro miqyosda ta'lim sifatini baholashda eng muhim manbalardan biri OECD tomonidan amalga oshiriladigan PISA tadqiqotlari hisoblanadi. PISA natijalari asosida "Andreas Schleicher ta'lim tizimining samaradorligi o'quvchilarning bilimlarni amaliyotda qo'llay olish qobiliyati bilan belgilanadi", degan xulosaga keladi [6]. Ushbu yondashuv an'anaviy bilim berishga asoslangan tizimlardan kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'lim modeliga o'tish zaruratini ko'rsatadi.

Shuningdek, UNESCO tomonidan e'lon qilinadigan Global Education Monitoring hisobotlarida ta'lim sifati, tenglik va inklyuzivlik muammolari keng yoritilgan. Mazkur hisobotlarga ko'ra, boshlang'ich ta'lim bosqichida sifatli ta'limni ta'minlash barqaror rivojlanishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Ilg'or ta'lim tizimlarini tahlil qilishda Pasi Sahlberg tomonidan olib borilgan tadqiqotlar alohida ahamiyatga ega. Uning fikricha, Finlandiya ta'lim tizimining muvaffaqiyati standartlashtirilgan testlarning kamligi, o'qituvchilarga yuqori ishonch va individual yondashuv bilan izohlanadi [4]. Bu model o'quvchilarning stressiz muhitda o'rganishini ta'minlab, ularning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi.

Singapur ta'lim tizimi esa Charlene Tan tomonidan chuqur o'rganilgan bo'lib, u "Teach Less, Learn More" konsepsiyasining samaradorligini asoslab beradi. Ushbu yondashuv o'quvchilarga kamroq, lekin chuqurroq bilim berishga qaratilgan bo'lib, mantiqiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, Linda Darling-Hammond o'z tadqiqotlarida ta'lim sifatini oshirishda o'qituvchi malakasining hal qiluvchi rol o'ynashini ta'kidlaydi [7]. Uning fikricha, yuqori malakali o'qituvchilar mavjud bo'lgan ta'lim tizimlari yuqori natijalarga erishadi.

Raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish masalalari ham ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Xususan, Michael Fullan ta'limda transformatsion o'zgarishlar amalga oshirishda raqamli vositalarning muhim o'rin tutishini qayd etadi [8]. Shu bilan birga, John Hattie o'zining meta-tahlillarida ta'lim samaradorligini oshirishda interfaol metodlar va teskari aloqa muhimligini asoslab beradi [9].

Janubiy Koreya ta'lim tizimi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda yuqori natijalarga erishishda intizom, ota-onalar ishtiroki va intensiv o'qitish muhim omillar sifatida ko'rsatilgan [6]. Shu bilan birga, bu modelning ayrim kamchiliklari, xususan o'quvchilarga ortiqcha yuklama berilishi ham qayd etiladi.

Milliy tadqiqotlar doirasida O'zbekiston olimlari tomonidan ham boshlang'ich ta'limni rivojlantirish masalalari o'rganilgan. Jumladan, pedagog olimlar kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish, o'quv dasturlarini modernizatsiya qilish va innovatsion metodlardan foydalanish zarurligini ta'kidlaydilar.

Shuningdek, Jahon banki tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ta'lim tizimini rivojlantirish iqtisodiy o'sish bilan bevosita bog'liqligi asoslab berilgan [10]. Bu esa boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish strategik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki:

- ta'lim tizimining samaradorligi kompetensiyaviy yondashuv bilan belgilanadi;
- o'qituvchi malakasi hal qiluvchi omil hisoblanadi;
- innovatsion va raqamli texnologiyalar muhim ahamiyatga ega;

- xalqaro tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish zarur.

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda aynan boshlang'ich ta'lim bosqichida xalqaro tajribalarni O'zbekiston sharoitida kompleks joriy etish mexanizmlari yetarlicha yoritilmagan. Mazkur maqola aynan ushbu bo'shliqni to'ldirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Tadqiqot jarayonida boshlang'ich ta'lim tizimida yuqori natijalarga erishgan davlatlar – Finlandiya, Singapur va Janubiy Koreya tajribalari qiyosiy tahlil qilindi. Natijalar ushbu mamlakatlarda ta'lim samaradorligini ta'minlovchi asosiy omillarni aniqlash imkonini berdi.

1. Finlandiya tajribasi

Finlandiya boshlang'ich ta'lim tizimi dunyoda eng samarali modellardan biri sifatida e'tirof etiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ushbu modelning muvaffaqiyati quyidagi omillar bilan belgilanadi:

Birinchidan, ta'lim jarayonida standartlashtirilgan testlar minimal darajada qo'llaniladi. Bu o'quvchilarda ortiqcha stressni kamaytirib, bilim olishga bo'lgan ichki motivatsiyani oshiradi. Baholash ko'proq formatif xarakterga ega bo'lib, o'quvchining individual rivojlanish dinamikasini hisobga oladi.

Ikkinchidan, o'qituvchilarning kasbiy mustaqilligi yuqori darajada ta'minlangan. Finlandiyada pedagoglar magistr darajasiga ega bo'lishi talab etiladi va ular o'quv dasturini moslashuvchan tarzda tashkil etish huquqiga ega.

Uchinchidan, individual yondashuv va inklyuziv ta'lim ustuvor hisoblanadi. Har bir o'quvchining qobiliyati va ehtiyojidan kelib chiqib ta'lim beriladi. Maxsus yordamga muhtoj o'quvchilar uchun qo'shimcha pedagogik yordam tizimi yo'lga qo'yilgan.

To'rtinchidan, o'quv muhitining psixologik qulayligi ta'minlangan. Darslar ko'proq interfaol va o'yin elementlari asosida olib boriladi, bu esa o'quvchilarning faol ishtirokini kuchaytiradi.

Natijada, Finlandiya modeli o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va hayotiy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlangan.

2. Singapur modeli

Singapur boshlang'ich ta'lim tizimi o'zining yuqori akademik natijalari bilan ajralib turadi. Tadqiqotlar quyidagi asosiy xususiyatlarni ko'rsatdi:

Birinchidan, ta'lim jarayoni "Teach Less, Learn More" (kamroq o'qit, ko'proq o'rgat) konsepsiyasiga asoslangan. Bu yondashuv o'quvchilarga chuqur bilim berish va ularni mustaqil fikrlashga yo'naltirishni nazarda tutadi.

Ikkinchidan, matematika va tabiiy fanlarga alohida e'tibor qaratiladi. Singapur matematikasi modeli o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda samarali vosita sifatida tan olingan.

Uchinchidan, qat'iy, lekin shaffof baholash tizimi mavjud. Baholash natijalari o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash bilan birga, ta'lim jarayonini takomillashtirish uchun xizmat qiladi.

To'rtinchidan, o'qituvchilarni doimiy kasbiy rivojlantirish tizimi yo'lga qo'yilgan. Pedagoglar muntazam ravishda malaka oshirish kurslarida qatnashadi va innovatsion metodlarni o'zlashtiradi.

Beshinchidan, ta'lim jarayonida AKTdan samarali foydalaniladi. Raqamli platformalar orqali interfaol o'qitish usullari keng qo'llaniladi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, Singapur modeli yuqori akademik natijalar bilan birga o'quvchilarning analitik va muammoli fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

3. Janubiy Koreya tajribasi

Janubiy Koreya ta'lim tizimi yuqori natijadorligi bilan ajralib turadi. Tadqiqot natijalari quyidagi jihatlarni aniqladi:

Birinchidan, yuqori akademik talablar va

intizom ta'lim tizimining asosini tashkil etadi. O'quvchilardan yuqori natijalar kutiladi va bu jarayon tizimli ravishda nazorat qilinadi.

Ikkinchidan, raqamli texnologiyalardan keng foydalanish yo'lga qo'yilgan. Elektron darsliklar, onlayn platformalar va masofaviy ta'lim tizimlari keng joriy etilgan.

Uchinchidan, ota-onalar va jamiyatning ta'lim jarayonidagi faol ishtiroki yuqori darajada. Bu omil o'quvchilarning o'qishga bo'lgan mas'uliyatini oshiradi.

To'rtinchidan, qo'shimcha ta'lim tizimi rivojlangan. O'quvchilar maktabdan tashqari qo'shimcha mashg'ulotlarda ham qatnashadi.

Biroq, tadqiqot natijalari ushbu modelda o'quvchilarga yuklama yuqoriligi va stress darajasi muammosi mavjudligini ham ko'rsatdi.

Shunga qaramay, Janubiy Koreya tajribasi o'quvchilarning yuqori akademik natijalarga erishishini ta'minlovchi samarali model sifatida baholanadi.

4. Umumlashtirilgan natijalar

Qiyosiy tahlil natijasida quyidagi umumiy xulosalar chiqarildi:

- barcha muvaffaqiyatli ta'lim tizimlari o'quvchi markazli yondashuvga asoslanadi;
- o'qituvchi sifati va malakasi hal qiluvchi omil hisoblanadi;
- innovatsion va interfaol metodlar keng qo'llaniladi;
- raqamli texnologiyalar ta'lim samaradorligini oshiradi;
- baholash tizimi rivojlantiruvchi xarakterga ega.

Shu bilan birga, har bir modelning o'ziga xos jihatlari mavjud bo'lib, ularni boshqa mamlakatlarda joriy etishda milliy sharoit, madaniyat va ta'lim tizimi xususiyatlarini hisobga olish zarur.

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich ta'limda yuqori natijalarga erishgan davlatlar – Finlandiya, Singapur va Janubiy Koreya tajribalari o'ziga xos ijtimoiy,

madaniy va iqtisodiy sharoitlar bilan chambarchas bog'liq. Shu bois, ularni boshqa mamlakatlarda, xususan O'zbekiston sharoitida joriy etish masalasida oddiy "ko'chirish" yondashuvi emas, balki moslashtirish strategiyasi ustuvor bo'lishi zarur.

Birinchi muhim jihat shundaki, Finlandiya modelining asosiy ustuni bo'lgan o'qituvchiga ishonch va kasbiy mustaqillik barcha mamlakatlarda bir xil natija bermasligi mumkin. Finlandiyada pedagog kasbi yuqori ijtimoiy maqomga ega bo'lib, o'qituvchilarni tanlash va tayyorlash jarayoni juda qat'iy. O'zbekiston sharoitida esa o'qituvchilar malakasi va ularni tayyorlash sifati hududlar kesimida bir xil emas. Shuning uchun mazkur modelni joriy etishda avvalo pedagog kadrlar sifatini tizimli ravishda oshirish talab etiladi. Aks holda, haddan tashqari erkinlik ta'lim sifatining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Ikkinchi jihat Singapur tajribasidagi yuqori markazlashgan boshqaruv va qat'iy standartlar masalasidir. Singapur modeli qisqa muddatda yuqori natijalarga erishishda samarali bo'lsa-da, ayrim tadqiqotlarda bu tizim o'quvchilarda ijodkorlikning cheklanishi va standartlashuvning ortishi bilan tanqid qilinadi. O'zbekiston sharoitida ushbu modelni joriy etishda muvozanatni saqlash muhim: ya'ni qat'iy standartlar bilan bir qatorda o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishga ham imkon berish zarur.

Uchinchi muhim masala Janubiy Koreya tajribasidagi yuqori akademik bosim va yuklama bilan bog'liq. Ushbu model yuqori natijalar berishiga qaramay, o'quvchilarning psixologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Tadqiqotlar Koreyada o'quvchilar orasida stress darajasi yuqori ekanligini ko'rsatadi. Shu sababli, O'zbekiston ta'lim tizimida natijadorlikni oshirish jarayonida o'quvchilarning psixologik farovonligini saqlash masalasi ustuvor bo'lishi lozim.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, barcha muvaffaqiyatli ta'lim tizimlari uchun umumiy bo'lgan jihat – bu o'qituvchi omilining hal qiluvchi ahamiyatidir. Bu fikr John Hattie va Linda Darling-Hammond tadqiqotlari bilan ham tasdiqlanadi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish uchun eng muhim strategik yo'nalish – pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirishdir.

Bundan tashqari, tadqiqot natijalari raqamli texnologiyalarni joriy etish muhimligini ko'rsatdi. Biroq bu jarayonda ham muayyan muammolar mavjud: texnik infratuzilmaning yetarli emasligi, o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarining pastligi va hududlar o'rtasidagi tafovutlar. Shu sababli raqamlashtirish bosqichma-bosqich va tizimli tarzda amalga oshirilishi lozim.

Muhokama natijalari yana bir muhim jihatni ko'rsatadi: ta'lim tizimidagi islohotlar uzoq muddatli va tizimli yondashuvni talab qiladi. Qisqa muddatli natijalarga erishish uchun joriy etilgan tezkor choralar ko'pincha barqaror natija bermaydi. Shu bois, O'zbekiston ta'lim tizimini rivojlantirishda strategik rejalashtirish va monitoring mexanizmlarini kuchaytirish zarur.

Shuningdek, xalqaro tajribalarni joriy etishda milliy mentalitet va madaniy omillarni hisobga olish muhim. Masalan, ota-onalarning ta'lim jarayonidagi roli, jamiyatning ta'limga bo'lgan munosabati va an'anaviy qadriyatlar ta'lim tizimining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridagi tahlillarga asoslanib, quyidagi konseptual yondashuv taklif etiladi:

1. Finlandiya modelidan – individual yondashuv va o'qituvchiga ishonch

2. Singapur modelidan – tizimlilik va yuqori standartlar

3. Janubiy Koreya tajribasidan – intizom va texnologiyalardan foydalanish.

Biroq ushbu elementlar integratsiyalashgan va moslashtirilgan model asosida joriy etilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'lim tizimini rivojlantirishda xalqaro tajribalar muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, ularni tanqidiy tahlil asosida, milliy sharoitga moslashtirib joriy etish eng samarali yo'l hisoblanadi. Mazkur yondashuv ta'lim sifatini oshirish bilan birga, barqaror va uzoq muddatli natijalarga erishish imkonini beradi.

Mazkur tadqiqot natijalari asosida boshlang'ich ta'lim tizimini rivojlantirish uchun integratsiyalashgan model taklif etiladi. Ushbu model Finlandiya, Singapur va Janubiy Koreya tajribalarining eng samarali elementlarini O'zbekiston sharoitiga moslashtirishga asoslanadi.

Taklif etilayotgan model quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. O'quvchi markazli yondashuv – har bir bolaning individual rivojlanish trayektoriyasini qo'llab-quvvatlash;

2. Kompetensiyaviy ta'lim – nazariy bilimdan ko'ra amaliy ko'nikmalarni ustuvor qilish;

3. Moslashuvchan boshqaruv – markazlashgan standartlar va maktab darajasidagi erkinlik o'rtasida muvozanat;

4. Inklyuzivlik va tenglik – barcha o'quvchilar uchun sifatli ta'lim imkoniyati;

5. Raqamli transformatsiya – zamonaviy texnologiyalar asosida ta'limni tashkil etish.

Modelning tarkibiy komponentlari

1. Pedagog kadrlar transformatsiyasi (Finlandiya modeli asosida)

- O'qituvchilarni tanlash tizimini kuchaytirish

- Magistr darajasiga bosqichma-bosqich o'tish

- Pedagoglarga metodik mustaqillik berish

- Doimiy professional rivojlanish tizimini joriy etish.

Buning natijasida ta'lim sifati o'qituvchi kompetensiyasi orqali oshadi.

2. O'quv dasturlarini optimallashtirish (Singapur modeli asosida)

- "Kamroq o'qit, ko'proq o'rgat" tamoyiliga o'tish

- Fanlararo integratsiyani kuchaytirish

- matematika va mantiqiy fikrlashga alohida e'tibor qaratish

- muammoli ta'limni joriy etish.

Natijada o'quvchilarda tahliliy va tanqidiy fikrlash rivojlanadi.

3. Baholash tizimini isloh qilish (Finlandiya + Singapur)

- Formativ baholashni joriy etish

- yakuniy testlar ulushini kamaytirish

- individual rivojlanish portfolio tizimini yaratish.

Natijada stress kamayadi, o'quv motivatsiyasi oshadi.

4. Raqamli ta'lim muhitini rivojlantirish (Janubiy Koreya modeli asosida)

- raqamli platformalar va LMS tizimlarini joriy etish;

- elektron darsliklar va interfaol resurslar yaratish;

- o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini oshirish.

Natijada ta'lim samaradorligi va qamrovi ortadi.

5. Ota-ona va jamiyat bilan hamkorlik (Koreya modeli asosida)

- ota-onalarni ta'lim jarayoniga jalb qilish;

- maktab-oila-jamiyat uchligini mustahkamlash;

- ijtimoiy hamkorlik dasturlarini kengaytirish.

Natijada o'quvchilarning o'qishga bo'lgan mas'uliyati oshadi.

Amalga oshirish bosqichlari

1-bosqich (1-2 yil): Tayyorgarlik.

Bunba tajriba-sinov maktablarini tanlash, o'qituvchilarni qayta tayyorlash, yangi o'quv

dasturlarini sinovdan o'tkazish ishlari amalga oshiriladi.

2-bosqich (3-5 yil): Bosqichma-bosqich joriy etish.

Bunda muvaffaqiyatli tajribalarni hududlarga kengaytirish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish, baholash tizimini yangilash ishlari amalga oshiriladi.

3-bosqich (5+ yil): To'liq integratsiya.

Bu bosqichda milliy darajada joriy etish, xalqaro baholash tizimlarida natijalarni yaxshilash, tizimni doimiy takomillashtirish amalga oshiriladi.

Taklif etilayotgan modelni amalga oshirishda pedagoglar qarshiligi yoki moslashish qiyinchiliklari, moliyaviy resurslar yetishmasligi, hududlar o'rtasidagi infratuzilma tafovutlari, raqamli tengsizlik kabi muammolar yuzaga kelishi mumkin.

Muammoning esa modelni bosqichma-bosqich joriy etish, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, monitoring va baholash tizimini joriy qilish orqali yechiladi.

Mazkur modelni joriy etish natijasida boshlang'ich ta'lim sifati sezilarli darajada oshadi, o'quvchilarning xalqaro baholash natijalari yaxshilanadi, o'qituvchilar kasbiy darajasi yuqorilaydi, ta'lim tizimi zamonaviy va raqobatbardosh bo'ladi.

Taklif etilayotgan model xalqaro tajribalarni mexanik ko'chirish emas, balki ularni ilmiy asosda adaptatsiya qilishga qaratilgan. Aynan shu yondashuv O'zbekiston boshlang'ich ta'lim tizimini barqaror rivojlantirish va global ta'lim makonida munosib o'rin egallash imkonini beradi.

Mazkur tadqiqot natijalari boshlang'ich ta'lim tizimini rivojlantirishda ilg'or xalqaro tajribalar muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilishini ko'rsatdi. Xususan, Finlandiya modelida o'quvchi markazli yondashuv va o'qituvchi mustaqilligi, Singapur tajribasida tizimlilik va yuqori akademik standartlar,

Janubiy Koreya modelida esa raqamli texnologiyalar va intizom ustuvor ahamiyat kasb etishi aniqlandi.

Shu bilan birga, tadqiqot ushbu tajribalarni bevosita ko'chirish samarali emasligini, balki ularni milliy ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va institutsional sharoitlarga moslashtirish zarurligini asoslab berdi.

O'zbekiston sharoitida boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishning asosiy omillari sifatida quyidagilar belgilandi:

1. Pedagog kadrlar sifatini oshirish
2. Kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish
3. Baholash tizimini modernizatsiya qilish
4. Raqamli ta'lim infratuzilmasini rivojlantirish.

Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan integratsiyalashgan model ta'lim tizimini kompleks modernizatsiya qilish orqali barqaror va yuqori natijalarga erishish imkonini beradi.

Tavsiyalar

Quyidagi tavsiyalar davlat siyosati darajasida boshlang'ich ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ularni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda boshqa tegishli tashkilotlar asosiy ijrochi sifatida ishtirok etishi lozim.

1. Kadrlar masalasi.

- o'qituvchi sifatini ta'lim tizimining asosiy drayveriga aylantirish;
- pedagogik oliy ta'limda qabul mezonlarini kuchaytirish;
- boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun magistratura bosqichini bosqichma-bosqich joriy etish;
- majburiy uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimini yo'lga qo'yish;
- o'qituvchilarga metodik va akademik mustaqillik berish.

2. O'quv dasturlarini isloh qilish.

- chuqur bilim va kompetensiyalarni shakllantirish

- "kamroq o'qit, ko'proq o'rgat" tamoyiliga asoslangan o'quv dasturlarini ishlab chiqish
- fanlararo integratsiyani kuchaytirish
- muammoli ta'lim va loyiha asosida o'qitishni keng joriy etish
- STEM va mantiqiy fikrlashga ustuvor e'tibor berish.

3. Baholash tizimi

- o'quvchini rivojlantiruvchi baholash tizimini shakllantirish
- formativ baholashni majburiy komponent sifatida joriy etish
- standart testlar ulushini bosqichma-bosqich kamaytirish
- o'quvchilar uchun individual rivojlanish portfellarini joriy qilish
- xalqaro baholash tizimlari (PISA, TIMSS, PIRLS) bilan integratsiyani kuchaytirish.

4. Raqamli ta'lim

- ta'limni raqamlashtirish orqali sifat va qamrovni oshirish
- milliy ta'lim platformalarini (LMS) rivojlantirish
- barcha maktablarni yuqori tezlikdagi internet bilan ta'minlash
- elektron darsliklar va interfaol kontent yaratish
- o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini oshirish.

5. Boshqaruv tizimi

- samarali va moslashuvchan boshqaruv modelini joriy etish
- markazlashgan standartlar bilan maktab darajasidagi avtonomiya o'rtasida muvozanat yaratish
- maktablar faoliyatini baholashning yangi indikatorlarini ishlab chiqish
- ta'lim sifatini monitoring qilishning mustaqil tizimini yaratish.

6. Inklyuziv ta'lim

- barcha bolalar uchun teng ta'lim imkoniyatlarini ta'minlash

- inklyuziv ta'lim dasturlarini kengaytirish;
- ijtimoiy himoyaga muhtoj o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash;
- hududlar o'rtasidagi ta'lim sifati tafovutlarini kamaytirish.

7. Amalga oshirish mexanizmi

- tayanch maktablarda yangi modelni sinovdan o'tkazish
- o'qituvchilarni qayta tayyorlash
- ilg'or tajribalarni kengaytirish
- raqamli infratuzilmani mustahkamlash

- tizimni to'liq joriy etish
- xalqaro reytinglarda natijalarni yaxshilash.

Taklif etilgan tavsiyalar tizimli ravishda amalga oshirilgan taqdirda, O'zbekiston boshlang'ich ta'lim tizimi sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tariladi. Eng muhim jihat shundaki, ushbu strategiya xalqaro tajribalarni tanqidiy tahlil asosida moslashtirishga qaratilgan bo'lib, u uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. – 2019. – 29-aprel.
2. OECD. Education at a Glance 2023: OECD Indicators. – Paris : OECD Publishing, 2023. – 490 p.
3. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2022. – Paris : UNESCO Publishing, 2022. – 412 p.
4. Sahlberg P. Finnish Lessons 2.0: What Can the World Learn from Educational Change in Finland? – New York : Teachers College Press, 2015. – 240 p.
5. Tan C. Singapore's Education System: Developing the Next Generation. – London : Routledge, 2018. – 198 p.
6. Schleicher A. World Class: How to Build a 21st-Century School System. – Paris : OECD Publishing, 2020. – 297 p.
7. Darling-Hammond L. Empowered Educators: How High-Performing Systems Shape Teaching Quality Around the World. – San Francisco : Jossey-Bass, 2017. – 304 p.
8. Fullan M. Stratosphere: Integrating Technology, Pedagogy, and Change Knowledge. – Toronto : Pearson, 2013. – 120 p.
9. Hattie J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. – London : Routledge, 2009. – 378 p.
10. World Bank. World Development Report 2020: Learning to Realize Education's Promise. – Washington DC : World Bank Publications, 2020. – 350 p.
11. Xodjayev B. Ta'lim menejmenti va sifat monitoringi. – Toshkent : Yangi asr avlodi, 2022. – 208 b.

INKLYUZIV TA'LIMDA PEDAGOGIK-DIAGNOSTIK TAHLIL: XALQARO TAJRIBA ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILAR KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH

*Abduvaxobova Shaxnoza Mamirjon qizi,
Andijon davlat universiteti doktoranti
abduvaxobovashaxnoza1994@gmail.com
tel: +998907670910*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada inklyuziv ta'lim sharoitida pedagogik-diaagnostik tahlilning mazmuni, vazifalari va bo'lajak o'qituvchilar kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishdagi o'rni yoritiladi. Tadqiqotda o'quvchilarning individual ehtiyojlari, bilish imkoniyatlari, ijtimoiy-emotsional holati va rivojlanish dinamikasini aniqlashda diagnostik yondashuvning ahamiyati asoslab beriladi. Shuningdek, Finlyandiya, Kanada va Yaponiya tajribalari misolida inklyuziv ta'limda baholash, monitoring, individual rejalashtirish hamda ilmiy-diaagnostik metodlardan foydalanishning samarali jihatlari tahlil qilinadi. Maqolada pedagogik diagnostika faqat o'quvchi bilimini baholash vositasi emas, balki ta'lim jarayonini moslashtirish, qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish va o'qituvchi faoliyatini takomillashtirish mexanizmi sifatida talqin etiladi. Xulosa sifatida bo'lajak o'qituvchilarda diagnostik kuzatuv, individual yondashuv va pedagogik moslashtirish ko'nikmalarini shakllantirish inklyuziv ta'lim sifatini oshirishning muhim sharti ekanligi ta'kidlanadi.*

Kalit so'zlar: *Inklyuziv ta'lim, pedagogik-diaagnostik tahlil, bo'lajak o'qituvchilar, kasbiy kompetensiya, individual yondashuv, diagnostik baholash, xalqaro tajriba.*

**Педагогико-диагностический анализ в условиях инклюзивного образования:
формирование профессиональной компетентности будущих учителей на основе международного опыта**

Абдувахобова Шахноза Мамиржон кизи,
докторант Андижанского государственного университета

Аннотация: *В данной статье рассматриваются содержание, задачи и роль педагогико-диагностического анализа в развитии профессиональной компетентности будущих учителей в условиях инклюзивного образования. В исследовании обосновывается значимость диагностического подхода при выявлении индивидуальных потребностей учащихся, их познавательных возможностей, социально-эмоционального состояния и динамики развития. Кроме того, на примере Финляндии, Канады и Японии анализируются эффективные аспекты оценивания, мониторинга, индивидуального планирования и применения научно-диагностических методов в инклюзивном образовании. Педагогическая диагностика рассматривается не только как средство оценки учебных достижений учащихся, но и как механизм адаптации образовательного процесса, создания поддерживающей образовательной среды и совершенствования профессиональной деятельности учителя. В заключение подчёркивается, что формирование у будущих учителей навыков диагностического наблюдения, индивидуального подхода и педагогической адаптации является важным условием повышения качества инклюзивного образования.*

Ключевые слова: *Инклюзивное образование, педагогико-диагностический анализ, будущие учителя, профессиональная компетентность, индивидуальный подход, диагностическое оценивание, международный опыт.*

Pedagogical and diagnostic analysis in inclusive education: developing future teachers' professional competence based on international experience

Abduvakhobova Shakhnoza Mamirjon qizi,
Doctoral Student, Andijan State University

Abstract: *This article explores the content, functions, and role of pedagogical-diagnostic analysis in developing the professional competence of future teachers within the context of inclusive education. The study substantiates the importance of a diagnostic approach in identifying students' individual*

needs, cognitive abilities, socio-emotional state, and development dynamics. In addition, the article analyzes effective aspects of assessment, monitoring, individual planning, and the application of scientific-diagnostic methods in inclusive education through the examples of Finland, Canada, and Japan. Pedagogical diagnostics is interpreted not only as a tool for assessing students' academic achievement, but also as a mechanism for adapting the educational process, creating a supportive learning environment, and improving teachers' professional skills. The article states that developing future teachers' skills in diagnostic observation, individual approach, and pedagogical adaptation is an essential condition for improving the quality of inclusive education.

Keywords: *Inclusive education, pedagogical-diagnostic analysis, future teachers, professional competence, individual approach, diagnostic assessment, international experience.*

S o'nggi yillarda inklyuziv ta'lim masalasi nafaqat pedagogika sohasi, balki ijtimoiy taraqqiyot va inson huquqlarini ta'minlash nuqtayi nazaridan ham dolzarb yo'nalishlardan biriga aylandi. Zamonaviy ta'lim tizimi har bir o'quvchining imkoniyati, ehtiyoji, psixologik xususiyati va rivojlanish sur'atini hisobga olgan holda tashkil etilishi zarurligini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalarning umumiy ta'lim muhitida sifatli bilim olishi, ularning jamiyat hayotida faol ishtirok etishi va shaxsiy salohiyatini namoyon qilishi inklyuziv yondashuvning asosiy maqsadlaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasida ham inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha muhim huquqiy va tashkiliy ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori bilan tasdiqlangan "2020–2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi"da alohida ta'lim ehtiyojlari bo'l-

gan bolalar uchun teng ta'lim imkoniyatlarini yaratish, ularni umumiy ta'lim jarayoniga jalb etish hamda ta'lim muassasalarida moslashtirilgan pedagogik muhitni shakllantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [1]. Ushbu hujjat O'zbekistonda inklyuziv ta'limni bosqichma-bosqich joriy etish va uni milliy ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylantirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Inklyuziv ta'limning samarali tashkil etilishi ko'p jihatdan pedagogik-diagnostik tahlilning to'g'ri yo'lga qo'yilishiga bog'liq. Chunki diagnostik tahlil o'quvchining faqat o'zlashtirish ko'rsatkichlarini aniqlash bilan cheklanmaydi, balki uning bilish faoliyati, ijtimoiy moslashuvi, emotsional holati, individual ehtiyojlari va ta'lim jarayonidagi rivojlanish dinamikasini ham kompleks baholash imkonini beradi. Shu jihatdan pedagogik diagnostika inklyuziv sinfda o'qituvchi uchun muhim kasbiy vosita hisoblanadi. U orqali o'qituvchi har bir o'quvchiga mos yondashuvni tanlaydi, ta'lim mazmunini

moslashtiradi va zarur pedagogik qo‘llab-quvvatlash shakllarini belgilaydi.

F.U. Qodirova va hammualliflar tomonidan tayyorlangan “Inklyuziv ta’lim: nazariya va metodika” darsligida inklyuziv ta’lim jarayonida o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, ta’lim muhitini moslashtirish va pedagogik yondashuvlarni bolaning ehtiyojiga qarab tashkil etish muhim metodik talab sifatida izohlanadi [2]. Mazkur fikrlar shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta’limda o‘qituvchining vazifasi faqat bilim berishdan iborat emas, balki o‘quvchining imkoniyatlarini aniqlash, uning rivojlanishini kuzatish va ta’lim jarayonida to‘laqonli ishtirok etishini ta’minlashdan ham iboratdir.

Shu nuqtayi nazardan, bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik-diaagnostik tahlil ko‘nikmalarini shakllantirish bugungi kunda alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Inklyuziv sinfda faoliyat yuritadigan pedagog o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlay olishi, ularning rivojlanish holatini kuzatishi, ta’lim jarayonini moslashtirishi, ota-onalar va mutaxassislar bilan samarali hamkorlik qilishi zarur. Demak, pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida diaagnostik yondashuvlarni o‘rgatish, xalqaro tajribalarni milliy amaliyot bilan uyg‘unlashtirish va ilmiy asoslangan baholash metodlaridan foydalanish inklyuziv ta’lim sifatini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Mazkur maqolada inklyuziv ta’lim sharoitida pedagogik-diaagnostik tahlilning nazariy va amaliy ahamiyati, xalqaro tajribadagi o‘rni hamda bo‘lajak o‘qituvchilar kompetensiyasini shakllantirishdagi imkoniyatlari tahlil qilinadi. UNESCO ma’lumotlariga ko‘ra, inklyuziv ta’lim barcha o‘quvchilar uchun teng imkoniyat yaratishga qaratilgan bo‘lib, ta’lim jarayonida mavjud to‘siqlarni bartaraf etishni nazarda tutadi [3]. Pedagogik-diaagnostik tahlil aynan ushbu vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiluvchi asosiy mexanizmlardan biri hisoblanadi. An’anaviy baholash tizimlaridan farqli ravishda,

diaagnostik yondashuv o‘quvchining faqat natijasini emas, balki uning rivojlanish jarayonini ham tahlil qilishga yo‘naltirilgan. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta’lim samaradorligi ko‘p jihatdan pedagogik diaagnostika tizimining qay darajada to‘g‘ri tashkil etilganiga bog‘liq. Xususan, Finlyandiya, Kanada va Yaponiya kabi mamlakatlarda diaagnostik baholash o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlash va ularga mos ta’lim muhitini yaratishda muhim vosita sifatida qo‘llaniladi.

Finlyandiya o‘zining namunali ta’lim tizimi bilan mashhur bo‘lib, u inklyuzivlik va tenglikni ustuvor deb biladi. Finlyandiyaning inklyuziv ta’lim modelining asosiy xususiyati – bu oddiy sinflarda maxsus ta’lim o‘qituvchilarining mavjudligi. Bu o‘qituvchilar oddiy o‘qituvchilar bilan hamkorlikda bunga muhtoj bo‘lgan o‘quvchilarga qo‘shimcha yordam ko‘rsatish uchun ishlaydi. Ushbu birgalikda o‘qitish modeli nafaqat o‘quvchilarning noyob ehtiyojlarini erta aniqlashga yordam beradi, balki ularning tengdoshlaridan ajratilmasdan zarur yordam olishlarini ham ta’minlaydi [4]. Finlyandiyada nogiron o‘quvchilarning 2 foizdan kamrog‘i alohida maktablarda ta’lim oladi, aksariyatlari umumiy sinflarda ta’lim oladi [5]. Finlyandiya ta’lim tizimi inklyuzivlik va individual yondashuvga asoslangan. Bu yerda pedagogik diaagnostika **erta aniqlash va doimiy monitoring** tamoyiliga asoslanadi.

Asosiy xususiyatlar:

- o‘quvchilarni baholash **sinf ichida (school-based assessment)** amalga oshiriladi;
- diaagnostika individual ehtiyojlarga asoslanadi, tashxis (diaagnostika)ga emas [6];
- maxsus pedagoglar oddiy o‘qituvchilar bilan birga ishlaydi (co-teaching).

Kanada o‘z viloyatlari va hududlaridagi turli o‘quvchilar ehtiyojlarini qamrab oluvchi inklyuziv ta’limni qat’iy qo‘llab-quvvatlovchi mamlakatlardan biridir. Kanada ta’lim tizimi inklyuziv ta’lim muhitini yaratishda jamoatchilik ishtiroki

va hamkorlikning muhimligini tan oladi. Kanada pedagogik diagnostika **individual ta'lim rejasi (IEP)** orqali amalga oshiriladi.

Asosiy xususiyatlar:

- har bir o'quvchi uchun **Individualized Education Plan (IEP)** ishlab chiqiladi;
- diagnostika **o'qituvchi + ota-ona + mutaxassislar hamkorligida** olib boriladi;
- baholash o'quvchining imkoniyati va ehtiyojiga asoslanadi.

Ko'pgina mamlakatlar inklyuziv ta'limga yo'naltirilgan yangi ta'lim strategiyalarini qabul qilishmoqda va Yaponiya ham bundan mustasno emas. Yaponiya kontekstida amalga oshirilgan tadqiqotda Rasch modeli asosida o'tkazilgan tahlil TEIP (Teacher Efficacy for Inclusive Practices) shkalasining psixometrik jihatdan ishonchli va bir o'lchamli ekanligini ko'rsatdi, bu esa uni diagnostik baholash vositasi sifatida qo'llash imkonini beradi. Mazkur model yordamida yapon o'qituvchilarining inklyuziv amaliyotlarga oid o'ziga bo'lgan ishonch darajasi individual tarzda, logit shkalasida aniqlangan. Shuningdek, itemlarning qiyinlik darajasini aniqlash orqali diagnostik jarayonning aniqligi va obyektivligi ta'minlangan. Natijada, Rasch tahlili Yaponiyada inklyuziv ta'lim sharoitida pedagogik-diagnostik baholashni ilmiy asoslashda samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi [7].

ta'minlashda muhim metodik vosita hisoblanadi. Xalqaro tajriba asosida aniqlanishicha, diagnostik yondashuv faqat baholash funksiyasini emas, balki ta'lim jarayonini rejalashtirish, moslashtirish va takomillashtirishning muhim mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

Finlyandiya tajribasida pedagogik diagnostika erta aniqlash va maktab ichida uzluksiz monitoringga asoslangan bo'lib, o'quvchilarni umumiy ta'lim muhitida qo'llab-quvvatlash ustuvor hisoblanadi. Kanada modelida esa individual ta'lim rejalari (IEP) orqali har bir o'quvchining ehtiyojlari tizimli ravishda aniqlanadi va ta'lim jarayoni shunga moslashtiriladi. Yaponiya tajribasida esa Rasch modeli asosidagi diagnostik tahlil o'qituvchilarning inklyuziv kompetensiyasini baholashda yuqori aniqlik va obyektivlikni ta'minlaydi.

Mazkur yondashuvlar tahlili shuni ko'rsatadiki, samarali inklyuziv ta'lim tizimi quyidagi omillarga tayanadi:

- diagnostikaning uzluksizligi va tizimliliigi;
- individual yondashuvning ustuvorligi;
- o'qituvchining diagnostik kompetensiyasi;
- ilmiy asoslangan baholash metodlaridan foydalanish.

Shu nuqtai nazardan, bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik-diagnostik ko'nikmalarni shakllantirish ta'lim sifatini oshirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Ularni tayyorlash

1-jadval.

Inklyuziv ta'limda pedagogik-diagnostik yondashuvlar (qiyosiy tahlil)

Davlat	Diagnostika modeli	Asosiy vosita	Yondashuv turi	Kuchli tomoni
Finlyandiya	School-based assessment	Kuzatuv, monitoring	Individual yondashuv	Erta aniqlash va inklyuzivlik
Kanada	IEP (Individual Plan)	Kompleks baholash	Individual rejalashtirish	Har bir o'quvchiga moslashuv
Yaponiya	Rasch modeli (TEIP)	Psixometrik tahlil	Ilmiy-diagnostik yondashuv	Aniqlik va obyektivlik

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'lim sharoitida pedagogik-diagnostik tahlil o'quvchilarning individual rivojlanishini

jarayonida nazariya va amaliyotni integratsiya qilish, xalqaro tajribani o'rganish hamda zamonaviy diagnostik metodlarni joriy etish

muhim ahamiyat kasb etadi. Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta'limda pedagogik-diaagnostik tahlil o'quvchining individual rivojlanish holatini aniqlash, unga mos ta'lim strategiyasini tanlash va qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratishda muhim ahamiyatga ega. Bo'lajak o'qituvchilarda diaagnostik kuzatuv, ehtiyojni aniqlash va ta'limni moslashtirish ko'nikmala-

rini shakllantirish inklyuziv sinfda ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ilmiy manbalarda ham pedagogik diaagnostika inklyuziv ta'lim sharoitida o'quvchining o'qishdagi qiyinchiliklarini erta aniqlash va shaxsga yo'naltirilgan strategiyalarni ishlab chiqishga yordam beruvchi muhim mexanizm sifatida talqin etiladi [8].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4860-son Qarori. "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 13.10.2020. <https://www.lex.uz/docs/-5044711>
2. Qodirova F.U. va boshqalar. *Inklyuziv ta'lim: nazariya va metodika*. Darslik. <https://devedu.uz/wp-content/uploads/2024/05/4-Inklyuziv-talim-nazariya-va-metodika.pdf>
3. <https://www.unesco.org/en/inclusion-education>
4. Examining Inclusive Education Practices Around the World – KNOW-THE-ADA
5. Jarvinen, R. (2007). Current trends in inclusive education in Finland. Retrieved from http://www.ibe.unesco.org/fileadmin/user_upload/Inclusive_Education/Reports/sinaia_07/finland_inclusion_07.pdf
6. <https://www.rti.org/rti-press-publication/assessment-service-place-transitioning-assessment-centers-school-based-identification-systems>
7. (Rasch Analysis of the Japanese Version of Teacher Efficacy for Inclusive Practices (TEIP) Scale: Scale Unidimensionality / G. H. Alnahdi, A. Yada // *Frontiers in Psychology*. – 2020. – Vol. 11, art. 1725. – DOI: 10.3389/fpsyg.2020.01725.
8. Rayxona Norqobilova "Inkluziv ta'limda pedagogik diaagnostika: maxsus ehtiyojli o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash." *Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali*, 2026. <https://maktabgacha-va-maktab-talimi-jurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/4510>

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutining
ilmiy-nazariy va o'quv-uslubiy jurnali

Научно-теоретический и учебно-методический журнал
Национального института педагогического мастерства имени А.Авлони

Scientific-theoretical and educational-methodological journal
of the National Institute of Pedagogical Skills named after A.Avloni

МАКТАВ ТА'ЛИМИ:
MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR
ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ:
ПРОБЛЕМЫ, ИССЛЕДОВАНИЯ, РЕШЕНИЯ
SCHOOL EDUCATION:
PROBLEMS, RESEARCH, SOLUTIONS

2026-yil,
5-son

Tahririyat manzili:

Toshkent shahar, Olmazor tumani,
Ziyo ko'chasi, 6-uy. Pochta indeksi – 100095.

Jurnal 2021-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar Agentligining
2024-yil 11-sentyabrdagi 392864-raqamli guvohnoma berilgan.

Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 30-oktyabrdagi 363/5-son qaroriga asosan
“Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan ilmiy nashrlar” ro'yxatiga kiritilgan

Bichimi 60x84 ¹/₈. Nashr bosma tabog'i 15,5.
Adadi: 100 nusxa. Chop etishga ruxsat etildi 08.06.2026.
Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat
milliy instituti bosmaxonasi
Bahosi kelishilgan narxda.

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e'lon qilingan maqolalardan
olingan matnlar “Maktab ta'limi: muammolar, izlanishlar, yechimlar” ilmiy-nazariy
va o'quv-uslubiy jurnalidan olindi, deb ko'rsatilishi shart.

© “Maktab ta'limi: muammolar, izlanishlar, yechimlar” jurnali, 2026.

